ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ

ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ АХБОРОТНОМАСИ

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

2023-2/3
Вестник Хорезмской академии Маъмуна
Издается с 2006 года

Хива-2023

Бош муҳаррир:
Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.
Бош муҳаррир ўринбосари:
Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.

Таҳрир ҳайати:

Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.	*Пазилов Абдуваеит, б.ф.д., проф.*
Абдуллаев Баҳром Исмоилович, ф-м.ф.д.	*Рахимов Рахим Атажанович, т.ф.д., проф.*
Абдуллаев Равшан Бабажонович, тиб.ф.д.,проф.	*Рахимов Матназар Шомуротович, б.ф.д., проф.*
Абдуҳалимов Баҳром Абдурахимович, т.ф.д.,проф.	*Рашидов Негмурод Элмуродович, б.ф.н., доц.*
Агзамова Гулчехра Азизовна, т.ф.д.,проф.	*Рўзибоев Рашид Юсупович, тиб.ф.д., проф.*
Аимбетов Нагмет Каллиевич, и.ф.д., акад.	*Рўзметов Бахтияр, и.ф.д., проф.*
Аметов Якуб Идрисович, д.б.н., проф.	*Садуллаев Азимбой, ф-м.ф.д., акад.*
Бабаджанов Хушнут, ф.ф.н., проф.	*Салаев Санъатбек Комилович, и.ф.д., проф.*
Бекчанов Даврон Жуманазарович, к.ф.д.	*Сапарбаева Гуландам Машариповна, ф.ф.ф.д.*
Буриев Хасан Чутбаевич, б.ф.д., проф.	*Сапаров Каландар Абдуллаевич, б.ф.д., проф.*
Ганджаева Лола Атаназаровна, б.ф.д., к.и.х.	*Сирожов Ойбек Очилович, с.ф.д., проф.*
Давлетов Санжар Ражабович, тар.ф.д.	*Сотипов Гойипназар, қ/х.ф.д., проф.*
Дурдиева Гавҳар Салаевна, арх.ф.д.	*Тожибаев Комилжон Шаробитдинович, б.ф.д., академик*
Дўсчанов Бахтиёр, тиб.ф.д., проф.	*Холлиев Аскар Эргашевич, б.ф.д., проф.*
Ибрагимов Бахтиёр Тўлаганович, к.ф.д., акад.	*Холматов Бахтиёр Рустамович, б.ф.д.*
Жугинисов Тангирберген Исаевич, б.ф.н., доц.	*Чўпонов Отаназар Отожонович, ф.ф.д., доц.*
Жуманиёзов Зохид Отабоевич, ф.ф.н., доц.	*Шакарбоев Эркин Бердикулович, б.ф.д., проф.*
Жуманов Мурат Арепбаевич, д.б.н., проф.	*Эрматова Жамила Исмаиловна, ф.ф.н., доц.*
Кадирова Шахноза Абдухалиловна, к.ф.д., проф.	*Эшчанов Рузумбой Абдуллаевич, б.ф.д., доц.*
Каримов Улуғбек Темирбаевич, DSc	*Ўразбоев Ғайрат Ўразалиевич, ф-м.ф.д.*
Қутлиев Учқун Отобоевич, ф-м.ф.д.	*Ўрозбоев Абдулла Дурдиевич, ф.ф.д.*
Ламерс Жон, қ/х.ф.д., проф.	*Ҳажиева Мақсуда Султоновна, фал.ф.д.*
Майкл С. Энжел, б.ф.д., проф.	*Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.*
Махмудов Рауфжон Баходирович, ф.ф.д., к.и.х.	*Худайберганова Дурдона Сидиқовна, ф.ф.д.*
Мирзаев Сирожиддин Зайниевич, ф-м.ф.д., проф.	
Мирзаева Гулнара Саидарифовна, б.ф.д.	

Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№2/3 (98), Хоразм Маъмун академияси, 2023 й. – 143 б. – Босма нашрнинг электрон варианти - http://mamun.uz/uz/page/56

ISSN 2091-573 X
Муассис: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси минтақавий бўлими – Хоразм Маъмун академияси

© Хоразм Маъмун академияси ноширлик бўлими, 2023

МУНДАРИЖА

ТАРИХ ФАНЛАРИ

Abdujabborov K.N. Qoyatosh suratlarining O'zbekiston hududida joylashishi va ahamiyati 5
Axrorov I.D. Hoji Muinning jadid maktablariga oid faoliyati xususida 8
Egamberdiyev A.R. O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy idorasi tuzilishi. Idoraning nizomi va muassislari 10
Matqurbanov F.R., Ismailov U.S., Rahimov O.O. Xorazm vohasi qadimgi tosh davrida odamzotning migratsiyasi natijasida kechgan etnik munosabatlarni qayta tiklash masalalariga doir ba'zi mulohazalar 13
Salimov S.S. Oliy Kengashga ovoz berish jarayoni tartibi 16
Xo'jayeva L.Sh., Ro'ziyeva T.Sh. Navoiy viloyati madaniy-tarixiy yodgorliklar o'rganilish tarixi 19
Абдухолиқов Ф. Ўрта аср миниатюрасида Умаршайх Мирзо тавсири 22
Аминова А.М. Особенности приватизационных процессов в Узбекистане в переходных период 24
Ботирова Н.Х. Наблюдения за племенами саков и массагетов 29
Ботирова Н.Х. Роль кочевых племен в военном развитии 32
Гафури К.О. Экономическое положение Бухарского Эмирата накануне нападения войск Красной Армии 37
Исмаилов Б. Зарафшон водийсини географик жойлашиш хусусиятлари ва палеогеографияси масалаларига доир баъзи бир мулоҳазалар 40
Латипов М. Исҳоқхон Тўра Ибратнинг илмий-ижодий мероси ва унинг тадқиқи масаласи 43
Матчанова Б.И. Жамиятда миллий мафкурани шакллантириш тарихий-ғоявий зарурат сифатида 48
Машарипов Ш.Р. Шўролар ҳокимиятининг қатағон сиёсати қурбонлари 51
Олимов Н.А. Исхоқхон Ибратнинг "Тарихи Фарғона" асаридаги этнографик маълумотлар 55
Раджапов Э. Хоразм Халқ Совет Республикасида миллий қўшин тузилиши тарихидан 58
Рахмонқулова З. XIX аср ўрталарида Қўқон ва Хива хонликларининг Усмонийлар давлати билан дипломатик муносабатлар тарихидан 64
Рўзибоев Д.А. Қашқадарё вилоятида чорвачилик соҳасида давлат режаларининг бажарилиши 68
Темиров Ф.У. Садриддин Айний асарларида «Колесов воқеаси» ва унинг фожиали оқибатлари хусусида 70
Холхужаева Ю. Самарқанд вилояти аҳолисининг миллий таркиби: тарихий-манбавий таҳлил 74
Худайбергенов Ҳ.С. Мустақиллик йилларида Хоразм зангори кулолчилик анъаналарининг қайта тикланиши ва унинг ҳудудий хусусиятлари 79

ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

Abdanbekova N.R. Ingliz tilini o`qitishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish 82
Abulkhayirov D.F. The program to organize experimental tests on the application of a content-based approach through the English language 84
Akhmedova G.Ya. Strategies and techniques for fostering oral communication skills of students of economic universities 89
Allaniyazov B.Q. Musiqa fanini o'qitishda pedagog mahorati 92
Baxriyeva N.Z. Ingliz tilini o'qitishda rolli o'yinlarning o'ziga xos xususiyatlari 97
Boltayeva D. Nofilologik yo'nalishlarda talabalarning ingliz tilidagi kasbga yo'naltirilgan leksik kompetensiyasini shakillantirish 99
Ismailova R.S., Sagdullayeva F.F., Khabibrakhmonova D.I. The role of interactive games in teaching a foreign langauge 101
Jurayeva M.R. Madaniyatlararo muloqotdagi ramzning ifodalanishi 104
Khasanova Z.M. Development of foreign-language professional communicative competence of students 106
Kenjebayeva G.M. Zamonaviy metodikaning ta'lim tizimidagi ahamiyati 109
Musaeva N.Q. Bolalar kvazidialogik nutqining yuzaga chiqish omillari 112
Nurmamatova F.I. Effectiveness of technology in CLT method 114
Rakhmanova N.T. Ways to improve the effectiveness of teaching a foreign language in a non-linguistic university 117
Qo'ziev S.I. Atamalarni o'qitishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llari 119

Umarova F.N. Development of the communicative concept of the english language in the credit module system in students studying in the technical direction 123
Авазова Ф.Б. Важность использования инновационных методов в обучении индонезийскому языку 125
Курбанова Дж.Х. Эффективность использование игр на уроках русского языка для студентов экономических вузов 128
Нуржанова З.Х. Эффективность технологии в методе обучения коммуникативному языку (CLT) 130
Нуритдинова Ш.Н. Таэквондочиларнинг мусобақалардаги хулқ-атворлари хусусиятлари 133
Нуруллаева Дж.С., Бобомурадов Б.К. Педагогический характер и специфическая направленность процесса физического воспитания 135
Раджабов М.Р. Муҳандислик графикасини ўқитишнинг методологияси 138
Саноева Г.Р. Олий таълимда флешмоблардан фойдаланишда талабалар учун шарт-шароитлар 141
Хамидова М. Психолого-педагогические основы дифференцированного обучения русскому языку на пропедевтическом курсе русского языка и литературы 144
Холмуратов Р.Н., Абдуллаев И.И. Талабаларни соғлом турмуш тарзига ўргатиш ва билимларини ошириш 147
Шодиева Д. Қарши Давлат Университетида жисмоний тарбия ва спортни ривожлантириш тадбирлари ва уларнинг натижалари 150

ТАРИХ ФАНЛАРИ

UO'K 008:902/904

QOYATOSH SURATLARINING O'ZBEKISTON HUDUDIDA JOYLASHISHI VA AHAMIYATI

K.N.Abdujabborov, magistrant, Namangan davlat universiteti, Namangan

Annotatsiya. *Ushbu maqolada qoyatosh suratlari, O'zbekiston hududidagi qoya tosh suratlari haqida yozilgan.Qoyatosh suratlari qadimgi ajdodlarimiz tomonidan qoyatoshlarga chizib,o'yib yozib qoldirilgan.Ular tariximiz uchun juda qimatli tarixiy va arxeologik yodgorlik hisoblanadi.Ularni o'rganish tatqiq etish arxeologiya fani uchun muhum hisoblanadi.*

Kalit so'zlar*. Qoyatosh suratlari, Lasko, Altamir, Zarautsoy, Sarmishsoy, mezolit davri, toshlar,petrogliflar, tog' echkilari, ishlanish texnikasi, ilohlar, g'or devorlari, Qizil kitob.*

Аннотация*. Эта статья написанао наскальных рисунках и наскальных рисунках в Узбекистане.Наскальные рисунки рисовались и высекались на скалах нашими древними предками.Они являются очень ценным историко-археологическим памятником для нашей истории.Изучение их составляет наука археология. считается важным для.*

Ключевые слова*. Наскальные рисунки, Ласко, Альтамир, Зараутсой, Сармишсой, период мезолита, камни, петроглифы, горные козлы, приемы работы, боги, стены пещер, Красная книга.*

Abstract. *This article is about rock paintings and rock paintings in the territory of Uzbekistan. Rock paintings are drawn and engraved on rocks by our ancient ancestors. They are very valuable historical and archeological monuments for our history. is calculated.*

Keywords: *Rock paintings, Lasko, Altamir, Zarautsoy, Sarmishsay, Mesolithic period, stones, petroglyphs, mountain goats, processing techniques, gods, cave walls, Red Book.*

Kirish. Qoyatosh suratlari qadimgi odamlarning kundalik hayoti, turmush tarzi,diniy etiqodi,odatlari,mashg'ulotlarni ifodalaydi.Qoyatosh suratlarining o'ziga xos tomoni shundaki, ular insoniyat tomonidan yozuv paydo bo'lmasdan oldin yaratilgan. Ayniqsa ajdodlarimizning eng qadimgi mashg'uloti hayvonlarni ovlash manzarasi ko'p uchraydi.Bu suratlarni o'rganish tariximizning ko'p xotiralarini ko'rsatib turadi.[1]Yuksak manaviyat yengilmas kuch kitobida yozib qo'yilganidek,tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.

Bu suratlarda qadimgi davrda odamlar ko'proq qanday hayvonlarni ovlaganligi va ular buni qay tarzda bajarganligi haqida qiziqarli ma'lumotlar beradi.Shu bilan birgalikda ularning kundalik turmush tarzini ham asoslab beradi.Kundalik hayotda ov qilishayotgani va boshqa yumushlar bilan shug'ullanayotganligini ko'rsatib beradi.Qadimgi davrda rassomlar suratlarni asosan,qoyalarga o'yib,yoki bo'yoqlar bilan ishlaganlar.Misol uchun qoyatosh suratlari gorlarda ham uchratish mumkun.Ispaniyadagi dunyoga mashxur Altamira va Fransiyadagi Lasko g'orlaridan shunday ibtidoy davr hayotini aks ettirgan suratlar topilgan.1868 yilda Shimoliy Ispaniyada Altamir g'oridagi qoyatosh suratlari ovchilar tomonidan topiladi.O'sha zamon tasviriy san'at ustalari hayvonlarni tasvirlashda turli moddalar qo'shilgan qorishmasidan foydalanishgan.Bu o'ziga xos usul bo'lgan.Tayyorlangan rangli bo'yoqlardan tosh devorlardagi rasmlarni bo'yashda foydalanishgan.Suratlarni yaratishda tayoqcha yoki hayvon junidan tayyorlangan „mo'yqalamdan'' foydalanishgan.Bu jarayon suratlarning hozirgi davrgacha deyarli hech bir o'zgarishsiz saqlanib qolishiga sabab bo'lgan.Ularni o'rganish qadimiy hayvonot dunyosini yanada yaxshiroq tasavvur qilishga imkon beradi.Qoyatoshlarga chizilgan suratlarning bazilari ibtidoiy odamlarning dunyo qarashi bilan ham bog'liq.Qadimgi odamlarning ilmiy ta'savvuri va kundalik muhitning tasvirlanishi muhim hissoblanadi.Ushbu maqolada qoyatosh suratlarining shunday xususiyatlarini ko'rsatib berishga harakat qilindi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Mavzu bo'yich asosiy materiallar bu qoyatosh suratlaridir.

O‘zbekistondagi qoyatosh suratlarining eng ajoyib namunalariga Zarautsoy, Sarmishsoy va boshqalari kiritish mumkin.Ular jami 100 dan ortiq joydan topilgan.Mazkur joylardagi qoyatosh suratlarda turli hayvonlaring tasvirlari, odamlaming harakatlari, ov manzaralari aks etgan. Qoyatoshlarga ishlangan tasvirlar arxeologik yodgorliklaning bir turi sifatida ajdodlarimiz ibtidoiy qarashlarini, tariximizni o‘rganishda juda muhim ahamiyat kasb etadi.Qoyatosh suratlari orqali qadimgi davr kishilarining xo‘jalik hayoti haqida, hayvonlarni ov qilish, qo‘lga o'rgatish va xonakilashtirish, chorvachilikning ko’rinishi haqida ma’lumotga ega bo‘lish mumkin. Qoyatosh suratlari yurtimiznning tog’lik tumanlarida keng tarqalgan. O‘zbekiston hududida mezolit davri jamoasi geografik sharoiti qulay bo’lgan dasht, tekisliklar, ko‘1, daryo sohillarida, tog’li hududlarda yashab, ovchilik, baliqchilik, termachilik bilan shug‘ullaganlar’’.Bular haqida qoyqtosh suratlarimizdan ham bilib olish mumkun.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Maqolada xronologik, tavsifiy va qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv,kuzatish, arxeologik davriylik,kabi usullardan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Tadqiq qilinayotgan muammo maxsus tadqiqot ob’ekti bo’lib qoyatoshlar xizmat qiladi.Tatqiqotlar davomida Namangan viloyati Pop tumani hududidan qoyatosh surati topildi.Qoyatosh suratida echki tasviri mavjud.Qoyatoshlarga suratlar ikki usulda chizilgan.Kundalik hayotning takomillashuvi, xo'jalikning rivojlanishiga va odamlar tafakkurining o‘sishiga olib kelgan.Qoyatosh suratlari yurtimizning Zaravutsoy darasida, Toshkent viloyatining Parkent, Chotqol tog’ tizmalarida yaxshi o’rganilgan.Bu suratlar o’yib, urib, ishqalash,nuqtli,usullarda chizish yo’li bilan ishlangan.

O’zbekistondagi qoyatosh suratlarining eng oliy namunalariga mutaxassislarmizni xulosalariga ko’ra Zarautsoy, Sarmishsoy,Chadansoy, Sho’rbuloqsoy va boshqalarni kiritish mumkin.Bu joylardagi qoyatoshlarda O’zbekistonimizni qadimgi va xozirgi hayvonot olamini aks ettiruvchi ajoyib suratlari ko’rish mumkin. Ular ibtidoiy ho’kiz va sigirlar, yo’lbarslar, qoplon va gepartlar, tulki va bo’rilar, arxar va tog’ echkilari, bug’u va sayg’oq va jayronlar, jayra va toshbaqalar, baliq va ilonlar, echki va yirik shoxli qoramollar, tuya kabilardir. Eng muhumi bu rasmlar orasida odamlarning uzun qilich, xanjar, o’qdon, dubulg’a, qopqon, arqon, qalqon, niqob kabi narsalarni tasvirlarini xam ko’plab uchrashi mumkun.O’zbekiston xudididagi eng qadimgi suratlar ho’kiz va echkilarni ov qilish manzarasini aks ettirgan.Zarautsoydagi rasmlardir.[3] O’zbekistondagi petrogiliflar qoyatosh suratlarining eng qadimgisi eramizdan avvalgi II ming yillikka aloqadordir.

[4] Qoyalarda yovvoyi hayvonlar ayiq, bug’u, tog’ echkisi,arxarlarni ovlash bilan bog’liq bo’lgan o’ziga xos ajoyib manzaralar yuksak maxorat bilan ifodlangan.“Qadimiy tasviriy san’at yodgorliklari g’oyat qimmatli tarixiy hujjatlar hisoblanadi.Bu hujjatlar bizga eng qadimgi zamondagi odamning fikrlash jarayonini anglab etishga, mezolit davri ma’naviy madaniyati xususiyatlari bilan tanishishga imkon beradi.

Surxondaryo viloyati Zarautsoy,Navoiy viloyati Sarmish daralarida tadqiqotchilar ko’z oldida noyob “rasmlar galeriyasi”namoyon bo’ldi.Ularning o’rganilishi tufayli O’zbekistonda arxeologiya fanining mustaqil yo’nalishi qoyatoshlardagi ibtidoiy san’anit tadqiq etishga asos solindi.Endilikda bunday qoyatosh suratlari Namangan viloyati hududidan ham topilmoqda.Surxondaryo viloyatida eneolit qatlamlarini tadqiq etish shuni ko’rsatdiki, yangi tosh asrining boshiga kelib, odam O’rta Osiyada tabiat mahsulotlarini o’zlashtirishdan tabiatga faol tasir ko’rsatishga o’ta boshlagan.Bu hayvonlarni qo’lga o’rgatish va yovvoyi o’simliklarni madaniylashtirish orqali sodir bo’lgan.Hamda bunda janubiy mintaqadagi ibtidoiy jamoalar ustuvorlikga ega bo’lgan.Suratlarning yaratilishi qaysi davrga oid ekanligini farqlash qiyin emas.Bu farq suratlarni yaratish uni chizish texnikasi bilan bog’liq.Keling buni tushinib olamiz[6].

Daslab suratlar paleolit davrida toshdan yasalgan qurollar yordamida chizilgan.Keyinchali mezolit va neolit davrida suratlar ibtidoiy san’at ko’rinishiga keldi.Shu suratlarning qaysi davrga oyid ekanligini aniqlash uchun quyidagi usuldan foydalanamiz.Qoyatoshdagi topilgan suratni extiyot qilgan xolda uning yuza qismi mog’or bosishiga qarab suratni qaysi davrga oid ekanligini bilsak bo’ladi. Bunda yillar hisobi va xranologik ketma-ketlik hisobga olinadi.Qoyatosh suratlarining ahamiyati shundaki ularning takomilashishi odamlarning hayotining takomillashishi bilan

bog'liq.Qanchalik suratlarning takomillashivi ro'y bergan bo'lsa, shuncha ibtidoiy odamlar hayoti ham rivojlangan. Keyinchalik esa ibtidoiy davrga oid bo'lgan sa'nat asarlari ham rivojlandidi.

Hayvonlarning tasvirlanishida ham o'ziga hos jihatlar bor.Tasvirlanangan hayvonlarning tabiati yani harakterlari ham aks etgan. Suratlarda ko'proq yirtqich hayvon bo'lsa uning hujum qilayotgan tasviri odam bilan kurashayotgan holati aks etadi.Keyingi davrga kelib hayvonlarning qo'lga o'rgatilishi odamlarning dehqonchilik bilan bog'liq bo'lgan suratlarni ifodalaydi. Bazida insonlar diniy mazmundagi suratlarni ham aks ettirishgan.Toshlarga turli xil dagi ilohlar tasvirlari aks etgan suratlar ham kopgina topilgan.Bular albatta dinning takomillashuvi bila bog'liq.Mezolit davrida yashagan ajdodlarimiz ibtidoiy tasviriy san'at mo'jizalarini yarata boshlaganlar.O'zbekistonda san'at turinig qoyatoshlarga surat chizish yo'nalishi juda qadimdan paydo bo'lgan.

Suratlar asosan ikki xil usulda urib cho'kichlash va tabiiy bo'yoqlar yordamida ishlangan. Keyinchalik rasmlar uchi o'tkir tig'li temir va po'lat asboblar bilan toshlarni o'yib ishlangan. Bu usul fanda nuqtali usul deb ataladi. Ikkinchi usulda ilk rangtasvir ustalarining mahorati ko'zga tashlanadi. Ular turli moddalar qorishmasidan bo'yoq tayyorlashni bilganlar. Suratlarga cho'p, qamish, suyak va qushlarning pati vositasida jilo berilgan. O'zbekistonda 100 dan ortiq ana sh unday nodir san'at namunalari aniqlangan. O'zbekiston hududidan topilgan eng mashhur yodgorlik Zarautsoy yodgorligi bo'lib, unda buqa va echkilarni ovlash manzarasi aks etgan. Tadqiqotchilar fikricha, bu yodgorlik mezolit va neolit davrlariga, ya'ni mil.av. VIII-IV ming yilliklarga mansubdir. Qoyatosh suratlarida yovvoyi ho'kiz va ov manzarasi tasvirlangan..Navoiy viloyatidagi Qoratog' tizmasidagi Sarmishsoy darasidan topilgan sher, yo'lbars kabi yirtqich hayvonlarning to'qnashuvi ovchining kamdan kam hollarda qo'lga o'rgatiladigan ov qoploni gepard yordamida yovvoyi buqani ovlashi tasvirlangan. 2009-yilda arxeologik yodgorliklarni muhofaza qilish, ular yo'qolib ketishi xavfining oldini olishga oid qarorlar qabul qilindi. Shu maqsadda yurtimizning o'tmishidan so'zlovchi qoyatosh suratlarini asrab avaylashimiz va ularni o'rganib kelajak avlodga yetkazishimiz zarur.



Namangan Pop hududidagi qoyatosh suratlari

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). O'zbekiston hududidagi qoyatoshlarda aks ettirilgan suratlar ajdodlarimiz yaratilgan moddiy yodgorlik sifatida tariximizda muhim o'rniga ega. Chunki bu suratlarning mazmuni va manzaralar manosidan kelib chiqib, ajdodlarimizni xo'jalik hayoti haqida hayvonlarni ov qilish, ularni qo'lga o'rgatish va xonakilashtirish, oqibatda chorvachilikni vujudga kelishi haqidagi ma`lumotlarga ega bo'lish mumkin. Miloddan avvalgi 12-7

ming yilliklarni o'z ichiga olgan mezolit davri insoniyat rivojlanishi tarixidagi muhum davrlardan hisoblanadi. Bu davrda ibtidoiy jamoa tuzumida hayot kechirgan odamlar muzlikning ortaga siljishi bilan yangi hududlarni o'zlashtirgan, o'q-yoyni kashf etib, ov unimdorligini oshirgan va ehtiyojni to'laroq taminlash imkonini beruvchi ortiqcha mahsulotlarni paydo bo'lishi uchun zamin yaratgan. Qoyatosh suratlari dastlabki san'atning noyob yodgorligi sifatida «*Qizil kitob»*ga kiritilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ-Т., "Шарқ", 1998.

2. Кабиров А. Сармишсойнинг қоятошларидаги расмлар. Т., 1976

3.Исломов У., Асқаров А. Первобытная культура и возникновение орошаемого земледелия в низовьях Зерафшана. Т., 1966.

4.Кабиров Ж., Сагдуллаев А. Ўрта Осиё археологияси. – Т., 1990.

5.Egamberdieva N.A. O'zbekistonning eng qadimgi davr tarixini jadvallar asosida o'rgatish. Uslubiy qollanma. - T.: 2008

6. Annayev T., Tilovov B., Xudoyberdiyev Sh. Boysun arxeologik yodgorliklari. – T., 1999.Sagdullayev A. Qadimgi O"rta Osiyo tarixi. – T., 2004.

UO'K 903

HOJI MUINNING JADID MAKTABLARIGA OID FAOLIYATI XUSUSIDA

I.D.Axrorov, o'qituvchi, Buxoro davlat Pedagogika institute, Buxoro

Annotatsiya. *Ushbu maqolada xalqning ma'rifati, millatning taraqqiysi uchun kurashgan ilg'or ma'rifatparvar ziyoliy Xoja Muin Shukrullo o'g'lining jadid maktablaridagi ta'lim-tarbiya va darslik adabiyotlar nashriga oid faoliyati tarixiy manbalar asosida ilmiy-nazariy tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *Behbudiy, Shakuriy, Ajziy, "Raxnamoyi savod", "Forscha alifbolar tarixi", "Guldastayi adabiyot", forsiy, turkiy, tarjima.*

Аннотация. *В данной статье на основе исторических источников научно-теоретически проанализирована деятельность передового просветителя Ходжи Муина Шукрулло оглы, боровшегося за просвещение народа, прогресс нации, касающаяся образования и издания учебной литературы в джадидских школах.*

Ключевые слова: *Бехбуди, Шакури, Аджзи, "Рахнамойи савод", "Форсча алифболар тарихи", "Гулдастайи адабиёт", персидский, тюркский, перевод.*

Abstract. *This article provides a scientific and theoretical analysis of the activities of the advanced enlightened intellectual Khoja Muin Shukrullo ugli, who fought for the enlightenment of the people, the progress of the nation, on the basis of historical sources on the publication of educational and textbook literature in jadid schools.*

Keywords: *Behbudi, Shakuri, Ajzi, "Raxnamoyi savod", "Forscha alifbolar tarixi", "Guldastayi adabiyot", Persian, Turkish, translation.*

Islom falsafasida kishining amali uning niyatiga yarasha bo'lishi, barcha hatti -harakat ko'ngil istagiga bog'liq ekanligi ta'kidlanadi.Chunonchi, hadisi sharifda bu xususda bunday yozilgan "Amallar niyatga qarab qabul qilinur, kim qanday niyat qilg'aydir, shunga erishgusidir". Shu nuqtai nazardan mavzuga yondashsak, jadid ma'rifatparvarlarining millat yoshlarini o'qitish bilan bog'liq faoliyatlari tufayli barhayot umrga erishgani asoslidir.

Turkiston jadidlarining ma'rifatparvar ziyoliylaridan biri 1883-yil 19-martda Samarqandda tug'ilgan Hoji Muin Shukrullo o'g'lidir. Hoji Muin 1900-yili o'z davrining mashhur ziyoliylaridan biri Sayidahmad Vasliy bilan tanishadi. Vasliy unga arab tili qoidalarini o'rgatadi va uni davrning mashhur ma'rifatparvarlari davrasiga olib kiradi. Hoji Muin o'z faoliyatini 1901-yili eski maktabda muallimlikdan boshladi. O'qitish tizimidagi muayyan tajribalar va albatta, Abduqodir Shakuriyning maktabi ta'sirida 1903-yili Xo'ja Nisbatdor mahallasida mustaqil tarzda o'zi yangi usuldagi jadid maktabini ochadi. Xuddi mana shu yili Vasliyning uyida Mahmudxo'ja Behbudiy bilan tanishadi va Hoji Muinning hayotida yangi davr boshlanadi. Buyuk jadid ma'rifatparvari Mahmudxo'ja Behbudiyning "Muxtasari jug'rofiyayi umumiy" nomli geografiya darsligi Hoji Muinda juda katta taassurot qoldirgani uning juda ko'p maqolalarida aytib o'tilgan. Mana shu tariqa Hoji Muin Behbudiyni o'ziga ustoz deb bildi va uning haqiqiy izdoshiga aylandi. Turk- tatar matbuotini

muntazam o'qib borishi hamda Behbudiy boshchiligidagi Samarqand ma'rifatparvarlari ta'sirida taraqqiyparvar bo'lib shakllangan Hoji Muin o'z zamondoshlari orasida jadid maktabining muallimi sifatida tanilgan edi. Boshqa jadid muallimlari kabi Hoji Muin maktabni o'z hisobidan ochgan edi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Sidqiy Ajziy kabi ziyoliylarning maktabdorlik faoliyati Hoja Muinga katta saboq vazifasini o'tadi. Uning zamondoshlari bilan suhbatda bo'lgan adabiyotshunos Rahim Muqimovning yozishicha, "Hoji Muin maktabda bolalarni savodli qilish uchun sarflanadigan mablag'ni xalqdan yig'magan, balki o'zining Devoli ko'ndalang qishlog'idagi bog'chasida yetishtirgan shirin-shakar mevalarni bozorga chiqarib sotish evaziga to'plagan . Maktabdorlikdan daromad olishni o'ylamagan". Uzoq yillar mobaynida static holda bo'lgan eski ta'lim tizimi, uning eskicha o'qitish usuli, vositalaridan voz kechish, Turkiston yoshlari uchun yangilik bo'lgan yangi ta'lim tizimini tashkil qilish, jadid maktablari uchun darsliklar yaratish tom ma'noda jasoratni talab qilar edi. Jadid muallimlari qatorida Hoji Muin ham darsliklar yozib, nashr ettirdi. U 1908- yili fors tilida "Raxnamoyi savod", Raxmatullazoda bilan hammualliflikda "O'qituvchi" nomli alifbo kitoblarni yozadi. 1926-yili chop etilgan "Forscha alifbolar tarixi" maqolasida Hoji Muin "Rahnamoyi savod" asari haqida shunday ma'lumot beradi"Muning yozg'uvchisi Hoji Muin va noshiri muallim Abduqodir Shakuriydir. 1908 chi tosh bosmada faqat bir qatla 2 ming besh yuz dona bosildi. Yuzi 36 sahifalikdir. Bu alifboning boshida harflar tadrijiy suratda ko'rsatilib, so'z va jumlalar mad usuli(cho'zg'i) bilan yozilg'on. Munda avval forscha harflar tadrijiy yo'l bilan ko'rsatilganligi uchun o'sha vaqtda usuli jadid dushmanlari: "Jadidlar o'z kitoblaridan arab harflarni chiqarib tashlabdilar" deb xalq orasida ig'vo tarqatdilar". Jadid maktablari muallimlari Turkiston yoshlariga nafaqat ta'lim, balki tarbiya berishni ham o'z oldlariga maqsad qilib qo'ygan edilar. Abduqodir Shakuriyning taklifiga ko'ra Hoji Muin o'quvchilar uchun tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan bir qancha she'rlarni turkiydan forsiyga o'girib, tarjima qiladi, keyinchalik Mahmudxo'ja Behbudiyning yordami bilan "Guldastayi adabiyot" nomi bilan chop ettiradi. "Guldastayi adabiyot" asari haqida S. imzosi bilan yozgan muallif shunday fikr bildiradi: "Hoji Muin bundan o'n yillar ilgari, umumiy fikr qorong'uligi zamonasida bir adabiyot kitobi yozg'on. Ul vaqtlarda bunday kitoblarning xalq orasida tarqalib o'qilmog'i juda qiyin edi. Fikri uyg'ona boshlag'on yosh quvvatlarimiz o'z tushuncha va hissiyotlarini tarqatmoq uchun o'z xalqining ruhiga muvofiq turli yo'llar izlar edilar. Ish qiyin, bir bismillohsizlik bilan kofir va mal'un bo'lmoq juda qulay edi". Hoji Muin o'z kundaligida yozishicha, 1907-1937-yillar davomida 23 xil gazeta va jurnallarda 200 tacha maqola, 400 ga yaqin xabar hamda o'zbek va tojik tillaridagi 1500 misraga yaqin she'rlari bilan qatnashgan. Uning dastlabki xabarlari yangi chop etilgan kitoblar haqida bo'lsa, "Turkiston viloyatining gazeti"da e'lon qilingan "O'zbekka javob", "Intihodod voqeaga bir nazar" kabi ilk maqolalari orqali usuli jadid maktablariga qaratilgan asossiz tanqidlar, noto'g'ri fikrlarni fosh qiladi.

Jadid ziyoliysi va millat yoshlarining buyuk murabbiysi Hoji Muinning yana bir ziyoliy sifatidagi faoliyati shundan iboratki, u jadid maktabdor muallimlarining ta'lim- tarbiy va maktab bilan bog'liq faoliyatlariga doir qimmatli ma'lumotlarni qoldirdi. Fikrimizning dalili sifatida Hoji Muinning "Marhum Shokir Muxtoriy" maqolasidan ayrim jumlalarni keltiramiz: "Shokir afandi muqtadir bir muallim, o'tkur qalamli bir muharrir edi. Shokir afandi 1906 -yillarda Farg'onag'a kelib, shunda o'n yildan ziyoda muallimlik etdi. 1918-yil iyun boshlarida chiqa boshlag'on "Mehnatkashlar tovushi"gazetasig'a kirib, o'n oy chamasi qalami ila xizmat qildi. Ondan so'ng dorulmualliminda va turli kurslarda muallimlik qilib turdi". Hoji Muin jadid ma'rifatparvarlaridan Vasliy, Mahmudxo'ja Behbudiylar haqida ham qimmatli ma'lumotlar yozib qoldirgan. Hoji Muin "Kattaqo'rg'on voqealari" maqolasida buyuk jadid ma'rifatparvari Abduqodir Shakuriy haqida fikr yuritadi. Shakuriyning jadid maktablarini tashkil qilish va o'quv tarbiya ishlarini tashkil qilishdagi jonkuyarligini e'tirof etadi. Jumladan, "Hokim manim kimligimni, nima uchun kelganligimni so'rab javobni olgandan so'ng shu mavzuda nasihat va ta'limot berganligi hanuz esimda bor: " Eshitamanki, Samarqandda mullo Abduqodir degan bir muallimning usuli jadid maktabini ochib, bolalarni yaxshi o'qitmoqda ekan. Siz ham o'shal muallim kabi bolalarni yaxshi o'qitingiz. Shogirdlaringizga diniy e'tiqod va amallarni ham tuzuk o'rgatingiz. Axloqlariga diqqat etingiz. Bolalarga shunday muomala etingizki, ular ham sizdan qo'rqsinlar va ham sizni sevsunlar".Men umrimda bir rus og'zindan bunday

to'g'ri va hayrixoxona so'zlarni birinchi daf'a eshitganim sababli nihoyatda shodlang'on va ruhlang'on edim".

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, dunyo mamlakatlarini hayratiga sabab bo'lib kelayotgan Sharq didaktik tarbiya madaniyati tarixi va milliy o'quv dasturlarining, zamonaviy ta'lim, yangi avlod darsliklarining ma'naviy ildizlari jadid maktablari tizimidan suv ichib, nur emganligi bilan o'zgacha ahamiyatlidir. Bugungi zamon pedagogikasi , ta'lim- tarbiya tizimi, milliy darsliklar, yangi avlod darsliklarining yuksak strategiyalar asosida vujudga kelishida Turkiston jadid ma'rifatparvarlarining sharafli va jasoratli yuksak zahmatlari o'ziga xos ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Turkiston jadidlarining ta'lim va tarbiyaga oid faoliyatini chuqur ilmiy tahlillar asosida talqin qilish bugungi zamon ilm- fani oldida turgan muhim vazifadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Muqimov R."Hoji Muin kim edi?"\\ Muloqot. 1994. 5-6-sonlar.

2.S. Yangi gap.\\ Turkiston. 1923. 7-fevral.

3. Inqilob jurnali. 1922-yil 3-son.

4.Hoji Muin. Tanlangan asarlar. Toshkent Ma'naviyat. 2010. B-74-75.

5. Ahmadovich H. H. et al. Ijodiy topshiriqlar o 'quv motivlarini shakllantirishning samarali vositasi sifatida //Pedagogs jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 293-294.

6. Ahmadovich H. H. et al. Boshlang 'ich ta'limda o 'zlashtirish jarayonining psixo-didaktik asoslari //Pedagogs jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 332-334.

7.Ahmadovich H. H. et al. O'quvchilarning biluv faolligini oshirishga qaratilgan darsdan tashqari ishlar va ularni tashkil etish metodikasi //Pedagogs jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 343-345.

8. Ahtamovich H. H., Shixnazarovna J. A. O'quvchilar o 'zlashtirish darajalarini tashhislash //Pedagogs jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 306-309.

9.Ahmadovich H. H., Aminovna A. S. Boshlang 'ich sinf o 'qish darslarida didaktik o 'yin va interfaol usullardan foydalanish //Pedagogs jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 100-102.

10. Ahmadovich K. H., Bahriddinovna S. G. Development and practical application of acmeological technologies of student assessment diagnose //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2022. – T. 11. – №. 6. – C. 141-145.

11. Ahmadovich K. H., ZokirovnaZ A. G. The problem of human education and morality in folklore //Gospodarka i Innowacje. – 2022. – T. 25. – C. 133-137.

12. Ahmadovich K. H., Nodirkulovna A. I. Theory of Fairy Tales in Primary Grades, The Nature of the Fairy Tale Genre //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – T. 3. – №. 7. – C. 130-133.

UO'K 28(09)

O'RTA OSIYO VA QOZOG'ISTON MUSULMONLARI DINIY IDORASI TUZILISHI. IDORANING NIZOMI VA MUASSISLARI

A.R.Egamberdiyev, magistrant, O'zbekiston Milliy Universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2018-yil 16-aprelda chiqargan "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorida quyidagicha so'z yuritilgan: "Xalqimizga azal-azaldan xos bo'lgan ma'rifatparvarlik, bag'rikenglik, mehr-muruvvat, bunyodkorlik kabi ezgu fazilatlar va qadriyatlarimizni keng targ'ib qilish, jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashda diniy-ma'rifiy soha vakillarining o'rni va ishtirokini oshirish har qachongidan ham muhim ahamiyatga ega"[1]. Ushbu qaror ijrosini ta'minlash maqsadida O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy idorasining tuzilishi, uning nizomi arxiv materiallari va monografiyalar asosida o'rganildi.*

Kalit so'zlar: *Diniy idora, muassis, imam, noib, qozi, plenum, madrasa, bag'rikenglik, prezidium.*

Аннотация. *Президента Республики Узбекистан Ш. Мирзиёева «О мерах по Резюме коренному совершенствованию деятельности религиозно-просветительской сферы» от 16 апреля 2018 года говорится следующее: «Просвещение, толерантность, свойственные нашему народу. Как никогда важно широко пропагандировать наши добрые качества и ценности. таких как доброта, творчество, и повысить роль и участие представителей религиозно-образовательной сферы в обеспечении стабильности социальной и духовной среды в обществе[1]. В целях обеспечения выполнения этого решения на основе архивных*

материалов и монографий изучена структура духовного управления мусульман Средней Азии и Казахстана и его устав.

Ключевые слова: *Духовное управление, учредитель, имам, депутат, судья, пленум, медресе, толерантность, президиум.*

Abstract. *President of the Republic of Uzbekistan Sh.Mirziyoyev's decision "On measures for radical production of the religious and educational sphere" issued on April 16, 2018, states the following: "Enlightenment, tolerance, and kindness characteristic of our people from time immemorial, it is possible to protect the role and participation of the religious-educational sphere in the provision of the religious-spiritual environment in the society, in the wide promotion of good qualities such as creativity and our people, in the provision of the socio-spiritual environment in the society"[1]. The structure of the religious office of the Muslims of Central Asia and Kazakhstan, its regulations, and its regulations were studied on the basis of archival materials and monographs.*

Key words: *Religious office, founder, imam, deputy, judge, plenum, madrasa, tolerance, presidium.*

1943-yilning 12-iyulida SSSR Oliy Soveti Prezidiumiga O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari uchun diniy boshqaruv organi tashkil etish tashabbusi bilan maktub yo‘llaydilar[5]. 1943-yilning 31-iyulida SSSR Oliy Soveti Prezidiumining 55-sonli qarori bilan O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari faoliyatini boshqaruv markazi rolini bajaradigan maxsus idora tuzishga ruxsat beriladi[2]. Diniy nazoratni ta’sis etish uchun amaliy choralar ko‘rish maqsadida mintaqa musulmonlarining tashkiliy komissiyasi tuzildi. Komissiya tarkibiga Shayx Eshon Boboxon ibn Abdulmajidxon boshchiligida Shayx Abdulg‘affor Shamsutdinov (Kozog‘iston), Shayx Muhammad Solix Bobokalon (Tojikiston), Shayx Olimxontura Shokirxonto‘ra o‘g‘li (Qirg‘iziston). Shayx Anna Eshon (Turkmaniston) rahbarliklarida bir qancha ko‘zga ko‘ringan diniy arboblar kirdilar[2]. Sobiq Ittifoqning Yevropa qismi va Sibir musulmonlari diniy boshqarmasi raisi Shayx Abdurahmon Rasuliy Moskva masjidi imom-xatibi Shayx Xalilraxmon Nasriddinov, Kozon masjidi imom-xatibi Shayx Qiyomiddin Qodiriy va boshqa obro‘li ulamolar ham ta’sis majlisiga taklif kilindilar[8].

Ta’sis qo‘mitasiga Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxon mas’ul kotib etib tayinlandi. Mazkur majlis karoriga ko‘ra 1943-yilning 15-oktyabrida Toshkentda, Eshon Boboxonning Qorasaroy ko’chasi Bejinskiy (xozirgi Ziyovuddin Boboxonov) proyezdida joylashgan uyida 1-qurultoy chaqirildi. Unda besh qardosh Respublikadan 160 dan ortiq vakil qatnashdi.

Qurultoyda “O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniya nazorati” nomi bilan yangi diniy markaz tashkil etilganligi xaqida qaror, hamda uch bo‘lim, 28 moddadan iborat ustav (Nizom) qabul qilindi[2]. Ustavning birinchi bo’limida O’rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy nazorati tashkil etilishining xuquqiy asoslari, maqsadlari unga bo’ysunadigan diniy tashkilotlar aniqlandi. Ikkinchi bo‘limda tashkilotning vazifalari, masjidlarga imomlar tayinlash va ishdan olish shartlari, 11 kishidan iborat boshqaruv hay’atini saylash kiritildi. Uchinchi bo‘limda esa besh kishidan iborat taftish komissiyasi tarkibi tuzilib, taftish ishlarini olib borish tizimi belgilab qo‘yildi. Shu tariqa O’rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy nazoratiga rais etib bir ovozdan Shayx Eshon Boboxon ibn Abdulmajidxon saylandi va unga mintaqadagi besh ittifoqdosh jumhuriyat muftiysi unvoni berildi. Murodxo’ja Solihxo’jayev rais muovini, Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxon mas’ul kotib qilib tayinlanadi[9]. Qurultoy beshala jumhuriyatda diniy nazoratning qozi boshchiligidagi vakolatxonasini tuzish haqida qaror qabul qildi. Unga ko‘ra Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxon (O‘zbekiston), Shayx Abdulg‘affor Shamsutdinov (Qozog‘iston), Muxammad Solix Bobokalon o‘g‘li (Tojikiston). Olimxonto‘ra Shokirxontura o‘g‘li (Qirg‘iziston), Shayx Anna Eshon (Turkmaniston) o‘z jumhuriyatlarining qozilari etib saylandilar[7].

O‘rta Osiyo va Qozog‘iston Musulmonlari diniy idorasi tuzilgan kunning o‘zida xalqqa murojaat qilindi:

“Hurmatli musulmon birodarlar, aziz farzandlarimiz! Biz, besh davlat qorilari, sizlarga barcha musulmonlar nomidan murojaat qilmoqdamiz. Fashist gazandalariga qarshi haqiqiy sherlar kabi kurashish uchun birlashing! Vatanning har bir qarich yerini himoya qiling va o‘z saflaringizni intizom

ila mustahkamlang! Allohdan dushman ustida tezroq g‘alaba qilishimizga madad so‘rab iltijo qiling!”[4]

Yangi tashkil etilgan muassasaning birinchi ishi davr taozosiga ko‘ra frontga moddiy va ma’naviy yordam berishdan iborat bo‘ldi. Idora askarlar uchun kiyim-kechak, qurol-yarog‘ uchun mablag‘ yig‘ishda, frontga ketganlarning oilalariga ko‘mak berib turadigan doimiy qo‘mita tashkil etishda tashabbus ko‘rsatdi. Vatan mudofaa fondiga musulmonlar shaxsiy jamg‘armalaridan 280 ming so‘mlik ixtiyoriy xayriya qildilar. 4 million 117 ming so‘mlik obligatsiya qog‘ozlari sotib olindi, 63 tonna bug‘doy, 90 ming bosh qoramol to‘plandi, 490 ming so‘mlik buyumlar frontdagilarning oilalariga yordam fondi hisobiga o‘tkazildi[8]. I.Stalinning O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy boshqarmasi muftiysi Eshon Boboxon ibn Abdulmajidxonga yo‘llagan maktubida SSSR Mudofaa fondiga ko‘rsatilgan yordam uchun Qizil Armiya qo‘shinlari nomidan ulamolar va barcha musulmonlarga mamnuniyat bilan minnatdorchilik izhor etadi.

Shu kabi ezgu yumushlarga elu yurtni da’vat qilish, xalqqa xizmat qilish, masjid va madrasalar ochish, Qur’oni Karimni nashr etish kabi xayrli ishlar Diniy nazoratning keyingi faoliyatida ham davom etdi. Aksar G‘arb olimlarining fikriga ko’ra ham Ittifoq tarkibida tashkil etilgan 4 ta diniy boshqaruv organi orasida mutaassiblikdan yiroq va zamonaviy uslubga ega bo’lgani aynan, O‘ra Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy nazorati bo’lgan.

Diniy idora tashkil etilganligining dastlabki yillaridanoq o‘zining nashryotiga ega bo‘ldi. O‘zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti huzuridagi diniy ishlar bo‘yicha kengash vakili I.Ibodovning 1944-yil kuzida markazga jo‘natgan hisobotida diniy nazoratning jurnali va diniy-qamariy kalendar nashr etishga tayyor ekanligi haqida ma’lumot bor. Idora nashri “O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniya nazorati jurnali” deb yuritilgan va Toshkentdagi 1-sonli bosmaxonada bosilgan. Jurnal bir necha marta bosilib chiqarilgandan so‘ng nomalum sababga ko‘ra faoliyati to‘xtatilgan. Hozirgi kunda ushbu jurnalning 1946-yilda nashrdan chiqqan 3-4 nsonlari saqlanib qolingan. Jurnal arab alifbosida bo‘lib undan o‘zbek, qozoq, tatar tillarida yozilgan maqolalar o‘rin olgan. Ushbu jurnalning oxirgi sahifasida “Bildirish” runi ostida “Muhtaram ulamoyi kiromlar va qalam arboblaridan bir rijo” sarlavhali murojatnoma bo’lib, unda shunday deyiladi: “O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniya nazorati hukumatimiz ruxsati bilan diniy jurnalni davom ettirmak maqsadidamiz. Oyda bir marta nashr etiluvchi ko‘zda tutilib quyidagi mundarijot bo‘yincha davom qiladur: Sho‘rolar jumhuriyatining konstitutsiyasidagi dinga oid moddalar va ularning izohi, dinlar haqidagi hukumatning qonun va qarorlari, diniya nazoratining musulmonlarga qarata bergan buyruqlari, oyati karimalarning tafsirlari, hadisi shariflarning tarjimalari, fikr olishuv yo‘li bilan yozilgan maqolalar, ular munosabati bilan bayon etilgan fikrlar, diniy fatvolar, vatanimizda yetishgan ulug‘ din va fan ulamolari va ularning dinga, ulumga va fununga qilgan xizmatlari, adabiyot bahslari xalqimiz, xalqimizda vatanparvarlik ruhini ko‘tarish, fashizmga qarshi kurashuv yo‘lida yozilgan diniy va adabiy maqolalar, hikoyalar va sherlar, o‘zimizning o’zbek, arab va forsiy adabiyotlardan namunalar keltirish orqali o‘z hissasini qo‘shishga da’vat etamiz.” Keltirilgan iqtibosdan jurnalning yo‘nalishi va mavzulari doirasini tushunib olish mumkin

Jurnalning keyingi 5-6 sonlari 1948-yili chop etilgan. Unda asosan, Toshkentdagi Baroqxon va Buxorodagi Mir Arab madrasalariga qabul bo‘yicha e’lon va qabul shartlari bayon qilingan. Shundan so’ng 1967-yildan boshlab jurnal “Sovet Sharqi musulmonlari” nomi bilan o‘zbek tilida, 1968 yildan esa har uch oyda bir marta o‘zbek, fors, arab, rus, ingliz tillarida nashr etila boshlandi. Diniy nazoratning yana bir nashri diniy-qamariy kalendar 1943-yildan boshlab bir necha ming nusxada bosilgan va barcha respublikalarga tarqatilgan. Xorijiy davlatlarga tarqatish uchun Butunittifoq xorij bilan madaniy aloqalar tashkilotiga ham 1000 donadan jo’natilgan. Uni tayyorlashda astronomiya instituti bilan hamkorlikda ish olib borilgan.

1945-yilning 22-sentyabrida O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy nazoratining 1 plenumi o‘tkazildi[3]. Unda diniy nazoratdagi ishlarning borishi haqida qozi Ziyovuddinxon ibn Eshonboboxon va qozi Murodxo‘ja Solihxo‘jayevni hisoboti tinglandi, yangi ishlar rejasi tuzildi. Bu plenumda, asosan, madrasa ochish taklifi va masjidlar ishini tartibga solish masalalari ko’rildi. O‘sha paytlarda O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy nazorati huzurida 30 ta masjid bo’lib,

1944-yil 19-mayda SSSR XKS qoshida din ishlari bo‘yicha kengash tashkil qilindi. Uning vazifasi hukumat organlari va diniy tashkilotlar rahbarlari, shuningdek, islom diniga e’tiqod qiluvchilar o‘rtasidagi aloqani mustahkamlash va ularning faoliyatini nazorat qilishdan iborat edi. SSSR Ministrlar soveti huzuridagi Diniy ishlar bo‘yicha kengash raisi I.V.Polyanskiyning (1878-1956) O‘zbekistondagi diniy vaziyat va ulamolar faoliyati yuzasidan tekshiruvlari aks etgan hujjatlar bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivida saqlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. “Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev Toshkent sh., 2018-yil 16-aprel, PF-5416-son

2. “O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy idorasini tashkil etish to‘g‘risida” Россия-Средня Азия, 172-174; Бабаджанов, САДУМ.

3. “O‘zbekiston musulmonlari idorasi” Toshkent – “Movarounnahr” nashriyoti. 2014-y.

4. Saidmuxtor Saidqosimov “Ulug‘ insonlar ma’naviyati” Toshkent – 2017-y.

5. Haydarbek Yo‘ldoshxo’jayev, Irodaxon Qayumova “O’zbekiston ulamolari” Toshkent – “Movarounnahr” nashriyoti. 2015-y.

6. “Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxon” Shamsiddinxon Boboxonov Toshkent-2001. “O‘zbekiston Milliy ensklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti.

7. Усманходжаев А. Жизнь муфтиев Бабахановых: служение возрождению Ислама в Советском Союзе. — М. – Нижний Новгород: ИД «Медина», 2008.

8. Айдар Хабутдинов. К 70-летию Духовного управления мусульман Средней Азии и Казахстана (САДУМ). — Ислам в СНГ.

9. Зияуддинхан ибн Эшон Бабахан. Ислам и мусульмане в Стране Советов. — Москва: Прогресс, 1980.

10. Robert D. Crews. For Prophet and Tsar: Islam and Empire in Russia and Central Asia. — Кембридж, Массачусетс: Harvard University Press, 2006. — ISBN 0-674-02164-9.

UO’K 902 (470.1) (470.53) (470.342)

XORAZM VOHASI QADIMGI TOSH DAVRIDA ODAMZOTNING MIGRATSIYASI NATIJASIDA KECHGAN ETNIK MUNOSABATLARNI QAYTA TIKLASH MASALALARIGA DOIR BA'ZI MULOHAZALAR

F.R. Matqurbanov, magistrant, Urganch Davlat Universiteti, Urganch
U.S. Ismailov, magistrant, Urganch Davlat Universiteti, Urganch
O.O. Rahimov, magistrant, Urganch Davlat Universiteti, Urganch

Annotasiya. *Janubiy Orolbo'yi sarxadida qadimgi tosh asri odamzotining o'zlashtirish hududiy chegaralari va xo'jalik sohalari rivojlanish jarayonlari rekonstruksiyaga qarab tiklash.*

Kalit so'zlar: *Kabirov J., Sagdullayev A.S., Mirsoatov T.M., Mirsoatova S.T., Okladnikov A.P., Islamov U.I., Kraxmal K.A., To'raqulov M.D., Mamedov E.D., Bijanov E.B., O'rta Osiyo, Ashel, Seleng'ur, So'x, Chashma, Ko'lbuloq, Ustyurt Esen 2, 3, Churuk.*

Аннотация. *Освоение человеком древнего каменного века территории Южного Приаралья привело к территориальным границам и процессам развития хозяйственных отраслей.*

Ключевые слова: *Кабиров Ж., Сагдуллаев А.С., Мирсоатов Т.М., Мирсоатова С.Т., Окладников А.П., Исламов У.И., Крахмал К.А., Туракулов М.Д., Мамедов Э.Д., Бижанов Э.Б., Средняя Азия, Ашель, Селенгур, Сух, Кулбулоқ, Устюрт Эсен 2,3, Чурук.*

Abstract. *Reconstruction of the territorial limits of the exploitation of the ancient Stone Age people and the development processes of the economic spheres on the Southern Aral Bay coast.*

Key words: *Kabirov J., Sagdullayev A.S., Mirsoatov T.M., Mirsoatova S.T., Okladnikov A.P., Islamov U.I., Krakhmal K.A., Torakulov M.D., Mamedov E.D., Bijanov E.B., Central Asia, Ashel, Selengur, Sokh, Chashma, Kolbulok, Ustyurt Esen 2, 3, Churuk.*

XX asr adabiyotlar va XXI asr boshlari tadqiqotchilar nashrlarida qayd qilingan tarixiy ma'lumotlarni nazariy-ilmiy tahlil qilishdan kelib chiqqan qarashlar asosida qadimgi tosh asri odamlarining O'rta Osiyo mintaqasida joylashishi, migrasion siyosati natijasida vujudga kelgan geografik kengligida kechgan etnik munosabatlarini qayta tiklash imkoniyati mavjud. O'rta Osiyo mintaqasida qadimshunos olimlar tomonidan keng qamrovli ravishda olib borilgan arxeologik qidiruv

amaliyoti davrida ro'yxatga olingan ibtidoiy jamoa tuzumiga oid tog'-g'or makonlari va suv xavzalari sohili etagiga ulanib ketgan tekislikda odamzot tomonidan qoldirilgan manzilgohlar ro'yxatga olinib, ularda arxeologik izlanishlarning keng istiqbolli yo'lini olib keldi. Arxeologik adabiyotlarda qadimgi tosh asrida aholining tabiiy-iqtisodiy hududlarida joylashishi, mehnat qurollari rang-barangligi, ular texnologiyasida modernizasiyalashda yuz bergan o'zgarishlardan kelib chiqib, ilk, o'rta va so'ngi tosh bosqichlariga ajratilgan bo'lib, tadqiqotchilar tomonidan qo'llanilgan bu jarayon hozirgi davrda davom etmoqda [1]. Arxeologik adabiyotlarda qayd qilingan ma'lumotlardan ma'lumki qadimgi tosh davri ilk bosqichida ijtimoiy jamoa tuzumi tarixida muhim bosqich sifatida o'z o'rniga ega. O'rta Osiyo mintaqasining muayyan hududlarida mazkur tarixiy davrdan boshlab odamzot tomonidan, tog', tog'oldi tizmalari va tekisliklar o'zlashtirilib, mavjud bo’lgan tabiiy-iqtisodiy manbalarni o’z manfaatlariga xizmat qildirib, kasbi-korini belgilab olganlar. Arxeologik adabiyotlarda ashel davridan boshlab, O’rta Osiyoning ba’zi hududlari odamzot tomonidan o’zlashtirilganligi bois, dastlabki etnik munosabatlar cheklangan geografik hududni hosil qilgan. Farg’ona, Toshkent, Zaragshon vodiysi yuqori oqimi shimoliy-g’arbiy, Ustyurtning Shaxpaxta havzasi tevarak atroflari odamzot tomonidan o’zlashtirilgan. Mazkur tarixiy davrda odamzot tomonidan tog’lar yuqori qismi, tabiiy holda hosil bo’lgan g’or makon vazifasini bajargan bo’lsa, tog' tizmasi, suv xavzalari, buloqlar sohili etaklariga ulangan ochiq hududlarda mavjud bo'lgan ashyolar asosida manzilgohlar bunyod qilingan. Masalan: Farg’ona vodiysida Selung’ur, So’x – makon, Chashma, Toshkent viloyati Ohangaron vodiysida tabiiy buloq-chashma atrofida Ko’lbuloq, Zarafshon vodiysi shimoliy-g’arbiy Nurota tog’ tizmasi, Uchtut – Ijond - Vaush hamda Ustyurt Chinki, Shaxpaxta xavzasi atroflari yalang hudud bo'lgan. Esen 2,3, Qoraquduq va Churuk manzilgohlari Ashel davri quyi bosqichiga mansub bo’lib, ular o'z xususiyatlarini rang-barang holatda namoyon bo'lganligi arxeologik izlanishlar natijalaridan ma’lum [2].

Tadqiqotchilar asarlarida Turon pasttekisligi muayyan hududlarida o’rnashib olgan ovchilar geografik muhit, tabiiy-iqlim sharoit va ekologiyani o'z manfaatlariga xizmat qildirgan. Tadqiqotchilar manzilgohlar tuzilishini qayta tiklashga e’tibor qaratmaganlar. Tarixiy adabiyotlarda qayd qilingan ma’lumotlardan ma’lumki, ovchilar tabiiy g’orlardan makon sifatida foydalanganlar, ammo tekisliklar, suv xavzalarida odamzot yer sathiga qurilgan kapalarda ijod qilganlar. Demak, turar-joylarning ashel davri manzilgohlarida kechgan etnik munosabatlar g’or va ochiq yalanglikdagi chayla kulbalarda kechgan. Qadimgi tosh davrining ikkinchi bosqichida, o’rta tosh davrida etnik munosabatlarda yuz bergan o’zgarishlardan biri odamzot tekislikni faol o’zlashtirishni boshlaganlar. Ashel davri manzilgohlari qanday shaklda bo’lsa ham ovchilarning hayoti va ijod qilishiga imkon berib, o’zlashtirish xo’jaligini olib borishini qayta tiklashga keng imkonini yaratgan. Tog’larda tabiiy g’orlar hajmi jihatdan biqiq bo’lganligi uchun manzilgohlar tekisliklar sathiga qurilgan. Mazkur jarayon o’rta tosh davrida ham davom etgan. Masalan: o’rta va so’ngi tosh davrida tog’li hududlarda ashel davr makonlari faoliyatlari davom etgan, xuddi shunday jarayonlar ochiq tekisliklarda ham kechganligi ma’lum. O’rta tosh davrida kechgan etnik jarayonlarda o’zgarishlar yuz bergan, bunda ba’zi hududlar ovchilarning o’zlashtirish makoniga aylangan. Misol tariqasida, Toshkent viloyatida Obirahmat, Xo’jakent, Surxondaryoda Teshiktosh, O’rta Zarafshonda Omonqo’ton, Obirahmat, shimoliy-g’arbiy Zarafshonda Uchtut, Vaush, Ijond, Ustyurtda Esen 2,3, Qoraquduq, Churuk manzilgohlarida etnik munosabatlar davom etgan. Manzilgohlar konstruktiv tuzilishi g’or - makonlar va ochiq – yalang kulbalar odamzot manfaatlariga xizmat qilib, ovchilikni rivojlanishiga keng imkoniyatlar hosil qilgan [3].

Tadqiqotchilar qayd qilishicha, qo’shni hududlarda istiqomat qilgan ovchilar tog’ g’or makonlar sifatida xizmat qilgan, masalan, janubiy Tojikistonda ashel davri avlodlari ota bobolari makonini tashlab ketmaganlar. Bunday g’or makonlar Og’zikichik, ochiq tipda esa Qorabura, Qayraqqum, Turkmanistonda ochiq tipda Qashqirbuloq, Janurpa, Qoratangir va Tomchisuv, Qirg’izistonda Tossor, Georgiy bug’or, Xo’jag’ayr, janubiy Qozog’istonda Sariarka, Beshpaq, Muzbel, Takali, Shabakti makonlari odamzotlarga xizmat qilgan [4]. So’ngi tosh davriga kelganda Xorazm vohasi shimolida joylashib, sharqiy tomon cho’zilib, yastanib yotgan Sulton Uvays tog’i so’l sohili hududida ochiq tipda Burli – 3 manzilgohi odamzot uchun xizmat vazifasini bajargan [5]. Burli – 3 makoni ochiq joyda joylashib, ovchilarning mehnat faoliyatini olib borishiga imkon bergan.

Sulton Uvays tog' so'l sohili hududida tabiiy manbalar va ekologik vaziyat barqaror bo'lganligi sabab aholi navbatdagi tarixiy jarayonda ochiq holatga ega bo'lgan, yirik hayvon suyaklaridan tiklangan chayla-kapalarda etnik jarayonlarni olib borishi barobarida hayot va ijod bilimini davom ettirganlar.

Mezolit davri (miloddan avvalgi 12-7 ming yilliklar) O'rta Osiyo ibtidoiy jamiyat xo'jalik sohalarida erishgan yutuqlaridan ajralib turishini kuzatish qiyin emas. Mazkur davrda yuz bergan o'zgarishlar favqulotda ahamiyat kasb etadi, ya'ni Buyuk Tatis muzligining regressiyasi natijasida geografik kenglikda sernam va serunum tekislik vujudga kelgan. Shu bilan birga, haroratning ko'tarilish, iqlim sharoitining o'zgarishi munosabati bilan sovuqtalab hayvonlar shimoliy tomonga siljigan bo'lsa, hudud tabiatiga mos o'simlik va hayvonot dunyosi shakllangan. Arxeologik adabiyotlar ko'rsatishicha, mezolit davrida tog'li o'lkalarning ba'zilarida turfa olamga chiqqan avlodlari ajdodlari ijod qilgan kulbalarida yashab ovchilik va termachilik xo'jaligini davom ettirganlar. Farg'ona vodiysida Obishir, Toshko'mir, Surxondaryoda Machay makonlari mezolit davri ovchilariga xizmat qilgan [6]. Demak, O'zbekistonning ba'zi tog'li hududlarida allaqachon ovchilik va termachilik kasbini puxta egallagan aholi vorislari tabiiy – iqtisodiy va ekologiya zaxirasi mavjudligini nazarga olib yashab turgan makonlarini tashlab ketmaganlar. Lekin, Toshkent viloyatida Ko'lbuloq, Obirahmat va Xo'jakent g'or makonlari ovchilari g'or makonlaridan butunlay voz kechib, tekislikka kelib joylashganlar (Bo'zsuv, Qo'shilish), Zarafshon daryosi quyi xavzasi, Ustyurt Chinki va Sulton Uvays tog'i aholisi moslashgan geografik hududlarda ota-bobolari ijodi bo'lgan chaylalarda istiqomat qilib, xo'jalik sohalarini yanada rivojlantirish maqsadida ixtirolar qilganlar.

Mezolit davrida turar-joylar tuzilishi, joylashishi holatini tog', tog' oldi va tekislikning geografik holati va etnik munosabatlar darajasini qayta tiklashda arxeologik manbalar muhim ahamiyat kasb etadi. O'rta Osiyo mintaqasini barcha tarixiy – geografik hududlarida mezolit davriga mansub manzilgohlar arxeologik jihatdan o'rganilgani bois geografik axborot doirasi keng. Aholi guruhlari tog' daralari, dashtlar, ko'llar va suv xavzalari sohili etaklarida joylashib, mavjud bo'lgan qurilish ashyolaridan foydalanib O'rta Osiyo mezolit davri arxeologik kompleksini hosil qilganlar. Masalan, Kaspiy dengizi shimoli-sharqiy hududida Qoratangir va Yangija manzilgohlari aholisi Damdamchashma, Kayli, Jebel, Ustyurtda Aydobor, Churuk, Oqtaylik, Qizilqum Lavlakon, Daryosoy, O'rta Zarafshon Sazag'on, Chorvakti, janubiy Tojikistonda Chilchorchashma, Dag'ana, Pomir tog'i tizimida Oshxona, Qoratumshuq manzilgohlarini qayd qilish joiz [7]. So'ngi tosh davri aholisi yangi guruh a'zolari mezolit davrida O'rta Osiyo mintaqasida iqlim sharoit iliq va nam holatda bo'lganligi bois, tog'li hududlarda tabiiy manbalar, o'simlik va hayvonot olami serob bo'lganligi bois, ko'nikkan makonlaridan voz kechmagan, xuddi shunday qulay sharoit tekisliklarda ham namoyon bo'lgan. Chunonchi, Ustyurt, Sulton Uvays tog'i va Qizilqum sarhadlarida hajmi katta va kichik ko'llar mavjudligi, dasht hududlarda sho'rlanmagan sof tuproq, albatta o'simlik va hayvonot dunyosi rang-barang bo'lganligi bois odamzot keng tekisliklarda makon qilib olganlar. Kezi kelganda ta'kidlash joiz bo'ladiki, tog' makonlar doimiy, suv xavzalari, ko'llar sohili etagidagi manzilgohlar mavsumiy bo'lgan. Shuning uchun ham yuqorida qayd qilingan hududlarda joylashgan aholi turar-joylarining tuzilishi bir xil tarz xususiyatlari rang-barangligi kuzatiladi.

Shu tariqa yuqorida, qayd qilingan fikr mulohazalardan kelib chiqib, quyidagi yakuniy xulosani qayd qilish mumkin:

- Yer geologiyasi to'rtlamchi davrining turli bosqichlaridagi osmono'par tog', tog' tizmalari yer tebranishlari natijasi bo'lgan g'or makonlar va ochiq tipdagi buloqlar sohili etagiga ulangan tekisliklar ilk etnik makonlar sifatida odamzotlarga xizmat qilgan;

- Qadimgi tosh davri ilk, o'rta bosqichlarida Turon pasttekisligining shimoli-g'arbiy qismi geografik manzarasini tasvir qilgan Xorazm hududi odamzot tomonidan o'zlashtirilmagan. Shu sababdan, ushbu tarixiy davrlarda kechgan etnik munosabatlarni qayta tiklash imkoniyati cheklangan;

- Tosh davri so'ngi bosqichiga kelganda Ustyurt platosi janubi-sharqida faoliyat olib borgan o'rta tosh davri ovchilari bir guruh vakillari vujudga kelgan oziq-ovqat muammosini nazarga olib, Sulton Uvays tog'i so'l sarhadlarini o'zlashtirib, mavjud bo'lgan tabiiy manbalardan foydalanib ota-bobolari amaliy tajribalarini o'zlashtirgan holda miqdor jihatdan katta hayvon suyaklaridan bunyod etilgn Burli - 3 makonida istiqomat qilib etnik jarayonlarni davom ettirganlar. Bu esa o'z navbatida

Ustyurtning janubi-sharqiy hududi aholisi bilan qon-qarindoshlik munosabatlarini olib borishga imkon beradigan aloqa yo'llariga asos solganlar;

- Mezolit davrida mazkur etnik munosabatlar davom etgan bo'lib, uning rivojlanishi keyingi tarixiy davrlarda moddiy ashyolar asosida o'z isbotini topgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Кабиров Ж., Сагдуллаев А.С. Ўрта Осиё археологияси – Тошкент. Ўқитувчи 1990-Б. 14.
2. Окладников А.П. Средний палеолит-мустьерское время в Средней Азии// Средняя Азия в эпоху камня и бронзы-М.-Л.: Наука, 1966,-С. 25-33.
3. Окладников А.П. Неандертальский человек и следы его культтуры в Средний Азии – М, наука 1940. N6-С. 5-19.
4. Холматов Н.М. Мезолит низовя Зарафшана// Имку – Самарқанд 2000, вып. 31 – С. 21-34.
5. Виноградова Е.А. Первые палеолитические находки в Султануиздаге// Приаралье в древности и средневековье – М, ИВЛ, РАН, Наука 1988 – С. 74-77.
6. Исламов У. Пещера Мачай – Ташкент, Фан, 1975-С. 20-35.
7. Окладников А.П. Верхнепалеолитическое и мезолитическое время// Средняя Азия в эпоху камня и бронзы – М.-Л., Наука, 1966 – С. 59-68.

UO'K 947.6

OLIY KENGASHGA OVOZ BERISH JARAYONI TARTIBI (1990-YIL SAYLOV MISOLIDA)

S.S.Salimov, tayanch doktorant, NavDPI, Navoiy

Annotatsiya. *Mustaqil O'zbekiston tarixidagi ilk parlament Oliy Kengash hisoblanadi. Oliy Kengash 1990-1994-yillarda faoliyat ko'rsatgan. Ushbu maqolada O'zbekiston SSR Oliy Kengashiga 1990-yil 18-fevralda bo'lib o'tgan saylov jarayonidagi ovoz berish tartibi, vaqti, saylov byullitenlarining to'ldirish qoidasi, nomzodlarni ro'yxatga olinishi kabi masalalar o'rganilgan.*

Kalit so'zlar: *Oliy Majlis, Oliy Kengash, parlament, saylov, demokratiya, vakolat, qonun, kollegial, saylov okrugi, saylov uchastkasi, deputat, loyiha, byulliten*

Аннотация. *Олий Кенгаш – первый парламент в истории независимого Узбекистана. Верховный Совет действовал в 1990-1994 гг. В данной статье рассматриваются такие вопросы, как порядок голосования, сроки, правила заполнения бюллетеней, регистрация кандидатов на выборах в Верховный Совет Узбекской ССР, состоявшихся 18 февраля 1990 года.*

Ключевые слова: *Олий Мажлис, Олий Кенгаш, парламент, выборы, демократия, власть, закон, коллегиальность, избирательный округ, избирательный участок, депутат, проект, бюллетень*

Abstract. *The Oliy Kengash is the first parliament in the history of independent Uzbekistan. The Supreme Council operated in 1990-1994. This article examines issues such as the voting procedure, timing, rules for filling out ballots, and registration of candidates during the election to the Supreme Council of the Uzbek SSR held on February 18, 1990.*

Key words: *Oliy Majlis, Oliy Kengash, parliament, election, democracy, authority, law, collegial, electoral district, polling station, deputy, project, bulletin*

O'z kelajagi va taraqqiyoti xususida qayg'uradigan har qanday mamlakat, albatta, davlat boshqaruvi va davlat hokimiyatini tashkil etishda demokratiya qonun-qoidalari va tamoyillariga tayanadi. O'zbekiston Respublikasi ham istiqlolga erishgach o'z oldiga huquqiy, demokratik mamlakat qurish va fuqarolik jamiyati barpo etishni asosiy maqsad sifatida belgilab oldi va davlat hokimiyatini tashkil etishda demokratiya yo'lini tanlab oldi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining davlat boshqaruvida shubhasiz qonun chiqaruvchi hokimiyat bo'lmish parlamentning o'rni beqiyosdir. Ma'lumki hozirgi kundagi ikki palatali parlament bo'lmish Oliy Majlisning tashkil topishidan oldin parlament Oliy Kengash deb nomlangan. Aynan Oliy Kengashning faoliyati 1990-1994-yillarda bo'lib, uning saylov tizimi, qanday tashkil topgani tarix uchun qiziqarli davr hisoblanadi. Ushbu jarayonlarni tadqiq etish saylov jarayonlarining bugungi saylov tizimi bilan farqlari, o'xshashligi, o'zaro bog'liqligi kabi masalalarni o'rganish

bugungi kunning dolrzarb vazifalaridan biridir. Sababi aynan Oliy Kengash nomi ostidagi parlamentimiz davrida O'zbekiston mustaqillikka erishdi. Oliy Kengashga saylovlar bo'lganda u tashkil etilganda davlat O'zbekiston SSR bo'lgan bo'lsa, u faoliyatini yakunlaganda davlat-mustaqil O'zbekiston Respublikasi deb ataladigan bo'ldi. Ana shu jihatlari bilan mustaqil O'zbekiston tarixidagi ilk parlament Oliy Kengashning tashkil topishi va saylov jarayonlari xarakterlidir. "Davlat mustaqilligiga erishganidan keyin biz o'zimizning istiqlol va taraqqiyot yo'limizni tanlab oldik, bu esa O'zbekistonning qat'iy yo'lidir. Bu jarayon O'zbekistonda hozirdayoq boshlanib ketdi. Respublikaning Oliy Kengashi chiqargan qonunlarga tayangan holda shu jarayonning huquqiy negizi yaratildi". [1]

O'zbekiston SSR xalq deputatlari va mahalliy sovetlar deputatlari saylovi 1990-yil 18-fevralda bo'lib o'tdi. Saylov bo'lib o'tadigan kungacha O'zbekiston SSR Markaziy saylov komissiyasi nomzodlarni ro'yxatga olish bo'yicha hisobot berib borgan va bu hisobotlar tegishincha matbuotda e'lon qilib borilgan. "1990-yil 10-yanvargacha 173 ta okrugda deputatlikka 342 nomzod ro'yxatga olindi. Ularning orasida turli millatlarga va ijtimoiy guruhlarga mansub, turli yoshdagi grajdanlar kommunistlar, partiyasizlar bor deydi O'zbekiston SSR Markaziy saylov komissiyasi raisi T.X.Sobitov."[2] Ko'rib turganimizdek O'zbekiston SSRning yuqori vakillik organiga saylovlar tegishli tartibda tashkil etilgan. Saylovning bosh omili hisoblangan raqobat prinspi va saylovchining ma'lum nomzodni tanlash imkoniyati mavjudligini ta'minlash maqsadida nomzodlarni ro'yxatga olish yo'lga qo'yilgan. Nomzodlar nafaqat turli ijtimoiy guruhlar yoki partiyalardan balki jamoat tashkilotlaridan ham ko'rsatilganini ko'rishimiz mumkin.

"Mehnat kollektivlari konferensiyalari va yig'ilishlarida hamda istiqomat joylarida jamoat tashkilotlarining organlari O'zbekiston SSR Xalq deputatligiga 56 okrugdan 215 nomzod ko'rsatdilar"[3]. Ushbu saylov jarayonlarida nomzodlarning yosh senziga ham e'tibor berilgan. Xususan O'zbekiston SSR Markaziy saylov Komissiyasi hisobotida bu holat o'z aksini topgan. "Respublika komsomol tashkilotlarining yosh saylovchilar va O'zbekiston SSR Xalq deputatligiga nomzodlar bilan ishi to'g'risidagi axboroti tinglandi. Saylovoldi kompaniyasi davomida Yoshi 30 ga yetmagan 111 kishi deputat mandati uchun kurashish huquqini qo'lga kiritdi".[4]

Ushbu saylov turli shiorlar va chaqiriqlar ostida o'tgan. Chorlovlarda bevosita ittifoq tarkibida bo'lgan xalqlarni jipslikka chorlov, yagona birlik sifatida his etilishiga umidvorlik ruhi yog'rilgan edi. "O'zbekiston Kompartiyasining prinspial pozitsiyasi shundan iboratki, respublika faqat Sovet Federatsiyasi sostavida sovet xalqlarining qardoshlik oilasidagina milliy va ijtimoiy jihatdan muvaffaqiyatli ravnaq topishi mumkin. (O'zbekiston Kompartiyasining saylovoldi harakat dasturidan)" [5]

O'zbekiston SSR Xalq deputatlari va mahalliy Sovetlar deputatlari saylovining ovoz berish tartibi quyidagicha bo'lgan. Avvalambor ovoz berish vaqti bo'yicha qaraydigan bo'lsak bugungi kundagi ovoz berish jarayonida o'zaro farqlarni ko'rish mumkin. Hozirgi kunda ovoz berish vaqti masalasi tegishli qonunlar bilan tartibga solingan. " Ovoz berish saylov kuni soat 8:00 dan 20:00 gacha o'tkaziladi."[6] 1990-yilgi saylov jarayonlarida esa ovoz berish vaqti bugungi kundagidan farq qilganligini ko'rishimiz mumkin. "Saylov to'g'risidagi qonunga muvofiq ovoz berish saylov kuni mahalliy vaqt bilan ertalab soat 7 dan 20 gacha qadar davom etadi."[7]


Aytish joizki 1990-yil 18-fevraldagi saylov murakkab siyosiy davrga to'g'ri kelgan. Sababi aynan shu davrda O'zbekiston SSR yoinki butun ittifoqda qayta qurish siyosati avj olgan edi. Shunday bo'lsada fuqarolarimiz tomonidan juda ko'pchiligi ushbu saylovga katta qiziqish bildirib nomzod sifatida ro'yxatdan o'tishgan edi. "O'zbekiston SSR saylov okruglarida respublika xalq deputatligiga 1127 nomzod, mahalliy sovetlarga 86635 nomzod ro'yxatga olindi, ko'pgina okruglarda ikkitadan uchtadan va undan ham ko'proq da'vogarlar bor" [8]

Saylovning muhim tarkibiy qismi bo'lgan saylov byulliteniga to'xtaladigan bo'lsak, bugungi kunda byullitenning namunasi "O'zbekiston Respublikasi saylov Kodeksi"ga binoan Markzaiy saylov komissiyasi tomonidan tasdiqlanishi belgilangan. 1990-yilgi saylov byullitenlarining o'ziga xos tomoni bu ranglarida bo'lgan. O'zbekiston SSR Xalq deputatlari hamda respublika Xalq deputatlari mahalliy Sovetlariga deputatlar saylovi bir kunda o'tkazilishi munosabati bilan har bir

saylovchi tegishincha uchtadan- to'rttagacha saylov byullitenini olgan. Ular yuqorida aytilganidek ranglariga ko'ra farqlangan.

"-O'zbekiston SSR Xalq deputatlari sayloviga doir oq tusdagi saylov byulliteni;
- oblast soveti saylovga doir yashil tusdagi saylov byulliteni;
- rayon sovetiga saylovga doir ko'k tusdagi saylov byulliteni;
- shahar, pasyolka, qishloq sovetiga saylovga doir oq tusdagi saylov byullitenini olgan; "[9]

Shu o'rinda qanday holatda 3 ta qanday holatda 4 ta byulliten olishiga izoh berib o'tsak. Toshkent shahrida shuningdek rayonlarga ajratilmagan oblastga bo'ysunuvchi shaharlarda saylovchilar uchtadan byulliten, qolgan hamma saylovchilar to'rttadan byulliten olgan. Saylov kuni saylovchi o'zi istiqomat qiladigan joyga borib fuqarolik pasportini ko'rsatgan holda byullitenni olgan va saylovda qatnashgan. Saylov varaqasini olganligi to'g'risida saylovchilar ro'yxatiga imzo qo'ygan.



• Намуна

Ўзбекистон ССР халқ депутатини сайлаш бўйича

САЙЛОВ БЮЛЛЕТЕНИ

ИЗБИРАТЕЛЬНЫЙ БЮЛЛЕТЕНЬ

по выборам народного депутата Узбекской ССР

1990 йил 18 февраль

18 февраля 1990 года

305-Охунбобоев сайлов округи

избирательный округ №

Сиз қарши овоз берадиган депутатликка номзодларнинг фамилиялари ўчирилади.
Фамилии кандидатов в депутаты, против которых голосуете, вычеркиваются

~~ОЛИМОВ Шавкат~~ "Ўзбекистон" колхози, бош агрономи, Найман қ.

~~ВОСИҚОВА Зулфия Аминовна~~ Олтинкўл қишлоғи, 10-ўрта мактаб директори

ТОИРОВ Абдулхай Иброҳимович Охунбобоев номли совхоз бош инженери, Кумлоқ қ.

Овоз бериш чоғида биттадан ортиқ номзод қолдирилган сайлов бюллетени ҳақиқий эмас, деб топилади.

Избирательный бюллетень, в котором при голосовании оставлено более одного кандидата, признается недействительным.

1-rasm. Oliy kengashga ovoz berish jarayonida saylov byulleteni namunasi

1990-yil 18-fevraldagi saylovlarda yana bir, bugungi kundagi saylov jarayonlariga monand bo'lgan voqelik bu turgan joyda ovoz berishni tashkil etish hisoblanadi. Ya'ni 90-yillar boshida bo'lib o'tgan saylovda ham tegishli saylov uchastkasiga kelish imkoniyati bo'lmagan saylovchilarning iltimosiga ko'ra turgan joyda ovoz berishni tashkil etishlari mumkin bo'lgan. Tegishli nomzodni tanlab ovoz berish jarayoni hozirgi saylov tizimidan tubdan farq qiladi. Masalan O'zbekiston Respublikasining joriy qabul qilingan saylov kodeksiga binoan ovoz berish tartibi quyidagicha: " saylovchi o'zi yoqlab ovoz berayotgan nomzodning familiyasi ro'parasiga o'ng tomonda joylashgan bo'sh kvadratiga "+" yoki "x" belgisini qo'yadi" [10]. 1990-yil 18-fevral kuni bo'lib o'tgan saylovda esa ovoz berish tartibi quyidagicha bo'lgan. " Ovoz beruvchi kishi saylov byullitenini yashirin ovoz berish kabinasida yoki xonasida to'ldiradi, ya'ni o'zi qarshi ovoz berayotgan nomzodlarning familiyalarini o'chirib har bir byullitenda faqat bir nomzodni qoldirishi kerak. Bunday talabga rioya qilinmagan taqdirda saylov byulliteni haqiqiy emas deb topiladi va saylov natijalarini aniqlash chog'ida hisobdan chiqarib yuboriladi. Saylov byullitenlariga qo'shimcha ravishda grajdanlar familiyalari yozilgan bo'lsa bunday ovozlar hisobga olinmaydi." [11]. 1990-yil bo'lib saylovning byulliteni namunasi ilovada ko'rsatib o'tilgan.

Saylovning yana bir muhim jarayoni bu ovozlarni hisoblab chiqish bo'lib, bu voqelikda 1990-yilgi saylov bilan bugungi kundagi saylov tizimida farqlar mavjud emas. Ya'ni har ikkalasida ham ular matbuot, OAVdan kuzatuvchilar, saylovchilarning ishonchli vakillari kabi shaxslar ishtirok etishi mumkinligi qayd etilgan.

Muxtasar o'rnida shuni aytish mumkinki qonun chiqaruvchi hokimiyat bo'lmish parlamentimiz faoliyati bevosita davlatimiz taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Sababi aynan parlament tomonidan chiqarilayotgan qonunlar xalqimiznining farovon hayot kechirishida asosiy rol o'ynaydi. Shu sababdan ham Oliy Majlis faoliyati bilan bog'liq bo'lgan har bir masala jiddiy yondashuvni talab etadi. Xususan parlamentimiz saylov jarayonlari ham bundan mustasno emas albatta. Aynan mana shuning uchun ham prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan parlament faoliyati uning tashkiliy jarayonlariga alohida e'tibor berib o'z nutqlarida doimiy ravishda ushbu masalaga o'z e'tiborini qaratib kelmoqda. " Qachonki, siyosiy partiyalarning faolligi oshib, parlament faoliyati doirasida ular o'rtasida sog'lom raqobat va bahs-munozara muhiti shakllansa, shundagina vakillik hokimiyati organlari ham samarali faoliyat ko'rsatadi"[12]. Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki O'zbekiston Respublikasi milliy saylov qonunchiligida to'plangan amaliyot kelajakda saylovlarning yanada oshkoralik va adolatlilik prinsplari asosida o'tishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Islom Karimov "O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat mafkura" I T. Toshkent O'zbekiston-1996,101-b
2. Markaziy saylov komissiyasida. // Sovet O'zbekistoni, 1990-yil 13-yanvar №11(20.578)- B.2
3. Markaziy saylov komissiyasida. // Sovet O'zbekistoni, 1990-yil 13-yanvar №11(20.578)- B.2
4. Markaziy saylov komissiyasida. // Sovet O'zbekistoni, 1990-yil 13-yanvar №11(20.578)- B.2
5. R.Rahmonov. Ovoz berish tartibi to'g'risida // Sovet O'zbekistoni, 1990-yil 14-fevral №38 (20.605)- B.2
6. O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksi. // https://lex.uz/uz/docs/-4386848 (26.06.2019)
7. R.Rahmonov. Ovoz berish tartibi to'g'risida // Sovet O'zbekistoni, 1990-yil 14-fevral №38 (20.605)- B.4
8. R.Rahmonov. Ovoz berish tartibi to'g'risida // Sovet O'zbekistoni, 1990-yil 14-fevral №38 (20.605)- B.4
9. R.Rahmonov. Ovoz berish tartibi to'g'risida // Sovet O'zbekistoni, 1990-yil 14-fevral №38 (20.605)- B.4
10. O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksi. // https://lex.uz/uz/docs/-4386848 (26.06.2019)
11. R.Rahmonov. Ovoz berish tartibi to'g'risida // Sovet O'zbekistoni, 1990-yil 14-fevral №38 (20.605)- B.4
12. Shavkat Mirziyoyev " Milliy taraqqiyot yo'limizni qa'tiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" 1-tom. Toshkent. O'zbekiston-2017 44-b

UO'K 930.85:351.853(075.8)

NAVOIY VILOYATI MADANIY-TARIXIY YODGORLIKLAR O'RGANILISH TARIXI

L.Sh.Xo'jayeva, o'qituvchi, Navoiy Davlat Pedagogika Instituti, Navoiy
T.Sh.Ro'ziyeva, o'qituvchi, Navoiy Davlat Pedagogika Instituti, Navoiy

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Navoiy viloyatida tadqiq etilgan madaniy-tarixiy yodgorliklardan ayrimlarining o`rganilishi muhokama etiladi. Jumladan Kampirdevor, Karmana yodgorliklari o`rganib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *Navoiy, Kampirdevor, Karmana, yodgorlik, arxeologiya, meros.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается изучение некоторых культурно-исторических памятников, исследованных в Навоийской области. В том числе старушка, исследуются памятники кармана.*

Ключевые слова: *Навои, старушка, кармана, памятник, археология, наследие.*

Abstract. *this article discusses the study of some of the cultural and historical monuments studied in Navoi region. In particular, the monuments of Old Age, Karmana will be studied.*

Keywords: *Navoi, old age, Karmana, monument, archeology, heritage.*

Kirish. Ma`lumki, Navoiy viloyati tarkibida bo'lgan tumanimiz hududi o'tmishda ma'lum va mashhur, ulkan Sug'd tarixiy madaniy mintaqasining muhim, ajralmas qismi hisoblanib, Buxoro sug'di tarkibida faoliyat ko'rsatgan. Tumanning geografik joylashuvi, undagi aholining hayot tarzi, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti jarayonida juda ko'plab arxeologik yodgorliklar barpo etilgan bo'lib, ularningbir qismi bizgacha yetib kelgan. Ana shuning uchun ham bu yodgorliklarni o'rganish, tadqiq etish qarib yuz yillardan buyon arxeologik olimlar e'tiborida.

Adabiyotlar sharhi. 1959-1963 yillarda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Arxeologiya instituti ilmiy xodimi Xalilulla Muhammedov Kanpirak devorining barcha qismini tuyada aylanib chiqqan.

Buxoro tarixi haqidagi asl haqiqatlar shahardagi qadimiy binolar va bugungi kunda ayrim joylarda qoldiqlari qolgan devorlarda namoyon bo‘ladi. Necha ming yillardan buyon viqor solib turgan qadimiy devorlar necha voqea- hodisalarga guvoh. Devor so‘zining asl lug‘aviy ma’nosi “shaharning aylanma ko‘ylagi”, ya’ni shahar atrofini o‘rab olgan mudofaa inshooti, degan ma’noni anglatadi.

Buxoro vohasini o‘rab turgan devor xarobalari hozirgi vaqtda vohaning turli hududlarida uchraydi. U xalq orasida «Kanpirak», «Kampirdevor»,

«Devori Kampirak» nomlari bilan mashhur. Tarixiy kitoblarda Buxoro atrofida turli davrlarda ikkita devor barpo etilgani qayd etilgan.

Ulardan biri bo‘lgan «Kampirak devor» ancha qadimiyroqdir. Ikkinchisi esa VIII-IX asrlarga oid hisoblanadi. Devor minoralar ko‘rinishidagi qal’alar va istehkomlar kabi qo‘shimcha himoya inshootlariga ham ega bo‘lgan. Arxeologik qazishmalar paytida devorlarni qurish bosqichlari va qurilish uskunalari aniqlandi. Tadqiqotchilarga ko‘ra, devor miloddan avvalgi III asrdaqurilgan.

Asrlar davomida tabiat kuchlari va o‘zaro urushlar natijasida devor nurab, yemirilib, hozirga kelib uzun sun’iy qir holiga kelib qolgan. Qirning balandligi turli joylarda har xil bo‘lib, o‘rta hisobda 1 metrdan 3 metrgacha, hatto 4 metrgachaetgan. Uning kengligi ham har joyda turlicha saqlangan va o‘rtacha 20-30 metrni tashkil etadi.

Istehkomga «Kampirak devori» nomining berilishi yuzasidan ham turlicha fikrlar ilgari suriladi. Manbalarga ko‘ra qadim Buxoro hukmdorlaridan biri ayol bo‘lgan. U mamlakatni tashqi dushman hujumlaridan saqlab qolish uchun kuchli istehkom qurishni buyuradi. Inshoot ayol hukmdorning qarilik – kampirlik davrida qurib bitkazilgani uchun unga shu nom berilganligi haqida hikoya qiluvchi rivoyatlar saqlanib qolgan.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil. Respublika Fanlar Akademiyasining dasturiga asosan 2012 -2015 yillari O‘zbekiston, AQSh qo‘shma ekspeditsiya, O‘zbekiston tomondan O‘zFA arxeologiya institutining yetakchi ilmiy xodimlari Jamoliddin Mirzaahmedov, Baxtiyor Abdullaev va Sirojiddin Mirzaahmedov; AQSh tomonidan Nyu -York universiteti professori Soren Stark va Markus Konigsdorfer ishtirokida Qiziltepa, Kanpir devor qoldiqlarida qazuv, o‘rganuv ishlari olib borildi.



O‘zining qo‘llanilishi faoliyati,me’moriy qurilish usullari bilan jahonga mashhur “Buyuk Xitoy devori” yoki Samarqanddagi “Devori qiyomat”ga o‘xshash IV, VI asrda bunyod etilgan Buxoro vohasining asosiy qismini o‘rabolgan uzunligi 400 kilometrgayaqin bo‘lgan “Kanpir devol” yoki “Devori Kanpirak”qoldiqlarining yaroqli qismifaqat Qiziltepa hududida yaxshi saqlanib qolgan.



Kanpirak devori xarobalarida N.F.Sitnyakovskiy, A.Yu.Yakubovskiy, Shishkin, Xalilulla Muhammedov va boshqa arxeologlar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarda devorning hozirgi Qiziltepa tumanidan o‘tuvchi qismida quyidagi natijalarga kelindi.

- inshootning tag zaminishag‘al aralashgan tuproqdan iborat bo‘lib, eni 13 metr ekanligi;
- devor asosan paxsadan,ayrim joylari qismanto‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagiyirik hajimli xom g‘ishtlardan ko‘tarilganligi;

Melodiy eraning V asrida O‘rta Osiyo, Sharqiy Turkiston, Afg‘oniston va Shimoliy Hindistonning katta qismida qudratli Eftaliylar davlati tashkil topadi. VI asrning boshlari va o‘rtalarida Eftaliylar davlati uchun eng katta xavf Eron Sosoniylar davlati va Buyuk Turk hoqonligi tomonidan solinmoqda edi. Ayni shu sababli himoya devori,ya’ni Kanprak devori qurilishiga sabab bo‘lgan.

Undan tashqari Navoiy arxeologiyasida Karmana arxeologik nuqtasi ham muhim ahamiyatga ega.

Navoiy viloyatining Ko‘hna va navqiron Karmanadagi savdo nuqtasi “Xalqimiz tarixi va madaniyatini bir-biri bilan bog‘lagan holda qadimiy Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Farg‘ona kabi go‘zal shaharlari orqali Buyuk Ipak yo‘lining Osiyo bilan Yevropa o‘rtasidagi ishonchli madaniy va savdo ko‘prigi bo‘lib xizmat qilgan. Bu savdo yo‘li orqali aloqa qilingan qadimgi turli xalqlarning madaniyatlari boyidi, o‘zaro tinchlik va taraqqiyot rivojlandi. Buyuk Ipak yo‘li xalqaro ahamiyatga ega ekanligini sohibqiron Amir Temur yaxshi anglagan va shuning uchun ham doimo g‘amxo‘rlik qilib kelgan. Amir Temurning fransuz qiroli Karl VI ga yozgan maktubidagi quyidagi jumlalar fikrimizning isboti bo‘la oladi “...mamlakatimizga savdogarlaringizni yuborib turishlaringizni istar edik, biz ularni bu yerda hurmat va ehtirom bilan kutib olamiz. Bizning savdogarlarimiz ham (sizning) o‘lkangizga borishlari (kerak) va ularga ham ana shunday hurmat ko‘rsatilishiga ishonamiz. Ularga hech kim zo‘rlik qilmaydi va ortiqcha haq olmaydi, chunki dunyo savdogarlar tufayligina gullab yashnamoqda...”[2].

Afsuski, qo‘limizda eramizgacha va antik davrga taalluqli bozorlar, savdo inshootlariga oid ma’lumotlar kam. Ko‘pgina mutaxassislar Karmanadagi qadimiy bozorni bu davr bozorgohlari me’moriy jihatdan shakllanmagan ochiq maydon ko‘rinishida bo‘lgan deyishadi. Fikrimizcha, bozorgohlardagi savdo inshooti – ayvon shaklida bo‘lganligi haqiqatga yaqindir. Shundan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki, Karmanadagi dastlabki qadimiy bozor ayvonlar tuzilishi jihatidan oddiy, qurilishi oson va tejamli, zarurat tug‘ilganda buzib boshqa joyga qaytadan qurish imkoniyati mavjudligi ham hisobga olingan bo‘lishi mumkin.

Xulosa va munozara. Xulosa o`rnida aytish mumkinki, Navoiy viloyati o`ziga xos arxeologik yodgorliklarga ega muhim region hisoblanadi. Ushbu yodgorliklarni o`rganish va kelajak avlodga madaniy meros sifatida qoldirish biz uchun muhim burchdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Qahramon Rajabov, Rahim Maqsudov "Qiziltepa tarixi"- "Muharrir" nashriyoti, Toshkent-2011
2. Samarqand tarixi. I t., Toshkent, Fan,1971.–B.181.
3. Sanaev I. Ziyoviddin tarixi. – Toshkent. Sharq, 1995.
4. Bo'ri Qodirov. Buyuk Ipak yo'lini bog'lovchi muhim manba//Ijtimoigumanitar fanlar. 4/2017(13).
5. Kuyi Zarafshon Voxasi. Tarix va xozirgi zamon mavzuida o'tkazilganilmiy nazariy konferensiya materiallari. Toshkent:"Fan".2013.

УЎК 94

ЎРТА АСР МИНИАТЮРАСИДА УМАРШАЙХ МИРЗО ТАВСИРИ

Ф.Абдухолиқов, мустақил тадқиқотчи, Самарқанд Давлат Университети, Самарқанд

Аннотация. *Ўрта аср миниатюралари тарихимизни чуқур ўрганишда, хусусан, буюк аждодларимизнинг ташқи кўриниши, қиёфаларини белгилашда муҳим ўрин тутади. Темурийлар авлодидан бўлган Умаршайх Мирзо ҳаётини ўрганишда ҳам тарихий сувратларнинг ўрни беқиёс. Бу мақолада Умаршайх мирзо тасвирланган миниатюралар ҳақида сўз юритилади. Муаллиф томонидан ушбу суратлар қайси даврда, ким томонидан яратилгани, уларнинг тарихий аҳамияти таҳлил қилинади.*

Калит сўзлар: *Умаршайх Мирзо, миниатюра, бобурийлар, мусаввир, тасвирий санъат*

Аннотация. *Средневековые миниатюры играют важную роль в углубленном изучении нашей истории, в частности, в определении внешности наших великих предков. Несравнима роль исторических миниатюр в изучении жизни Умаршайха Мирзы, потомка Тимуридов. В этой статье рассказывается о миниатюрах с изображением Умаршайха Мирзы. Автор анализирует период создания, мастерство авторов этих картин, а также их историческое значение.*

Ключевые слова: *Умаршайх Мирза, миниатюра, Бабуриды, живописец, изобразительное искусство.*

Abstract. *Medieval miniatures play an important role in the in-depth study of our history, in particular, in determining the appearance of our great ancestors. The role of historical miniatures in the study of the life of Umarshaikh Mirza, a descendant of the Timurids, is incomparable. This article talks about miniatures depicting Umarshaikh Mirza. The author analyzes the period of creation, the skill of the authors of these paintings, as well as their historical significance.*

Key words: *Umarshaikh Mirza, miniature, Baburids, painter, fine arts.*

Темурий ҳукмдорлар орасида икки нафар Умаршайх Мирзонинг номи тарих китобларида зикр этилган. Уларнинг биринчиси Соҳибқирон Амир Темурнинг иккинчи ўғли бўлган. У 1356 йилда туғилиб, амир Темурнинг кўпгина ҳарбий юришларидан иштирок этган, хусусан Тўхтамишхон билан бўлган жангда фаол қатнашган. 1394 йилда вафот этган [3].

Иккинчи Умаршайх эса, эса ўзининг отдошидан роппа-роса юз йил кейин туғилган ва тахминан у билан бир хил умр кўрган.

Умаршайх Мирзо II (1456-1494) Бобурийлар (Мўғуллар) сулоласининг асосчиси Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг отаси, 1469 йилдан Фарғона амири бўлган. Бобурнинг ёзишига кўра, Умар Шайх Мирзо Самарқанд шаҳрида туғилган ва Мовароуннаҳр султони Абу Саиднинг тўртинчи ўғли бўлган. У ўғлини ёшлик чоғиданоқ Андижонга, сўнгра бутун Фарғона водийсига, кейинроқ эса Тошкент ва Сайрамга ҳам ҳоким қилиб тайинлаган. Умар Шайх Мирзо ўттиз тўққиз ёшида Ахсида вафот этган.

Бобур Мирзо ёзади: (Умаршайх Мирзо) паст бўйлуқ, тегирма соқоллиқ, қўба юзлуқ, танбал киши эди. Тўнни бисёр тор кияр эди, андоғким, боғ боғлатурда қорнини ичига тортиб боғлатур эли, боғ боғлағондин сўнг ўзини қўя берса, бисёр бўлур эдиким, боғлари узулур эди. Киймоқта ва емоқта бетакаллуф эди, дасторни дасторпеч чирмар эди. Ул эамонда дасторлар

тамом чорпеч эди, бечин чирмаб, алоқа қўяр эдилар. Ёзлар ғайри девонда аксар мўғулий бўрк кияр эди.

Бобур Мирзо отасини покиза эътиқодли, беш вақт намозни тарк қилмайдиган тақводор инсон бўлганини зикр этади. Хожа Аҳрорнинг садоқатли муридларидан бўлган. Низомий ва Деҳлавий “Хамса”ларини, Фирдавсий “Шоҳнома”сини мунтазам мутолаа қилган.

Унинг адолати ҳақида сўз юритаркан, Бобур бир воқеани мисол келтиради: Бир йилиХитойдан келаётган минг кишилик карвон Андижоннинг шарқий тарафидаги тоғда, қор кўчкиси остидан қолиб кетади. Бу табиий офатдан Фақат икки киши тирик қолади. Афсуски қолганларони асраб қолишнинг иложи бўлдмайди. Умаршайх мирзо ёрдамчи кучларни жўнатиб, қор остида қолган юкларни чиқартиради. Самарқанд ва Хуросонга одам юбориб, ҳалок бўлган савдогарларнинг ворисларини излаб топтиради. Икки йил деганда юкларнинг барини меросхўрларга топширади.

Умаршайх мирзо қиличбозлик, мерганликда беназир инсон бўлган. Унеинг муштидан йиқилмаган йигит бўлмаган экан.

Бобур ўз одатига кўра, ҳеч кимни ҳатто ўз отасининг камчиликларини ҳам аямай қош этган. Жумладан у отасининг ичкиликбозлик ва кашандаликка ружуъ қўйганини ҳам яширмайди. Нард, ҳатто қимор ўйинларига ҳам қизиқиши бўлганини тан олади.


Умаршайх мирзо ўз ҳукмронлиги даврида кўплаб жангларда қатнашган. Жумладан бир гал ўз акаси Султон Аҳмад мирзо билан ҳам Ховосда урушиб, ундан енгилган.

Абусаид Мирзо унга Фарғона вилоятини бошқариш учун топширган эди. Кейинчалик акаси унга Тошкент ва Сайрам (Чимкент)ни ҳам берган. Шоҳрухия, Хўжанд, Ўратепа, Усрушона (ҳозирги Сирдаё вилояти) ҳудудлари ҳам унга тегишли бўлган.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур унинг энг катта ўғли эди. У мирзони нг Қутлуғнигор хоним исмли аёлидан туғилган. Шунингдек, Умаршайх Мирзонинг Носир ва Жаҳонгир исмлари ўғиллари, Хонзодабегим, Меҳрбонубегим, Шаҳрбонубегим, Ёдгор сунтонбегим, Руқия султонбегим исмли қизлари бўлган.

Тарихий манбаларга кўра, Умаршайх мирзо акалари Аҳмад мирзо ва Маҳмуд мирзо, шунингдек қайниси Махмудхон билан мунтазам урушиб келган. 1494 йилда икки акаси Ахсига юриш қилган пайти Умаршай мирзо жар лабида қурилган кабутархонасидан жарга қулаб нобуд бўлади [1].

Табиийки, Бобур Ҳиндистонда ўз давлатини Яратганидан кейин ҳам ота-бобларини унутмаган. Унинг авлодлари ҳам темурийларнинг анъаналарини давом эттирган.



Умар Шайх Мирзо II портрети. Ҳиндистон. 1875–1900 йиллар Бруклин музейи. АҚШ. № 59.205.9

Умар Шайхнинг ушбу образи мўғул рассомларининг тасаввурий кўргазмали портрет анъанаси асосида яратилган, аммо рассом уни буюк сулола асосчисининг отаси ҳақидаги тасаввурларидан келиб чиқиб, ошкора идеаллаштирган ҳолда тасвирлаган.

Маълумотларга кўра, бу сурат Ҳиндистонда 1875-1900 йилларда ишланган. Демак, бу пайтда мамлакат инглизлар бошқаруви остида эди. Номаълум рассом темурий ҳукмдорни Бобурнинг авлодларига хос кўринишда тасвирлайди.

Айни пайтда суврат АҚШнинг Вашингтон шаҳрида, Бруклин музейида, № 59.205.9 инвентар рақами остида сақланади. Миниатюра қаси қўлёзмадан олингани, сурат қай тариқа ушбу музейга келиб қолгани ҳақида маълумот йўқ.

Бобурнинг айтишича, отаси паст бўйли, силлиқ соқолли, юзлари дағал, бўлган. У жуда тор чопон кийиб, белбоғини маҳкам боғлаб, қорнини ичкарига тортиб юрган; агар у белбоғини бойлаб, сал ўзини эркин қўйса, белбоғи узилиб кетаркан. Саллани ўша пайт одатига кўра, тўрт ўрам қилиб боғлаган. Ёзда, у девондан бошқа ҳамма жойда асосан мўғулларнинг телпагида юрар эди.

Сурат Бобур отаси ҳақида берган тасвирларига унча мос тушмайди. Суратдаги шоҳ қорнини ичига тортиб, белбоғини боғлаганга ўхшамайди. У бир мунча озғин тасвирланган. Бошида мўғулча бўрк эмас, Ҳиндистоннинг мусулмон ҳукмдорлари удумига мос тарзда қизил тусли салла кийган.

Ҳукмдор очиқ майдонда, тахт устида ўтирибди. Майдон панжаралар билан ўраб олинган. Майдон четларида гуллар очилиб турибди. Сурат ўрта аср ҳингд миниатюра санъати анъаналари асосида чизилган. Турли манбаларр орқали Бобурийлар шажарасига мансуб Муҳаммад Халил Султон, Абу Саид Мирзо, Бобур, Ҳумоюн, Акбар, жаҳонгир сингари ҳукмдорларнинг худди шу анъана асосида, мовий фонда, нақшли ҳошия ичида чизилган портретларини учратдик.

Чамаси бу сурат XIX аср охирларида эмас, ҳали Бобурийлар тахт тепасида бўлган пайтда, сарой буюртмаси асосида бир ёки бир неча рассом томонидан чизилган бўлиши керак. Рассом бу ҳукмдорлар, жумладан Умаршайх мирзони тасвирлашда қайси манба ёки суратдан фойдалангани номаълум. Бироқ, айни пайтда ушбу миниатюра ҳозирга қадар топилган, Умаршайх мирзо тасвирланган ягона миниатюра бўлиб қолмоқда.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Бобур З.М. Бобурнома. – Тошкент: Фан, 1960. – Б.65.

2. Abraham Eraly (17 September 2007). Emperors Of The Peacock Throne: The Saga of the Great Moghuls. Penguin Books Limited. p. 18.

3. Fayziyev T., Temuriylar shajarasi, T. Фан, 1995. – Б. 38.

4. https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A3%D0%BC%D0%B0%D1%80-%D0%A8%D0%B5%D0%B9%D1%85-%D0%BC%D0%B8%D1%80%D0%B7%D0%B0

5. https://telegra.ph/TARIHDAGI-TASODIFLAR-06-22

УДК 748

ОСОБЕННОСТИ ПРИВАТИЗАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ В УЗБЕКИСТАНЕ В ПЕРЕХОДНЫХ ПЕРИОД

(на примере Бухарской и Навоийской областей)

А.М. Аминова, к.и.н., доц., Навоийский государственный педагогический институт, Навои

Аннотация. *Manba materiallarini o'rganish jarayonida maqolada davlat korxonalarini davlat tasarrufidan chiqarish jarayonlari asosida o'tish davrining natijalari va muammolari, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish xususiyatlari ochib berilgan, alohida tarmoqlarni qayta qurishda davlatning funktsional roli yoritilgan.*

Калит сўзлар: *o'tish davri, xususiylashtirish, zahiralar, davlat tasarrufidan chiqarish, sanoat, shartnoma, investisiyalar, sanoat.*

Аннотация. *В статье процессе изучения источниковых материалов выявлены итоги и проблемы переходного периода на основе проведённых процессов разгосударствления*

государственных предприятий, особенности привлечения иностранных инвестиций, раскрыта функциональная роль государства в реструктуризации отдельных отраслей промышленности в изучаемых областях.

Ключевые слова: *переходных период, приватизация, резервы, разгосударствление, отрасль, договор, инвестиции, промышленность.*

Abstract. *In the article, the process of studying source materials reveals the results and problems of the transition period based on the processes of denationalization of state enterprises, the features of attracting foreign investment, reveals the functional role of the state in the restructuring of individual industries in the areas under study.*

Keywords: *transitional period, privatization, reserves, denationalization, industry, contract, investment, industry.*

Введение. С распадом СССР на постсоветском пространстве были разрушены, действующие более семидесяти лет товарно-сырьевые, финансово-экономические, производственно-хозяйственные отношения. С обретением независимости учитывая непростой опыт стран, прошедших тернистый путь политической, экономической независимости в Узбекистане были проработаны пять ключевых принципа, и намечен первоначально эволюционный путь перехода к рынку, основанной на пяти основополагающих приоритетных принципах «Узбекской модели». Унаследовав экономику с энерго и материолоёмким производством, на начальном этапе переходного периода правительством страны были определены стратегические задачи по увеличению объемов топливно-энергетического комплекса, производства необходимых потребительских товаров, снижение импорта, переработки сельскохозяйственного сырья. Республика придерживалось преобразование экономики, ориентированной на рациональное использование территориальных факторов и резервов экономического роста, для того, чтобы обеспечить конкурентоспособность отдельных областей.

Нормативные документы, принятые в период с 1990 по 1992 годы, заложили основы перехода к рынку, включающие в себя поэтапное формирование многоукладной экономики. На первом этапе, ознаменованным «малой приватизацией» в 1992 -1993 годы были приняты меры по реализации в частную собственность мелкооптовых, сервисных объектов, а также объектов социального назначения.

В отличие от экономически развитых стран, где приватизация коснулась лишь отдельные государственные предприятия, правительством Узбекистана было принято решение с 1994 по 1998 годы провести широкомасштабную приватизацию с преобразованием малых и средних предприятий преимущественно в акционерные общества открытого типа.

Материалы и методы исследования. На основе архивных документов Национального архива Узбекистана, государственного архива Бухарской и Навоийской областей были изучены материалы, раскрывающие приватизационные процессы в изучаемых областях и в результате были выявлены достижения, просчёты переходного этапа, недостатки законодательной базы, неразвитость приватизационных институтов и процедур, фактическое отсутствие внешнего контроля, создавшие возможности для многочисленных нарушений законности в ходе реализации конкретных приватизационных мероприятий и ставшие причиной целого ряда негативных социально-экономических последствий.

Результаты и обсуждения. На основе архивных документов было выявлено, что на первом этапе приватизационных процессов в Бухарской области из запланированных к приватизации 4274 малых и средних предприятий сменили форму собственности 2400 малых и средних предприятия [1]. Процессы разгосударствления в системе «Бухараторг» были осуществлены на 56 процентов, в сфере социальных услуг - на 60 процентов, в местной промышленности – на 65,2 процента [2].

Правительством были разработаны ряд стимулов для производства товаров и услуг. Но положение усугублялось нехваткой финансовых, сырьевых ресурсов для поддержания деятельности действующих и открытия новых предприятий и производств. В результате

поиска новых путей решением хокима Бухарской области за № 76 от 1992 года, было создано объединение по оказанию бытовых услуг населению [3]. Объем производимой промышленной продукции в области в 1993 году был доведен до 61 процентов, против 40 процента - в 1990 году; переработка хлопкового волокна достигла 16,5 процента против 10 процентов; добыча меди до 20 процентов против 13 процентов; производство товаров народного потребления до 80 процентов [4].

Высокая потребность на продовольственные и товары первой необходимости в эти годы снизили спрос на бытовые товары. Остатки товарно-материальных ценностей на предприятиях Бухаранефтегазпродукты, Облсельхозснабремонт и Бухараконтракторга превышали по 100 миллионов рублей [5]. В тяжелом положении находилась и легкая промышленность. В Бухарской трикотажной фабрике были приостановлены договора на приобретение пряжи из Черногорска, Читы, Кустанайского суконного комбината. Из запланированных 6 договоров только 1 договор был приведен в действии [6].

В Навоийской области на период с 1992 по 1994 годы через аукционы были проданы более 150 объектов - торговли, социального обслуживания [7]. Доля общего количества кооперативов, арендных, малых, частных и других негосударственных предприятий по Навоийской области составляло всего один процент. Тогда как, в городе Ташкенте – 32 процента, в Самаркандской области – 18 процентов, в Андижанской и Сырдарьинской – по 13 процентов [8]. На внедрение рыночной экономики и развитие предпринимательства оказывали своё влияние наличие промышленных предприятий, где работали от 10-ти до 50 тысяч работников.

В 1994 году из зарегистрированных 32 видов промышленной продукции, в Навоийской области производилось 26 видов, а выполнение планов по 10 видам было обеспечено на 30 процентов. В заметном количестве было снижено производство минеральных удобрений, цемента, нитронового волокна, корма для животноводства. Падению экономических темпов способствовали ряд факторов. На производственном объединении (ПО) «Навоиазот» в эти годы оборудование устарело на 70%, не хватало необходимого сырья, катализаторов, запасных частей. Из–за несвоевременные выплаты заработной платы опытные специалисты преимущественно русского населения уезжали в Российскую Федерацию. На предприятии было занижено производство цианистой соли и тиомочевины, необходимые для производства золота Мурунтау [9].

Срыв хозяйственных связей с распадом СССР вело к резкому повышению цен на продукты первой необходимости к ухудшению финансового положения многих предприятий. В этих условиях были приняты надлежащие условия по привлечению иностранных инвестиций в легкую, горную промышленности, нефть, энергетику, газ, металлургию.

В период с 1991 по 1994 годы по Бухарской области было создано 14 совместных предприятия (СП), в легкой, продовольственной, животноводческой, строительной, фармацевтической сферах [10]. Крупные западные инвестиции в Навоийскую область были прежде всего привлечены в горнодобывающую, строительную, текстильную, продовольственную, кожевенную сферы. В результате привлечения западных инвестиций в экономику областей повысилась добыча золота, урана, производства мясомолочных продуктов, сельскохозяйственной продукции, переработка хлопка–сырца, каракулевых смушек, кожной продукции. Были введены в действие механизмы защиты частной собственности, система льгот, доступ к средствам производства, уменьшены ставки пошлин на экспорт продукции, а товары, завозимые в республику, были освобождены от пошлин.

Уровень заключенных сделок с предприятиями поставщиками со странами СНГ по стране в 1991-1995 годы колебалось от 50 до 80 процентов, из них 45 процентов договоров приходилось на Российскую Федерацию. В целом спад производства по республике продолжался до 1995 года и составил 81 процентов от уровня 1990 года [11]. Но несмотря на тяжелое экономическое положение в стране по уровню ВВП, по производству сельскохозяйственной и промышленной продукции Узбекистан был лидирующим среди стран СНГ [12].

С началом широкомасштабной приватизации в Бухарской области в 1994 -1995 годы было образовано 1100 акционерных обществ, 1300 – частных предприятия [13]. В Навоийской области число приватизированных предприятий в 1994-1995 годы составило -398, в 1996-1998 годы - 126 предприятий [14]. В руках государства оставались вопросы распределения ресурсов, регулирование товарных цен, обменного курса, процентных ставок. Этот период охарактеризован появлением монополий в отдельных сферах экономики в таких как продовольственная, фармацевтическая.

30 декабря 1994 года хокимом Бухарской области было принято решение № 258, о разгосударствлении предприятий по закупке, переработке хлопка и сбыту хлопковой продукции. В акционерные общества открытого типа были преобразованы Бухарский, Каганский, Гиждуванский, Пешкунский, Шафриканский, Каракульские хлопзаводы, Бухарские областные мехомастерские, Бухарская база по хранению хлопка, с сохранением 51 процентов акций за государством и передачей 49 процентов акций трудовым коллективам [15]. Однако приватизационные процессы не принесли ожидаемых результатов. Вновь созданные акционерные общества не были способны выдавать дивиденды, так как работали без прибыли еле сводя концы с концами. В Бухарском хлопкоперерабатывающем заводе дивиденды выдавались всего шесть месяцев.

Они не препятствовали проникновению в Бухарский Эмират русских капиталистов. Некоторые из них считались новой буржуазией Бухары и во время правления буржуазного правительства Керенского они такими остались. Во времена большевиков аппетит правительства рабочих и крестьян разыгрался, и они начали завоевание эмирата. Экономическое положение в последние годы ещё более ухудшилось. Экономические отношения с Россией и Эмирата последние нити связи по вине большевиков срывались. Засуха, паводки, экономике которая и так была отсталой, нанесли уничтожающие удары. Правительство Бухары посредством Советского Туркистана с другими странами имело торговые отношения.

Бухарский Эмират хотя с Афганистаном, Ираном, был в хороших отношениях, но не мог от них получить посильственную помощь, потому что и в их странах между местным населением и англичанами шла ожесточённая война. То, что не было правильные пути за везения товаров в эти страны, имело влияние на экономику Эмирата.

Эмир, проведя реформы, хотел освободить и спасти страну от трудностей, однако извне стране препятствовали его добрым деяниям. Так, экономическое положение Эмирата накануне нападения Красных войск и коммунистической партии можно так изложить: относительно 1913 года в 1919 году общий объём земли под хлопчатник уменьшилось на 30 %. После большевистского переворота в России с 1917 года до 1919 вывоз в центральные районы России хлопка сократился в 20 раз, каракулевая кожа в 10 раз, шерсть в 6 раз [7; 103]. Цена купли этих вышеназванных товаров сразу снизилась, всё это итак отсталой экономики Бухарского Эмирата не осталось без внимания и для того, чтобы много не говорить их можно привести в нижеследующей таблице:

№	Название товаров	Цена 1917 г.	Цена 1919 г.	Количество
1.	Хлопок	11 рублей	1 рубль 80 копеек	1 пуд (16 кг)
2.	Шерсть	6 рублей	2 рубля	16 кг (1 пуд)
3.	Каракулевая кожа	7 рублей	1 рубль 20 копеек	1 штука

Сложное положение оказало своё влияние на жизнь народа. Правительство было вынуждено больше брать налог с народа, а это вызывало недовольство у части крестьян. Наравне старались с населения побольше собрать разных налогов, накопленную продукцию отправить Российской армии и это положение привело более обнищанию населения. Беки, амлакдары и другие должностные лица Эмира пользуясь насилием народа, отнимали у народа в пользу налогов разные вещи. В эти годы за счёт ограбления народа сановники обогатились. Восточная Бухара считалась отсталой и так на самом деле жили таджики и узбеки. Вся власть была в руках духовенства и баев, амлакдаров.

Взяточничество и злоупотребление хокимов от своего сана считалось простым делом. В экономике было неподходящее положение. Капиталистическая промышленность в этой части Эмирата совсем не существовала. Ремесленничество проявлялось только в рукоделии. В Восточной Бухаре на самом деле выращивался хлопок для заводов и фабрик России. Водной дорогой Амударьи всё сырьё, такое как хлопок, шёлк, кожа, шерсть перевозились от Саройи Камар (нынешний Пяндж). Русский капитал проникал в хозяйство Восточной Бухары, с 1900 до 1916 года русские капиталисты взяли разрешение у эмира Бухары для орошения на 291 799 десятины земли[2]. В 1915 году канцерны капиталистов России из Восточной Бухары из города Кургантеппа получили землю 65 тысяч десятин, и Кабодиён – 10 тысяч десятин, а из Айводжа 5 тысяч земли [8; 12-17].

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. А.Маджлисов. Аграрные отношения в Восточной Бухаре в XIX – начале XX века. Душанбе – Алмата, 1967.
2. Тухтаметов Т.Г. Русско-бухарские отношения в конце XIX в. Ташкент, 1966.
3. История Узбекской ССР. том II. Ташкент, 1957.
4. Ўз МА. И-3 фонд, 2-рўйхат, 101-иш.
5. Искандаров Б.И. Восточная Бухара и Памир во второй половине XIX в. Часть I. Душанбе.1962.
6. А.Маджлисов. Аграрные отношения в Восточной Бухаре в XIX – начале XX века. Душанбе – Алмата, 1967.
7. Тухтаметов Т.Г. Русско-бухарские отношения в конце XIX в. Ташкент, 1966.
8. Ўз МА. И-3 фонд, 2-рўйхат, 109-иш.

УЎК 91

ЗАРАФШОН ВОДИЙСИНИ ГЕОГРАФИК ЖОЙЛАШИШ ХУСУСИЯТЛАРИ ВА ПАЛЕОГЕОГРАФИЯСИ МАСАЛАЛАРИГА ДОИР БАЪЗИ БИР МУЛОҲАЗАЛАР

Б.Исмаилов, магистрант, Урганч Давлат Университети, Урганч

Аннотация. *Ушбу мақолада Ўрта Осиё худудида хўжалик-маданий худудларнинг шаклланиши, Зарафшон водийсида қадимги тош даври ашель босқичи географик жойлашуви ва худуднинг палеогеографик хусусиятларига доир баъзи масалалар тахлил қилинган.*

Калит сўзлар*: Андрианов Б.В., Козлов В.И, Чебоксаров Н.Н, Ибрагимов Р.З. Ўрта Осиё, Зарафшон, Ўзбекистон, Геология, палеогеография, география, картография, Дарёсой, Эчкиликсой, Гўжайли, Махондарё, Бухоро воҳаси.*

Аннотация. *В данной статье анализируются некоторые вопросы, связанные с формированием хозяйственно-культурных районов Центрально-Азиатского региона, географическим положением ашелского этапа древнекаменного века в Зеравшанской долине, палеогеографической характеристикой региона.*

Ключевые слова: *Андрианов Б.В., Козлов В.И., Чебоксаров Н.Н., Ибрагимов Р.З. Средняя Азия, Зеравшан, Узбекистан, геология, палеогеография, география, картография, Дарёсой, Эчкиликсой, Годжайли, Махондарья, Бухарский оазис.*

Abstract. *This article analyzes some issues related to the formation of economic and cultural regions in the territory of Central Asia, the geographical location of the Acheulean stage of the Old Stone Age in the Zarafshan Valley, and the paleogeographic characteristics of the region.*

Keywords: *Andrianov B.V., Kozlov V.I, Cheboksarov N.N, Ibragimov R.Z. Middle Asia, Zarafshan, Uzbekistan, Geology, paleogeography, geography, cartography, Daryosoy, Echkiliksoy, Gojayli, Makhondarya, Bukhara oasis.*

XX аср адабиётлар ва XXI аср бошларида тадқиқотчилар асарларида қайд қилинган тарихий маълумотларни назарий-тахлил қилиш асосида ҳосил бўлган мантиқий хулосадан келиб чиқиб, ер ости тебранишлари натижаси бўлган Зарафшон водийсининг географик ўрни, унинг геоморфологик хусусиятлари кенг тарихий давр, унинг турли босқичларида ўзгаришларни тахлил қилишга ҳизмат қилади. Ўрта Осиё минтақаси ўртасида жойлашган Ўзбекистон худудининг географик манзарасини ҳосил қилган тарихий-географик вилоятларнинг географик ўрни, жойлашиш хусусиятлари, шу асосда чегараларни аниқлашда географик ва археологик адабиётлар муҳим аҳамияти беқиёс, чунки қадимий даврда мавзуга мансуб маълумотлар ёзма манбаларда кузатиш мушкул.

Қадимги Ўзбекистоннинг географик холатини ташкил қилган ҳар бир тарихий-географик худудлар ер ости тебранишлари натижаларига боғлиқ бўлган геологик асоси яхлит, аммо геоморфологиясида бир-бирини такрор қилмайдиган хусусиятларга эга бўлишини ёритишда фанлараро усуллардан фойдаланган ҳолда, уларни жойлашиши омил бўлган геология, антропоген ландшафт ривожланиши, пелеогеография, манбашунослик ҳамда тарихий-этник географияга оид мавжуд бўлган маълумотлар мавзуни мазмун ва моҳиятини тўла равишда ўрганиш кенг истиқболли имкониятни яратади. Фанлараро саҳоларида тўпланган маълумотларга асосланиб, тарихий-маданий вилоятларни жойлашиш хусусиятлари, уларнинг тарихий-даврларда ривожланиш жараёнларини ўрганишда география фанининг таркибий қисмлари бўлган худудларда аҳолининг географик жойлашиши, сиёсий бирлашмалар жараёнида олиб борган хўжалик йўналишлари, тарихий географияси, унинг этнография фани билан узвий боғлиқлиги билан этник бирликлар географик кенгликда жойлашиши, ўзига хос хусусиятлари, қўшни аҳоли билан иқтисодий-маданий алоқаларини олиб бориши, географик хусусияти жиҳатидан тоғли ва текисликларда ўрнашган кўчманчи ва ўтроқ кўчмалик шакллари, худудларнинг ўзлаштирилиш жараёнлари, маълум худудда аҳолининг миқдор сони ошиши натижасида вужудга келган овқат муаммосини келиши муносабати билан миграция масалалари ўрганиш тарих фанида долзарблиги ҳозирги замонда ўз аҳамиятини йўқотган эмас. Мазкур муаммоларни фанлараро йўналишда тўпланган материаллар асосида ҳар бир худуднинг географик ўрни,унинг ўзига хос хусусиятлари, аҳолининг этник жараёнларни олиб бориши билан боғлиқ бўлган тарихий-маданий вилоятларни топографик хусусиятлари, аҳоли ҳаёт ва ижод уйғунлиги бўлган турар жойларни жойлашиш картографиясини ривожлантириш мумкин [1]. Шу маънода археология фани ютуқлари асосида одамзотнинг бу турфа оламга чиққанидан бошлаб, табиат ва теварак-атроф билан боғлаган муносабатлари, ер юзаси ўзгаришига актив таъсири натижасида антропоген ландшафтида юз берган ўзгаришлар, улар томонидан қўлланилган меҳнат қуроллари кундалик фаолиятлари натижасида табиий-иқтисодий худудларни географик холатини тасвир қилган “хўжалик-маданий худудлар”, тарихий этнография хамда тарихий-этнодемография номини олган топономик атамаларни назарга олиш жоиз. Ўзбекистоннинг муайян худудларида одамзотнинг этник муносабатларни олиб бориши ашель даври қуйи босқичи билан боғлиқ. Тарихий-географик адабиётларда қайд қилинган маълумотлардан маълумки Ўзбекистон тарихий-маданий вилоятларда одамзотнинг нотекис жойлашиши, бир тарихий даврда ўзлаштирилмаганлиги бош омили хилма-хил табиий-географик шароит бўлган. Дарҳақиқат, ҳар бир тарихий-маданий вилоятлар аҳолининг меҳнат фаолияти, моддий ва маънавий маданият ривожланиши асоси, ранг-баранг шаклли хўжалик тармоқларини вужудга келиши, унинг даражаси тош даврида бир-хил маданий жамиятининг иқтисодий ривожланишида ўз маъносини топган [2] .

Ўрта Осиё минтақаси тарихий-географик худудлари хилма хил табиий-шароит устунлик қилган шароитда, ўрнашиб олган одамзот тарихий даврнинг турли босқичлари тақдир бирлигини ҳосил қилиши, миграция натижасида муайян географик кенглик шаклланган худудлардир [3] .

Ўзбекистон худудида қадимги тош даври илк босқичи Ашель давридан бошлаб одамзот ўзига хос географик холати манзараси, табиий шароити, иқтисодий табиий манбаларни ўзлаштиришни олиб боришидаги кундалик фаолиятлари моддий ва маънавий маданиятни

олиб бориш баробарида ижтимоий-иқтисодий алоқаларини олиб боришига имкон яратган, бу ўз навбатида янада ривож топиб, кейинги тарихий даврда давом этишига имкон берган [4].

Қадимги Ўзбекистоннинг шундай ўзига хос географик хусусият, аҳолининг жойлашиши, антропоген ландшафти шаклланиши жараёни акс этган тарихий-маданий вилоятлардан бири Зарафшон водийси ҳисобланади. География адабиётларда акс этган маълумотларга кўра, Зарафшон водийси геоморфологияси жиҳатидан ўрта (марказий), ғарбий ва жанубий худудларига ажратилган, уларнинг геологик асоси яхлит бўлса хам, табиий манбаларнинг мавжудлик холати, одамзотнинг ўзлаштириш натижасида ҳосил бўлган географик манзараси билан бир-биридан ажралиб туради. Зарафшон водийси Ўзбекистоннинг ўрта қисмида жойлашган қисми бўлиб, асосан деҳқончилик ва чорвачиликни ривожлантиришга қулайлиги билан ажралиб туради [5]. Жанубий Зарафшон худуди (ҳозирги Қашқадарё вилояти)- асосан Қарши чўли қамраб олган. Унинг геологик асосини бур, палеоген ва неоген даври ётқизиқларни ҳосил қилган [6]. Зарафшон водийси вужудга келиши, унинг палеогеографик хилма-хил хусусиятларда намоён бўлиши ер ости тебранишлари натижасида ҳосил бўлган бир қатор тоғлар, ботиқлар ва кутарилмалар бўлиб, унинг географик холатини Бухоро-Қарши, Самарқанд вилояти, Марказий Қизилқум намоён қилган. Ҳар бир географик худуднинг геоморфологик тузилиши бир-биридан фарқланиш хусусиятига эга бўлиб, тектоник харакатлар натижасидир. Шу жиҳатидан олганда Зарафшон водийсини қадимги тош даври палеогеографик хусусияти ранг-баранглигини географик адабиётларда қайд қилинган маълумотларга таянган ҳолда ўрганиш мақсадга мувофиқ. Қуйи Зарафшон ер ости геологик тебранишлар натижасида вужудга келган асоси юзасини туб ўзгаришида Зарафшон дарёси, унинг ирмоқлари фаолияти билан боғлиқ бўлган. Қуйи Зарафшон, Ўрта Зарафшон ғарбий қисми ва Қизилқум худудларининг асосий сув манбаси Зарафшон дарёси, унинг Дарёсой, Эчкиликсой, Оёқагитма, Гўжайли ва Махондарё каби ирмоқлари фаолиятлари муҳим аҳамият касб этган. Зарафшон дарёси асосан сув манбаси Туркистон Жанубда Ҳисор ҳамда Зарафшон тоғ тизмаси уланган 315 м баландликда жойлашган ушбу атама музлигидан бошланган [7].

Зарафшон музлигини жойлашиш узунлиги 24.7 км, қалинлиги 1,7 км, қалинлиги 200 м, ҳажми эса 40,8 кв /кмдан иборат бўлган [8]. Зарафшон дарёси минглаб йиллар мобайнида сув таркибидаги лойқа қатламларида минерал моддаларни ётқизиши натижасида ҳосил бўлган Бухоро воҳаси Жанубий қисми, Самарқанд вилоятининг ғарбий қисми ва Қизилқум худуди сернам ва серунум бўлган. В.А.Молодцов асарида қайд қилинишига кўра, Зарафшон дарёсининг сув таркибида кимёвий моддалар миқдорини Амударё сувида мавжуд бўлган моддалар билан таққосланган.

Зарафшон дарёси сув таркибида минерал моддалар Амударё суви таркибидан устунликка эга бўлган. Зарафшон дарёсининг Чорбакти ўзани фаолияти билан изоҳлаш мумкинлигини Татис музлиги чекиниши натижасида йигирмадан ортиқ сув ҳавзалари вужудга келиб, улар тарихий адабиётларда "Лавлакан ном" лиги атамаси сифатида ўрин олган. Ўрта Зарафшон шимолий, шимоли-шарқий ва Шарқий Жанубий Зарафшон худудларини илк географик холатини тоғлар тизими географик хусусиятларини намоён тасвир қилган.

Археологик адабиётларда қайд қилинган маълумотларга кўра, Ўзбекистон худуди геологик жиҳатидан акс этиши Эоплейстоцен даври текислиги (Дунай, Гюнц, Гюнц-Миндель) мавжуд бўлган бўлса, Плейстоцен музлиги (Миндель, Миндель-Рисс, Рисс, Рисс-Вюрм ва Вюрм) даври қамраб олган [9] .

Тадқиқотчи қайд қилишича, бундан 4-3 миллион йиллар илгари Амударё ва Сирдарё оралиғи текислик бўлган [10]. География фани ютуқларига кўра тўртламчи давр ўрталари ва мил.авв.I минг йиллик ўрталаригача Ўзбекистон худуди Жанубий, Жануби-Шарқий ва Шимоли-Шарқий худудидан тоғли, Бухоро воҳаси, Оқчадарё хавзаси, Қизилқум текислик манзарада бўлган [11].

Шу тариқа, юқорида қайд қилинган маълумотлар асосида қуйидаги якуний хулосага келиш мумкин.

-Ўрта Осиё минтақасининг ўрта худуди географик ўрнини белгилаб берган Ўзбекистон худудининг вужудга келиши геологик жараёнлар натижалари билан боғлиқ бўлиб, унинг ер

юзаси ранг-баранглигини тоғлар, баландлик, ботиқ-сув ҳавзалари ва текисликдан иборат бўлган.

-500 минг йилликдан бошлаб, Ўрта Осиё хусусан Ўзбекистон худудини плейстоцен музликлари қамраб олиб, мазкур географик хусусият Зарафшон водийсида ўз аксини топган.

-Плейстоцен музлиги устунлик қилган бўлсада, Ўзбекистоннинг муайян худудлари, яъни тоғ, тоғ тизмалари, тоғ даралари, текислик ботиқлари мавжуд сув ҳавзаларига айланганлиги муносабати билан уларнинг этаклари одамзотнинг келиб жойлашишига тайёр ҳолатда бўлган.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Андрианов Б.В., Брук С.И, Козлов В.И. Этническая география и её место в системе этнографической и географической наук ((Проблемы этнической географии и картографии-М, Наука, 1978-С-7-9

2. Андрианов Б.В. Чебоксаров Н.Н. Хозяйственно-культурные типы и проблемы их картографии //- М, Наука, 1972 С-7. СЭ №2-С 3-25.

3. Андрианов Б.В. Чебоксаров Н.Н. Историко - этнографические области (проблемы историко-этнографического районирования) //СЭ-М, Наука, 1975. № 3-С.15-25.

4. Козлов В.Й. Этник и территория //-М, Наука, 1971.С7, № 6-С.93-94.

5. Баратов П. Ўзбекистоннинг табиий географияси.-Тошкент, Ўқитувчи, 1996-Б. 163-180, 196-203.

6. Баратов П. Кўр. Асар.-Б.204-208.

7. Шульц В.Л. Гидрография Средней Азии-Ташкент, 1958-С.58-59.

8. Шульц В.Л., Машрабов Р. Ўрта Осиё гидрографияси-Тошкент, Ўқитувчи, 1969-Б.137-141. Коновалов Е.П. Краткий очерк о работе на Зеравшанском леднике в 1932 г./В книги Зеравшан, Верховья Зеравшана и Фандарьи. Труды ледниковых экспедиций Л.д, 1936, Вып III б С.374-375.

9. Кабиров Ж, Сагдуллаев А.С. Ўрта Осиё археологияси-Тошкент, Ўқитувчи, 1990-Б. 14. Мирсоатов Т.М, Мирсоатова С.Т.Ўрта Осиё археологияси.-Фарғона, 2002-Б.18.

10. Виноградов А.В, Итина М.А, Кесь А.С, Мамедов Э.Д. Палеографическая обусловленность расселения древнего человека в пустынях Средней Азии //Первобытный человек, его материальная культура и природная Среда в плейстоцене и голоцене.-М, Наука, 1974-С.290-291.

11. Баратов П.Маматқулов М, Рафиқов А. Ўрта Осиё табиий географияси.-Ташкент, Ўқитувчи,2002-Б.162.

Жадвал 2

УЎК 93/94

ИСҲОҚХОН ТЎРА ИБРАТНИНГ ИЛМИЙ-ИЖОДИЙ МЕРОСИ ВА УНИНГ ТАДҚИҚИ МАСАЛАСИ

М.Латипов, ГулДУ мустақил тадқиқотчиси

Аннотация. *Мақолада жадид маърифатпарвар адиби Исҳоқхон Ибратнинг XX аср бошларидаги ўзбек миллий тили ва адабиётининг ривожига қўшган ҳиссаси ўрганилган. Адиб яратган бадиий, илмий, лексикографик, публицистик асарларнинг илмий ўрганилиши таснифланган.*

Калит сўзлар. *диахрон ва синхрон аспект, тарихшунослик, жамиятшунослик, маърифий-публицистик жанр, сўзлик, луғат таркиби, луғат грамматика, умумхалқ тили, лексик-семантик тизим, лексикографик тамойил, илмий истилоҳ, грамматик тавсиф.*

Аннотация. *В статье рассматривается вклад современного просвещенного писателя Исхак-хана Ибрата в развитие узбекского национального языка и литературы в начале XX века. Классифицируется научное изучение художественных, научных, лексикографических, публицистических произведений, созданных писателем.*

Ключевые слова. *диахронический и синхронический аспекты, историография, обществознание, учебно-публицистический жанр, лексика, словарная структура, словарная грамматика, универсальный язык, лексико-семантическая система, лексикографический принцип, научная реформа, грамматическое описание.*

Abstract. *The article examines the contribution of the modern enlightened writer Ishaq Khan Ibrat to the development of the Uzbek national language and literature at the beginning of the 20th century. The scientific study of artistic, scientific, lexicographical, journalistic works created by the writer is classified.*

Keywords. *diachronic and synchronic aspects, historiography, social studies, educational-journalistic genre, vocabulary, dictionary structure, dictionary grammar, universal language, lexical-semantic system, lexicographic principle, scientific reform, grammatical description.*

Миллий маънавиятимиз тараққиётида муҳим давр ҳисобланган XX аср бошларидаги ижтимоий-маданий ҳодисаларни кенг миқёсда тадқиқ қилиш миллий ўзликни англаш, қадриятларимизни тиклаш, тил ва адабиётимиз тарихини холисона ёртишда бирламчи омил сифатида алоҳида аҳамият касб этади. Хусусан, Исҳоқхон тўра Ибрат томонидан яратилган илмий, адабий, публицистик асарларнинг жамият ҳаёти ва ривожидаги ўрни ва аҳамияти ҳам алоҳида эътирофга лойиқ. Кўпқиррали ижодкор Ибратнинг турли соҳа муаммо ва масалалари талқинини ўзида акс эттирган асарлари жамият ижтимоий-сиёсий, илмий-маданий ҳаётида жуда муҳим ўрин тутади. Юртбошимиз томонидан Исҳоқхон Ибратнинг миллий тил, унинг равнақи ва истиқболи борасидаги ватанпарварлик фаолияти, амалга оширган илмий изланишлари алоҳида таъкидлаб ўтилгани ҳам бежиз эмас: "XX аср бошида олти тилли – ўзбек, араб, форс, ҳинд, турк ва рус тилларида луғат тузган Исҳоқхон Ибратнинг мана бу ҳикматли сўзларини эслатмоқчиман: Бизнинг ёшлар, албатта, бошқа тилни билиш учун саъй-ҳаракат қилсинлар, лекин аввал ўз она тилини кўзларига тўтиё қилиб, эҳтиром кўрсатсинлар. Зеро, ўз тилига садоқат – бу ватаний ишдир" [1,3].

Ибрат Наманган адабий муҳитининг ёрқин вакили сифатида жамият бадиий-эстетик тафаккурига таъсир кўрсата олган шахслар қаторидан ўрин эгаллайди. Бу борада тадқиқотчи О.Болтабоеванинг фикрлари ҳам эътиборга молик: "XX аср бошларида Наманганда қайноқ адабий жараён кечгани маълум. Нодим, Ҳайрат, Хилватий, Ибрат, Сўфизода, Доғий, Суҳайлий каби шоирлар ижодини ўз ичига олган бу ҳодисани адабий ҳаракатчилик деб аташ мақсадга мувофиқ. Негаки, бу жараён наинки Наманган ҳудудида, бутун Туркистонда кечган ижтимоий-сиёсий уйғонишни бошлаб берган жадидчилик ҳаракати ва унинг бадиий-эстетик тафаккурга кўрсатган таъсири билан чамбарчас боғлиқдир"[2,13].

Исҳоқхон Ибратнинг таржимаи ҳоли билан боғлиқ маълумотларни унинг ижодига мансуб "Луғати ситтати алсина", "Жомеъ ул-хутут", "Тарихи Фарғона", "Мезон уз-замон", "Санъати Ибрат, қалами Мирражаб Бандий" каби илмий, бадиий, тарихий асарлар, шунингдек, ўша давр вақтли матбуотида эълон қилинган мақолалар орқали олишимиз мумкин. Шунингдек, Ибрат ҳақидаги маълумотларни ўзида акс эттирган дастлабки нашрий манбалардан бири "Тазкираи Қайюмий" [2,120] асаридир, унда Ибрат ҳаёти ва ижодига оид қимматли маълумотлар қайд қилинган, жумладан, Ибратнинг Қўқон адабий ҳаётидаги таниқли шоир Афсуснинг авлоди экани, Тўрақўрғон қозиси сифатида фаолият олиб боргани, ўша ҳудуднинг ободончилиги йўлида катта хизмат қилгани, боғ, янги бинолар, ҳаммом қурдиргани тўғрисида маълумотлар келтирилган. Биринчи ўзбек фотографи, шоир, публицист, маърифатпарвар Мираъзам Иброҳим ўғли – Иброҳим Даврон(1874-1922) ижодига мансуб "Ҳақсўз" номли мақолада Исҳоқхон Ибрат "Намангон уездида Тўрақўрғон қозиси", "ҳожи ва олим ва фозил бир зоти олий", "ислом эътиқоди, фаранг фикрли, оврупо қиёфали, мўмин инсон", "қозийи инсониятпарвар" сифатида тавсифланади [2,158].

Кўпқиррали ва сермаҳсул ижодкор Исҳоқхон Ибратнинг асарлари қўлёзма ва нашр ҳолидаги манбалар шаклида, хусусан, "Луғати ситтати алсина" ("Олти тилли луғат") луғати, ҳуснихат, хаттотлик, ёзув масалаларига бағишланган "Санъати Ибрат, қалами Мирражаб Бандий" асари, Лутфуллоҳ Насафийдан қилган "Фиққи Кайдоний назми" таржимаси, ўша давр ижтимоий воқелигининг бадиий талқини ҳисобланган айрим шеърлари жамланган "Илми Ибрат" асарининг тошбосма нусхаси, "Жомеъ ул-Хутут", "Тарихи Фарғона", "Тарихи маданият", маърифий-публицистик жанрдаги "Мезон уз-замон" асарлари нусхалари республикамиздаги кутубхона ва қўлёзма фондларида сақланаётганлиги ҳақида маълумотлар мавжуд. Шунингдек, Ибратнинг ўтган аср биринчи чораги даври вақтли матбуотида эълон қилинган 30 дан ортиқ тарихий ва ижтимоий-сиёсий масалалар мавзусига бағишланган публицистик асарлари Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонасида сақланади.

XX аср бошларидаги Наманган адабий ҳаракатчилигининг турли масалалари тадқиқ қилинган манбага кўра, Исҳоқхон Ибратнинг "Туркистон вилоятининг газети"да чоп этилган яна бир неча мақола ва шеърлари ҳали-ҳануз кенг жамоатчиликка эълон қилинмаган. Масалан, "Воқеаи зилзилаи Андижон" мусаддаси, "Тарихи ҳаммом" ғазали, Амир Темур иморатларини

таъмирлашга бағишланган "Редакцияга хат", мадрасалар қурилишига оид фикр-мулоҳазаси акс этган Намангандаги "Мулла Қирғиз" мадрасаси қурилиши ҳақидаги "Наманганда янги мадраса", 1913 йил Намангандан Тошкентга поездда боришида ҳамроҳ бўлган бир йўловчи билан турли бидъатлар ва рўзномалар ҳақидаги суҳбати акс этган "Намангандан" деб номланган мақолалари ҳали жорий имлода чоп этилмаган" [2,25].

Юқорида қайд қилинган Ибрат ижодига мансуб асарлар унинг жамият ижтимоий-маданий, сиёсий ҳаётидаги фаол шахс сифатидаги ўрнини, илмий-ижодий меросининг аҳамият даражасини кўрсатувчи манба ва омиллар саналади. Исҳоқхон ибрат мамлакат тараққиёти, халқи манфаати, маданияти ва маърифати йўлида сидқидилдан, фидокорона хизмат қилди. Унинг ижодий меросида 14 та илмий-тарихий, лингвистик асар, "Девони Ибрат" шеърлар тўплами мавжуд.

Ибратнинг тилшунослик, хусусан, луғатчиликка оид асари "Луғати ситтати алсина" ("Олти тил сўзлари" ёки "Олти тилли луғат")дир. Луғат ўз таркибида олти тилдаги: арабча, форсча, ҳиндча, туркча, сартча (ўзбекча) ва русча сўзларни акс эттирган дастлабки кўп тилли луғат намунаси. Ушбу луғат муқаддимасида қайд қилинишича, муаллифнинг Афғонистон, Ҳиндистон ва Форсистон (Эрон) каби мамлакат шаҳарларига саёҳати давомида ушбу луғатни тузиш ғояси пайдо бўлган: "... саёҳат этдугум вақтларида Афғонистон, Ҳиндистон ва Форсистон шаҳарлари саёҳатида... бир лисон сафар аҳлина юз олтун баробарида ишладики, биза мушоҳада бўлиб, лисонлар таҳсилига кўшиш эдуб ва ҳам даҳр аҳлина бир нишон қолдирмак фикри-ла бир неча муддати мадид бу китоб тадвинина жустужў эдуб, бўйла бир китоб суратинда халқға намудор этдим ва ҳам олти лисондан мураккаб ўддуғи учун, "Луғати ситтати алсина" тасмия эдуб, икки жилд ила тартиб этдум" [3, 2-3].

Ушбу луғат икки қисм, 53 саҳифадан иборат бўлиб, кундалик мулоқотда кўп қўлланадиган энг фаол мингдан ортиқ ўзбекча сўзларнинг арабча, форсча, туркча, ҳиндча ва русча таржималарини ўзида акс эттирган, кенг халқ оммасига тушунарли бўлган араб ёзувида битилган. Унинг биринчи қисмида 156 та феълнинг масдар (инфинитив) ҳамда ҳозирги-келаси замон шакллари, 12 та феълнинг ўтган замон ва буйруқ майли шакллари ҳамда 5 та олмош – жами 341 та сўз 6 та устунга ажратилган ҳолда берилган. Луғатнинг иккинчи жилди жами 694 та исмни (от, сифат, ва сон туркумидаги) қамраб олган, улар 37 та мавзу гуруҳига ажратилиб, арабча-форсча-туркча-ҳиндча-сартча-русча луғат шаклида олти устун қилиб берилган [4,53-56].

Тилшунос С.Нормаматов "Луғати ситтати алсина" луғати лексикографиянинг анъаналари билан бирга янгича тамойилга асосланганлигини таъкидлайди: "Луғоти ситта алсина" асарини яратишда янгича йўналишдаги Ғарб луғатчилиги тамойиллари билан бирга, анъанавий Шарқ луғатчилиги принципларига ҳам таянган ҳолда луғат тузганлигининг гувоҳи бўламиз. ... луғатда феълларнинг масдар (*чочмак, кесмак, киймак*), ҳозирги-келаси замон (*ўйнар, ёғар, хоҳлар*), ўтган замон (*ётган, турган*) ҳамда буйруқ майлларида (*келма, ўрганма*) берилиши; исмларнинг эса 37 та тематик гуруҳга ажратилиб таржималарининг берилиши жадид давригача бўлган Шарқ луғатчилиги, хусусан, араб луғатчилиги анъаналарининг таъсир белгиларидир. Шунингдек, луғат мавзулар бўйича "*Мозий ва амр"(Ўтган замон ва буйруқ майли), "Алмутакаллим" (Олмошлар), "Аъзойи ҳайвонот" (Жонзотларнинг аъзолари), "Асмоу аҳли қаробат" (Қариндошлик номлари), "Асмои ақсоми таом" (Таом номлари), "Асмои нағамот" (Мусиқа асбоблари номлари), "Ақсоми ранг" (Ранг номлари*)[4,53] каби бир неча бўлимга бўлинган ва сарлавҳаланган" [5,178-179]. Шу ўринда таъкидлаш лозимки, сўзларнинг маъновий яқинлиги, мавзуий муносабатига асосланадиган идеографик характердаги луғатга хос лексикографик хусусиятлар ушбу луғатда ҳам кузатилади. Муаллиф луғат сўзлигини тартиблаштиришда лексикографиядаги янгича тамойилга, яъни сўзлар ифодалайдиган тушунчаларнинг ўзаро яқинлиги, алоқадорлигига асосланадиган идеографик тамойилга таянган, бу ёндашув эса изланаётган сўзни мавзулар бўйича тез ва осонлик билан топиш имкониятини таъминлайди. Бу ҳолат борлиқ лисоний манзарасининг луғатда акс этиши намунаси сифатида ҳам баҳоланиши лозим.

Луғатда қайд қилинган ўзбекча сўзликнинг структураси, туб ва ясамалиги, ўша давр тили учун хос бўлган изофали бирикмалар, тобе боғланишли ўзбекча сўз бирикмаси, туб ва қўшма феъллар билан боғлиқ лексик, грамматик хусусиятлар таҳлили, сўз таржимасидаги ўзига хос ютуқ ва камчиликлар С.Нормаматовнинг тадқиқот ишида ўзининг батафсил тавсифини топган. Хусусан, феъл сўзлар изоҳининг айрим ўринларида инфинитив шаклнинг *-мак, -моқ* тарзида берилиш ҳолатини луғат яратиш учун адабий тилда ягона грамматик меъёрнинг, шаклланаётган янги ўзбек адабий тилининг луғавий ҳамда морфологик меъёрларининг мавжуд эмаслиги билан изоҳлайди [5,180]. Шунингдек, мазкур тадқиқотда "Луғати ситтати алсина" луғати "мазмун-моҳияти билан ўша давридаги янгича йўналишдаги, яъни Ғарб луғатчилиги анъаналари таъсирида яратилган луғат" сифатида баҳоланиб, ўзбек луғатчилигида тутган ўрни ва аҳамиятини кўрсатувчи бир қатор хусусиятлари қайд қилинади. Жумладан, "Луғати ситтати алсина" – ўзбек лексикографиясида олти тил материалларининг ўзаро қиёсий таржимасига оид ҳозирча ягона луғат; ўша давр учун янги ўзлашмалар: *крахмал, курси, қандил, касалхона, лимон, кема, доришунос* кабиларни изоҳлаган, уларнинг ўзбек тили луғат бойлигидаги барқарорлашувига ҳисса қўшган; турли тил оилаларига мансуб тилларнинг лексик бирликларини ўзаро қиёслаган; ўзбекча сўзликнинг таркибида халқ тили элементларини луғатдан фойдаланувчилар оммасининг манфаатини кўзлаган ҳолда фаол қўллаган (масалан: *ҳуқмазак (ҳуснбузар), чирк (кир), шоти (норвон), арчахилол (тиш ковлагич), жавори (жухори), фатинжон (бақлажон), човутка (чигиртка), тева (туя)* кабилар*)*. Шунингдек, ушбу луғат, аввало, ўзбек тили сўз бойлигини ошириш ва тавсифлаш, халқ тилидаги сўзларни фаол луғат таркибига олиб кириш, қайд қилинган тилларни тарғиб ва ташвиқ қилишга катта ҳисса қўшган илмий манба ҳамдир.

Ибратнинг Қўқон хонлигида ҳукмронлик қилган хонлар, хусусан, Қўқон хонлигининг сўнгги ҳукмдори Худоёрхон, Амир Насрулло, Муҳаммад Алихон каби хон ва бекларнинг ҳаёти, фаолияти, қипчоқ қирғини воқеалари, Ўрта Осиёнинг Россия томонидан босиб олиниши каби юртимиз тарихи билан боғлиқ воқеа-ҳодисалар, уларга муаллифнинг муносабати баён қилинган "Тарихи Фарғона"[6,125] асари алоҳида аҳамият касб этади. Шунингдек, унинг тарихшуносликка оид "Тарихи маданият", "Мезон уз-замон" асарлари ҳам сақланган. Ибрат ушбу асарларини рус ва Европа шарқшунослари, Шарқ тарихчилари томонидан яратилган илмий-тарихий асар ва манбаларга таянган, асосланган ҳолда яратади. Муаллифнинг тарихни ҳаққоний ёритиш, тарих воқелигини холис баҳолаш тамойилига тўла амал қилганлигини қуйидаги фикрлари ҳам асослайди: "Тарихни ислом муаррихлари аксарият ила ҳамма тарихлари умароий бўлуб, жўғрофий, маданий ёки саноий бўлмай, фақат хонларнинг урушлари бирла адо қиладурлар, мен бу тарихимда муболағага ошуруб, мақтаб ва ақлнинг косасига сиғмайдурган сўзларни олмай, баъзи хурофий сўзларни ёзмай, тўғри ва ақл косасиға сиғадурган сўзларни олдим ва ажнабий тарихлардан кўпроқ ёздим..." деб ушбу асари билан боғлиқ эзгу мақсадини қуйидагича баён қилиб ўтади: "Бу "Тарихи Фарғона"ни ёзмоқдин мақсад изҳори ҳунар ёки мусанниф қаторига кирмак ёки таъмаи тириклик йўлидан бўлмай, балки бани башарни(нг) тириклик қилиш, саноат ва зироатлари, маданият ва бадавиятларини халқларга кўрсатмак, биздан кейин келадурганлар ўтганларни(нг) турмуш ва қилмуш ва билмуш ишларидан ибрат олсун. Ўз замони билан ўтган замонни торозу қилиб, вазнини билсун учун ва ҳам илми тарих бир илми таърифдур" [7,22]. Дарҳақиқат, Ибрат тарих ва ҳаёт ҳақиқатини борича, ўз ҳолича, маҳаллий тилда ёритиш борасида бошқаларга муносиб намуна бўла олди.

Дарвоқе, ушбу асар тарихшунослик, тилшунослик нуқтаи назаридан тадқиқ қилиниши лозим бўлган манбалардан саналади. "Тарихи Фарғона" асарида ижтимоий-сиёсий воқеликлар билан бирга Фарғона вилояти таркибига кирган шаҳар ва қишлоқлар номи, уларнинг тарихи, географик жойлашуви, табиати ҳақидаги муҳим маълумотлар ҳам қайд қилинган. Мазкур асар юзасидан У.Долимов [8,26], А.Халилбеков[9,149], К.Воҳидова [10,98] тадқиқотларини алоҳида қайд қилиш лозим. Мазкур тадқиқотларда асарнинг тўрт нусхаси мавжудлиги, асар 1916 йилда ёзиб тугатилганлиги, нусхасини кўпайтириш мақсадида 1921 йилда яна қайта ёзилганлиги ҳақидаги маълумотлар ҳам келтирилган.

Олим, ношир, шоир, ислоҳотчи сифатида ўз ҳаёти ва фаолиятида миллат ва Ватан манфаатини бирламчи қаторда қўйган Исҳоқхон Ибратнинг бой ижодий-маданий мероси мамлакатимизда, шунингдек, хорижда ҳам тадқиқ қилинмоқда. Ибрат фаолиятидаги маърифатпарварлик масаласи талқини У.Долимов, "Луғати ситтати алсина", "Жомеъ ул-хутут", "Тарихи Фарғона", "Мезон-уз замон" каби асарларининг матншунослик аспекти билан боғлиқ тадқиқи Н.Жабборов, тарихшунос, ҳуқуқшунос, жамиятшунос сифатидаги фаолияти тадқиқи К.Воҳидова, адабий меросига хос бадиий хусусиятлари талқини А.Халилбеков, О.Болтабоева кабилар томонидан амалга оширилган. Бу ҳолат Ибратнинг серқирра истеъдод эгаси эканлигидан далолат беради. Унинг асарлари юзасидан адабий йўналишда қатор илмий изланишлар амалга оширилган бўлса-да, асарларининг тил хусусиятлари алоҳида тадқиқ манбаи бўлмаган. Бу ҳолат эса Ибрат асарларининг лексик-грамматик хусусиятларининг диахрон ва синхрон аспектда илмий ўрганилиши, тавсифланишини тақозо қилади.

Маълумки, тил лисоний имконият сифатида нутқнинг турли вазият ва шароитларида, ҳар бир ижодкор нутқида ўзига хос тарзда намоён бўлади, воқеланади. Тилнинг ушбу воқеланиш ҳолат ва хусусиятлари турли аспектда ҳар хил методология ва методларда тадқиқ қилиниш имкониятига ҳам эга. Ўзбек тилшунослигида тил имкониятларининг турли нутқ таркиби билан боғлиқ хусусиятлари илмий ёндашувлар асосида ўрганилиб келинмоқда. Айниқса, тилнинг лисоний-нутқий хусусиятларига доир тадқиқотлар жаҳон ва ўзбек тилшунослигида кенг кўламда изчил амалга оширилган, тил бирликларининг услубий, бадиий имкониятлари атрофлича тадқиқ қилинган.

Тадқиқотчи С.Нормаматовнинг жадид маърифатпарварларининг ўзбек луғатчилиги тараққиётидаги ўрнини концептуал белгилаш мақсадида амалга оширилган диссертацион ишида таъкидланганидек, "XX аср бошларидаги лисоний жараён, бу давр ўзбек тилининг тараққиёти ҳақидаги масалалар, ўзбек тили грамматикасига оид қарашларнинг қиёсий таҳлили, шунингдек, ўзбек адабий тилининг таянч диалектини белгилашдаги лингвистик мунозараларнинг назарий аҳамияти Ш.Бобомуродова, Қ.Қодиров, Ё.Саидов, Н.Янгибоеваларнинг илмий тадқиқотларида ўз аксини топган. Мазкур ишларда жадид адабиёти вакилларининг ўзбек адабий тили ва тилшунослиги тараққиётига қўшган ҳиссаси у ёки бу даражада таҳлил қилинган" [5,8].

Тадқиқотчи олим А.Халилбеков ўзининг "Наманган адабий муҳити" асарида Наманган адабий муҳитига мансуб ижодкорлар меросининг ўрганилишини тўрт даврга ажратади. Унга кўра, тўртинчи давр "XX аср бошлари" деб номланиб, ижоди ўрганилган давр ижодкорлари сифатида Нодим, Ҳайрат, Хилватий, Ибрат, Сўфизода номлари қайд қилинган [9,6]. Мамлакатимиз мустақиллиги қўлга киритилгунга қадар ҳам Наманган адабий ҳаракатчилиги вакилларидан бўлган Нодим, Сўфизода ва Ибрат ижодий мероси юзасидан айрим тадқиқотлар амалга оширилган.

Ибрат ижодий мероси, асарлари тадқиқи кенг қамровли, улар турли мақсад ва йўналишларда бажарилганлигига гувоҳ бўламиз. Ибратнинг ижодий мероси юзасидан амалга оширилган илмий изланиш, тадқиқотларни йўналиш нуқтаи назаридан қуйидагича гуруҳлаштиришимиз мумкин:

1) матншунослик аспектидаги тадқиқи (У.Долимов, Н.Жабборов кабилар);
2) адабиётшунослик аспектидаги тадқиқи (А.Халилбеков, Н.Афоқова, М.Абдуллаева, О.Болтабоева кабилар);
3) тарихшунослик аспектидаги тадқиқи (К.Воҳидова ва бошқалар);
4) луғатшунослик аспектидаги тадқиқи (А.Мадвалиев, С.Нормаматов кабилар).

Жамият ва миллат тақдири, манфаатини кўзлаган маърифатпарвар, миллатпарвар ватандошларимиз таълим-тарбия тизимини янгилаш, ислоҳ қилиш, янги давр адабиёти ва маданиятини тараққий эттириш, дунёвий илм-фанни эгаллаш каби вазифаларга сидқидилдан хизмат қилиш йўлида ижтимоий, маданий, сиёсий соҳаларда юзага чиққан ўзгариш, янгиликларга ҳозиржавоблик билан муносабатда бўлган. Бу борада Исҳоқхон Ибратнинг фаолияти ҳам эътиборга молик.

Манбаларда қайд қилинган маълумотга кўра, Ибратнинг публицистик жанрдаги мақолалари 45 дан ортиқ бўлиб, уларнинг 35 таси ўша даврнинг энг муҳим даврий нашрларидан бири бўлган "Туркистон вилоятининг газети" саҳифаларида эълон қилинган, ушбу публицистик асарларнинг асосини маърифатпарварлик ғояси ташкил қилган [11,22].

Ибратнинг 2020 йил нашр қилинган "Танланган асарлар" [7,200] тўпламидан унинг XX аср бошларида "Туркистон вилоятининг газети"да чоп этилган 8 та илмий-маърифий мақоласи ҳам жой олган. Хусусан, "История древнего города Ахси в Ферганской области", Исҳоқхон тўрадин туземни газетга мақола", "Открытие Коканд-Наманганской железной дороги", "Тошкент сафариндаги маълумотларим", "Эски мактаблар хусусида", "Миллатни ким ислоҳ этар?" каби публицистик мақолалари ўша давр жамият ҳаёти билан боғлиқ муҳим масалаларга муносабатни яққол ифода этган. Жумладан, жамиятдаги ижобий ўзгариш ва янгиликларни тараннум этиш, илф-фан тараққиётини тарғиб қилиш, халқни маънан юксалтириш, маданиятни ривожлантириш, жамиятдаги иллатларни фош этиш, тараққиёт сари интилиш каби ижтимоий-сиёсий, маданий масалалар Ибрат публицистикасининг асосий мазмунини ташкил қилган. Мазкур асарларда ўзбек тилининг халқона сўз ва иборалари билан бирга эски ўзбек адабий тилига хос ифодалар орқали қаламга олинган масалаларнинг содда ва тушунарли тарздаги талқинига эришилган. Бундан ташқари, ушбу мақолалар матнида рус тили ҳамда у орқали ўзбек тилига ўзлашаётган сўз ва атамалар ҳам қўлланилиб, янги тушунча ва ҳодисаларнинг ифодаси сифатида ўзбек жамиятининг ижтимоий-маданий тафаккурини бойитиш имкониятини ҳам таъминлаганини ҳам кузатишимиз мумкин.

Умуман, Ибрат ижодига мансуб асарларнинг тадқиқи, хусусан, тил хусусиятлари билан боғлиқ тадқиқоқтлар орқали ўзбек тилининг лексик-грамматик хусусиятларини, луғат бойлиги ва нутқ таркибини давр нуқтаи назаридан баҳолаш билан бирга муаллифнинг ўзбек тили имкониятларидан фойдаланиш маҳоратини ҳам таҳлил қилиш мумкин. Бу эса тил бирликларининг турли нутқ шароити, шакли, умуман, нутқ табиати билан алоқадор лисоний-нутқий хусусиятларнинг синхрон ва диахрон аспектдаги илмий талқинини тақдим қилиш омили бўлиб хизмат қилади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РУЙХАТИ:

1. Ш.Мирзиёев. Миллий ўзлигимиз ва мустақил давлатчилигимиз тимсоли. (Ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганлигининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқ) // "Халқ сўзи" газетаси. – Тошкент, 2019. – № 218.

2. Болтабоева О. XX аср бошларида Наманганда адабий ҳаракатчилик: намояндалари, анъаналари, янгиланиши: Филол. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2019. – Б. 13.

3. Исҳоқхон Ибрат. Луғати ситтати алсина. – Тошкент: Ильин типографияси, 1901. – Б. 2-3.

4. Мадвалиев А. Исҳоқхон Ибратнинг олти тилли луғати // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2017. – № 4. – Б. 53-56.

5. Нормаматов С. Ўзбек луғатчилигининг шаклланиши ва ривожланишида жадид маърифатпарварларининг ўрни: Филол. фан. д-ри (DSc). ... дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – Б. 69.

6. Исҳоқхон Ибрат. Тарихи Фарғона. Ўз ФАШИ Қўлёзмалар фонди, инв. № 11080.

7. Исҳоқхон Ибрат. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2020. – Б. 22.

8. Долимов У. Жизнь и творчество узбекского поэта просветителя Ибрата: Автореф. дисс. на соиск. уч. степ. кан. фил. наук. – Ташкент: 1971. –С.26.

9. Халилбеков А. Наманган адабий муҳити. – Тошкент: Руҳафзо, 1998. – Б. 149.

10. Воҳидова К. Исҳоқхон Жунайдуллоҳҳўжа ўғли Ибрат ва унинг тарихий-илмий мероси: Тарих фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2002. – Б.98.

11. Долимов У. Исҳоқхон Ибрат. – Тошкент: Шарқ, 1994. – Б. 46; Ибрат И. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2020. – Б. 22.

УЎК 294.321+94(47+57)

ЖАМИЯТДА МИЛЛИЙ МАФКУРАНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ТАРИХИЙ-ҒОЯВИЙ ЗАРУРАТ СИФАТИДА

Б.И.Матчанова, тадқиқотчи, Ўзбекистон Миллий Университети, Тошкент

Аннотация. *Ушбу мақолада инсоният ҳаёти ва тарихида мафкуранинг ўрни, маънавий тараққиётга хизмат қилган, ислоҳотларга олиб келган мафкуравий жараёнлар таҳлил*

қилинган. Янги Ўзбекистон жамиятининг шаклланаётган янги инсонпарвар мафкураси, уни шакллантириш омиллари ва жамиятни улуғ мақсадлар сари йўналтириш, бирлаштиришда мафкуранинг ижтимоий функцияларининг аҳамияти ўрганилган.

***Калит сўзлар**: давлат, жамият, шахс, мафкура, инсонпарварлик, ижтимоий фунциялар, жараён, фуқаролик жамияти, маънавий ҳаёт, Янги Ўзбекистон.*

***Аннотация.** В статье анализируется роль идеологии в жизни и истории человечества, идеологические процессы, служившие духовному развитию и приведшие к реформам. Исследуются формирующаяся новая гуманистическая идеология нового узбекского общества, факторы ее формирования и роль социальных функций идеологии в объединении общества на пути к великим целям.*

***Ключевые слова:** государство, общество, человек, идеология, человечество, социальные функции, процесс, гражданское общество, духовная жизнь, Новый Узбекистан.*

***Abstract.** The article analyzes the role of ideology in the life and history of mankind, the ideological processes that served spiritual development and led to reforms. The emerging new humanistic ideology of the new Uzbek society, the factors of its formation and the role of the social functions of ideology in uniting society on the way to great goals are studied.*

***Key words:** state, society, person, ideology, humanity, social functions, process, civil society, spiritual life, New Uzbekistan.*

Ўзбекистон тараққиётининг янги босқичида амалга оширилаётган кенг қамровли ислоҳотлар ва янгиланишлар жараёнида миллий ғояни ривожлантириш кун тартибидаги долзарб вазифалардан бирига айланмоқда. Дунёда кечаётган глобаллашув жараёнларининг салбий оқибатлари, янги мафкуравий хавф ва таҳдидлар кўламининг кенгайиб бораётгани мазкур масаланинг аҳамиятини янада оширмоқда. Бу жараёнда қуйидагиларга алоҳида аҳамият бериш талаб этилмоқда: **биринчидан,** мамлакатимизни бугунги тез тараққий этиб бораётган дунёга мос равишда ривожлантириш, жамият аъзоларини миллий юксалиш йўлида янада бирлаштириш ва сафарбар этиш масаласига алоҳида эътибор қаратиш; **иккинчидан,** мамлакат тинчлиги, халқнинг асрлар давомида шаклланган маънавий қадриятларига асосланган ҳаёт тарзини барбод қилишга йўналтирилган ғоявий-мафкуравий тахдидларга қарши курашда синовдан ўтган миллий ва жаҳон тажрибасининг самарали усулларидан кенг фойдаланиш; **учинчидан,** дунёда юз бераётган геосиёсий ва мафкуравий жараёнлар, турли ахборот хуружлари мазмун-моҳиятини англаш, халқаро терроризм ва экстремизм, уюшган жиноятчилик ва одам савдоси, наркобизнес, "оммавий маданият" каби турли хавф ва таҳдидларга қарши курашишда кучларни бирлаштириш ва уларни умуммиллий ҳаракат даражасига олиб чиқиш; **тўртинчидан,** дунёвийлик ва динийликнинг соғлом мувозанатини таъминлаш, инсоф, виждон, диёнат каби ахлоқий қадриятларга таяниб яшаш ва фаолият юритишни фуқароларнинг дунёқараши ва хатти-ҳаракатига сингдириш; **бешинчидан,** Ўзбекистон кўп миллатли бағрикенг диёр эканини инобатга олган ҳолда, "Миллий ғоя – бизнинг ғоя" деган тушунчани барча миллат ва элат вакиллари ўртасида кенг тарғиб этиш; **олтинчидан,** ватанпарварлик туйғусини кучайтириш, аҳолининг ижтимоий-сиёсий, иқтисодий фаоллиги ва фуқаролик масъулиятини ошириш; **еттинчидан,** инсон капиталини ривожлантириш, таълим ва тарбияни миллий ғоя қадриятлари даражасига кўтариш, таълим олишга бўлган интилишни рағбатлантиришнинг самарали механизмларини жорий этиш.[1]

Жамиятда янги миллий юксалиш мафкурани шаклантириш тарихий-ғоявий зарурат сифатида баҳоланишининг сабаблари бир нечта саволларга жавоб топиш билан боғлиқ. Хусусан, нима учун маънавий ҳаётимизда бўшашиш, бўшлиқ сезилмоқда?, нима учун маънавий иммунитети заиф бўлган ёшлар сони ортиб бормоқда? ёшлар тарбиясида жамоатчиликнинг роли нима сабабдан сусайиб бормоқда? Коррупция, бюрократия маънавий ҳаётда ҳам оёғимизга болта ураётганини қандай тушуниш лозим?. "Ушбу тарихий зарурат ва объектив ижтимоий-сиёсий жараён Ўзбекистоннинг маънавий-маърифий соҳадаги бугунги тараққиёти ва истиқболини белгилайдиган стратегик тамойиллар ҳамда амалий фаолият дастурларини яратиш ва уларни ҳаётга жорий этишни тақозо этмоқда".[2]

Маълумки, мафкура ўз моҳиятига кўра, бу умумий мақсад, давлат жамият қурилиши қоидалари билан бирлаштирилган типик ғоялар мажмуи, уларнинг ўзига хос хусусиятлари тузилиши, тарқатиш усуллари, баҳолаш мезонлари ва бошқалардир. Шу боисдан ҳам бу атамани илмий муомалага киритган Дестют де Трасси мафкурани ахлоқ, сиёсат ва ҳуқуқнинг асосий манбаларини билиш тизими, деб билди.[3] Шу жиҳатдан Янги Ўзбекистонни барпо этишда ҳозирги ислоҳотларга маънавий куч бахш этадиган, одамларни шу мақсад сари бирлаштирадиган янги маънавий ибтидога зарурат сезилмоқда.

Юқоридаги саволлар ва уларнинг ечими яна мафкура омилини юзага чиқаради ва маънавий ҳаётимизда миллий мафкурани қайта кўриб чиқишни тақозо қилади. Мафкура муаммосининг мазмуни ва мақоми Ғарбдаги ва мамлакатимиздаги фалсафий фанда ҳар хил тасвирланган. Бу энг аввало, тадқиқотчиларнинг турли-туман дунёқарашлари қадриятли – мафкуравий ва сиёсий ёндашувлардан келиб чиқади. Шунинг учун турли қарашлар, назариялар ва фаразларни таққослаш бизнинг фикримизча илмий заруриятдир. Ҳозирги юз йиллик бошлангандан бери ижтимоий ўзгаришларнинг суръати кескин ошди, сиёсий, бадиий, илмий ғоялар ва шу билан биргаликда ижтимоий институтларнинг бирлашуви юз берди. Дунёга тизимли қараш ҳукмрон бўлиб қолди. Бироқ бизнинг ҳаракатларимиз ҳанузгача тарихий хотира ва анъаналардан эмас, балки мафкурадан келиб чиқмоқда.

Сиёсий ва мафкуравий макондаги ўзгаришлар, биринчи навбатда, мафкуравий шаклларни ўзгартиришда, Янги Ўзбекистон сиёсатида яна бир муҳим омил билан қўллаб-қувватланади. Ўзбекистон XX аср охири ва XX аср бошларида бир неча бор бошидан кечирган ижтимоий-сиёсий катализмлар тўлиқ "қадриятларни қайта баҳолаш" билан якунланди, бу кўпинча мафкуравий емирилиш ёки мафкура ролининг мувозанатсиз кучайишига олиб келди. Замонавий Ўзбекистонда қадрият йўналишлари динамикаси нафақат аҳолининг мафкуравий имтиёзлари ва позицияларини намоён этади, балки "ижтимоий талаб"га жавоб берадиган сиёсий институтларнинг мафкуравий фаолиятини йўналтириш имконини ҳам беради.

Замонавий илмий адабиётларда "қадриятлар" тушунчаси жиддий методологик муаммодир. Ўрганилаётган объектнинг мураккаблиги ва ноаниқлиги туфайли баъзи олимлар ҳатто фанлараро қадрият тушунчасини - "ушбу концепциядан фойдаланиш учун ягона таъриф ва контекстни ишлаб чиқишга ҳаракат қилишади, унда унинг турли талқинлари ўз ўрнини топади" [4]. Бироқ, ҳали ҳам кўплаб гуманитар ва ижтимоий фанларнинг тадқиқот қизиқишлари соҳасида бўлса-да, "қадриятлар" тушунчаси ушбу ҳодисага кўплаб талқинларни ва шунга мос равишда ёндашувларни олди.

Ўзбекистон жамиятининг қайд этилган барча соҳаларида инсонпарвар мафкура билимлари ва қадриятлари асосида кескин, тубдан қайта қуриш амалга оширилмоқда. Аввалambор, жамият ҳаётининг инсонпарвар жамиятнинг олий мақсадига, яъни шахсни билимлар ижодкори сифатида шакллантиришга мувофиқ қайта йўналиши юз беради, албатта, маънавий бойликка устуворлик берилгани ҳолда маънавий ва моддий бойликнинг уйғунликда ривожланиши шарти билан. Демак, жамиятни инсоннинг ижодий моҳиятига мос равишда яратиш, қуриш лозим. Инсонпарвар шахс маънавий ва моддий жиҳатдан бой, шунингдек, жисмонан соғлом шахс сифатида шаклланади. Шахс ривожланишида маънавий бойлик инсон ишлаб чиқарган билимлар туфайли, моддий бойликнинг асоси сифатида устувор аҳамият касб этади.

Бизнинг фикримизча, инсон фаолиятининг ҳар қандай соҳасига қадриятларни белгилаш ва қадриятларга тегишли эпитетни бериш "субъект-объект муносабатларига тааллуқли эмаслиги билан асосланади, чунки улар объект-объект муносабатларининг турли томонларини тавсифлайди. Бу муносабат инсоннинг табиат ва жамият билан ва бошқа одамлар билан алоқаларини ўзида мужассам этган, чунки муайян вазиятларда одам субъект ролида эмас, балки объект ролида ҳам фаолият олиб боради.[5]

Шундай қилиб биз мафкурадан ташқарида фикрлай оламизми мафкура бизнинг фикр ва ҳаракатларимизга қандай чекланишлар қўяди? Этниклик ва мансублик инқирози мафкуранинг йўқолишига олиб келадими ёки унинг мустаҳкамланишига? Мафкуранинг "ювилиб кетиши" охир оқибатда мафкуравий ҳокимиятнинг кучайишига олиб келадими?

Мафкуранинг ўзи нима: маросим кодексими, илохийлаштиришми, сиёсий воқеликми ёки Дэниэль Белл "халқча" воқеликми? Мафкура барча нарсани ҳам билим, ҳам эътиқодни аста-секин йўқ қиладиган ҳалокатли оқимга айланмайдими? Бундай саволлар кундан-кунга кўпайиб бормоқда.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Ўзбекистон тараққиётининг янги босқичида Миллий ғояни ривожлантириш Концепцияси лойиҳасидан
2. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси –Тошкент, Ўзбекистон, 2021. –Б. 268
3. Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. –Т.: Маънавият, 2019. – Б.235.
4. Леонтьев Д. А. Ценность как междисциплинарное понятие: опыт многомерной конструкции // Вопросы философии. 1996. № 4. С. 16.
5. Каган М. С. Философская теория ценности. СПб., 1997. - С. 50., - 91

УЎК 94(47).084.6

ШЎРОЛАР ҲОКИМИЯТИНИНГ ҚАТАҒОН СИЁСАТИ ҚУРБОНЛАРИ

Ш.Р.Машарипов, ходим, СамДУ тузилмасидаги Қатағон қурбонлари хотираси музейи, Самарқанд

Аннотация. *Ушбу мақолада чор Россиясининг меросхўри бўлган Советлар мамлакатида XX асрнинг 30-йилларида амалга оширилган зулм ва зўравонликлар қатағон қурбонлари мисолида аниқ ва ишончли маълумотлар асосида таҳлил қилинади. Унда Самарқанд вилоятининг ўзида турли жабҳаларда ўтказилган қатағон сиёсати ҳамиша ижтимоий-иқтисодий ҳаётида муҳим ўрин эгаллаган ер эгалари, оддий деҳқонлар, диний уламолар ва зиёлиларни шафқатсизларча қурбон бўлишига, қулоқ қилиниб, олисларга сургун этилишига, оғир қийноқлар исканжасида ҳалок бўлишига оид қимматли маълумотлар берилган.*

Калит сўзлар: *қатағон, террор, монелик, мафкура, атеизм, ВКП (б) МК, қулоқ, ёт унсур, ХКС, ОГПУ, ГПУ, НКВД, мулкдор, большевик, учлик, колхоз, шўро, тамға, имом.*

Аннотация. *В данной статье на основе точных и достоверных данных на примере жертв репрессий анализируются притеснения и насилие, осуществляемые в 30-е годы XX века в стране, наследие царской России. Приведены ценные сведения о том, что политика репрессий, проводившаяся на различных фронтах Самаркандской области, жестоко расправилась с землевладельцами, простыми крестьянами, религиоведами и интеллигенцией, всегда игравшими важную роль в социально-экономической жизни Самарканда. Приводятся ценные сведения о жертвах репрессий, сослании в дальние страны и смерти под жестокими пытками.*

Ключевые слова: *репрессии, террор, обструкционизм, идеология, атеизм, ВКП (б) ЦК, кулак, антисоветский элемент, НКС, ОГПУ, ГПУ, НКВД, помещик, большевик, тройка, колхоз, шура, печать, имам.*

Abstract. *This article analyzes the harassment and violence carried out in the 30-s of the XXth century in the country, the successor of tsarist Russia, on the basis of accurate and reliable data on the example of victims of repression. Valuable information is given that the policy of repression carried out on various fronts of the Samarkand region brutally dealt with landowners, ordinary peasants, religious scholars and intellectuals, who have always played an important role in the socio-economic life of Samarkand. Valuable information is given about the victims of repression, exiled to distant countries and death under cruel torture.*

Keywords: *repression, terror, obstructionism, ideology, atheism, Central Committee of VKP (b), kulak, anti-Soviet element, NKS, OGPU, GPU, NKVD, landowner, Bolshevik, troika, collective farm, shura, seal, imam.*

Россия подшоҳлиги мустамлакачилик сиёсатини ўзи босиб олган ҳудудлардаги бошқа миллатларнинг маданиятини аста-секин йўқ қилиш орқали руслаштириш ғоясини амалга ошириш негизида олиб борган бўлса, бу меросга эгалик қилган совет ҳокимиятини уни ўта қабиҳлик ва ваҳшийлик билан давом эттирди. Тузумга қарши бўлган ҳар қандай кучларни

шафқатсизларча йўқ қилиш учун қонли террор сиёсатини танлади. XX асрнинг 20-30 йилларида бу сиёсат турли кўринишларда намоён бўлдики, уларнинг бири қатағондир. Унинг занжирлари шунчалик мустахкам эдики, ундан қутилиб чиқишнинг қарийб иложи йўқ эди.

Айниқса, Туркистон диёрида бу сиёсат аввало, халқимизнинг энг илғор, маданиятли вакилларини қирғин қилишга қаратилиб, ўта тубанлик ва иккиюзмачилик унинг ифлос башарасини янада совуқлаштирди.

Биз шўролар ҳокимиятига оид ҳужжатларни ўрганар эканмиз, архив жамланмаларидаги сарғайиб кетган ҳужжатлар орасида халқимизнинг асл фарзандларини ҳеч қандай айбсиз ўз ватанида ватангадо қилган ифлос сиёсатининг жирканчликлари яшириниб ётганига гувоҳ бўлдик. Алҳазар! Агар бу гувоҳлик ҳақида ўтган асрнинг ўрталарида гап очганимизда борми, биз ҳам ўша қонхўр сиёсатнинг қурбонига айланишимиз айни ҳақиқат эди!

Яратганга минг қатла шукурки, бугун Туркистон диёрининг ажралмас бўлаги бўлган Ўзбекистонида мустақиллик шабадаси эсиб турибди. Шундай экан, советларнинг қатағон сиёсати ҳақида баралла гапиришимизга бугун ҳеч ким монелик қилолмайди.

Келинг, энди биз фикр юритаётган мавзудан чекинмайликда, шўролар тузумининг қатағон сиёсатига батафсил тўхталайлик.

Бу сиёсат барча жабҳаларда шунчалик устамонлик билан қанот ёзди. Айниқса, совет мафкурасининг сиёсий ва маънавий "синфий кураш сиёсати" ижтимоий ва иқтисодий соҳаларда янада кескинроқ авж олди. Ижтимоий соҳада у мулкдорларни ва уламоларни синфий душман сифатида тугатишда ҳамда диний атеизм сиёсати кўринишида намоён бўлди, иқтисодий соҳада эса бу сиёсат хусусий мулкка қарши кураш ва хусусий мулк эгаларини таъқиб этиш ва тазйиқ остига олишда ўз аксини топди.

Совет ҳокимияти асрлар давомида авлоддан-авлодга ўтиб, ривожланиб келган хусусий мулклар – йирик ер-сувлар, боғлар, далалар, корхоналар, банклар ва бошқа нарсаларни тортиб олиш ва давлат мулкига айлантириш жараёнида уларнинг эгаларини синфий душман деб эълон қилди. Душманга эса ҳеч бир давлатда дўстона муносабатда бўлинмаслигини ўзингиз жуда яхши биласиз.

ВКП (б) МҚнинг 1929 йилнинг 27 июнидаги қарори билан мулкдорларга "қулоқ ва ёт унсур" деган тамғалари ёпиштирилиб, улар сайлаш ва сайланиш ҳуқуқидан маҳрум этилган. Шунингдек, уларга бошқарув аппаратида ишлаш ҳам ман этилган [1].

ЎзССР ХКС 1929 йилнинг 3 августидаги қарорига биноан ёлланма меҳнатдан фойдаланган деҳқон хўжалиги эгалари, руҳонийлар табақасидан бўлган имом, муллалар, ўз меҳнат қуроллари ёки биноларни вақтинча ёки доимий ижарага берганлар, ўз хўжалигида тегирмон, мойжувоз ва бошқа ускуналардан фойдаланганлар, йилига 600 сўмдан ортиқ даромад қилганлар қулоқ деб эълон қилинган [2].

Шу меъёрга асосан 1929-1930 йилларда Самарқанд вилоятидан 1614 та хўжалик "қулоқ хўжаликлари" деб топилган. Аммо ҳукуматнинг қулоқ хўжаликларига талаби йил сайин кучайиб, энг оддий деҳқон хўжалигига ҳам "қулоқ" тамғаси қўйилиб тугатила бошланган. Натижада Самарқанд вилоятида 1930-1931 йилларда 3107 та хўжалик "қулоқ" сифатида тугатилган. Ушбу маълумотдан шундай хулоса чиқаришимиз мумкинки, "қулоқ" деб аталган хўжаликлар сони бутун республикадаги каби Самарқанд вилоятида ҳам "ўрта ҳол" ва камбағал деҳқонлар ҳисобига кўпайиб бораверган. Аслида қулоқлаштириш сиёсати хусусий мулк ва мустақил хўжаликларнинг мол-мулкини давлатга тортиб олишга қаратилган эди. Шу мақсадда нафақат ер-сув, ҳаттоки чорва моллари ҳам тортиб олина бошлаган. Масалан, чорва молларини мусодара қилиш комиссиясининг 1931 йил 4 апрелидаги ўта махфий қарорида Нарпай туманидан 121 минг, Нурота туманидан 106 минг, Хатирчи туманидан 41 минг, Каттақўрғон туманидан 29 минг 900 бош қўй тортиб олиш режалаштирилган эди [3].

Бундай холатда ўзига тўқ бўлган чорвадорлар чорва молларини яширишга ёки сўйишга мажбур бўлишган. Ҳукумат томонидан уларга нисбатан кескин чоралар қўлланилган ва мол-мулкни тортиб олишда давом этган.

Самарқанд бозорида ўз мулкини колхозга топширишни истамаган мулкдорлар иш ҳайвонларини сота бошлаганлар. Бозорларда: "Сотмасанг, барибир давлат тортиб олади,

яхшиси арзон бўлса ҳам сотган маъқул”, деган фикрлар ҳар куни, ҳар қадамда эшитилиб турарди. Айниқса, Митан туманида иш ҳайвонларини оммавий равишда сотиш авж олган ва буни ташвиқот қилганлар ҳибсга олиниб, жиноий жавобгарликка тортилган.

Ҳукумат томонидан қанча одамни қулоқ қилиш бўйича махсус режа тузилган бўлиб, уни бажариш жараёнида комиссия томонидан турли хил адолатсизликларга йўл қўйилган. Масалан, бойнинг ўғли, қозининг ўғли, ўзгалар меҳнатини эксплуатация қилувчи, аввал чойхона эгаси бўлган, бундан фалон йил олдин 2 та чоракори бўлган деган ноаниқ айблов билан ҳам кўпчилик ҳибсга олинганлиги манбааларда қайд этилган.

Иштихон тумани Сарой қишлоғида истиқомат қилувчи Мусаллам Икромованинг хотирлашича, унинг отаси Икромбой ҳудуднинг мулкдор кишиси бўлиб, саховатли бой бўлган. Аммо совет ҳокимияти томонидан олиб борилган қулоқлаштириш сиёсати даврида унинг барча мол-мулки давлат фойдасига тортиб олинган.

ОГПУ органларининг 1930 йилнинг 14 майдаги маълумотида келтирилишича, Самарқанд округининг Икромов (Пастдарғом) туманида 126 хўжаликдан жами 50728 сўмлик мол-мулк, яъни, чорва моллари, меҳнат қуроллари, 35823 сўмлик уй-жойлари мусодара қилинган. Янгиқўрғон туманидан 61 та хўжаликдан 65559 сўмлик мол-мулк мусодара қилинган [4].

Мулкдорларга қарши кураш тадбирлари ўта кескин бўлса-да, Самарқанд вилоят партия қўмитаси бундан сира қаноатланмас эди. Раҳбарлар партия органларини “қулоқ”ларни синф сифатида йўқотиш борасида сусткашликка йўл қўйилаётганлигин таъккидлаб, фаол ҳаракатни талаб қиларди. Партия ташкилоти олдига 1931 йилнинг 1 июлига қадар “қулоқ” хўжаликларни буткул тугатиш вазифаси қўйилади [5].

Ҳукумат мулкдорларнинг мол-мулкини тортиб олиш билан чекланмай, уларнинг кўпчилигини душман сифатида ҳибсга олган. Масалан, Оқдарё туманидан 30 та мулкдор ҳибсга олинган. Шулардан, Қори Зокир Ҳамидбоев, Абдуваҳоб Азимов, Усан Иралов, Жўрақул Қаюмов каби мулкдор ва руҳонийлар табақасига мансуб бўлган кишилар ОГПУ органлари томонидан совет ҳокимиятига қарши чиқишда айбланиб, 1930 йилнинг 22 мартида жиноий жавобгарликка тортилган. Уларга тегишли мол-мулк мусодара этилган. Ушбу маълумот совет ҳокимиятининг мулкдор, руҳонийлар табақасини “синфий душман” сифатида йўқотишни мақсад қилиб қўйганлигини яна бир бор кўрсатди.

Мол-мулки тортиб олинган мулкдорлар “қулоқ” сифатида махсус қўрғонларга жойлаштирилган. Вилоятининг Каттақўрғон ва Самарқанд туманларида шундай қўрғонлар мавжуд этди. Самарқанд туманига республиканинг турли ҳудудларидан 275 хўжалик, 1025 киши сургун қилинган, қулоқ қўрғонларидаги аҳвол эса жуда аянчли бўлган. Самарқанд шаҳридан 8 км. узоқликда жойлашган “Қўштонгли” қишлоқ совети ҳудудига 92 хўжалик – 387 киши сургун қилинган бўлиб, улар чайлаларда яшашган [6]. Оқдарё туманидаги Сайдон қишлоғи яқинида жойлашган қулоқлар қўрғонида ҳам сургун қилинган мулкдорлар қамишдан қилинган чайлаларда истиқомат қилишган. Улар жуда оғир шароитда яшашган. Дастлаб Давлат Сиёсий Бошқармалари (ГПУ), 1934 йилдан бошлаб эса Ички Ишлар Халқ Комиссарлиги (НКВД) органлари назоратида бўлишган. Озиқ-овқат етишмаслиги, тиббий хизматининг йўқлиги, доимий хўрлаш, ҳақоратлар натижасида кўпчилик меҳнат қобилиятини йўқотиб, турли касалликлардан ўлиб кетишган. Қолганлар эса доимий равишда ҳаёт ва ўлим оралиғида яшаганлар [7].

1937 йилда бутун Ўзбекистонда “қулоқ”, мулкдор, савдогар, руҳонийлар табақасига мансубликда айбланиб 60 минг киши қатағон этилган.

Совет ҳокимиятининг ислом динига қарши олиб борган сиёсати мафкуравий жиҳатдан халқнинг ўтмиши, маънавияти, маданий мероси ва миллий қадриятлари билан чамбарчас боғлик бўлган асрий эътиқодидан маҳрум этиб, унинг онгида ягона совет мафкурасини қарор топтириш мақсадига қаратилган бўлиб, буни амалга ошириш учун большевиклар энг аввало ислом динини тарғиб этувчи диний уламолардан қутулиш лозим, деб топдилар. Шу сабабли диний уламолар синфий душман деб эълон қилинди ва тазйиққа олинди.

Савет ҳокимияти дастлабки йиллардаёқ, ислом динига нисбатан олиб борган сиёсати маҳаллий аҳоли орасида норозилик уйғотиб, қуролли қаршилик ҳаракатларини кучайтириб юборгач, большевиклар вақтинчалик ён беришга ва қозилик судларидан амалда фойдаланишга имкон бердилар. Аммо 1924 йилда оммавий қаршилик ҳаракати бостирилгач, совет ҳокимиятининг динга ва уламоларга қарши сиёсати яна кучая бошлади. Бу сиёсат мачитларни ёқиш, диний таълимни ман этиш, диний адабиётларни йўқ қилиш каби тадбирларда намоён бўлди. 20-йиллар охири – 30 йиллар бошига келиб эса, совет ҳокимияти синфий курашни авж олдириб, диний уламоларни синфий душман сифатида жазолаш ва тазйиқ остига олишга киришди.

Диний уламоларни таъқиб остига олиш йил сайин кучайиб бориб, 1937-1938 йилларда авжга чиққан. Самарқанд вилоятида бу даврда ўнлаб уламолар ҳибсга олиниб, қатағонга учраган. Улар диний урф-одатларга амал қилганликда ёки диний адабиётларни сақлашда айбланиб, ҳибсга олинди, тергов жараёнларида эса улар совет ҳокимиятига қарши иш олиб борганликда айбланган.

Совет ҳокимиятининг йирик мулк эгаларини қулоқ сифатида тугатиб, қатағон қилиш сиёсати оммавий колхозлаштириш тадбирлари билан уйғунлашиб кетди. ВКП(б) МК сиёсий бюроси томонидан 1930 йил 30 январида оммавий жамоалаштириш ҳудудларига хусусий хўжаликларини тугатиш тадбири тўғрисидаги қарор қабул қилинган [8].

Аслида қулоқлаштириш сиёсати жамоалаштириш сиёсати учун замин ҳозирлаб берган эди. Мулкдор хўжаликлардан тортиб олинган мол-мулк жамоа хўжаликларига "моддий асос" бўлиб хизмат қилади. Қишлоқ хўжалигида хусусий мулкчиликка ва бозор муносабатларига барҳам бериш ҳамда давлат мулкчилиги ва монополиясини қарор топтиришга қаратилган тадбирлар табий равишда маҳаллий аҳолининг оммавий қаршилигига учради. Бутун Туркистон бўйлаб колхозлаштиришга қарши норозилик ҳаракатлари намоён бўла бошлади. Айнан шу даврда совет ҳокимиятининг қатағон сиёсатининг иккинчи босқичи авж олди.

Деҳқонлар қишлоқ хўжалигини колхозлаштиришга қарши чиққанлиги учун турли муддатларга озодликдан маҳрум этилган. Аксарият ҳолларда улар 5 йилдан 10 йилгача концлагерга сургун қилинган ёки отишга ҳукм қилинган [9].

Маҳбуслар арзимаган айблари учун 15-20 ойлаб қамоқхонада сақланган. Қамоқхонада ётган 450 та маҳбуснинг энг юқори органларга ёзган аризалари фикримизнинг далилдир. Манбаалардан маълум бўлишича уларнинг 75% камбағаллар табақасидан бўлиб, кўпчилиги 15-20 ойдан бери қамоқхонада ётган. Масалан, Мажид Расулов пахтани ўз вақтида топширмаганлиги учун қамалган. Бундайлар 15-20 марталаб ариза ёзишган, аммо натижа бўлмаган [10].

Колхозлаштиришга қарши ҳаракатлар иштирокчилари 30-йиллар бошинданоқ қатағонга учрай бошлаган. Масалан, Самарқанд вилоятининг Нарпай туманидан Хушвақт Бекмуродов, Аъзам Наҳанов, Илҳом Эшмуродовлар колхозлаштиришга қарши чиққанлиги туфайли 1930 йида қатағон этилган.

Колхоз тузумини қабул қилиб, унга кирган деҳқонлар ҳам тез орада ундан чиқиб кета бошлаганлар. Масалан, Оқдарё туманидан бўлган оддий фуқаро Қиличбоев Маҳмуд коллективлаштириш даврида ўзининг барча молларини сотиб, колхозга аъзо бўлган. Аммо кўп ўтмай ундан чиқишга мажбур бўлган. Колхозларда доимий равишда пахта экишга мажбур этилишига қарши чиқиб, "Ҳукумат дон экишга рухсат бермаяпти, ҳаммамиз колхозни тарк этайлик" деган мазмундаги гаплари учун "учлик" кенгашининг қарори билан 10 йилга озодликдан маҳрум этилган [11]. Бундай мисолларни жуда кўплаб келтиришимиз мумкин.

Ҳуллас, советлар ҳокимиятининг барча жабҳалардаги сиёсати, шу жумладан қатағон сиёсати инсоният тараққиётнинг кушандасига айланиб, унинг истиқболсиз экани тобора аён бўла борди. Ва охир-оқибат, у таназзулга юз тутиб, бугун тарихнинг жирканч саҳифасига айланди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Иваницкий Н.А. Классовая борьба в деревне и ликвидация кулачества как класс. – М: Наука, 1972. – С.50-51.

2. ЎзРМДА, 837-жамғарма. 8-рўйхат, 311-йиғма жилд, 100-варақ.

3. Ўша жойда. 110-варақ
4. Трагедия средниазиатского кишлака: Коллективизация, раскулачивание, ссылка. 1929-1955. Документы и материалы. Т. 1. Под редакции д.и.н. Д.А.Алимовой. Т.:Шарқ, 2006. – С. 236-237.
5. Трагедия средниазиатского кишлака: Коллективизация, раскулачивание, ссылка. 1929-1955. Документы и материалы. Т. 1. Под редакции д.и.н. Д.А.Алимовой. Т.:Шарқ, 2006. – С. 268-269
6. Трагедия средниазиатского кишлака: Коллективизация, раскулачивание, ссылка. 1929-1955. Документы и материалы. Т. 1. Под редакции д.и.н. Д.А.Алимовой. Т.:Шарқ, 2006. – С. 137
7. Алимова Д.А., Голованов А.А. Узбекистан 1917-1990 годы: противоборства идей и идеологии. – Ташкент. 2002. – С.54.
8. Трагедия средниазиатского кишлака: Коллективизация, раскулачивание, ссылка. 1929-1955. Документы и материалы. Т. 1. Под редакции д.и.н. Д.А.Алимовой. Т.:Шарқ, 2006. – С. 291.
9. СамВДА, 6008-йиғма жилд, 41-варақ.
10. ЎзРМДА, 86-жамғарма. 1-рўйхат, 7070-йиғма жилд, 19-варақ.
11. ЎзРМХХА, 11258-рўйхат, 3303-йиғма жилд, 20-22-варақлар.

УЎК 39:397

ИСХОҚХОН ИБРАТНИНГ "ТАРИХИ ФАРҒОНА" АСАРИДАГИ ЭТНОГРАФИК МАЪЛУМОТЛАР

Н.А.Олимов, таянч докторант, Андижон давлат университети, Андижон

Аннотация. *Ушбу мақола Исҳоқхон Жунайдуллоҳхўжа ўғли Ибрат қаламига мансуб «Тарихи Фарғона" асари ва ундаги этнографик маълумотлар ҳақида ёзилган. Мақолада «Тарихи Фарғона" асаридаги XIX аср охири XX аср бошларида Фарғона водийсида аҳолисининг этник ҳолати, водийда юз берган этносиёсий, миграцион жараёнлар ҳамда водий шаҳарларининг этнотопономикаси ҳақидаги муҳим маълумотлар келтирилган.*

Калит сўзлар*: Қўқон хонлиги, этник таркиб, қипчоқлар, юзлар, қирғизлар, қозоқлар, тожиклар, этносиёсий жараёнлар, миграцион жараёнлар, этнотопономика.*

Аннотация. *Данная статья написана о труде «История Ферганы», написанном Ибратом сыном Исхак-хана Джунайдуллахходжи, и этнографических сведениях, содержащихся в нем. В статье «История Ферганы» представлены важные сведения об этническом положении населения Ферганской долины в конце XIX начале XX века, этнополитических и миграционных процессах, происходивших в долине, а также этнотопономика долинных городов.*

Ключевые слова*: Коканское ханство, этнический состав, кипчаки, юзы, киргизы, казахи, таджики, этнополитические процессы, миграционные процессы, этнотопономика.*

Abstract. *This article is written about the work "History of Fergana" written by Ibrat son of Is'haq Khan Junaidullahkhoja and the ethnographic information in it. The article "History of Ferghana" provides important information about the ethnic situation of the population of the Ferghana Valley at the end of the 19th century and the beginning of the 20th century, the ethnopolitical and migration processes that took place in the valley, and the ethnotoponomics of the valley cities.*

Key words*: Kokan Khanate, ethnic composition, Kipchaks, Yuzs, Kyrgyz, Kazakhs, Tajiks, ethnopolitical processes, migration processes, etnotoponomics.*

Кириш. Қўқон хонлиги ва ундан кейинги даврда яшаган маҳаллий тарихчиларнинг асарларида Фарғона водийсида этник ҳолат акс этган маълумотлар нисбатан кам учрайди. Негаки, ушбу давр маҳаллий тарихшуносларнинг асарлари асосан хонлик аҳолисининг ижтимоий-сиёсий, маданий ҳамда иқтисодий ҳаётини кўрсатиб беришга бағишланган бўлиб, уларда этник ва этнослараро муносабатлар масаласи яхши ёритилмаган. Бу ҳолат ушбу масалани ўрганишда маҳаллий тарихчилар томонидан ёзиб қолдирилган ёзма манбаларни кенгроқ кўламда илмий тадқиқ қилиш аҳамиятини оширади. Зеро улардан Фарғона водийси халқлари этник ҳолати, этник жамоаларнинг хўжалик-маданий типлари ҳамда водий ҳудудида кечган этносиёсий, миграцион жараёнлар тўғрисида маълумотларни учратиш мумкин.

Мавзунинг долзарблиги ва ҳозирги ҳолати. Шундай маҳаллий ёзма манбалардан бири - жадидчилик ҳаракатининг таниқли намоёндаси Исҳоқхон Жунайдуллоҳхўжа ўғли Ибрат қаламига мансуб «Тарихи Фарғона" асаридир. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев таъкидлаганидек, «Ибрат домланинг эл-юртимиз тараққиёти йўлидаги фидокорана хизматлари нафақат ўз даврида, балки бугунги кунда ҳам барчамиз учун ҳақиқий ибрат бўлиб келмоқда".

Исҳоқхон Ибрат 1862-йилда Наманган яқинидаги Тўрақўрғон шаҳрида таваллуд топган. Унинг шажараси машҳур мутассаввиф Аҳмад Яссавийга бориб тақалади. Исҳоқхон тўранинг савод чиқаришида онаси Ҳурибибининг хизмати катта. Бу ҳақида Исҳоқхон Ибрат шундай ёзган эди: «Аввалги вақтда маҳалла мактабида банда ўзум неча йилда 3 адад муаллимда ўқуб, охири саводим чиқмай, кейин ўз уйимизда жорий қизлар мактабида, волидайи марҳумамда ўқуб савод чиқордим" **[2 - Б.36]**.

Исҳоқхон Ибрат кейинчалик Қўқондаги Муҳаммад Сиддиқ Тунқатор мадрасасида тахсил олади **[3 - Б.9].** У Шарқ ва Ғарб халқларининг жуда кўп шаҳарларида бўлиб, маҳаллий аҳолининг тили, маданияти ва урф-одатларини ўрганган. Ўша давр маҳаллий матбуотларининг бирида Исҳоқхон Ибрат бир қатор тилларни яхши билиши хусусида қуйидаги маълумотлар келтирилган « … Фозили инсониядан моада қози тўра жаноблари туркча, форсча, ҳиндча, русча лисон билиб, яна русча, французча, арманича ва бошқа хатлар ёзмоққа моҳирдурлар" **[1]**.

Бундан ташқари Исҳоқхон тўра тарих фанини ҳам яхши билган. Тарихчи-олим сифатида Исҳоқхон тўра Ибрат 1913-йил июл ойида Тошкентда руслар томонидан ташкил этилган археология ҳаваскорлар тўгараги Ахси шаҳри тарихига бағишланган илмий анжуманда қатнашади. Унинг маърузаси «Туркистон вилоятининг газети"да, газета таҳририяти қоидасига биноан русча «История древнего города Ахси в Ферганской области" сарлавҳаси билан эълон қилинади. Ушбу мақолада Ибрат Ахши шаҳрининг қаерда жойлашгани, унинг бир вақтлар анча гуллаган шаҳар бўлганлиги, қай вақтда ва нима сабабдан вайрон бўлгани, кейинг вақтларда унинг ўрнида қандай қишлоқлар вужудга келганлиги ҳақида тарихий-илмий асарларга, фактик материалларга, археологик топилмаларга асосланиб фикр юритади **[3 - Б.59].**

Тадқиқотни амалга ошириш. Исҳоқхон тўра Ибратнинг»Тарихи Фарғона" асари хусусан Фарғона водийси тарихига бағишланган. Асар 1916-йилда ёзилган. Айни вақтда таъкидлаб ўтиш ўринлики, ушбу асар 1913-йилда ёзилганлиги ҳақида ҳам манбаларда қайдлар учрайди **[3 - Б.45].** Ушбу асар 1925-1926-йилларда шўро мафкураси талаблари асосида тахрирдан ўтказилиб нашр қилинган.

Шуни ҳам айтиб ўтиш керакки, ғарб тилларини яхши билган Исҳоқхон Ибрат «Тарихи Фарғона" асарини яратиш жараёнида атоқли шарқшунос олимлар В. В. Радлов, В. В. Бартолд ва В. П. Наливкин ҳамда Ҳерман Вамбери асарларидан унумли фойдаланиб, уларга ўз муносабатини ҳам билдирган **[3 - Б.48]**.

Олинган натижалар таҳлили. Исҳоқхон Ибратнинг ушбу «Тарихи Фарғона" асари билан танишиб чиқишдан маълум бўладики, асарда Фарғона водийсининг қадимги даврдан бошлаб Россия империяси томонидан Қўқон хонлиги босиб олинишича бўлган давр тарихи ҳақида муҳим маълумотлар баёни берилган. Биз учун ушбу асарнинг қиммати шундаки, унда айрим этнографик маълумотлар ҳам мавжуд. Хусусан, муаллиф ўша даврдаги Фарғона водийси аҳолисининг этник таркиби ҳақида қизиқарли маълумотлар берган. Чунончи, XX аср бошларида Фарғона водийси аҳолиси аксарияти ўзбек, сорт, тожик, қорақалпоқ, қипчоқ ва тоғ тарафларидаги кўчманчи қирғиз халқларидан иборат эканлигини ва шунингдек, водийнинг шахарларида савдо билан шуғулланувчи яҳудий, ҳинд, арман, форс, грузин халқлари яшаганлигини ёзиб қолдирган.

Асар орқали XIX аср охирларида Фарғона водийсида кечган этносиёсий жараёнлар ҳамда уларда турли этник жамоаларнинг иштироки ҳақидаги муҳим маълумотларни олишимиз мумкин. Шунингдек, қипчоқ, қирғиз, тожик, қозоқ, юз ва бошқа этник

жамоаларнинг Қўқон хонлигининг этносиёсий жараёнларида фаол иштирок этганлиги кўрсатиб ўтилади.

Маълумки, Қўқон хонлиги этносиёсий ҳаётида XIX аср ўрталаридан бошлаб қипчоқлар муҳим ўрин тута бошлаган. Бу эса Қўқон хони Шералихон тахтга келишига ёрдам берган қипчоқ қабиласининг сардори Мусулмонқулни мингбоши этиб тайинланиши билан боғлиқ ҳолда юз берган. «Шералихон замонида ҳукумат қирғизу қипчоқ қўлида эрди" **[4-Б.301]**. Мусулмонқул кейинчалик Худоёрхон замонида ҳам катта мавқега эга бўлган ва мингбоши лавозимига тайинланган. Мусулмонқул аҳоли деҳқончилигини ривожлантириш учун «Чинобод" ариғини чиқаради ва хонга атаб Қўқон шаҳрида мадраса қурдиради. Мусулмонқул даврида қипчоқларга кўплаб ҳудуд ва имтиёзлар берилади. Ушбу ҳолат эса хон ва унинг бошқа этник гурухларга мансуб амалдорларга ёқмаган. «Бинобарин бу жабру зулмлардан халос бўлмоқ учун Мусулмонқули зиддиға иш қила бошлаганлар" **[4 - Б.298]**. Худоёрхон ва унинг мансабдорлари мингбоши Мусулмонқулни Билқиллама деган жойда тор-мор қилиб, уни ва унга тегишли одамларни ўлдиришади **[4 - Б.299].** Мазкур этносиёсий жараёнлар давомида жуда кўплаб бегуноҳ қипчоқлар ҳам ҳалок бўлади.

Россия босқини арафасида, XIX аср охирларида Мусулмонқулнинг ўғли Абдураҳмон Офтобачи Қўқон хонлиги сиёсий ҳаётида муҳим рол ўйнаган. Бундан билиш мумкинки, қипчоқлар XIX аср ўрталаридан то XIX аср охирларигача, яъни Қўқон хонлиги тугатилгунига қадар хонликда катта сиёсий куч бўлган.

Асардан қипчоқлардан ташқари, қирғизлар ҳам Қўқон хонлиги этносиёсий ҳаётида муҳим рол ўйнаганини билиб олишимиз мумкин. Бу ҳақида «Тарихи Фарғона" асарида Шералихонни тахтга ўтиришида қипчоқлар билан қирғизлар ҳам бирдай ҳисса қўшгани**[4 - Б.298]** ва улар ҳам хонлик сиёсий ҳаётида муҳим ўрин тутиши ёзилган. Шералихоннинг икки рафиқаси ҳамда Мусулмонқули қипчоқнинг қайнотаси, Кетмонтепа ҳокими Ирискулибий ҳам қирғиз бўлганлиги асарда ёзиб қолдирилган **[4 - Б.297]**.

Бундан ташқари «Тарихи Фарғона" асарида Муҳаммад Алихон даврида қўшбеги лавозимида ишлаган Хушвақтбек юз қабиласидан эканлиги ҳақида маълумотлар келтирилган **[4 - Б.296]**.

Россия империяси Қўқон хонлиги ҳудудига бостириб кирганда Амирлашкар Алиқули Туркистон шаҳрига ҳоким этиб Давлат тожик исмли шахсни тайинлаши баён этилган. Бундан билиш мумкинки, Қўқон хонлиги этносиёсий ҳаётида XIX аср охирларида тожиклар ҳам муҳим рол ўйнаганини кўриш мумкин.

«Тарихи Фарғона" асарида Қўқон хонлигининг сиёсий ҳаётида қозоқларнинг муҳим ўрин тутганини ҳақида маълумотлар ҳам учрайди. Асарда Амирлашкар Алиқули Чимкентда йиғилиш қилиб, қозоқ қабилалари сардори Бойзоқбий билан музокара олиб боргани, қозоқларнинг Россия империяси билан муносабатлари тўғрисида муҳим маълумотлар келтирилган.

Исҳоқхон тўра Ибратнинг «Тарихи Фарғона" асарида Фарғона водийсида кечган миграцион жараёнлар ҳақида муҳим маълумотлар берилган. Асарда Қўқон хони Муҳаммад Алихон даврида 1829-1832-йиллар оралиғида Фарғона водийсининг бир гурух аҳолисини Қошғарга кўчиш баёни берилади. Хусусан, аввал Бузрукхонтўра, кейинги йилларда эса Жаҳонгирхонтўра ва Исобек меҳтарлар бошчилигида қошғарликлар ҳамда улар билан биргаликда бир қанча қўқонлик аҳоли ҳам Қошғарга кўчиб кетганлар. Улар кейинчалик бирлашиб, Хитой ҳудудига қарашли Гулбоғ деган жойга ўрнашганлар **[4 - Б.296].**

Асарда Фарғона водийсининг йирик шаҳарлари; Қўқон, Андижон, Наманган, Тўракўрғон шаҳарлари тўғрисида географик ҳамда этнографик маълумотлар берилган. Айниқса, Қўқон, Андижон, Наманган шаҳарларининг пайдо бўлиши, уларни номланиши каби тарихий-этнографик маълумотлар бор **[3 - Б.57]** Исҳоқхон тўра Ибратнинг «Тарихи Фарғона" асарида баъзи шаҳар номларини этнотопономик жиҳатдан изоҳланган. Масалан, ушбу асарда муаллиф Андижон шаҳрини номланиши ҳақида : «Андигон – «андлар" дегани, «анда" турклар, ўзбеклар уруғи каби фикрни илгари суради.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, Исҳоқхон Ибратнинг «Тарихи Фарғона" асари XIX аср охири XX аср бошларида Фарғона водийсида этник ҳолат акс этган маҳаллий манбалар орасида алоҳида аҳамият касб этади. Ушбу асар орқали ўша даврда Фарғона водийси аҳолисининг этник ҳолати, водийда юз берган этносиёсий, миграцион жараёнлар ҳамда ҳудудларнинг этнотопономикаси ҳақида муҳим маълумотларни олишимиз мумкин.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Ҳақ сўз.// Туркистон вилоятининг газети. 1908, 56-сон.
2. Исҳоқхон Ибрат. Мезон уз-замон. I дафтар.
3. Жадидлар. Исҳоқхон тўра Ибрат [Матн]; рисола./ У.Долимов- Тошкент; Ёшлар нашриёт уйи, 2022.
4. "Мерос" туркуми. Фарғона тарихи. Ибрат. – Тошкент «Камалак". 1991.

УЎК 94 (575.1) "1917-1924":355.233(043.4)

ХОРАЗМ ХАЛҚ СОВЕТ РЕСПУБЛИКАСИДА МИЛЛИЙ ҚЎШИН ТУЗИЛИШИ ТАРИХИДАН

Э.Раджапов, PhD, Ўзбекистон Республикаси Инновацион ривожланиш вазирлиги, Тошкент

Аннотация. *Мақолада Хоразм Халқ Совет Республикасида миллий қўшин ташкил этилиши ва бу борада ХХСР ҳукумати томоидан амалга оширилган ишлар, ХХСР миллий қўшининг ташкилий тузилмаси маҳаллий ва Россия Давлат Ҳарбий архив ҳужжатлари асосида таҳлил қилинган.*

Калит сўзлар: *ҳарбий кенгаш, қуролли кучлар, Қизил армия, ҳарбий мактаб, Туркистон фронти, сафарбарлик, Жунаидхон, отлиқ эскадрон, отлиқ полк, Миршаропов, большевиклар, қизил аскар.*

Аннотация. *В статье анализируется организация национальной армии в Хорезмской Народной Советской Республике и действия, предпринятые правительством СССР в связи с этим, организационно-штатная структура национальной армии СССР на основе документов местного и Российского государственного военного архива.*

Ключевые слова: *военный совет, вооруженные силы, Красная Армия, военное училище, Туркестанский фронт, мобилизация, Джунаидхан, кавалерийский эскадрон, кавалерийский полк, Миршаропов, большевики, красноармеец.*

Abstract. *The article analyzes the organization of the national army in the Khorezm People's Soviet Republic and the actions taken by the government of the USSR in this regard, the organizational structure of the national army of the USSR based on local and Russian State Military Archive documents.*

Keywords: *Military council, armed forces, Red Army, military school, Turkestan front, mobilization, Junaidkhan, cavalry squadron, cavalry regiment, Mirsharopov, Bolsheviks, red soldier.*

Кириш. Ёш хиваликлар ҳукуматининг кўпчилик аъзолари демократик қарашларга яқин бўлганлиги сабабли, ХХСРнинг мустақил давлат сифатида миллий-демократик йўлдан боришини ёқлаб чиқдилар. Бу ҳатти-ҳаракатлар эса РСФСР ҳукумати раҳбарларига ёқмас эди. Шу сабабли Туркомиссия ва РСФСРнинг ХХСРдаги мухтор вакили Сафонов ХХСРнинг демократик йўлдан бораётган "Ёш хиваликлар" ҳукуматини бадном қилишга уриндилар.

М.Сафоновнинг буйруғи билан 1921 йил 6 мартда ХХСРда ёш хиваликларга қарши оммавий митинглар ўтказилди. Митинг давомида қизил армия сиёсий бошқармасининг талаби билан ёш хиваликлар ҳукуматини тўнтариш тўғрисидаги қарор қабул қилинди. Ҳукумат раҳбарларининг барчаси қамоққа олингач, Халқ Нозирлари Кенгашининг раиси Полвонниёз Юсупов эса яширинишга улгурди. Шу тариқа большевиклар томонидан Хоразмда давлат тўнтариши амалга оширилди ҳамда қонуний сайланган демократик қарашлар тарафдори бўлган ёш хиваликлар ҳукумати ағдарилди.

Ўрганилганлик даражаси. Хивада 1921 йил 15-23 май кунлари халқ вакилларининг II Бутунхоразм қурултойи бўлиб ўтди. ХХСР МИҚ раиси этиб Муҳаммадрайим Оллоберганов, Халқ Нозирлар Кенгашининг раиси этиб эса қорақалпоқ миллатига мансуб Менглихўжа Ибнияминов сайланди. Қурултойда давлат ва хўжалик қурилиши масалалари қатори

республика қуролли кучлари масаласи ҳам кўриб чиқилди. Қурултойда "То Қизил армия Ватаннинг мард ўғлонлари, Хоразм республикасидаги барча миллат ва элатлардан ташкил топмас экан, Хоразм республикаси мустақиллиги ва эркинлиги таъминланган деб бўлмайди [1]", – дея таъкидлаб ўтилди.

II Бутунхоразм қурултойи ХХСР Қизил армияси сонини 2 та отлиқ ва 1 та пиёда полки, шунингдек ёрдамчи қисмлардан иборат 5 минг киши деб белгилади [2].

Таҳлил ва натижалар. ХХСР ҳарбий кучларини мустаҳкамлаш бўйича II Бутунхоразм қурултойининг қарорларини амалга ошириш мақсадида ҳарбий нозирлик аҳолини рўйхат олишни амалга оширишга ҳамда аҳоли қўлидаги мавжуд от-уловлар сонини аниқлашга қарор қилди. Шу мақсадда ХХСР бир нечта округ ҳарбий нозирликларга бўлинди, улар қошида ҳисоб-китоб ва сафарбарлик бўлимлари ташкил этилди. Маҳаллий тилларда ҳарбий устав ва кўрсатмалар, ҳарбий соҳанинг турли йўналишлари бўйича адабиётларни таржима қилиш ишлари бошлаб юборилди. Бу ишларга маҳаллий тилларни биладиган, маҳаллий турмуш тарзи билан таниш бўлган мутахассислар жалб қилинди.

Республика раҳбарияти томонидан 1921 йилда хоразмлик ёшлардан 9 нафари Қозон шаҳридаги 6 ойлик ҳарбий-сиёсий мактабга юборилди. Қозон шаҳрида жойлашган бу ҳарбий-сиёсий мактаб 20-йилларнинг бошларида совет ҳокимияти амалга ошираётган ислоҳот, тадбирларни халқ ўртасида тарғиб этувчи кадрларни тайёрлашга ихтисослаштирилган эди. Аммо эндигина оёққа тураётган ХХСРдан етарли моддий кўмакнинг бўлмаганлиги, иқтисодий қийинчилик сабабли Қозонга ўқишга юборилган хоразмлик ёшлар 1921 йилнинг декабрида Хоразмга қайтиб келадилар [3].

ХХСР ҳукумати томонидан аскарларинг моддий аҳволига ҳам катта эътибор қаратилган, аскарлар ҳар томонлама қўллаб-қувватланган. ХХСР МИҚ томонидан 1921 йилнинг июль ойида қизил аскарлар эҳтиёжи учун ҳар ҳафта ХХСР ҳарбий нозирлигига 8 млн рубль маблағ ажратиш ҳақида қарор қабул қилинди [4]. Шу билан биргаликда аҳолини ҳарбий хизматга кенгроқ жалб қилиш мақсадида қизил армиячилар оиласига турли хил имтиёзлар берилди. Улар маълум шартлар билан бир неча солиқлардан озод этилди.

Дастлабки вақтларда ХХСР Қизил армияси кўнгиллилик асосида ташкил этилган эди. Унинг сафига ўзбек, туркман, қозоқ ва қорақалпоқ миллатига мансуб маҳаллий халқ вакиллари жалб этилди. ХХСР МИҚ томонидан 1921 йилнинг 28 сентябрида "Ҳарбий хизматга чақириш тартиби тўғрисида" декрет қабул қилинди. Декретга кўра, ХХСРда ҳарбий хизматга 17 ёшдан 45 ёшгача бўлган меҳнатга лаёқатли эркаклар жалб қилиниши белгилаб қўйилди [5]. Аммо ҳарбий хизматдан диндорлар ва руҳонийлар қатлами, мударрислар, ўқитувчилар, ўқувчилар ва давлат хизматчилари озод этилди. Шу тариқа мажбурий ҳарбий хизмат асосида доимий ХХСР қизил армиясига асос солинди.

Хоразм Халқ Совет Республикаси қизил армияси 1923 йилнинг баҳорига келиб, отлиқ полки, отлиқ дивизиони, 1-Полторацк полки, қоровул ротаси ва ҳарбий инструкторлар мактабидан ташкил топган эди. ХХСР армиясини миллий таркиб жиҳатидан 60 фоизини – ўзбеклар, 30 фоизини – қирғизлар ва 10 фоизини туркманлар ташкил этган [6].

ХХСРда қизил армия қисмларини шакллантириш билан бирга улар учун қўмондонлар ва сиёсий таркибни тайёрлаш чора-тадбирлари амалга ошириб борилди. РСФСР ҳукумати ҳамкорлигида 1922 йилда Хоразм намунавий ҳарбий ўқув юрти [7], бундан ташқари 1923 йилда эса қўмондонлар таркиби учун сиёсий курслар ташкил этилди [8]. Бу ҳарбий ўқув муасссасаларига совет ҳокимиятини мустаҳкамлаш ишида ўзини кўрсатган ва ҳарбий ишга лаёқати бор маҳаллий аҳоли вакиллари кенг жалб қилинди.

ХХСРда ташкил этилган ҳарбий ўқув юртларида қўмондон кадрлар тайёрлаш жараёнида маҳаллий тиллар ва маҳаллий шарт-шароитни яхши биладиган ўқитувчиларнинг етишмаслиги, ўқув қўлланмаларнинг мавжуд эмаслиги, курсантларнинг таълим савияси пастлиги каби бир қатор камчиликлар мавжуд эди. Шу сабабли ўқув режалари қисқартирилиб, ўқув муддатлари узайтирилар эди. Мавжуд қийинчиликлар, камчиликларга қарамасдан 1922-1924 йиллар мобайнида ҳарбий бўлинмаларни бошқарадиган юзлаб биринчи қизил қўмондонлар етишиб чиқди.

ТАССР ва БХСРда бўлгани каби ХХСРда ташкил топган қизил армия қисмларидан ҳам совет ҳокимияти Ўрта Осиё республикаларида совет тартиботига қарши кўтарилган қуролли қаршилик ҳаракатини бартараф этиш ишида усталик билан фойдаланди. Большевиклар томонидан бу борада аҳолини қуролли қаршилик ҳаракати вакилларига қарши қўйиш мақсадида кенг кўламли тарғибот ишлари олиб борилди.

Қуролли қаршилик ҳаракатига қарши ХХСР аҳолиси кенг кўламда жалб этилганлигини РСФСРнинг Хивадаги вакилининг 1922 йил 21 апрелда "Жунаидхон билан кураш ҳақиқий халқ кураши тусини олди. "Босмачи"лар билан кураш иштиёқи Хоразмнинг барча халқларини бирлаштирди. Ҳар куни фронтга ҳар томондан ўзбек, туркман, қирғиз кўнгиллилар отряди оқиб келмоқда. 3 мингдан зиёд кўнгиллилар тўпланди... Фронтга отланаётган қизил армиячиларни илиқ сўзлар билан минг кишилик омма кузатиб қолди" [9], – дея келтирилган маълумотдан ҳам билиб олиш мумкин.

Хоразмда қуролли қаршилик ҳаракатини бутунлай тугатиш ишида РКП (б) МҚ ва унинг Ўрта Осиё бюроси [10] катта роль ўйнади. 1922 йил 18 майда РКП (б) МҚ ва унинг Ўрта Осиё бюроси "Туркистон, Бухоро ишлари тўғрисида"ги қарорни қабул қилди. Унда қуролли қаршилик ҳаракатига қарши қуролли ҳаракатларни аҳоли ўртасида кенг миқёсда тарғибот-ташвиқот ишлари билан уйғунлаштириш тавсия этилган эди. 1922 йил июнида РКП МҚ (б) Ўрта Осиё бюроси Туркистон, Бухоро, Хоразм аҳолисига қуролли қаршилик ҳаракати билан фидокорона курашга даъват этиб, кенг меҳнаткашлар оммаси орасида сиёсий оммавий ишларни кучайтириш тўғрисида мурожаат қилди [11].

Қизил армия аскарлари ХХСР ва БХСР ҳудудларида қуролли қаршилик ҳаракати вакилларига қарши курашиш жараёнида маҳаллий аҳолига нисбатан қатағон ва террор сиёсатини олиб борган. Бу ҳолни қизил армия қўмондонларининг ўзлари "мутлақо махфий" муҳрли ҳисоботларида ошкора баён этишган, тинч аҳолига нисбатан қилган ваҳшийликларини тасвирлашган. Масалан, Туркистон фронти ҳарбий трибунал (Ревтрибунал) раиси И.Р.Фронштейн 1920 йил 6 апрелда Тошкентга юборган телеграф хабарида ёш Хоразм республикасида қизил аскарлар томонидан содир этилган жиноятларни қуйидагича эътироф этган эди: "Бу ерда илк қарашда кўзга ташланадиган даҳшатни биз ҳеч қаерда кўрмаган эдик. Қўшин қўмондонлиги штаби раҳбарларининг фаол ташкилотчилиги натижасида очиқ равишда ҳарбий талон-тарож ўтказилди, талаб олинган нарсалар ошкора тақсимланди. Аёллар олиб кетилиб, асирлик ва қулликда сақланди ҳамда Петро-Александровск ва Хивадаги бозор майдонларида ташкил қилинган кимошди (аукцион) савдосида сотиб юборилди, Хива хони саройи вайронага айлантирилди, қизил аскарларга дуч келган ҳар қандай одамлар талаш ва тунаш учунгина отиб ташланди. Бу ишларнинг бошида Скалов турибди..." [12].

РСФСРнинг Хива ва Амударё бўлимидаги фавқулодда вакили Г.И.Бройдо Тошкентга келгач, 1920 йил 3 майда Туркистон комиссияси аъзолари ҳузурида қилган ҳисоботида эътироф этишича, "Қизил аскарлар 12 ва ундан катта ёшдаги қизларни тўплаб, уларни Петро-Александровскка жўнатишган, бу қизларни зўрлашган, турли мақсадларда фойдаланишган, сўнгра уларни қайта сотиб юборишган, иш ҳатто шу даражага бориб етганки, қизлар ва аёлларнинг хўжайинлари уларни янги эгаларига кийимларини ечиб, қип яланғоч ҳолатда қайта сотиб юборганлар [13].

Бройдо ҳам ўз маърузасида Жунаидхон устидан қилинган ғалаба, яъни Хива хонлигининг тугатилиши фақат зўравонлик ва талон-тарож билан амалга оширилганлигини таъкидлаб ўтган.

Қизил қўшин Бухорода ҳам шу каби зўравонлик ва талон-тарожлик фаолиятини давом эттирди. 1-Туркистон отлиқлар дивизиясининг комадири Спасский 1921 йил баҳорида Шарқий Бухорода бўлган жангларнинг якунлари тўғрисида тўхталар экан, Шарқий Бухоронинг Ғарм, Балжувон, Файзобод, Кўлоб ва Қоратегин вилоятларида бошланган оммавий қўзғолонларга қизил аскарларнинг босқинчилик ва талончиликлари сабаб бўлганлигини таъкидлайди. "Жулдур кийимли, ифлос, оч" (совет қўмондонлигининг расмий ҳужжатида ана шундай ёзилган) қизил аскарларнинг қўмондони Спасский Туркистон фронти Реввоенсовет аъзоси П.И.Барановга мурожаат қилиб, Шарқий Бухородаги совет қўшинлари

ўртасида ҳеч қандай тарбиявий иш олиб бориш мумкин эмаслигини маълум қилиб, "Кўлобда бўлган икки кунлик жанглардан сўнг қизил аскарлар шаҳарни талон-тарож этиш учун ёпирилишди. Улар бу ерда қолган тинч аҳолини отиб ташлаб, 5 та аёлни зўрлаб, номусига тегишди, 140 та аёл бўлса қалъага қочиб яширинди. Комиссарнинг бутун ҳаракатлари ҳеч қандай натижа бермаяпти" [14], дея маълумот берган эди.

1923 йил 17-20 октябрида Советларнинг IV Бутунхоразм қурултойи бўлиб ўтди. Қурултойда ХХСРнинг янги Конституцияси ва ХХСРнинг янги давлат номи тасдиқланди. Хоразм Халқ Совет Республикаси (ХХСР)нинг давлат номи Хоразм Совет Социалистик Республикаси (ХССР) деб белгиланди. ХССРнинг янги Конституциясида совет ҳокимияти томонидан совет ватанини ҳимоя қилиш барчанинг бурчи деб эълон қилиниб, чақириқ ёшига етган, қўлига қурол ушлашга қодир бўлган барча эркак фуқаролар учун ҳарбий хизмат мажбурийлиги белгилаб қўйилди [15].

Янги Конституциясига кўра ернинг хусусий мулклиги бекор қилиниб, барча ерлар халқнинг мулки эканлиги эълон қилинди. Вақф ерларига қишлоқ хўжалиги солиғи солиниб, вақфга тегишли барча мулклар маориф нозирлиги ихтиёрига берилди. Шунингдек янги Конституциясида ўзгалар меҳнатидан фойдаланувчи руҳонийлар, собиқ амалдорлар, хон авлодлари, савдогарлар, бойлар ва бошқа табақалар советларга сайлаш ва сайланиш каби сиёсий ҳуқуқлардан маҳрум этилдилар.

Қурултойда қабул қилинган қарорлар ХССРдаги барча ижтимоий табақаларнинг кескин норозилигига сабаб бўлди. Қурултой қарорларидан норози бўлган кучлар қуролли қаршилик ҳаракати вакиллари сафларини тўлдирдилар ва янги ҳукуматга қарши 1924 йил 15 январда қўзғолон кўтардилар.

Большевиклар томонидан совет ҳокимиятини ҳимоя қилиш ва мустаҳкамлаш учун ХССРга республиканинг турли ҳудудларидан ҳарбий қисмлар жўнатилди. Тошҳовуздан ХССРга Аҳмаджон Иброҳимов бошчилигидаги 80 кишилик қизил армия бўлинмаси, 150 кишидан иборат отряд, 218 жангчидан иборат махсус рота юборилди. Қамалда қолганларга Тахта туманидан ҳам бир нечта қизил армиячилар отряди юборилди. 1924 йил 25 январь тонгида ХССРга большевиклар томонидан "дўстона" ёрдамга келган ҳарбий гуруҳлар ёрдамида ўз ҳақ-ҳуқуқларини талаб қилиб чиққан қўзғолончиларни Оқдербент (Хивадан 25 км. узоқликда)гача чекинишга мажбур этди. Қўзғолончиларга қарши жангларга маҳаллий аҳоли вакиллари ҳам кенг жалб этилди. Олиб борилган жангларда маҳаллий аҳоли вакилларидан бўлган пулемёт командаси раҳбари Абдулла Ирмонов, Маткарим Юсупов, Собир Иброҳимов каби қизил аскарлар фаол иштирок этдилар.

1924 йил январь ойи охири – февраль ойининг бошларида Хазораспда ва бошқа жойларда ҳам қаттиқ жанглар бўлиб ўтди. 3 февраль куни Ибодуллин бошчилигидаги Хоразм қизил армияси отлиқ отрядлари ва милициянинг аралаш отряди иштирокида амалга оширилган ҳарбий операциядан сўнг, Гужа, Нухас, Қиёт қишлоқларии қўрбошилардан озод қилинди, кейинчалик эса Урганч, Хонқа ва Боғотга бўлган юришларда иштирок этдилар. Қўзғолон 1924 йил февраль ойи бошларида қизил аскарлар кучи билан бостирилди.

Қўзғолон бостирилгач большевиклар ҳокимияти ХССР ҳудудида совет ҳокимиятига қарши кўтарилган қуролли қаршилик ҳаракатини бартараф этишга бутун эътиборини қаратди. ХССР Қизил армиясига ана шу вазифани амалга оширишда кўмаклашиш мақсадида Фарғонадан 2-алоҳида Туркистон отлиқ бригадасидан 2 та полк, ундан сўнг эса 8 та самолёт жўнатилди. Касби тақозосига кўра қуролли қаршилик ҳаркати вакилларига қарши курашишга қаратилган жанговар операцияларда Миркомил Миршаропов, Турғунпўлат Қирғизов, Ҳаким Ёқубов, Аҳмаджон Иброҳимов, Машарип Қориев каби ўзбек ҳарбий кадрлари иштирок этишди.

ХХСР ҳукумати ҳарбий ҳаракатларда фаол иштирок этган, жангларда намуна кўрсатган ҳарбий мутахассисларни мукофотлашни ҳам йўлга қўйди. Хоразм Инқилобий Ҳарбий Кенгаши 1922 йил 30 январда "Хоразм қизил армияси ва қўмондонлик таркибини тақдирлаш учун "Қизил Байроқ" орденини таъсис этиш тўғрисида"ги қарорни қабул қилди. Қарорга биноан ХХСР "Қизил Байроқ" орденининг дастлабки намунасини тайёрлаш ва уни Инқилобий

Ҳарбий Кенгаш тасдиғига топшириш рассом Пётр Семёнович Афанасьев зиммасига юклатилди. Бу вазифани бажариш учун Инқилобий Ҳарбий Кенгаш томонидан П.С.Афанасьевга 1 миллион рубль миқдорида маблағ ажратилди [16].

Петр Афанасьев томонидан нафақат ХХСР "Қизил Байроқ" орденининг лойиҳаси, балки орден билан бирга бериладиган нақшли махсус ёрлиқ ҳам тайёрланди. Орденни тайёрлаш жараёнида тўқ қизил бўёқ ўрнига қизил мастикадан фойдаланилди. Орден овал шаклида бўлиб, орден марказида қалқон акс эттирилди. Қалқон атрофида араб имлосида "Бутун дунё меҳнаткашлари бирлашингиз!", деган ёзув туширилди. Орден олтин ва кумушдан тайёрланиб, ҳар бир орденнинг реверси (орқа томони)га ишлаб чиқарилган тартиб рақами ўйиб туширилди [17].

Орден лойиҳаси ХХСР Инқилобий Ҳарбий Кенгаши томонидан 1922 йилда тасдиқланди ҳамда тасдиқланган орден лойиҳасини металлда акс эттириш учун Хивадаги Қўҳна Аркда жойлашган зарбхонага берилди. Орденни тайёрлаш ишига моҳир ўймакор ва зарб қилувчи уста Собиржон Девоний раҳбарлик қилди. Кўҳна Аркда техник асбоб-ускуналарнинг йўқлиги сабабли ХХСРнинг биринч ҳарбий ордени юқори даражада, сифатли эмас, балки шаклан қўпол кўринишда, турли ўлчам ва вазнларда тайёрланди.

Орденларнинг дастлабки дасталари ишлаб чиқулгунга қадар ХХСР МИҚ Президиуми 1922 йил 15 февралда "Хоразмда инқилоб байрами муносабати билан" Хоразм ҳарбий гуруҳи ва ХХСР Ҳарбий Нозирлигининг 5 нафар ҳарбий раҳбарларига "Қизил Байроқ" ордени билан тақдирлаш тўғрисида қарор қилди. Тақдирланганлар орасида ХХСР ҳарбий ишлар нозирининг ёрдамчиси венгер миллатига мансуб Иштван Варга ҳам бор эди [18]. 1922 йил март ойининг охирига келиб ХХСР ҳарбий ордени билан 30 га яқин киши мукофотланди [19]. Бу вақтга келиб, орденларнинг тайёрланиш жараёни якунига етди. 1922 йил 20 мартда дастлабки берилган орденларни ҳужжатли расмийлаштириш жараёни бошланди. ХХСР орденининг 1-рақамли ёрлиғи 1-Хоразм отлиқ полкининг командири Фахриислом Хонзафаровга берилди [20].

ХХСР ҳукумати томонидан берилган орденларнинг тартиб рақами рўйхатга олинган ёрлиқ рақамига доим ҳам мувофиқ келавермаган. Бундан ташқари ХХСР МИҚ Президиуми қарорларида "ХХСР республикасининг "Қизил Байроқ" ордени билан тақдирлаш" деган жумла ишлатилса, ХХСР Инқилобий Ҳарбий Кенгаш қарорларида эса "Хоразм Республикаси Қизил ордени" ёки "Хоразм Қизил армияси Ҳарбий ордени" каби жумлалар келтирилган. Ҳар икки жумла бир вақтнинг ўзида айнан бир ҳужжатда тез-тез тилга олинган ҳамда бир орденни назарда тутган.

ХХСРнинг номи ХССР тарзида ўзгартирилгач, республиканинг ҳарбий орденига ҳам маълум ўзгартиришлар киритилди. 1923 йил 3 ноябрда Хоразм ҳарбий гуруҳи ва ҳарбий ишлар нозирлиги томонидан Хоразм МИҚ тасдиғи учун тақдим этилган мукофотлаш варақасида мукофотланаётган ҳарбийларнинг жанговарликлари ва ҳарбий жасоратлари кўрсатиб ўтилгандан сўнг, "ХССР Қизил Байроғи ордени билан мукофотлашга муносиб" [21], – деган қўшимча жумла киритилди. ХССР ҳукумати орденнинг номини ўзгартириш билан бир пайтнинг ўзида Хоразм ҳарбий орденининг ташқи кўринишини ҳам ўзгартиришга қарор қилинди. ХССР ҳукумати янги орден нишонларини тайёрлаш мақсадида бу сафар Петроград (1924 йил февралдан Ленинград шаҳри) зарбхонасига буюртма берди.

ХССР Қизил байроқ ордени аввалги ХХСР Қизил ҳарбий орденидан ўзининг бадиий қисмларининг бежиримлиги, соддалиги, аниқ ҳошия (чизиқ)лар ҳамда тўқ қизил бўёғининг кўплиги билан ажралиб турган. Тайёр бўлган орденлар Хоразмнинг РСФСРдаги консулхонасига, у ердан эса Тошкент шаҳрига юборилган. 1924 йил 21 апрелда Туркистон фронти штаби қўмондони А.Д.Шуваевнинг ХССР Бош консули номига йўллаган хатига кўра, ХХСРнинг янги кўринишдаги орденлари билан дастлаб Туркистон фронти қўмондони С.А.Пугачев (1923 йил 12 август – 1924 йил 30 апрель) ва Туркистон фронти Инқилобий Ҳарбий Кенгаш аъзоси Р.И.Берзин (1923 йил 15 декабрь – 1924 йил 14 сентябрь) тақдирланган [22].

ХХСР "Қизил Байроқ" ордени билан сўнгги тақдирлаш маросими 1924 йил декабригача давом этди. ХХСР фаолият юритган вақт мобайнида бу орден билан 100 нафарга яқин киши мукофотланган. ХССРда фаолият кўрсатган ҳарбий учувчилар, қизил аскарлар, отлиқ командирлар ва ўқчи бўлинмалари, Хоразм Бош Сиёсий Бошқармаси (ГПУ) ходимлари, ҳарбий комиссарлар, милиционерлар ҳам ХХСР "Қизил Байроқ" ордени билан тақдирландилар.

Ҳозирги кунда МДҲ давлатлари музейларининг фондларида ХХСР "Ҳарбий Қизил ордени"нинг 7 нусхаси, ХССР "Қизил Байроқ" орденининг 12 нусхаси сақланмоқда. Шунингдек, ХССР "Қизил Байроқ" орденининг бир нечтаси бугунги кунда МДҲ ва бир қатор хорижий давлатлар фалеристларининг хусусий коллекцияларидан ўрин олган.

Миллий-ҳудудий чегараланиш ўтказилиши муносабати 1924 йилнинг 23 ноябрида ХССР МИҚ томонидан ХССРнинг Ўзбекистон ССР таркибига кириши тўғрисида қарор қабул қилинди. Шу муносабат билан ХССР Халқ Нозирлар кенгаши ва унинг таркибида бўлган нозирликлар 1924 йилнинг 30 ноябрида ўз фаолиятини тўхтатди. Фаолияти тўхтатилган нозирликлар қатори ХССРдаги ҳарбий масалалар бўйича иш юритувчи ҳарбий ишлар нозирлиги ҳам ўз фаолиятини тўхтатди.

Хулоса. Хоразм Халқ Совет Республикаси тарихан қисқа вақт мавжуд бўлса-да, у давлатчилигимиз тарихида муҳим ўринга эга. Республика тарихан қисқа даврда давлатнинг асосий таянчи бўлган ўз миллий қўшинини шакллантириш масаласини ҳам назардан четда қолдирмади. Бу жараёнда ҳукумат раҳбарлари миллий қўшинни ташкил этиш, уни замонавий қурол-аслаҳа ҳамда малакали ҳарбий кадрлар билан билан таъминлаш масаласида бир қатор амалий ишларни амалга оширди. ХХСР раҳбарияти миллий қўшин ташкил этиш борасида БХСРдан фарқли равишда асосан Туркистон фронти ва Марказ ёрдамига таянди, уларнинг ҳарбий тажрибаларини жорий этиш йўли билан республика қуролли кучларини шакллантирди.

ХХСР миллий қўшини сафлари асосан Тошкентда ташкил этилган ҳарбий мактабга ўқишга юборилган маҳаллий ёшлар билан тўлдирилди. ХХСР давлат сифатида тугатилгач, республика миллий қўшини миллий-ҳудудий чегараланиш сиёсатидан сўнг ташкил топган Ўзбекистон ССРда миллий ҳарбий қисмларни тузиш, шакллантиришда муҳим таркибий асос бўлиб хизмат қилди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. История Хорезмской Народной Советской Республики. 1920-1924. Сборник документов. – Ташкент, 1976.С.90.

2. РГВА, 110-фонд, 5-рўйхат, 598-иш, 17-варақ.

3. Каримов Н. Қурбон Берегин қисмати. – Тошкент, Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси. 2006. – Б.16.

4. История Хорезмской Народной Советской Республики. 1920-1924. Сборник документов. – Ташкент, 1976. С.115.

5. История Хорезмской Народной Советской Республики. 1920-1924. Сборник документов. – Ташкент, 1976. С.125.

6. Худойбердиев О Боевая дружба, рожденная октябрем. – Москва, Наука. 1984. – С.69.

7. История Хорезмской Народной Советской Республики. 1920-1924. Сборник документов. – Ташкент, 1976. –С.174.

8. Туркестанская правда, 25 сентября 1923 год.

9. История Хорезмской Народной Советской Республики. 1920-1924. Сборник документов. – Ташкент, 1976. С.165.

10. Ўрта Осиё бюроси (Средазбюро) – 1922 йил майда РКП(б) МҚнинг Туркбюроси – РКП(б) МҚнинг Ўрта Осиё бюроси (Средазбюро)га айлантирилган. Ўрта осиёдаги миллий-ҳудудий чегараланиш, зўравонлик билан ўтказилган жамоалаштириш, сунъий саноатлаштириш, Ўзбекистонни саноат хом-ашё базасига айлантириш, мулкдорларни синф сифатида тугатиш Средазбюронинг фаол иштирокида, унинг ғоявий раҳнамолигида амалга оширилди. Ўрта Осиё республикаларидаги барча ғоявий-сиёсий тадбирлар, ўзгаришлар Средазбюронинг рухсати ва раҳбарлигида амалга оширилган. У ўзининг Туркистон АССР ва Ўзбекистон ССРдаги фаолияти мобайнида бир қатор миллий раҳбар кадрлар ва мутахассисларга, миллий зиёлилар қатламларига нисбатан қатағон ҳамда қувғин сиёсатини амалга оширган. СССР ХКК ва ВКП (б) МҚнинг 1934 йил 2 октябрдаги қарори билан Средазбюро фаолияти тугатилган. Бу ҳақида қаранг: Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. –Тошкент, Шарқ. 2000. –Б.170.

11. Известия ТуркЦИКа, 4 июня 1922 год.
12. Ражабов Қ. Туркистон, Бухоро ва Хоразм республикаларида миллий қўшиннинг аҳволи // Тарих тафаккури. "Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик" йилига бағишланган Республика тарихчи олимларининг илмий ишлар тўплами (III китоб). Бухоро. 2011. – Б.15.
13. Раджабов К.К. Вооруженное движение в Туркестанском крае против советского режима (1918-1924 гг). Автореферат диссертации доктора ист. наук. – Тошкент, 2005. – С.40.
14. Ражабов Қ. Туркистон, Бухоро ва Хоразм республикаларида миллий қўшиннинг аҳволи // Тарих тафаккури. "Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик" йилига бағишланган Республика тарихчи олимларининг илмий ишлар тўплами (III китоб). Бухоро. 2011. – Б.16.
15. Худойбердиев О. Боевая дружба, рожденная октябрем. – Москва, Наука. 1984. – С.73.
16. Куценко А.Н., Смирнов Ю.Д. Ордена Советских республик. – Донецк, Лебедь. 1996. – С.197.
17. Красный Военный орден Хорезмской НСР // http://soviet-asia.narod.ru/ordena.html
18. Куценко А.Н., Смирнов Ю.Д. Ордена Советских республик. – Донецк, Лебедь. 1996. – С.197.
19. Куценко А.Н., Смирнов Ю.Д. Ордена Советских республик. – Донецк, Лебедь. 1996. – С.197.
20. Красный Военный орден Хорезмской НСР // http://soviet-asia.narod.ru/ordena.html
21. Куценко А.Н., Смирнов Ю.Д. Ордена Советских республик. – Донецк, Лебедь. 1996. – С.199.
22. Красный Военный орден Хорезмской НСР // http://soviet-asia.narod.ru/ordena.html

УЎК 341.7

XIX АСР ЎРТАЛАРИДА ҚЎҚОН ВА ХИВА ХОНЛИКЛАРИНИНГ УСМОНИЙЛАР ДАВЛАТИ БИЛАН ДИПЛОМАТИК МУНОСАБАТЛАР ТАРИХИДАН

З.Рахмонқулова, профессор, Ўзбекистон Миллий университети, Тошкент

Аннотация. *Маколада Қўқон хонлигининг Усмонийлар давлати билан дипломатик муносабатлари, ўзаро элчилик алоқалари, элчиларининг фаолиятлари масалалари ёритилган. Шунингдек, икки давлат ўртасидаги муносабатларга қўшни давлатларнинг таъсири масаласига тўхталиб ўтилган.*

Калит сўзлар*: Қўқон хонлиги, Усмонийлар давлати, Муҳаммадалихон, Зоҳид Хўжа, Муҳаммадалихон, Худоёрхон, дипломатик муносабатлар.*

Аннотация. *Статья посвещается дипломатические отношения Коканского ханства с Османским государством, освящены взаимные дипломатические отношения и деятельность послов. Также был расмотрин вопрос влияния соседних государст на отношения двух стран.*

Ключевые слова*: Кокандского ханства, Османская империя, Мухаммадалихан, Худоярхан, дипломатические отношение.*

Abstract. *The article deals with the diplomatic relations of the Kokan Khanate with the Ottoman state, mutual diplomatic relations, the activities of ambassadors. The issue of the influence of neighboring countries on relations between the two countries was also considered.*

Key words*: Kokand Khanate, Ottoman Empire, Muhammad Alikhon, Khudoyar Khan, diplomatic relations.*

Долзарблиги. XIX асрнинг биринчи ярмида Ўрта Осиё хонликлари мураккаб, нотинч даврни бошдан кечирар эдилар. Бу даврга келиб, Қўқон хонлиги қудрати кучайиб бораётган эди. Бухоро амири эса ўз мавқеини мустаҳкамлаш учун ҳаракат қилмоқда эди. Юзага келган вазият Хива, Қўқон хонлиги ва Бухоро амирликлари Истанбул билан элчилик алоқаларини давом эттиришига таъсир қилган. Ўрта Осиё ҳукмдорлари эса мактубларида ўзаро низолар тўғрисида умуман баҳс этмаган. Усмонийлар давлати мамлакат ичкарисидаги сиёсий инқирозни бартараф этиш учун курашаётган бир даврда Ўрта Осиё масаласига эътибор бермади.

Қўқон хони Муҳаммадалихон (1822-1842) 1837 йилнинг баҳорида Истанбулга элчиси Зоҳид Хўжани юбориб, Усмонийлардан қўшинни тактик жиҳатдан тайёрлаш учун ҳарбий мутахассис ва ҳарбий-ўқув асбоб ускуналар сўрайди[1].

Қўқон хони элчисини Усмонийлар султони маслаҳатчиларидан бири диққат билан тинглайди. Улар элчига Ўрта Осиёдаги сиёсий аҳволга доир турли саволларни берадилар.

Элчи Зоҳид Хўжа Россиянинг Қўқон хонлиги чегара ҳудудидан қалъа қураётганлигини маълум қилади. Шунингдек, элчи хонлик қўшинида пиёдалар камчиликни ташкил қилиши тўғрисида ҳам маълумот беради. Элчи хонлик қўшинларини янада такомиллаштириш учун Муҳаммадалихоннинг қуйидаги илтимосларини баён қилади: "Хонимиз султонга қуйидаги илтимосларини билдиришимни буюрди: Икки пиёда, икки отлиқ ва икки тўпчи қўшинга таълим берувчи мутахассис, агар бунинг имкони бўлмаса, пиёда, тўпчи отлиқ аскарларга таълим беришга доир китобларни беришларингизни илтимос қилди" [2].

Усмонийлар султони Қўқон хонига қилич, элчиларга йўл ҳаражатлари учун 50000 куруш, ҳамроҳларига эса 10000 куруш пул беришга фармон беради[3]. Шунингдек, Усмонийлар султони Маҳмуд II Қўқон хони Муҳаммадалихонга қўшни хонликлар билан ўртадаги низоларни бартараф қилиш зарурлигини маслаҳат сифатида таъкидлаб ўтади. Муҳаммадалихоннинг ҳарбий мутахассислар тўғрисидаги илтимосига қандай жавоб берилгани тўғрисида бирон маълумот учратмадик.

Муҳаммадалихон даврида яшаган давлат арбоби, тарихчи олим ва саёҳатчи Муҳаммад Ҳакимхон Қора денгиз орқали Истанбулга боради. У Синоп, Қайсари, Ангор(Анқара), Лакатия каби шаҳарларда ҳам бўлади[4]. Муҳаммад Ҳакимхон «Мунтахаб ат-таворих» («Тарихдан сайланма китоб») асарида Усмонийлар давлати тарихи, сиёсий ва маданий ҳаёти ҳақида муҳим маълумотларни келтириб, илғор фикр ва маданиятнинг ташвиқотчиси бўлиб танилади[5]. «Мунтахаб ат-таворих» асари Бухоро ва Қўқон хонликлари тарихига оид муҳим манба ҳисобланади.

Қўқон хони Худоёрхон 1846 йилнинг ноябрь ойида Ҳожи Рўзибек бошчилигидаги элчиларини Истанбулга юборади. Элчилар хоннинг қуйидаги мактубини топширишади: «Ҳудудимизда олтин, кумуш, фируза, мис ва бошқа турли табиий бойликлар мавжуддир. Бу ишларнинг устаси бўлмагани учун сизларни безовта қилишга мажбур бўлдик. Биродарим марҳум Муҳаммад Алихон билан ўрталарингиздаги илиқ муносабат бизга маълумдир. Ер ости бойликларини қазиб олишимизга ёрдам берадиган мутахассис юборишингизни илтимос қиламиз» [6].

Шунингдек, бу мактубда Қўқоннинг мавқеи, географик ўрни, иқтисодиётига тўхталиб, Ўрта Осиёдаги вазият тўғрисида ҳам тўхталиб ўтилади.

XIX аср ўрталарида нафақат хонликлар ўртасида, балки, мамлакат ичкарисида амалдорлар ўртасида ҳам турли низолар авж олган эди. Қўқон хонлигидаги ички низолардан фойдаланган Россия 1853 йилда В.Перовский бошчилигида Оқмачит қалъасига бостириб киради[7].

Методлар ва ўрганилганлик даражаси: Мақолада Қўқон хонлиги ва Усмонийлар давлати ўртасидаги дипломатик муносабатлар масаласи кўриб ўтилган. Шунингдек Қўқон хонларининг элчиларининг фаолиятига ҳам алоҳида тўхталиб ўтилади.

Қатъий қоидалардан яна бири шу бўлганки, агар элчи юборилган манзилга етиб боргунча, уни йўллаган ҳукмдор вафот этса, бу элчининг ваколати расмий кучини йўқотган ҳисобланган ва уни борган жойидаги ҳукмдор қабул қилмаган. Бундай ҳолларда элчилар вазифаларини адо эта олмасдан, орқага қайтишга ёки чопар орқали мактуб йўллаб, янги ҳукмдордан ўз ваколатини тасдиқловчи ҳужжат келгунга қадар ўша мамлакатда истиқомат қилиб туришга мажбур бўлганлар. Бунга мисол тариқасида, Муҳаммад Аминхон томонидан Истанбулга 1855 йилда элчи сифатида юборилган Шукрулло Оқо[8] билан юз берган воқеаларни келтириш мумкин. Шукрулло Оқо Усмонийлар султони ҳузурига равона бўлиши билан бир вақтда Хива хони Серахс томонга юриш уюштиради ва жангда ҳалок бўлади. Элчи бу хабарни йўлда эшитса ҳам, ўз сафарини давом эттиради. Аммо Истанбулда уни Хива элчиси сифатида тан олмайдилар ва у султон ҳузурига киритилмайди. Шундан сўнг у Хоразмга мактуб йўллаб, ўзининг элчилик ваколатини янгидан тасдиқланишини сўрайди. Хива тахтига ўтирган Сайид Муҳаммад Баҳодирхон (1855-1865) Усмонийлар султони Абдулмажидга (1839-1861) махсус мактуб йўллаб Шукрулло Оқонинг ваколатини тўла тасдиқ этганлигини таъкидлайди. Огаҳий «Гулшани-давлат»да ана шу воқеалар тафсилотини баён этади. Сайид Муҳаммад Баҳодирхон мактубида, жумладан қуйидагилар битилган эди: «...Шукрулло

Оқониким, Муҳаммад Амин хони марҳумийнинг амри била Рум вилоятиға марсул бўлмиш эрди, ҳало Исломбул шаҳрида олий жаноблари хизматида таваққуф кўргизмишдур, ўз тарафимиздин вакил ва элчи қилдуқ. Онинг вакиллик ва элчилигини қабул этсунлар ва Муҳаммад Аминхон рамҳумий оқомизнинг юборгон номасида ҳарна сўз бўлса, бизнинг ҳам сўзимиз шулдур, эшитсунлар» [9]. Бу мактубдан сўнг Усмонийлар султони Абдулмажид Шукрулло Оқони юксак ҳурмат ва эҳтиром ила қабул қилади. Хива хони мактубида Усмонийлар ҳукуматидан руслар ҳужумини бартараф этишга ёрдам беришларини сўраган эди. Абдулмажид жавоб мактубида Хива хонига Россия билан дўстона муносабатлар ўрнатиш мақсадга мувофиқлигини таъкидлаб ўтади.

Усмонийлар султони Хива ва Қўқон хонларига Россия билан дўстона муносабатлар ўрнатишни маслаҳат беради ва улар ҳам қўлидан келадиган ёрдамни беришга ваъда беради.

XIX асрнинг 40 йилларида Усмонийлар, Миср ва бошқа мустамлака ҳудудлардаги норозиликларга барҳам бериш билан шуғулланади. Бу даврда Усмонийлар Россия билан дўстона алоқалар ўрнатишга ҳам ҳаракат қилди. Икки давлат бундай алоқалардан манфаатдор эди. 1846 йил 30 апрелда Россия ва Туркия ўртасида Балте-Лимане шартномаси имзоланди. Худди шундай шартнома Англия билан ҳам шу ерда тузилган эди[10]. 1848 йил 20 июлида султон Абдулмажид Николай I га ўз элчиларини юборади. Шундай экан, Усмонийлар Россия билан эндигина яхшиланаётган муносабатларни ўзгартиришни истамас эди. Шунинг учун Хива хонига Россия билан бу масалани дипломатик йўл билан ҳал қилишни таклиф қилади. Шунингдек, Бухоро ва Қўқон хонликларига ҳам имкониятларни ишга солишни маслаҳат беради. Амир Насрулло каби амирлар мавжуд имкониятларни ишга солишга ҳаракат ҳам қилмади. У ҳукмронлигининг сўнгги даврларида Усмонийлар давлати билан яқиндан алоқалар ўрнатишга ҳаракат қилди.

Ўрта Осиёлик ҳожилар ҳам Маккага боришда, кўпинча, Оренбург-Астрахан-Усмонийлар ҳудудлари орқали узоқ, бироқ хавфсиз йўлни афзал кўрардилар[11]. Бу йўл Ўрта Осиё ва Усмонийларнинг муносабатларида муҳим рол ўйнади. XIX асрнинг ўрталарига келиб, Ўрта Осиёда Россиянинг таъсири янада сезиларли бўлди.

1852 йилда Хива элчилари Оренбург генерал-губернатори В.Перовский билан музокаралар олиб борди. В.Перовский Хива хонлигининг Англия ва Усмонийлар билан алоқаларига шаъма қилиб, «Хива ва Сирдарё оралиғидаги ерлар туркларга тегишлими ёки инглизларгами?» деган саволни беради[12]. 1851 йилда Хива хонлиги ўз элчиларини Истанбулга юборади. Натижада, Усмонийлар Истанбулдан Хивага тўп ясовчи учта уста юборади. Бу усталарнинг иккитаси турк, биттаси инглиз эди. Бу даврда Бухоро ва Хивада бошқа Англия ва Усмонийлар фуқаролари ҳам фаол фаолият олиб бормоқдайди[13]. Россия ҳукумати ҳарбий вазирлиги 1862 йилда олган маълумотига кўра, Бухорога Англия вакиллари келиб, Амударёда пароход қатновини йўлга қўйиш учун тадбирлар ишлаб чиққан. 1863 йил 20 июлда Оренбург корпуси командири ташқи ишлар вазирига берган маълумотида ҳам Бухорога Англия вакиллари келганлиги, музокаралар тўғрисида аниқ маълумотлар ололмаганлигини, Амударё масаласи бўйича келганлиги тахмин қилинаётганлигини маълум қилади[14].

Шуни таъкидлаш жоизки, XVIII аср охири-XIX аср ўрталарида Ўрта Осиё хонликларининг Усмонийлар давлатида доимий ваколатхоналари бўлмаган учун, давлатлар ўртасидаги бу алоқаларда изчилик кўзга ташланмайди. Ўрта Осиё элчилик алоқалари анъаналарига кўра, Усмонийлар давлатидан келган элчиларга ҳам элчи қўшиб жўнатилган. Элчи ёлғиз қайтиб келган тақдирда, алоқалар маълум муддат, яъни зарурат туғилганга қадар узилиб турган. Ниҳоятда мулозамат ва муболаға билан ёзилган мактуб ва совға-саломларни топширишдан ташқари, мавжуд сиёсий вазиятдан хабардор бўлиш ва уни ўрганиш ҳам элчининг зиммасида бўлган. Айни вақтда элчилар орқали орадаги муносабатларни мураккаблашишига йўл қўймаслик мақсади ҳам назарда тутилган. Истанбулга кетаётган Ўрта Осиё элчилари олдиндан белгиланган режага кўра, Эрон шоҳи қабулида бўлиши, уни ўз ваколатидан огоҳ қилиши, Ўрта Осиё давлатлари ва Усмонийлар ўртасидаги муносабатларни намойиш этиши лозим бўлган. Ўрта Осиё давлатлари ҳукмдорлари юборган элчилик ёзишмаларида, одатда, элчи юборишдан кўзланган асосий мақсад атрофлича баён этилмаган.

Кўпчилик ҳолларда, мактуб охирида «қолган гапларни элчининг ўзидан эшитурсиз», дейилган ибора киритилган. Бу, биринчидан, узоқ давом этган сафар давомида икки орадаги муносабатларга дахлдор масалалар тафсилотидан учинчи томоннинг, баъзан эса рақиб томоннинг огоҳ бўлиб қолиши мумкинлигини ҳисобга олиб қўлланган услуб бўлса, иккинчидан, юборилган элчининг ваколати юксак эканлигига ҳам ишора бўлган. Элчилик алоқалари ва дипломатик ёзишмалар ҳақидаги маълумотлардан шу нарса кўринадики, Хива хонлари ташқи сиёсатга оид ёзишмаларни давлат тили, яъни ўзбек тилида, Бухоро амирлиги ва Қўқон хонлиги форс тилида ёзишган. Ўрта Осиё ҳукмдорлари мактублари ўша даврда урф бўлган дипломатик ёзишмалар услубида, шарқона лутфу икром билан ёзилган. Ўрта Осиё ҳукмдорлари ва Усмонийлар султонлари мактублари шундан далолат берадики, XVIII асрнинг охири-XIX асрнинг ўрталарида икки ўртада элчилик алоқалари, дипломатик ёзишмалари, маданий алоқалар ва савдо муносабатлари мавжуд бўлган. Улар мактубларида хоҳ савдо алоқаларини хавф-хатардан ҳимоя қилиш борасида, хоҳ сиёсий борди-келдиларни ривожлантириш соҳасида бўлсин, бу алоқаларнинг давом этиши икки ўртада саховат ва иттифоқнинг барқарорлигига хизмат қилишини таъкидлашади, элчилик алоқаларининг давлатлар дўстлиги учун хизмат қилишини эслатиб, савдо йўлларидаги қароқчиликка барҳам бериш учун амалий чоралар таклиф қилинади. Бу ёзишмалар Ўрта Осиё давлатларининг элчилик алоқалари тарихини тадқиқ қилишда қимматли манба ҳисобланади. Уларни архив ҳужжатлари билан қиёсий ўрганиш элчилик алоқалар тарихида мавжуд чалкашликларни бартараф этиш учун аҳамиятлидир.

XIX асрнинг ўрталарига келиб, Англиянинг Усмонийлар билан ҳамкорликда Ўрта Осиё хонликларининг ҳарбий иттифоқини вужудга келтириш борасидаги ҳаракатлари ҳеч қандай натижа бермади. XVIII аср охири-XIX аср ўрталарида Ўрта Осиё хонликлари ва Усмонийлар давлати ўртасидаги сиёсий муносабатлар ҳар доим ҳам бир-бирининг манфаати билан мос тушавермади. Шундай бўлса-да, томонлар ўртасидаги элчилик алоқалари бутунлай тўхтаб қолмади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Mert O. Buhara emirinin elcisi Muhammed Parsa efendinin Istanbuldaki faaliyeti (1867-1869). -Ankara.:Turk kulturi arastirmalari. XV. 1976. -70 s.

2. Saray M. Rus işgali devrinde Osmanli Devleti ile Turkistan hanliklari arasindaki siyasi munasebetler. -Ankara., 1994. -37 s.

3. Saray M. Ўша асар. -38 s.

4. Ҳакимхон. Хотиралар. -Т.: Фан. 1966. -13 б.

5. Хуршут Э. Ҳакимхоннинг ҳаёти ва саёҳатлари. -Т.: Фан. 1987. -4 б.

6. Saray M. Rus işgali devrinde Osmanli Devleti ile Turkistan hanliklari arasindaki siyasi munasebetler.-Ankara., 1994. -38s.

7. Ўзбекистоннинг янги тарихи. I китоб. -Т.: Шарқ. 2000. -56 б.

8. Маннонов Б. Хоразм тарихнавислигида Хива хонлиги ташқи сиёсати // Шарқшунослик. 1997. №8. Б.154.

9. Маннонов Б. Ўша асар. Б. 149-151.

10. Шермет В.И. Османская империя и западная Европа вторая тресть XIX в. -М.: Наука. 1986. -92 с.

11. Шермет В.И. Османская империя и западная Европа вторая тресть XIX в. -М.: Наука. 1986. -92 с.

12. Валиева Д. XIX асрнинг биринчи ярмида Бухоро ва Хиванинг ташқи иқтисодий алоқаларига доир // Шарқшунослик. 1997. №8. Б.165.

13. Халфин Н. Султанская Турция и английская экспансия в Средней Азии (50-80гг.XIX в) // Труды САГУ. 1957. Вып 16. Кн 14. с. 37.

14. Соколов А. Английская колониальная политика в Афганистане. 50-60 х гг XIX века // Труды САГУ. 1957. Вып 16. Кн 14. с. 13.

УЎК 330

ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТИДА ЧОРВАЧИЛИК СОҲАСИДА ДАВЛАТ РЕЖАЛАРИНИНГ БАЖАРИЛИШИ

Д.А.Рўзибоев, докторант, Қарши Давлат Университети, Қарши

Аннотация. *Мазкур мақолада Қашқадарё воҳасида чорвачилик соҳасида давлат томонидан белгиланган режаларнинг бажарилиши, кичик колхозларнинг бирлаштириши, чорвачиликдан тушадиган даромадларнинг кўпайиши баён этилган.*

Калит сўзлар: *Косон, Қамаши, Бешкент, қоракўл тери, Деҳқонобод, "Оқработ", Ғузор.*

Аннотация. *В данной статье рассказывается о реализации государственных планов в области животноводства в Кашкадарьинском оазисе, укрупнении мелких колхозов, увеличении доходов от животноводства.*

Ключевые слова: *Косон, Камаши, Бешкент, черная кожа, Дехканабад, "Огработ", Гузор.*

Abstract. *This article describes the implementation of state plans in the field of animal husbandry in the Kashkadarya oasis, the consolidation of small collective farms, and the increase in income from animal husbandry.*

Key words: *Koson, Kamashi, Beshkent, black leather, Dekhkanabad, "Ograbot", Guzor.*

Бугунги кунда дунё миқиёсида озиқ-овқат ҳамда саноатда хомашёга бўлган талаб ўсиб бормоқда. Чорвачилик бир томондан аҳолини гўшт, сут ва сут маҳсулотлари билан таъминласа, бошқа томондан саноатни муҳим хомашё билан таъминлайди. Бундан ташқари, чорвачилик тармоғи аксар мамлакатлар иқтисодининг таянчи ҳисобланиб, мамлакат экспортининг катта улушини қамраб олади. Ҳозирги кунда чорвачилик соҳасига эътиборнинг кучайиши аҳолини озиқ-овқат билан таъминлашга ҳамда мамлакат иқтисодиётининг ривожланишига ижобий шароит яратилмоқда. Айнан шу мақсадда жаҳоннинг етакчи илмий марказларида чорвачилик соҳаси тарихи ва тараққиёти муаммолари тадқиқ этилмоқда. Жумладан, чорвачиликнинг иқтисодий жиҳатларини ҳамда уларнинг тарихий ривожланиш хусусиятларини аниқлашга алоҳида урғу берилмоқда. Республикада чорвачилик маҳсулотлари етказиб беришда Қашқадарё вилояти ҳам алоҳида аҳамиятга эга. Жумладан, 1925-1926 йилларда Сурхондарё ва Қашқадарё вилоятлари кучли қурғоқчиликка учради, бу эса катта майдонларда экинларнинг қуриб кетишига, чорва молларининг очликдан нобуд бўлишига олиб келди. 1929 йилга келиб Қашқадарё вилоятида 1707 минг бош қорамол бўлиб, шундан 619 минг бош қоракўл қўйлари, 175 минг бошини қорамоллар ташкил этди[1]. 1926 йилда Қашқадарё вилоятида 141 минг бош қорамол, 47 минг бош от, 1650 минг бош қўй-эчки, 36 минг туя мавжуд эди[2]. Худди шу даврда, Сурхондарё вилоятида 424,2 минг қўй ва эчки, 47667 бош қорамол, 16218 бош от, 2144 бош туя боқилди[3]. Қашқадарё вилоятида 1926 йилда жами 185 минг дона қоракўл терилари тайёрланди. Жумладан, қишлоқ хўжаликларида 46456 та хом ва 5306 та тайёр ичак, 36973 та қўй териси, 15928 бош эчки тайёрланди[4]. 1927 йилда Қашқадарё вилоятида 220 минг дона қоракўл териси олиш режалаштирилган бўлиб, аммо 1927 йилнинг ўтган 10 ойи ичида 250 минг дона қоракўл терилари тайёрланди. Бундан ташқари вилоят қишлоқ хўжаликларида 46646 минг дона қоракўл териси, 129 минг килограмм пилла, 21282 дона қўй териси, 45762 эчки, 8134 центнер жун ва бошқа кўплаб чорвачилик хомашёлари тайёрланди[5]. 1928 йилда вилоятнинг Косон, Қамаши, Бешкент туманларида 128 минг дона қоракўл терилари, 4 минг центнер жун, 35 минг қўй териси, 8 минг эчки, 68 минг ичак тайёрланди[6]. Чунончи вилоят партия комитетининг 1947 йил 26 майда бўлиб ўтган XVI пленум қарорида кўрсатилишича, 4000 гектар ер, 455 бош иш ҳайвони, 600 бош катта ва кичик қорамол, 50 миллион сўмга яқин пул колхозларга қайтариб берилди[7]. Бу эса Қашқадарё вилоятида урушдан кейинги даврда чорвачиликни ривожланишига хизмат қилди.

ВКП(б) Марказий Комитетининг 1950 йил 30 майдаги "Майда колхозларни йириклаштириш ва бу соҳада партия ташкилотларининг вазифалари" деган тарихий қарори ердан ва моддий-техника воситаларидан унумли фойдаланиш, меҳнат унумдорлигини

ошириш, маҳсулот мўл-кўлчилигини таъминлаш ва унинг таннархини арзонлаштириш, колхозчиларнинг меҳнатига қараб ҳақ тўлаш ва уларнинг моддий турмуш даражасини яхшилашда муҳим рол ўйнади[8]. Мазкур қарордан сўнг вилоятда мавжуд 669 колхоз йириклаштирилиб, 294 та хўжалик тузилди[9]. Кичик колхозларни йириклаштириш чорвачилик моллари туёғини кўпайишига ва чорвачиликдан тушадиган даромаднинг ошишига хизмат қилди.

1-жадвал [10]

Туманлар	Қорамоллар		Қўй ва эчкилар		Отлар	
	Йириклашувга ча бир колхозда ўртача	Йириклашувдан сўнг бир колхозда ўртача	Йириклашувга ча бир колхозда ўртача	Йириклашувдан сўнг бир колхозда ўртача	Йириклашувга ча бир колхозда ўртача	Йириклашувдан сўнг бир колхозда ўртача
Бешкент	93	200	2000	4242	25	53
Ғузор	114	244	1577	4445	33	100
Деҳқонобод	114	250	1629	3554	52	114
Қарши	78	194	1260	3150	32	80

Демак, йириклашувга қадар вилоят туманларида ҳар бир колхозга ўртача 78-114 бошдан қорамол тўғри келган бўлса, йириклашувдан сўнг 194-250 бошга етказилди. Қўй ва эчкилар колхозлар йириклашувига қадар 1260-2000 бошдан тўғри келган бўлса, йириклашувдан сўнг эса 4450 бошга етди. Йириклашув туфайли идора ва бошқарув аппаратларига сарфланадиган харажарлат ҳам анча камайди. Колхозларнинг кўпгина меҳнат кунлари ва маблағлари тежалди. Вилоятнинг тўрт туманидаги колхозлар йириклашгач, 135-102 меҳнат куни ва 212450 сўм пул иқтисод қилинди. Партия ва ҳукумат қишлоқ хўжалигини янада юксалтириш учун колхозларга кўплаб трактор, комбайн ва бошқа қишлоқ хўжалик машиналари берилди. Вилоят колхозлари 1954 йили 1953 йилдагига нисбатан давлатга 21770 центнер гўшт, 1130 центнер сут ва 39127 дона қоракўл тери давлатга сотилди. 1954 йили майда моллар сони 36943 бош, катта моллар 2400 бош, отлар 1961 бошга кўпайтирилди. Колхозларнинг йиллик даромади 1950 йилдагидан 2 марта кўп бўлди. 1954 йилда 540 миллион сўмни ташкил этди. Колхознинг бўлинмас фондларига қўйган маблағи 89 миллион сўмдан ортиқ бўлди. Бу эса колхозларни янада мустаҳкамланди, колхозчиларнинг турмуш даражасини яхшилашга олиб келди[11]. Қарши туман меҳнаткашлари 1954 йилда қоракўл тери тайёрлаш ва давлатга сотиш режасини 104 фоиз, пиллани 108,5 фоиз, ғаллани 102 фоиз, жунни 114 фоиз, тухумни 100 фоиз, пахтани 50 фоизга бажарилди[12]. Қашқадарё вилоят меҳнаткашлари 1955 йилда қоракўл тери, пилла, жун, тухум топшириш режаси ошириб бажарилди. 1954 йилга қараганда 1955 йилда гўшт етиштириш 44 фоиз, сут 35 фоиз, тухум 65 фоиз, жун 13 фоизга кўпайди. Ёки 1953 йилга нисбатан гўшт 70 фоиз, сут 131 фоиз, тухум 9 фоиз, қоракўл тери 29 фоиз кўп топширилди. Айниқса чорва молларининг туёқ сони кейинги йилда анча кўпайди. Қўйлар сони 1950 йилдагига қараганда 2,2 бараварга ортди ва 1492 минг бошга етди. Биргина 1955 йили қўйлар 113 минг бош, чўчалар 2 бараварга кўпайди. Сутнинг умумий миқдори 1954 йилдан 4304 тонна ортиқ бўлди[13]. 1970 йилларда вилоятда саноат маҳсулотларининг 4 фоизидан ортиғи, пахта хомашёсининг 8,1 фоизи, дон экинларининг эса 15,6 фоизи, қоракўл териларнинг 20 фоизига яқин қисми етиштирилди[14]. Қашқадарё вилояти қишлоқ хўжалигининг муҳим тармоғи чорвачилик ҳисобланади. 1979 йил 1 январь ҳолатига кўра вилоятда 150,2 минг бош қорамол, 909,9 минг бош қўй-эчки, 19,3 минг бош чўчқа, 1069,4 минг бош парранда мавжуд эди. 1978 йилда вилоят чорвадорлари 13,5 минг тонна гўшт, 51,4 минг тонна сут, 50,2 миллион дона тухум, 2284,3 тонна жун ва бошқа чорвачилик маҳсулотлари ишлаб чиқарилди[15]. Вилоятнинг Косон ва Ғузор туманларида ташкил этилган сут заводлари фаолият юритди. Тўққизинчи беш йиллик (1970-1975-йиллар)нинг иккинчи йилида республика комсомолчилари ва ёшлари озиқ-овқат базасини мустаҳкамлаш учун социалистик мусобақага янада кенгроқ жалб этилди. Қашқадарё ОК ЛКСМУ бюросининг 1972 йил 31 июлда бўлиб ўтган йиғилишида Деҳқонобод вилоятидаги "Оқработ" совхозининг ем-хашак етиштирувчи комсомол-ёшлар жамоаси тўрт йиллик ем-хашакни муддатидан олдин тайёрлаш мажбуриятини олганлиги қайд этилди. Жамоат чорвачилиги ривожлантириш учун комсомол-

ёшлар мавсум бошидан буён 10 минг тонна дағал хашак тайёрлаб, социалистик мажбуриятлар муваффақиятли бажарилди[16]. Бу эса чорвачилик соҳасида давлат режаларининг ошириб бажарилишига олиб келди. Бироқ, шуни таъкидлаш керакки, ем-хашак экинлари экиладиган майдонлар 1970 йилдаги 451,8 минг гектарга нисбатан 1975 йилда республикада 636 минг гектарга етди ва 1965 йилда 395,1 минг гектарни ташкил этган эди[17].

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. ЎзМА, 209-фонд. оп. 1, иш 77. бет 99-108.
2. Қашқадарё вилоят давлат архиви, 83-фонд, оп 1, иш 139, бет 32.
3. Қашқадарё вилоят давлат архиви, 184-фонд, оп 1, иш 27, бет 63.
4. Қашқадарё вилоят давлат архиви, 83-фонд, оп 1, иш 139, бет 32., 189-фонд, оп 1, иш 25, бет 36.
5. Қашқадарё вилоят давлат архиви, 182-фонд, оп 1, иш 33, бет 272.
6. Қашқадарё вилоят давлат архиви, 182-фонд, оп 1, иш 35, бет 26.
7. Қашқадарё вилоят давлат архиви, 1-фонд, оп 89, иш 2, бет 207.
8. Қашқадарё вилоят давлат архиви, 1-фонд, оп 89, иш 3, бет 111-113.
9. ЎзМА, 90-фонд. оп. 2, иш 1845. бет-149-152
10. Қашқадарё вилоят давлат архиви, 1-фонд, оп 107, иш 6, бет 22-23.
11. Қашқадарё вилоят давлат архиви, 1-фонд, оп 107, иш 6, бет 59.
12. Қашқадарё вилоят давлат архиви, 1-фонд, оп 113, иш 2, бет 134-135.
13. Народное хозяйство Узбекской ССР за 60 лет. Советской власти. Юбилейный статистический ежегодник. Ташкент. 1977, с. 113-132.
14. Қашқадарё вилоят статистиска бошқармаси. 1978 йил
15. ЎзМА, 38-фонд. 103- иш. 16-варақ.

УЎК 93/94

САДРИДДИН АЙНИЙ АСАРЛАРИДА «КОЛЕСОВ ВОҚЕАСИ» ВА УНИНГ ФОЖИАЛИ ОҚИБАТЛАРИ ХУСУСИДА

Ф.У. Темиров, PhD, доц., Бухоро давлат университети, Бухоро

Аннотация. *Ушбу мақолада тарихнавис олим ва маърифатпарвар адиб Садриддин Айнийнинг илмий-ижодий фаолияти, тарихнавислик истеъдоди, тарихий қарашлари, шунингдек Бухоро амирлигида юз берган 1918-1920 йиллардаги воқеалар талқини, Колесов воқеаси, унинг келиб чиқиши сабаблари ва оқибатлари, Ёш бухороликлар билан амир ҳукумати ўртасидаги ижтимоий-сиёсий муносабатлар илмий жиҳатдан таҳлил этилган*

Калит сўзлар: *Колесов, Ёш бухороликлар, маърифатпарвар, жадид, матбуот, қўлланма. дарслик, Ойина, Инқилоб, Меҳнаткашлар товуши, Зарафшон, Ҳуррият, Инқилоб*

Аннотация. *В данной статье научно проанализированы научно-творческая деятельность, талант в историографии, исторические подходы историка учёного и просветителя Садриддина Айни, а также события в 1918-1920-х годах в Бухарском эмирате, дело Колесова, его причины и последствия, политические отношения между младобухарцами и эмиром Бухары на основе исторических источников.*

Ключевые слова: *Просветитель, джадид, пресс, учебное пособие, учебник, Ойина, революция, Мехнаткашлар товуши, Зарафшан, Хуррият, Инкилоб.*

Abstract. *This article scientifically analyzes the scientific and creative activity, talent in historiography, historical approaches of historian and educator Sadriddin Aini, as well as events in 1918-1920s in Bukhara Emirate, Kolesov case, its causes and consequences, political relations between young Bukhara and Bukhara Emirate on the basis of historical sources.*

Keywords: *Enlightenment, Jadid, Press, Guide. Textbook, "Mirror", Revolution, "Voice of Workers", "Zarafshan", "Hürriyet" Revolutionary*

Бухоро амирлиги тарихида 1918-1920 йилларда юз берган муҳим сиёсий, иқтисодий ва маданий-маърифий ишлар, Ёш бухороликларнинг ижтимоий-сиёсий фаолияти, шунингдек, Россияда юз берган Октябрь инқилоби ва унинг Бухорога таъсири, 1918 йилги воқеалар тарихининг ажралмас қисмларидан бўлган "Колесов воқеалари", унинг келиб чиқиш сабаблари, оқибатлари ва бошқа муҳим масалалар тўғрисида тарихнавис адиб, маърифатпарвар олим ва жамоат арбоби Садриддин Айний (1878-1958 йй) ўзининг "Таърихи

амирони манғитияи Бухоро" [1], ("Бухоро манғит амирлари тарихи") "Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар"[2], "Бухоро жаллодлари"[3], "Дохунда"[4], "Қисқача таржимаи ҳолим"[5] ва "Эсдаликлар"[6] каби асарларида ва айрим мақолаларида тасвирлаб ўтган.

Бу жиҳатдан маърифатпарвар адибнинг "Бухоро манғит амирлари тарихи" ва "Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар" асарлари катта аҳамиятга эга. Олим ушбу асарларида 1917 – 1920 йилларда Бухорода бўлиб ўтган тарихий воқеалар ва ҳодисаларни шарҳлашга ҳаракат қилган. Айний асарларида асосан ижтимоий-сиёсий воқеалар, Бухоро ҳукумати ва Ёш бухороликлар ўртасидаги сиёсий низолар, маҳаллий халқнинг ижтимоий-иқтисодий аҳволи, жадидларнинг матбуотчилик, нашриётчилик соҳасида олиб борган самарали ишлари ва бошқа масалалар тўғрисида фикр юритади.

1917 йил апрель воқеаларидан кейин Айний Самарқандга кўчиб ўтгач, Бухородаги тарихий жараёнлардан анча узоқлашди ва илмий-ижодий фаолият билан шуғулланди. Лекин шундай бўлсада, маърифатпарвар олим ўзининг маслакдошлари бўлган Ёш бухороликлар билан яқиндан муносабат ўрнатиб, доимо алоқада бўлиб келади. Айний "Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар" асарининг тўртинчи бўлимидан (1918-1920) жой олган муҳим воқеаларни: "Колесов воқеалари"нинг келиб чиқиш сабаблари ва унинг оқибатлари хусусида, Ёш бухороликларнинг Когондаги фаолияти, уларнинг ислоҳотчилик, маърифатпарварлик йўлидаги ғайратлари, сиёсий жамиятлари ҳақида, шунингдек, Бухоро ҳукуматининг ички ва ташқи сиёсати, бу даврдаги Амир Саид Олимхоннинг ижтимоий-сиёсий фаолиятига бағишлаган. Бу ҳақда Айний шундай ёзади:

"Бухоро инқилобининг энг масъулиятли ва мушкул бўлган тарихининг асосийсини ёздим. Энг муҳими, бу "Колесов воқеаси" бўлиб, унинг қандай бошланганлиги, Ёш бухороликлар ва Колесов ўрталарида қандай музокаралар ва аҳдномалар тузилганлиги, бу воқеаларнинг асосий сабабчиси Ёш бухороликларми ёки Колесовми, тарихий жиҳатдан муҳим бўлган бу нуқталар мен учун қоронғудир. Чунки, 1917 йилги воқеалардан кейин мен Самарқандга кўчдим, Когонда рўй берган воқелардан, тамоман хабарсиз қолдим. Кейин бу воқеа ва ҳодисаларнинг сабаблари ҳақида яқин кишилардан баъзи маълумотлар олган бўлсамда, менинг бу маълумотларим хусусий бўлиб, аниқ ва расмий далилларга асосланади"[7].

Юқорида таъкидлаб ўтганимиздек, Бухоро ҳукумати ислоҳот йўлидан қайтиб, ҳукумат доирасида айрим ўзгаришлар қилганидан кейин, Ёш бухороликлар билан ҳамфикр ва хайрихоҳ бўлган, уларнинг ислоҳотчилик ғояларини қўллаб-қувватлаган айрим ҳукумат амалдорларини лавозимларидан олиниб, амирликдан анча узоқ бўлган вилоят ва туманларга сургун қилинади. 1917 йил апрел ойининг бошларида Бурҳониддин ўрнига қозикалон этиб тайинланган маърифатпарвар Шарифжон Махдум Садр Зиё ўрнига амалпараст Бурҳониддин такроран қозикалон мансабига, Имомқулибек ҳам қайта ҳукумат ишларига чақирилиб, катта мансаб эгасига айланади. Хуллас, ислоҳот арафасида гўёки ўз ҳукуматини тараққийпарварлар билан алмаштирган Амир Саид Олимхон, қайта ўз манфаатини ўйлайдиган, аксилҳаракатчи кишиларни ҳукумат ишларига жалб этади.

1917 йил апрель воқеаларидан кейин Ёш бухороликларнинг кўписи амир таъқибидан қочиб, Когондан паноҳ топган эдилар. Бу вақтда уларнинг асосий мақсадларидан бири, амирни сиқувга олиб, амалга ошмай қолган ислоҳот фармонини жорий қилишга эришиш эди. Лекин, бунинг учун улар етарли куч ва қудратга эга эмасдилар. Шунинг учун ҳам Ёш бухороликлар, Туркистон мухториятини тор-мор этиб, Қўқонни қонга ботирган ва ўз кучига ишонган Туркистон ХКС раиси Ф.Колесовдан ёрдам сўраб мурожаат қиладилар. Туркистон шўролар ҳукумати ва Колесовнинг Бухоро амирлиги масаласини тезроқ ҳал этишга шошилишининг сабаби маълум эди.

Бухорони демократик асосда қайта қуриш тарафдори бўлган Ёш бухороликлар ва уларнинг раҳбари Файзулла Хўжаев Туркистон ҳукуматидан ёрдам сўради. Худди шуни кутиб турган Туркистон ХКС раиси Ф.Колесов амирликни тугатиш мақсадида Ашхободдан қайтиб кела туриб, 1918 йил 28 февралда Янги Бухоро (Когон)га тўхтади. Унинг ихтиёрида 2 мингга яқин қизил аскар ва тўла жиҳозланган бронопоезд бор эди. Ёш бухороликлар ва Ф.Колесов

амирлик ҳарбий қудратига етарли баҳо беролмадилар. Қисқа тайёргарликдан сўнг 1918 йил 1 мартда Ф.Колесов Эски Бухоога қарши ҳаракатларни бошлаб юборди. Бу совет Россиясининг ҳарбий қўшинлари иштирокидаги мустақил давлатга нисбаттан уюштирилганбиринчи интервенция эди.

Бухоро амирлиги тарихида 1918 йил март ойида "Колесов воқеаси" номи билан кирган қонли фожеалар ҳақида Айний "Бухоро манғит амирлари тарихи", асарининг "Колесов воқеаси", "Колесов воқеасидан кейин Амир Олимхоннинг сиёсати", "Колесов воқеасидан кейин Ёш бухороликлар ва 1920 йил воқеалари" бўлимларида[8] муҳим бўлган маълумотларни келтириб ўтган. Тарихнавис олим "Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар" асарида эса, ушбу масалаларни анча кенгроқ ёритган. Асарда муаллиф Колесов воқеаларини шарҳлар экан унга бир қанча бўлимларни ажратган. Жумладан, "Колесов воқеаси сабаблари", "Колесов воқеаси", "Жанг талафоти", "Қизилтепа воқеалари", "Хатирчи ва Кармана воқеалари", "Қоракўл ва Чоржўй воқеалари", "Колесов воқеасидан кейин зарар ва фожеалар", "Колесов воқеаси муносабати ила Бухоро ҳукуматининг ваҳшонияти" ва "Колесов воқеасидан кейин ёшларнинг аҳволи" каби каби сарлавҳалри остида воқеалар тавсилоти ва баёнида[9] тарихий ҳужжатлар таҳлил қилинмаган бўлсада, воқеаларни ўз кўзи билан кўрган ва эшитган киши гувоҳлиги асосида теран таҳлил қила олган. Шу билан бирга Айний ўзининг "Бухоро жаллодлари" асарида 1918 йил март воқеаларининг тафсилотини тўла баён қилади. Муаллиф 1918 йилнинг 2 – 4 март кунларида кечган воқеаларнинг ҳар бир кунлик тафсилотларини аниқ кўрсатади.

Айний Бухоро ёшларини Бухоро меҳнаткашларининг яккаю – ягона ҳимоячилари сифатида кўрсатади, шу билан бирга Ёш бухороликларнинг шу паллада икки ўт орасида қолганлигини, ўзининг шахсий мулоҳазалари билан "етти ўлчаб бир кес" қабилидаги хулоса билан баён этади. "Ёшлар у вақт Бухоро сарбозлари ва деҳқонларига алданган эдилар. Булар гумон қилган эдиларким, ҳукуматнинг жабр ва зулмлари жонларига теккан деҳқон ва сарбозлар, бизнинг озгина ҳаракатимиз билан бизга қўшиладилар, ўзларининг манфаатлари учун талаб қилинган, бизнинг талабларимизнинг юзага чиқишига ёрдам берадилар".

1918 йил март ойининг бошларида Ф.Хўжаев раҳбарлигида етти киши (Абдурауф Фитрат, Ота Хўжаевбир ишга, Абдулвоҳид Бурҳонов, Оғдаров, Қори Йўлдош Пўлотов, Фазлиддин Махзум)дан иборат тузилган Ёш бухороликларнинг инқилобий қўмитаси[10] Колесовни Янги Бухорода кутиб олган ва махсус тайёрланган вагонда Ёш бухороликлар билан Бухоро масаласини ҳал этиш борасида ягона фикрга келган. Олимнинг айтишича, Бухоро ҳукумати бутун пойтахт ва унинг атрофлари, шунингдек, вилоят, туманларга ўз одамларини юбориб, урушга тайёргарлик кўриш, чегараларни мустаҳкам қўриқлашни буюрган. Амир Саид Олимхон Бухоро шаҳри ва унинг ўн икки дарвозаси атрофини ҳам махсус сарбозлари билан қуроллантириб барча чора-тадбирларни кўради.

1918 йил 1 март жума кунида амир қўшинлари ва Колесов аскарлари ўртасидаги биринчи тўқнашув Фатҳободда бўлиб ўтади. Бу урушда амир сарбозлари кўп талафот кўриб, казагий аскарининг юз бошиси, амир саркардалари қўмондони бўлган Мирзо Шамс ҳалок бўлади. Тарихчи олим Муҳаммад Балжувонийнинг қайд этишича, бу урушда Колесов 10 минг қўшин билан урушга кирган. Бизнингча, бу ҳақиқатдан йироқ бўлса керак. Чунки, Айний, ўз китобида унинг 500-700 аскар билан Бухорога келганини айтса, ушбу воқеа-ҳодисаларнинг марказида турган, жонли гувоҳи ва бевосита иштирокчиси бўлган Ф.Хўжаев эса Колесов аскарларини сони ҳақида бирон аниқ маълумот бериб ўтмайди. Фақатгина Ёш бухороликлар томонидан 200 тача аскарлар урушга тайёрланганлигини айтиб ўтади. Агарда Колесовнинг ихтиёрида ўн минглик қўшин бўлганида, воқеалар ривожи тамоман бошқача бўлиши мумкин эди.

Амир Саид Олимхон биринчи тўқнашувдаёқ мағлубиятга учрагандан кейин Колесов ва Ёш бухороликлардан сулҳ талаб қилиб, ўз вакилларидан Ҳожи Зикриё Азимов ва Имомқулибекларни Когонга юборади. Когондаги Колесов жойлашган вагонда Ёш бухороликлардан Ф.Хўжаев, Фитрат, А.Бурҳонов ва Фазлиддин Махзумлар амир вакиллари билан музокара олиб боради. Амир ўз вакиллари орқали юборган фармонида халқнинг бахти ва келажаги учун бажариладиган еттита муҳим вазифаларни ўтказишни айтиб ўтган. Айний

"Қисқача таржимаи ҳолим" асарида қайд этишича, 1918 йил 2 март, якшанба кунида Колесов Бухоро ҳукумати билан музокаралар олиб бориш учун 21 нафар вакилларини Бухорога юборган. Колесов томонидан юборилган вакиллар Бухорога, амир қароргоҳи бўлган Аркка киришлари билан қўлга олиниб қамоққа олинади. Амир ушбу музокаралар давомида, вақтдан унумли фойдаланиб, ҳарбий жиҳатдан ўзини қайта тиклаб олади. Қуюқмозордан Зирабулоққача, Мурғобдан Чоржўйгача ва Амироддан Шаҳрисабз ва Термизгача бўлган барча темир йўлларни вайрон қилиб Колесовни ҳар тарафдан алоқаларини узиб қўйган эди.

"Шундай йўл билан амир, бизга (Ёш бухороликларга) қарши нима тўғри келса, шунинг билан қуролланган 35 минг кишини қарши қўйди. Амир Карманадан Қоракўлга 100 чақиримдан ортиқроқ бўлган темир йўлни бузиб ва бутун телеграф алоқаларини узиб, бизни Туркистон билан алоқадан маҳрум қилди" – деб, ёзади Ф.Хўжаев. Айнийнинг ёзишича, уруш оқибатида Колесов унчалик йўқотишга учрамаган аммо, ғазотталаблардан ўлганларнинг сони тахминан, 300-400 нафарни, мажруҳ бўлганлар ҳам қарийб шунчани ташкил этган. Ҳарбий ҳаракатлар натижасида мағлубиятга учраган Колесов ва Ёш бухороликлар Қизилтепада амир билан янгидан сулҳ тузишга ва мағлубиятини тан олиб, музокара олиб боришга мажбур бўлади. Амир билан музокаралар олиб бориш учун, Русиянинг Бухородаги элчихонаси резиденти В.Введенский ва Ҳайдархўжа Мирбадаловни юборади.

1918 йилнинг 25 мартида Қизилтепада Туркистон ХКС раиси Колесов билан Бухоро амирлиги ўртасида битим имзоланади. Тарихда ушбу воқеалар "Қизилтепа шартномаси" номи билан кирган. Тўққиз банддан иборат битим матнидан шуни англаш қийин эмаски, Бухоро амирлиги фақат жабр кўргангина эмас, аксинча, ўз давлати ҳудудидаги ҳарбий ҳаракатларда айбдор деб ҳисобланади ва товон тўлашга мажбур қилинади. "Нима бўлса ҳам бир неча кундан кейин Туркистон жумҳурияти ва Бухоро ҳукумати ўртасида Қизилтепа аҳдномаси имзоланди" деб ёзади Айний. Қизилтепа битимига кўра, амирлик томони қуйидаги мажбуриятларни бажарилишини ўз зиммасига олган: Маҳаллий халқларни қуролсизлантириш ва урушга сафарбар қилинган сарбозларни тарқатиб юбориш, амирликда яширинган ва Бухоро армиясининг ҳарбий ҳаракатларига бош бўлиб турган барча рус аскарларини ушлаб бериш, бузиб ташланган темир йўлларни тиклаш, етказилган зарарни тўлаш ва ҳоказолар.

"Колесов юриши" шу тариқа барбод бўлди ва Бухоро амирлиги аҳолисига ва хўжалигига катта зарар етказди. Уруш ҳаракатлари даврида 10 минг киши ҳалок бўлди. "Колесов воқеаси"дан сўнг Бухоро амири ўз чегараларини қўриқлаш ва мустақилликни сақлаб қолиш учун ҳарбий сафарбарлик ўтказиб, армиясининг жанговар ҳолатини кучайтиришга мажбур бўлди. Чунки шўро давлати ва қизил армиянинг Бухорога қайта ҳужум қилиш эҳтимоли муқаррар эди. Айнийнинг келтирган маълумотларига қараганда, жазога тортилганлар ва қатл этилганлар қуйидаги кишилар бўлган: Жумладан, Колесов воқеаларида бевосита иштирок этмасдан Бухорода қолган, Айнийнинг дўстлари ва маслакдошларидан бўлган Ҳамидхўжа Меҳрий, Ҳожи Абдусаттор, Мирзошоҳ Фоиз, Мирзо Аҳмад, Мулло Вафо, мударрис Ҳожи Сирожиддин, Мирзо Раҳмат, Исмоилхўжа, Мулло Шарифи Ғурбуний, татар Низомиддин Собитовнинг Боқий ва Маҳмуд исмли икки ўғли, Мирхон, Мирзо Сачоқ, Мирсиддиқ, Муҳаммадазим Ғиждувоний, Авазбек, Шокир Ёвачиний, Қори Нурилло, Фазлиддин махдумнинг акаси Бурҳонжон, Насрулло қўшбегини катта ўғли, Сулаймон Қоракўлий, Фатҳуллахожа Бухорий, Ҳожи Додхоҳ, Мирзо Саҳбо Вобкандий, Ислом Тўқсоба, Ҳожи Мирзо Юнус Мирохур, Ҳожи Одилбой, Мирзо Юсуф, Низомиддин махдум, Шаҳрисабз ҳокими Насруллобек каби ўз даврининг ўқимишли кишилари Колесов воқеаларининг иштирокчилари ва жадидчиликда айбдорлар сифатида қатл этилган. Карманада маҳбусликда яшаётган собиқ бош вазир Насрулло қўшбеги бутун авлодлари билан қатл этилади[11].

1918 йилнинг март воқеалари кунларида, Ёш бухороликлар ва уларга ҳамфикр ёки тегишли бўлган кишилардан 1500 кишини қатл эттирган. Ф.Хўжаев ҳам Айний фикрларини тасдиқлаб ёзишича, ўз асарида Ёш бухороликлардан 13 кишининг исми – шарифини келтиради. Булардан Низом деган кишининг оиласидан 13 киши қатл қилинган, булар орасида Амир Сайид Олимхоннинг сарой амалдорларидан Мирзо Мустафо (оиласидан 17 киши),

Мирза Аҳмадбек (ўғли билан), Ҳожи Закариё Азимов, Мирзо Саҳбо, Хўжа Додхоҳ, Истамқул Тўқсоба, Қози Абдусаттор, Қози Саиджонларнинг ҳам қатл этилган[12].

Адибнинг кўрсатишича, жанг уч кун давом этган, амир кучларининг талофоти ҳақида маълумотлар аниқ эмас, аниқроғи шуки, уруш қурбонларининг сони жуда кўп бўлган, бу ҳақда Колесовнинг ўзи шундай ёзган: "Пулемёт қаршисида ўлик ва тирик гавдаларнинг уюми пайдо бўлди. Пулемётчилар эсанкираб отишни бўшаштирдилар. Бир лаҳза ёпирилиб келаётган катта куч ҳамма ёқни босиб кетиш хавфи туғилди. Шунда биз пулемётчиларга ташланиб, уларни отишни давом эттиришга мажбур қилдик" [13].

Хулоса қилиб айтганда, Бухоро амирлигида 1918 – 1920 йилларда юз берган ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ва маданий воқеаларни ёритишда Айний асарлари муҳим аҳамиятга эга. Унинг асарларини таҳлил қилар экансиз, маълум воқеа-ҳодисаларни у холисона ва тўғри баён этишга, унинг туб моҳиятини очиб беришга ва таҳлил этишга ҳаракат қилганлигининг гувоҳи бўласиз. Бухоро амирлигининг бу йиллардаги тарихи мураккаб сиёсий давр бўлиб, Ёш бухороликларнинг ижтимоий-сиёсий фаолиятлари ва бу даврда уларнинг тутган мавқеи Айнийни бефарқ қолдира олмас эди. Зеро, ўзининг сафдошлари, ҳаммаслак дўстлари бўлган Ёш бухороликларнинг фаолияти адиб ижодида ва фолиятида асосий ўринни эгаллайди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Айнӣ С. Таърихи амирони манғитияи Бухоро. – Тошкент: Туркистон давлат нашриёти 1923.
2. Айний С. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар. – Москва: СССР халқлари Марказий нашриёти 1926. – Б. 222; 223; 227; 226; 230; 230; 247; 249; 250.
3. Ajnij S. Buxara çalladlari. –Taşkent: Ozgixl, 1940. – 92 s.
4. Айний С. Дохунда. Т: 1956.
5. Айний С. Қисқача таржимаи ҳолим. / Асарлар . 8 жилдлик. 1 – жилд. Т: Ўздавнашр 1963.
6. Айний С. Эсдаликлар. I – IV қисмлар. / Асарлар. 8 жилд. 5-7 жилдлар. Т: Тошкент бадиий адабиёт нашриёти 1965 – 1966.
7. Айни С. Таърихи амирони манғитияи Бухоро. – Тошкент: Туркистон давлат нашриёти 1923. – Б. 126 – 146.
8. Айнӣ С. Тарихи амирони манғитияи Бухоро. – Б. 225
9. Айнӣ С. Мухтасар таржимаи ҳоли худам. / Куллиёт. 16 жилд. Жилди – 1. Сталинобод.: Нашрдавтож, 1958. – Б. 89.
10. Айний С. Қисқача таржимаи ҳолим. / Асарлар. 8 жилдлик. 1 – жилд. Т: Ўзбекистон давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1963. – Б. 94.
11. Айний. Тошкент хотиралари. // Меҳнаткашлар товуши. 1919 йил, 14-20 сентябрь.
12. Ҳасанов М. Файзулла Хўжаев. Т: Ўзбекистон 1990. – Б 25.
13. Медведев В. Нечаянная революция // Дружба народов, 1992. № 2. – С. 148.

УЎК 94:314(575.2)

САМАРҚАНД ВИЛОЯТИ АҲОЛИСИНИНГ МИЛЛИЙ ТАРКИБИ: ТАРИХИЙ-МАНБАВИЙ ТАҲЛИЛ

Ю.Холхужаева, ўқитувчи, СамДУ Каттақўрғон филиали, Каттақўрғон

Аннотация. *Ушбу мақолада Туркистон генерал-губернаторлигининг алоҳида маъмурий-ҳудудий бирлиги ҳисобланган Самарқанд вилояти аҳолисининг миллий таркиби, сони ва бошқа хусусиятлари тўғрисида сўз боради. Муаммони ёритиш учун тадқиқот жараёнига тортилган ёзма манбалар, архив материаллари, илмий тадқиқотлар ва тарихий адабиётларда келтирилган маълумотларнинг тарихий-манбавий таҳлили амалга оширилган.*

Калит сўзлар: *этнос, этник бирлик, бирламчи ёзма манбалар, оғзаки сўров, расмий статистика, ўзбек уруғлари, хўжалар, яҳудийлар, эронлилар, мазанглар;*

Аннотация. *В данной статье говорится о национальном составе, численности и других характеристиках населения Самаркандской области, считающейся отдельной административно-территориальной единицей Туркестанской губернии. С целью уточнения проблемы был проведен историко-источниковый анализ письменных источников, архивных материалов, научных исследований и сведений, представленных в исторической литературе.*

Ключевые слова: *Этнос, этническое единство, первичные письменные источники, устный опрос, официальная статистика, узбекские семена, Мастера, евреи, иранцы, Мазанг;*

Abstract. *This article talks about the national composition, number and other characteristics of the population of Samarkand region, which is considered a separate administrative-territorial unit of the Turkestan Governorate. In order to clarify the problem, a historical-source analysis of the written sources, archival materials, scientific researches and information presented in the historical literature was carried out.*

Keywords: *Ethnos, ethnic unity, primary written sources, oral Survey, official statistics, Uzbek seeds, Masters, Jews, Iranians, Mazang;*

Кириш. Ўзининг кўп минг йиллик тарихи давомида юзлаб этнослар ва этник бирликларни бағрига сиғдирган Ўзбекистон тарихини ҳам аҳолининг этник таркиби ва сони каби асосий аспектларсиз тасаввур қилиб бўлмайди. Зеро, маълум бир ҳудуд аҳолисининг миллий таркиби ва сони тўғрисида чоп этилган ёзма манбалар, архив материаллари, илмий тадқиқотлар ва тарихий адабиётларда келтирилган маълумотларнинг тарихий-манбавий таҳлили тарих фанининг бош масалаларидан бири ҳисобланади.

Ушбу мақолада 1868 йилда Самарқанд вилоятининг катта қисмининг Россия империяси томонидан эгалланиши ортидан таъсис этилган Самарқанд вилояти ва унинг маркази Самарқанд шаҳри аҳолисининг этник таркиби ва сони тўғрисида бирламчи ёзма манбаларда, шунингдек, махсус тарихий адабиётларда келтирилган маълумотларни тадқиқ ва таҳлил этиш, уларни умумлаштириш аҳолининг сони ва этник таркиби хусусиятларини аниқлаш вазифалари қўйилган. Бу вазифаларни бажариш натижасида Самарқанд тарихига оид бирламчи манбалар ва махсус тарихий адабиётлар устида кичик тарихий-манбавий таҳлилни амалга ошириш кўзда тутилган. Мақолада моҳиятан муаммо бўйича тарихшунослик таҳлили амалга оширилгани боис мавзунинг тарихшунослиги бўйича алоҳида тўхталинмади.

Методология. Самарқанд вилояти аҳолисининг этник таркиби ва сони тўғрисида ёзма манбалар ва тарихий адабиётларда келтирилган маълумотларни ўрганиш ва таҳлил этишда тарих фанининг замонавий концептуал-методологик ёндошувлари ҳисобланган мавзуга доир ёзма манбалар ва тарихий адабиётларда келтирилган маълумотларнинг қиёсий таҳлили, мантиқий синфлаштириш ва таркибий таҳлил услубларидан фойдаланилган.

Асосий қисм. 1868 йилга қадар Самарқанд ва Зарафшон водийси Бухоро амирлиги таркибида бўлиб, расмий статистик маълумотларнинг мавжуд эмаслиги, Самарқанд ва Зарафшон водийси аҳолисининг этник таркиби ва сони тўғрисида аниқ маълумотларни тақдим этиш имкониятини бермайди. Шу жиҳатдан, расмий статистик маълумотлар олингунга қадар Бухоро амирлиги, хусусан, Самарқанд шаҳри аҳолисининг этник таркиби ва сони тўғрисида келтирилган маълумотларни тахминий деб ҳисоблаш мумкин.

1868 йилгача ўлкада бўлган рус ва хорижий муаллифларнинг ишларида Самарқанд шаҳри ва Зарафшон водийси аҳолисининг этник таркиби ва сони тўғрисида маълумотлар келтирилган. 1820-1821 йилларда Бухоро амирлигида бўлган Е.К.Мейендорф қолдирган маълумотларга кўра, амирлик аҳолиси тожиклар, ўзбеклар, яҳудийлар, татарлар, афғонлар, қалмиқлар, ҳиндлар, қўшни давлатлардан келган савдогарлар ва зиёратчилар, форс ва рус қуллари ҳамда аҳамиятсиз сондаги ҳабашлардан иборат бўлган[14. 95]. 1841-1842 Самарқанд вилоятининг катта қисмини ўрганган ва Самарқанд шаҳрида ҳам бўлган шарқшунос Н.В.Ханыковнинг қайдларида амирлик аҳолиси асосан тожиклар, араблар, жами 28 та уруғга мансуб бўлган ўзбеклар, форслар (эронилар), яҳудийлар, лўлилар (мазанглар), қирғиз ва қорақалпоқлардан иборат бўлганлиги кўрсатилади[15. 53-75]. 1863 йилда Бухоро амирлигида бўлган можор шарқшунос олими А.Вамберининг кундаликларида амирлик аҳолиси ўзбеклар, тожиклар, қирғизлар, араблар, марвликлар, эронилар, ҳиндлар ва яҳудийлардан иборат бўлганлиги қайд этилган[12. 168-169].

Юқорида келтирилган ёзма манбалардаги маълумотларни таҳлил қиладиган бўлсак, Е.К.Мейендорф яҳудийлар, Н.Ханыков тожиклар ва ўзбеклар, А.Вамбери кўпроқ қирғизларнинг этник хусусиятларига эътибор қаратганлигига гувоҳ бўламиз. Шунингдек, Н.Ханыков ва А.Вамберининг қайдларида амирлик ҳудудида вақтинчалик бўлиб турган этник бирликлар (афғонлар, руслар, татарлар, қалмиқлар ва бошқ.) аҳолининг умумий таркибига

киритилмаган. Юқорида келтирилган маълумотларнинг манбавий аҳамияти катта бўлсада, уларнинг ҳеч қандай статистик маълумотларга асосланмаганлиги ва аксарият ҳолларда оғзаки сўров натижалари эканлигини ҳам ҳисобга олишимиз лозим.

Самарқанд вилояти ва унинг маркази Самарқанд шаҳри аҳолиси сони тўғрисида ҳам 1868 йилгача бўлган ёзма манбаларда аниқ статистик маълумотлар қайд этилмаган. Н.В.Ханыковнинг фикрича, амирлик аҳолиси сони тўғрисида ҳатто амир ҳам аниқ ва тўғри маълумотларга эга бўлмаган[15. 76].

Е.К.Мейендорф Самарқанд шаҳри аҳолиси 1820 йилда 50 минг киши атрофида бўлган[14.90], деб маълумот қолдирган бўлса, Н.В.Ханыковнинг фикрича, 1840 йилларнинг бошларида бу рақам 25-30 мингни ташкил этган[15. 105].

1863 йилда Самарқанд шаҳрида бўлган А.Вамбери шаҳар аҳолиси ўша пайтда 15-20 минг кишидан ошмаганлигини билдиради[12.164].

1868 йил июн ойида Самарқанд вилояти ва Бухоро амирлиги ўртасида чегараларни белгилаган отряд аъзоси, шарқшунос олим В.В.Радлов ва 1869-1870 йилларда Самарқанд вилояти бўйича аҳамиятли материалларни тўплаган А.П.Федченконинг ишларида ўрта ва юқори Зарафшон водийси, шунингдек, Самарқанд шаҳри аҳолисининг этник таркиби ва сони тўғрисида маълумотлар келтирилган. 30 минг атрофида киши яшаганлигини билдиради[10.50]. А.П.Федченко томонидан тақдим этилган маълумотлар ҳам Зарафшон музофоти ва Самарқанд шаҳри аҳолиси сони тўғрисида дастлабки расмий сўровлар натижаларига яқинлиги билан ажралиб туради.

Самарқанд вилояти аҳолиси тўғрисидаги дастлабки расмий маълумотлар 1869 йилда олинган бўлиб, шу йили Туркистон Ҳарбий-топографик бўлимига тақдим этилган ахборотда музофот аҳолисининг сони 315 минг 533 кишидан иборат эканлиги кўрсатилган[10.51]. Афсуски, ҳужжатда музофот аҳолисининг этник таркиби тўғрисида маълумотлар келтирилмаган.

Самарқанд вилояти бошлиғи маҳкамасида хизмат қилган А.П.Хорошхин томонидан вилоят аҳолисининг этник таркиби тўғрисида маълумотлар келтирилган. Масалан, Самарқанд бўлимининг Суғд туманида ўзбек уруғлари (қипчоқ, сарой, қанғли, найман, қирқ, юз, хитой, туркман, бурқут, манғит, уйшун, туёқли ва бошқ.), шунингдек, хўжалар, тожиклар, эронилар, қорақалпоқлар ва лўлилар истиқомат қилишган. Хўжалар ўзбек ёки тожиклардан қайси бирига яқин яшаса, ўшалардан ҳисобланган. Лўлилар бу ерда мазанг ёки жўги номлари билан машҳур бўлиб, бутун Суғд тумани бўйлаб сочилиб кетган[11.146]. Хорошхинга кўра, Самарқанд шаҳар аҳолисининг асосий қисмини ўзбеклар, тожиклар, эронилар ва турли уруғларга мансуб аҳоли ва қолган қисмини яҳудийлар ташкил этган[11. 209-215]. Ҳиндлар Самарқандда юз кишидан ошмаган ва уларнинг барчаси карвонсаройларда яшаганлар[11.215]. Лўлилар (жўгилар ёки маъзанглар) Самарқандда бир неча ўнлаб кишини ташкил этган ва уларни асосан бозорларда кўриш мумкин бўлган. Уларнинг бир қисми чорвачилик билан ҳам шуғулланган. Афғонлар Самарқандда тижорий меҳмонлар бўлиб, улар бу ерга турли маҳсулотларни олиб келишган. Айрим афғонлар Самарқандда доимий яшаган. Муаллиф уларни 1868 йилги юришларда иштирок этганлигини таъкидлайди[11.216].

А.П.Хорошхиннинг қайдларида Самарқанд шаҳар аҳолиси сони 20 минг кишидан иборат бўлган, деб кўрсатилган бўлсада, у шаҳар аҳолисининг аниқ сони тўғрисида ҳозирча ҳеч ким аниқ маълумотларга эга эмаслигини, оқсоқолларнинг ўз маҳаллаларида яшовчилар сонини камайтириб ёки кўпайтириб кўрсатишлари эса рус маъмурияти учун барибир эканлигини таъкидлайди[11.209]. Унинг фикрларини музофотда статистик фаолиятнинг йўлга қўйилмаганлиги ва маъмуриятнинг оқсоқоллар томонидан тақдим этилган маълумотлардан бошқасига эга бўлмаганлиги билан изоҳлаш мумкин.

1877 йилдан Самарқанд бўлимини бошқарган Г.А.Арендаренконинг қайдларида эса фақат Ургут шаҳри аҳолисининг этник таркиби тўғрисида маълумотлар келтирилган бўлиб, уларга кўра, шаҳар аҳолисининг асосий қисмини ўзбеклар ва тожиклар ташкил этган. Бу ерда, шунингдек, кам сондаги ҳиндлар ва яҳудийлар ҳам истиқомат қилишган[6.3].

Арендаренко 1877-1878 йиллар қишида амалга оширилган саноқ натижаларига асосланиб, музофот аҳолисининг умумий сони 463 минг 722 кишидан иборат бўлганлигини, Самарқанд шаҳрида эса 26 минг 160 киши истиқомат қилганлиги таъкидлайди[6.168-169]. Бироқ у томонидан музофот аҳолиси, айниқса, Тоғли туманлар бошқарувидаги ҳовлилар ва аҳоли сони тўғрисида келтирган фактларни тўла ишончли, деб бўлмайди. Чунки, кейинроқ олинган расмий маълумотлар билан солиштирадиган бўлсак, Тоғли туманлар аҳолиси сони (129 минг 672 киши) деярли икки марта кўпроқ кўрсатилганлигига гувоҳ бўлишимиз мумкин.

Туркистон ўлкасининг биринчи бошлиғи К.П. фон Кауфман томонидан тайёрланган "Ожизона ҳисобот лойиҳаси"да Зарафшон музофоти аҳолисининг этник таркиби ва сони тўғрисида маълумотлар келтирилган бўлиб, уларга кўра, музофот аҳолиси ўзбеклар, тожиклар, қирғизлар, араблар, яҳудийлар, руслар ва лўлилардан иборат бўлган[8.29].

1882-1883 йилларда Туркистон ўлкасини тафтиш қилган Ф.К.Гирс вилоят аҳолиси тўғрисидаги маълумотларида яҳудийлар ва ҳиндлар, руслар, татарлар, ўзбеклар ва тожиклардан иборат бўлганлигини таъкидлайди. Бироқ, Самарқанд вилояти аҳолисининг сони бўйича келтирилган маълумотлар ўлка бошлиғининг ҳисоботидаги маълумотлардан анчайин фарқ қилади. Гирсга кўра, Самарқанд вилояти аҳолиси тафтиши амалга оширилган даврда 422 минг 840 кишини ташкил этган. Самарқанд шаҳри аҳолисининг сони тўғрисида эса маълумот берилмаган. Гирс вилоят аҳолиси сонини аниқлашда икки ярим мингга яқин ҳарбийларнинг ҳисобга олинмаганлигини, келтирилган рақамлар ҳам тахминий эканлигини алоҳида қайд этади[7.87].

Ушбу ҳолат бизни мустамлака давр тарихи бўйича асосий ва ишончли ёзма манбалар ҳисобланган архив материалларига, хусусан Самарқанд вилояти бошлиғи маҳкамаси иш юритиш ҳужжатларига мурожат этишга ундайди.

Жумладан, 1885 йил февралида Туркистон Ҳарбий-топографик бўлимига тақдим этилган маълумотларга кўра, Самарқанд вилояти аҳолисининг умумий сони 398 минг 535 кишидан иборат бўлган[2.57]. Вилоят аҳолиси сони тўғрисида расмий ҳужжатларда келтирилган маълумотлар Гирс ҳисоботида келтирилган рақамлардан анчайин фарқ қилсада, уларни умумлаштириш натижасида вилоят аҳолиси 1883 йилда 390-400 минг киши оралиғида бўлган, деб ҳисоблашимиз мумкин.

Самарқанд вилояти ҳарбий губернатори А.М.Яфимович томонидан тақдим этилган ҳисоботнинг кириш қисмида музофотнинг ҳудуди, аҳолисининг этник таркиби ва сони тўғрисида маълумотлар келтирилган бўлиб, уларга кўра, 1886 йилда вилоят аҳолиси 464,985 кишини ташкил этган. Аҳолининг этник таркиби сартлар, руслар, яҳудийлар, ҳиндлар ва хорижий фуқаролардан иборат эканлиги кўрсатилган[3.10].

XIX аср иккинчи ярми – XX аср бошлари Самарқанд тарихининг йирик тадқиқотчиларидан бири Т.С.Саидқулов аҳолининг этник таркибига эмас, балки синфий (ижтимоий) таркибига эътибор қаратган ва жами аҳолини учта: қишлоқ ҳўжалиги аҳолиси, савдо-саноат аҳолиси ва ноишлаб чиқариш аҳолиси каби гуруҳларга ажратган эди[9.111].

Самарқанд вилоят ва Самарқанд шаҳри аҳолиси сони тўғрисида Т.Саидқуловнинг ишида келтирилган маълумотларни йиллар кесимида келтирилган жадвални таҳлил қилганимизда, улар бир-бирига қарама-қарши ва рад этувчи хусусиятга эга эканлигига гувоҳ бўламиз. Улар манбавий асосга эга бўлсада, 1868-1885 йилларда вилоят ва Самарқанд шаҳар аҳолиси сони динамикасида кескин пасайиш ёки кўтарилиш ҳолатлари кузатилади. Муаллиф томонидан бу ҳолатлар бўйича изоҳ берилмаган.

Янги тадқиқотлардан Г. Нормуродованинг ишида эса, Зарафшон округи аҳолисининг сони ва этник таркиби, кейинчалик Россиянинг Европа қисми, Волгабўйи, Сибирь ва Кавказ ҳамда бошқа минтақадаги мигрантларнинг кўчириб келтирилиши билан ошиб борганлиги таъкидланади. Масалан, Самарқанд шаҳрининг сиёсий-маъмурий ҳамда иқтисодий марказ бўлганлиги бу ерга кўчиб келувчилар сонини ортиб боришига сабаб бўлганлиги статистик рақамларда тасдиқланади. Жумладан, архив ва статистик материалларга таянган муаллиф, шаҳар аҳолиси 1870 йилда 30-40 минг кишидан иборат бўлган бўлса, 1885 йилда 44 минг 125,

1897 йилда 55 минг 128, 1908 йилда 80 минг 706 ва 1914 йилга келиб 97 минг 530 кишини ташкил этганлигини қайд этади[5.78].

Инглиз тарихчиси А.Моррисон нафақат Самарқанд вилоят, балким бутун Туркистон ўлкаси аҳолисини сўзлашув тилига кўра учта: тожик тилида сўзлашувчи (тожиклар, сартлар, яҳудийлар, афғонлар ва ғалчалар), туркий тилда сўзлашувчи (ўзбеклар, сартлар, қирғизлар, қора қирғизлар, қорақалпоқлар, туркманлар, эронилар, татарлар) ва рус тилида сўзлашувчи (руслар, немислар) гуруҳларга ажратган эди[4.43]. Музофот аҳолисининг сони тўғрисида Моррисон, 1886 йилда 464 минг 985 кишини ташкил этган, деб маълумот беради[4.47].

Хулосалар. Самарқанд вилоят ва унинг маркази Самарқанд шаҳри аҳолисининг этник таркиби ва сони тўғрисида бирламчи тарихий манбалар ва махсус адабиётларда келтирилган маълумотларни ўрганиш ва қиёсий таҳлил қилиш натижасида қуйидаги хулосаларга келиш мумкин:

- Самарқанд вилоят таъсис этилгунига қадар Самарқанд шаҳрида бўлган муаллифлар (Е.К.Мейендорф, Н.В.Ханыков, А.Вамбери) томонидан Бухоро амирлиги аҳолисининг этник таркиби ва Самарқанд шаҳри аҳолисининг сони тўғрисида келтирилган маълумотлар оғзаки сўров натижаларига асосланган. Тахминий хусусиятга эга бўлишига қарамасдан, 1869 йилга қадар статистик маълумотларнинг йўқлиги уларнинг манбавий аҳамиятини белгилаб беради.

- 1869 йилдан бошлаб статистик маълумотларнинг тўпланиши Самарқанд аҳолисининг этник таркиби ва сони тўғрисида янги фактларни қўлга киритиш имкониятини берди.

- Мавжуд баёний ва ҳужжатли маълумотларнинг даврий жиҳатдан ажратилиши, қиёсий таҳлил ва танқидий ёндашув, шунингдек, қўлга киритилган маълумотларни умумлаштириш натижасида вилоят ва Самарқанд шаҳри аҳолисининг этник таркиби ва сони тўғрисида нисбатан аниқроқ маълумотларни тақдим этиш ва унинг хусусиятларини белгилаш мумкин.

- Амалга оширилган тарихий-манбавий таҳлил натижасида Зарафшон музофоти ва Самарқанд шаҳри аҳолисининг этник таркиби ва сони тўғрисида фақат музофот бошлиғи маҳкамаси ҳужжатларидан нисбатан ишончли маълумотларни олиш мумкинлиги аниқланди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. ЎзР МДА, 5-жамғарма, 1-рўйхат, 834-иш
2. ЎзР МДА, 5-жамғарма, 1-рўйхат, 1171-иш
3. ЎзР МДА, 1-жамғарма, 27-рўйхат, 1133-иш
4. A.Morrison. Russian Rule in Samarkand. 1868-1910: A Comparison with British India. Oxford and New York: Oxford University Press, 2008.
5. Г.Б. Нормуродова. "XIX аср охири ва XX аср бошларида Самарқанд вилояти аҳолисининг ижтимоий стратификацияси. – Тошкент: Янги нашр, 2013.
6. Г.А. Арендаренко. Досуги в Туркестане (1874–1889 гг.). – СПб., 1889.
7. Ф.К. Гирс. Отчет реквизирующего по высочайшему повелению Туркестанский край тайного советника Ф. Гирса. / Ф.К. Гирс. – СПб.: Б.м., 1883.
8. К.П. Кауфман. Проект всеподданнейшего отчета генерал-адъютанта К.П.фон-Кауфмана 1-го по гражданскому управлению и устройству в областях Туркестанского генерал-губернаторства. 7 ноября 1867 г. 25 марта 1881 г. Издание военно-ученого комитета Главного штаба. – СПб.: Военная типография, 1885.
9. Т.С. Саидқулов. Самарканд во второй половине XIX – начале XX веков. – Самарканд, 1970.
10. А.П. Федченко. Путешествие в Туркестан. – М.,1950.
11. А.П. Хорошкин. Сборник статей касающихся до Туркестанского края. – СПб., 1876.
12. А. Вамбери. Путешествие по Средней Азии. Описание поездки из Тегерана через Туркменскую степь по восточному берегу Каспийского моря в Хиву, Бухару и Самарканд, совершенной в 1863 году Арминием Вамбери, членом Венгерской Академии. С картою Средней Азии. Перевод с английского. СПб., 1865. СПб.,1865.
13. К.П. Кауфман. Проект всеподданнейшего отчета генерал-адъютанта К.П.фон-Кауфмана 1-го по гражданскому управлению и устройству в областях Туркестанского генерал-губернаторства. 7 ноября 1867 г. 25 марта 1881 г. Издание военно-ученого комитета Главного штаба. – СПб.: Военная типография, 1885.
14. Е.К.Мейендорф. Путешествие из Оренбурга в Бухару. Предисл. Н.А.Халфина. – М., Глав.ред.вос.лит. изд-во «Наука», 1975.
15. Н.В. Ханыков. Описание Бухарского ханства. – СПб., 1843.

УЎК:391:92:738(575:171)(0433)

МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА ХОРАЗМ ЗАНГОРИ КУЛОЛЧИЛИК АНЪАНАЛАРИНИНГ ҚАЙТА ТИКЛАНИШИ ВА УНИНГ ҲУДУДИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ

Ҳ.С.Худайбергенов, PhD, ТТА Урганч филиали, Урганч

Аннотация. *Мустақиллик йилларида қадимий Хоразм ҳунармандчилигининг асосий тармоғи ҳисобланган кулолчиликнинг қайта тикланиши ва ривожланиши давлатимиз томонидан алоҳида эътибор берилганлиги билан алоҳида аҳамият касб этади. Бу эса ўз навбатида, қадимий Хоразм зангори кулолчилигининг Каттабоғ, Мадир ҳамда Кўҳна-Урганч марказлари ишлаб чиқарган маҳсулотларида ва Республикамизнинг бошқа кулолчилик марказларидан ўзининг ҳудудий хусусиятлари ҳамда локаллик жиҳатдан ажралиб туриши билан характерланади.*

Калит сўзлар:*Ҳунармандчилик, мустақиллик, марказ, меъморий обида, мерос, кошин, нақш, архитектура, кўргазма, санъат.*

Аннотация. *В годы независимости восстановление и развитие гончарного дела, считающегося основной отраслью древнехорезмских ремесел, имеет особое значение в связи с тем, что наше государство уделяло ему особое внимание. Это, в свою очередь, характеризуется изделиями Каттабогского, Мадирского и Кохна-Урганчского центров древнехорезмского голубого гончарства, а также его региональными особенностями и локальными отличиями от других гончарных центров нашей Республики.*

Ключевые слова:*Мастерство, независимость, центр, архитектура, культура, наследие, плитка, узор, архитектура, выставка, искусство.*

Abstract. *During the years of independence, the restoration and development of pottery, which is considered the main branch of ancient Khorezm crafts, is of particular importance due to the fact that our state paid special attention to it. This, in turn, is characterized by the products of the Kattabog, Madir and Kokhn-Urganch centers of ancient Khorezm blue pottery, as well as its regional features and local differences from other pottery centers of our Republic.*

Key Words:*Craftsmanship, independence, center, architecture, culture, heritage, tile, pattern, architecture, exhibition, art.*

Бизга маълумки, XX аср бошларида Хоразм воҳасида Кўҳна Урганч, Хива, Мадир ва Каттабоғ каби кулолчилик марказлари фаолият кўрсатган.[1] Воҳа кулолчилигида ушбу марказларнинг пайдо бўлиши ўрта асрларда Кўҳна Урганч зангори кулолчилигининг ривожланганлиги билан боғлиқ.

Айниқса, XIX асрнинг охири ва XX асрнинг бошларига келиб, Марказий Осиё халқлари ўртасида кулолчилик жуда кенг ривожланди ва бир нечта марказлар пайдо бўлди. Булар қаторига юқорида санаб ўтилган Мадир, Каттабоғ ва Кўҳна Урганч зангори кулолчилик мактабларини киритишимиз мумкин. Мазкур мактаблар XIX-XX асрлар давомида кулолчиликнинг энг ривожланган асосий ўчоқларидан ҳисобланди. Бу мактабларни ташкил этилишида ўз даврнинг машҳур кулолларидан уста Бобожон, Болта Матризаев, Мадраҳим Мадаминов, Ваис Жабборов, С.Абдуллаев, Я.Абдураҳмон ва Болта Ваисовларни хизматлари беқиёс. Хусусан, 1892 йилда туғилган Болта Ваисов таниқли ҳунарманд ва сиркор нақш берувчи кулол сифатида Хоразм кулолчилик мактаби ривожланишида ўзига хос ўрнига эга усталардан бири бўлган. Унинг отаси эса, машҳур кулоллардан Ваис кулол ва бобоси Исмоил кулол ҳисобланиб, улардан қадимий кулолчилик сирларини ўрганган.

Шу ўринда эслаб ўтиш керакки, 1908-1910 йилларда Хивада қад кўтарган Ислом Ҳўжа минорасини мадирлик машҳур кулоллар зангори кошиндан безагани манбаларда айтиб ўтилади.[2] Бироқ, совет даврида меъморий обидалар ҳамда ёдгорлик биноларга кошиндан безак беришга эътибор берилмади, сабаби бундай безаклар, руслар томонидан архитектурада ортиқча безак сифатида қораланган.[3] Лекин илк маротаба Мадирлик кулол Рейимбарди Матчонов 1983 йили архитектор-наққош Давлатназир Муҳамедов билан ҳамкорликда Урганч

шаҳар Темир-йўл бекати касалхонаси вестибюлини безашда тажриба сифатида ганчкорлик қаторида зангори кошинкорликдан фойдаланиб, буни қайта тиклайди.[4] Таг замини зангори рангга бўялган ойсимон ганчкорлик нақшлари, кошинкорликдаги композициялар хона деворида ритмик қайтарилган зангори кошинларга ишланган "турғунч" нақши, ганчкорликдаги "ой", "ҳошия" нақшлари бир-бирига боғланиб, хонага ўзига хос жило берган. Бу биргина тажриба учун қилинган зангори кошинкорлик санъати намунаси ҳозирги замон меъморлик безаги сифатида фойдаланиш мумкинлигига замин яратди. Ҳозирги кунда бу ноёб санъат намуналари Хоразмда кўплаб объектлар интерьерида безак сифатида қўлланиб келинмоқда. Демак, бундан кўринадики, кўп йиллик тажрибага эга кулол ўз шогирдлари билан кошинкорликни қайта тиклаш ва уни ҳозирги замон архитектурасида безак сифатида қўллаш учун кўп йиллар меҳнат қилди. Бу эса маълум бир даврда кулолчилик буюмлари ишлаб чиқарилишининг сусайганлигини ва кошинпазликнинг равнақ топганлиги кўрсатади. Қолаверса, бугунги кунда мамлакатда олиб борилаётган кенг ислоҳотлар ҳам кўп миқдордаги бинокорлик-қурилиш ишларининг кучайиши, миллий маданий меросга бўлган эътибор туфайли тарихий обида ҳамда меъморий ёдгорликларни қайта тиклаш ишларига ҳам жиддий эътибор қаратилмоқда.[5]

Бугунги кунда "Мадир кулолчилик мактаби"ни янада ривожланишига ўзининг муносиб ҳиссасини қўшиб келаётган усталардан бири кулол Одил Матчоновдир. Унинг ижоди ўзига хос жиҳатлари ҳам мустақиллик йилларида янада тараққий этди. У ўз услуби ва йўналишига эга усталардан бири ҳисобланади.

Мустақиллик йилларида Одил Матчонов томонидан яратилган кулолчилик буюмлари дастлаб, 1991 йилда Дубай шаҳрида, 1992 йилда Куала-Лумпур шаҳрида бўлиб ўтган амалий санъат кўргазмаларида намойиш қилинган. Унинг яратган асарлари кўпчилик томонидан яхши баҳоланган.

О. Матжоновнинг кулолчилик соҳасида эришган ютуқлари ҳам анчагина бўлиб, у Республикамизнинг бир қатор кўргазмаларида қатнашиб келади. Жумладан, уста 2007 йилда Ўзбекистон Республикаси Президенти соврини учун "Ташаббус" Республика босқичи ғолиби, мамлакат мустақиллигининг 10 йиллигига бағишланган, "Шу азиз Ватан, барчамизники" дипломи билан тақдирланган. Шунингдек, "Ўзбекистон халқ усталари, ҳунармандлар, мусаввирлар, ҳунарманд уюшмаси аъзоси сифатида жамоат ишларида фаоллиги" учун махсус дипломи билан тақдирланган. Бундан ташқари, "Тасвирий санъат ҳафталиги" юксак маҳорати учун дипломи билан тақдирланган, 2007 йилда "Ўзбекистон Бадиий Академияси" дипломи, "Ўзбекистон амалий санъат халқ ҳунармандчилигини ривожлантиришга қўшган ҳиссаси учун" дипломи, "Ўзбекистон халқ ҳунармандлари" ҳамда шу йили "Мустақиллик нафасида камол топган ҳунарманд" кўргазма қатнашчиси, 2014 йилда эса, "Эътироф" миллий мукофот совринини берилишига сабаб, йилнинг энг моҳир ҳунарманди йўналиши ғолиби, 2001 йилда Жанубий Кореяда Ёшлар фестивалида Ўзбекистон ҳунармандлар вакили бўлиб қатнашган, 2011 йилда АҚШда Ўзбекистон ва АҚШ ёшлари ўртасида бўлиб ўтган тажриба алмашинувда муносиб иштирок этиб,[6] Мадир мактабини дунёга танилишга хизмат қилган. Шунингдек, уста кошинкорликни ҳам отасидан қунт билан ўрганиб, Республикамиздаги бир қатор ёдгорликларни безатиш жараёнида ўз маҳоратини кўрсатиб келмоқда.

Истиқлол қўлга киритилган сўнг, Хоразмда Мадир ва Каттабоғ кулолчилик мактаблари ривожланди ва ҳудудий жиҳатлари ҳамда буюм ишлаб чиқаришда ўзига хос хусусиятларига эга бўлди. Мазкур кулолчилик марказлари ўзаро ҳамкорликда бир хил рангдаги зангори кулолчилик буюмлар ишлаб чиқариш билан боғлансалар-да, лекин идишларнинг кўриниши, шакли ҳамда ранггининг бир-биридан ажралиб туриши билан ҳудудий хусусият касб этади. Кулолчилик буюмларидаги турли шаклдаги чизилган элементлар ва улардаги ранглар ҳамда белгиларга қараб, қайси мактабнинг иши эканлигини ажратиш мумкин.[7] Масалан, Мадир зангори кулолчилик мактабининг ишлаб чиқариш фаолияти ва унинг ўзига хос томони шундаки, бу марказда асосан, қадимий усулларда ўсимликсимон нақш элементлари чизилган бадиий буюмлар ишлаб чиқарилади. Нақшлар асосан, Хива кулолларининг қадимий кошинкорлик нақшларига деярли ўхшаб кетади. Бу буюмларга ишланган нақшларнинг безак

бериш сатҳига ҳам жуда мос тушади. Демак, нақш безакларидаги умумийлик ҳам ўзига хос боғланган. Каттабоғ кулолчилик мактабида эса бугунги кунда кўпроқ геометрик ва рамзий нақшлар берилган буюмларни тайёрланаётганлигини кўришимиз ва учратишимиз мумкин.[8]

Мустақиллик йилларида бошқа соҳаларда бўлгани каби кулолчиликда ҳам ўзига хос туб ўзгаришлар рўй берди. Дастлабки йилларда Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти томонидан миллий ҳунармандчилик соҳасини эркин, демократик шароитларда ривожлантиришга эътибор қаратилди.[9] Кулол-усталарнинг ҳақ-ҳуқуқларини қонун йўли билан ҳимоя қилинишига киришилди. Ҳозирда ҳам муҳтарам Президентимизнинг ташаббуслари ва таклифлари билан Хоразмда йирик "Каттабоғ кулолчилик маркази" ташкил қилиниб, унинг қадимий услабда янги биноси қурилиб, ишга туширилди. Бу эса ўз навбатида, йўқолиб кетаётган кулолчиликнинг қадимий анъаналарини қайта тиклаш ва бу орқали қадимий Хоразм зангори кулолчилигини ва ишлаб чиқарилаётган сопол идишларини бутун дунёга танитишга хизмат қилади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1.Бобожонов Д, М. Абдуллаев. Хоразм амалий санъати усталари. – Хива.: Хоразм Маъмун академияси, 2010. – Б.10-12.

2.Абдуллаев М. С. Хоразм амалий безак-санъатининг ривожланиш тарихи (XVI-XX аср бошлари). Санъат.фанлари бўйича фалсафа доктори (Phd) дисс. – Тошкент, 2018. – 185 б.

3.Дала маълумоти. Озод Султоновнинг ҳунармандчилик уй-музейи. Урганч шаҳри. 2020 й.

4. Урганч Темир-йўл шифоҳонаси дала архив ёзувлари. Урганч шаҳар. 2020 йил

5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 15 февралдаги 120-сонли "Муқаддас қадамжолар, зиёратгоҳлар, масжидлар ва қабристонларни ободонлаштириш ишларини самарали ташкил этиш тўғрисида"ги қарори. // www.lex.uz

6. Республика "Ҳунарманд" уюшмаси жорий архиви. 2016 йил.

7.Хоразм ҳақиқати // 1985. 2 май – №85.

8.Дала ёзувлари. Янгиариқ Каттабоғ мактаби. 2020 й

9.Ўзбекистон Республикаси биринчи Президентининг фармони. "Халқ бадиий ҳунармандчиликлари ва амалий санъатини янада ривожлантиришни давлат йўли билан қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида" // халқ сўзи. 1997, 1 апрел.

ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

UO'K 378.016

INGLIZ TILINI O`QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

N.R.Abdanbekova, o'qituvchi, Toshkent davlat pedagogika universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Ingliz tilini o'rgatish bugungi kunda jahon sahnasining eng dolzarb muammolaridan biriga aylandi. Chunki ingliz tili dunyoda birinchi raqamli xalqaro til sifatida tan olingan. Ushbu maqolada ingliz tilini o'qitishda qo'llaniladigan zamonaviy axborot texnologiyalari batafsil yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *chet tili, o'qitish texnologiyasi, zamonaviy texnologiya, pedagog, o'quvchi, o'qish va o'rganish ko'nikmalari va boshqalar.*

Аннотация. *Обучение английскому языку стало сегодня одной из самых актуальных проблем на мировой арене. Потому что английский признан международным языком номер один в мире. В данной статье подробно описаны современные информационные технологии, используемые в обучении английскому языку.*

Ключевые слова: *иностранный язык, технология обучения, современные технологии, педагог, студент, навыки чтения и обучения и др.*

Abstract. *One of the most pressing issues facing the globe today is the teaching of the English language. due to the fact that English is the most widely spoken international language in the world. The current information technologies utilized in English instruction are described in this article.*

Keywords*: foreign language, teaching technology, modern technology, pedagogue, student, reading and learning skills, etc.*

Bugun O'zbekistonda ingliz tilini o'rganishning ahamiyati avvalgidan ancha yuqori. Bir qator ingliz tili mutaxassislari ingliz tilini o'rganishning yangi usullari va usullarini joriy qilmoqdalar. Bu, albatta, chet tillarini o'qitish samaradorligini oshiradi. O'qitishda texnologiyadan foydalanishning bir qancha afzalliklari bor. Qolaversa, o'qitish tizimining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi va o'z navbatida til o'rganuvchining zamon bilan hamnafas bo'lib, olg'a intilishiga yordam beradi. Texnologiya asta-sekin an'anaviy ta'limni almashtirmoqda. Bugungi kunda ingliz tilini o'rgatish uchun teledasturlarda bir qancha yangi ko'rsatuvlar namoyish etilmoqda.

Keyingi yillarda oliy ta'lim muassasasida xorijiy tillarni o'qitishda yangi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish masalasi ko'proq ko'tarilmoqda. Bu nafaqat yangi texnik vositalar, balki o'qitishning yangi shakl va usullari, o'quv jarayoniga yangicha yondashuvdir. Zamonaviy pedagogik amaliyotda turli xil o'qitish texnologiyalari qo'llaniladi, ular yordamida o'quvchilarning fanga qiziqishi keskin ortadi; o'quv ko'rsatkichlari va intellektual madaniyat darajasi ham oshadi. Tadqiqotning asosiy vazifalaridan biri har bir talabaning amaliy tilni egallashi uchun shart-sharoit yaratish, har bir o'quvchiga o'z faolligini, ijodkorligini ko'rsatishga imkon beradigan o'qitish usullarini tanlash, shuningdek, o'quvchining bilim faolligini faollashtirishdan iborat. chet tillarini o'rgatish jarayoni. Hamkorlikda o'qitish, loyiha metodologiyasi, yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, Internet resurslari kabi zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'qitishga shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirishga yordam beradi, bolalarning qobiliyatlarini hisobga olgan holda ta'limni individuallashtirish va differentsiallashtirishni ta'minlaydi.

Hozirda har bir sohada innovatsion texnologiyalardan va zamonaviy ilm-fan vositalaridan foydalanib kelinmoqda. Shu sababli, maktablarda ham o`quvchilarning ingliz tilini chuqur o`rganishlari va ularning til ko`nikmalarini oshirish uchun zamonaviy va innovatsion vositalardan, metodlardan, sinflar tizimida turli xil interaktiv o`yin va amaliy mashg`ulotlardan foydalanish zarur. O`quv jarayoniga innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi chet tillarni o`qitish jarayonida ta'lim mazmuni va metodlarini ehtiyojlar asosida takomillashtirilishi bilan uzviy bog`liqdir. Chet tillarini o`qitishning asosiy maqsadi maktab o`quvchilarining kommunikativ madaniyatini shakllantirish va

rivojlantirish, chet tilini amaliy jihatdan o`rgatishdir. Professor, amaliy tilshunos olim Azamat Akbarovning ta’kidlashicha, chet tilini o‘rganish «yaxshi taassurot qoldiradigan» tarjimai holga ega bo‘lish yoki sayohat qilishda qo‘l keladigan vositadan ham jiddiyroq ahamiyatga ega. U o`quvchilarni aqlliroq, tez qarorga keluvchi insonga aylantiradi va hatto suhbat olib borish qobiliyatlarini ham oshiradi. Psixologik tadqiqotlar ham chet tillarini o`rganish va so‘zlashish afzalliklarini namoyon etmoqda. O`qituvchining vazifasi har bir o`quvchi uchun sharoit yaratish, har bir o`quvchiga o`z faolligini, ijodiy qobiliyatini namoyish etish imkonini beradigan o`qitish usullarini tanlashdir.

XXI asrda zamonaviy ingliz tilini o`qitishning asosiy vazifasi nafaqat keng ma’lumot berish, balki o`sib borayotgan o`quvchining bilimini mustaqil ravishda egallashi, bilim sohasida doimo chuqurlashishga intilishi va ingliz tilini o`rganishga bo`lgan qiziqishini, ishtiyoqini oshirish maqsadida maktablarda o`quvchilarga zamonaviy metodikalar, yangi axborot texnologiyalardan va internet resurslari kabi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib dars o`tishdir.

Ayrim o‘qituvchilarning ingliz tili darslarida texnologiyani bilmasligi va foydalanmasligi o‘quvchilarning biroz zerikishiga olib keladi. Shuning uchun ham o‘quvchini qiziqtirish uchun darsda texnologiya va hech bo‘lmaganda kompyuterdan foydalanish o‘quvchining qiziqishini oshiradi. Zero, yoshi, qiziqishi, qobiliyati, darsni o‘zlashtirishiga qarab tayyorlangan o‘quv materiallari samarali bo‘ladi. Aksincha, biz o‘qituvchilar ushbu talablar asosida o‘quv materiallarini tanlamasak, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga murakkab so‘zlarni o‘z ichiga olgan video, qo‘shiq yoki matnlarni taqdim eta olmaymiz yoki multimediali kompyuterlarda ko‘rsatilsa.

O‘rta va yuqori sinf o‘quvchilariga yoki guruh o‘quvchilariga juda oddiy matnlarni ko‘rsatsak, o‘quvchilarning til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi asta-sekin so‘na boshlaydi va ular o‘rganishni to‘xtatadilar. Bu esa, o‘z navbatida, o‘quvchilarning ko‘z o‘ngida o‘qituvchining o‘z qadr-qimmatini yo‘qotishiga olib keladi. SHuning uchun asosiy vazifa faqat darsda texnologiyadan foydalanish emas, balki ularni o’z o’rnida qo’llashni ta’minlash va texnologiyadan foydalanish o’quvchilar bilimini oshirishga xizmat qiladi. Amaldagi CEFR imtixoniga ko‘ra, Xalqaro Yevropa ta’lim standartlari talablari to‘rttadan iborat: (yozuv, o‘qish, tinglash, gapirish) ingliz tilida yozish, o‘qish, tinglash va gapirish bo‘yicha kompetensiyalar Dars jarayonida texnologiyadan samarali va o‘rinli foydalanish muhim ahamiyatga ega. Masalan, audio matnlarni tinglash qoidalari mavjud. Muhimi, o‘quvchi tinglayotgan audio materialni tushunishi va uni qiyinchiliksiz tahlil qila olishi asosiy maqsad bo‘lishi kerak. Buning uchun, birinchi navbatda, audio materialning chiqishi uchun muhitni tayyorlang, shunda tinglovchilar tinch muhitga ega bo'ladilar va o'qituvchi ovoz sifatiga va kuchaytirgichlarning ishlashiga e'tibor beradi, oldin va keyin mashq qiladi. audio. o‘quvchilar esa tarqatma materiallar bilan ta’minlanishi kerak. Barcha talablar bajarilgandan so'ng, o'qituvchi audio materialni o'quvchilarga uzatishni boshlashi mumkin.

Shuningdek, video-filmlar, videofilmlarni ko'rsatish va muhokama qilish, o'qitish va o'qitish jarayonida multimedia vositalaridan foydalangan holda suhbat va yozishda texnologiyadan foydalangan holda juda samarali usuldir. O‘quvchilarga tanish bo‘lgan lug‘atdan foydalanish, yangi va murakkab so‘zlar ishtirok etsa, so‘zlarni tushuntirish, yangi so‘zlar bilan bog‘liq mashqlar bajarilgandan so‘ng video ko‘rsatish mumkin. Pedagogika fani va amaliyotida pedagogik texnologiyaning turli talqinlari mavjudligini aniqlash mumkin. Va bu tasodifiy emas, chunki har bir muallif ma'lum bir kontseptual yondashuvdan kelib chiqqan holda texnologiyaning mohiyatini tushunishga kirishadi. Biroq, barcha mavjud pozitsiyalar quyidagi jihatlar bilan tavsiflanadi:

1. harakatlar va operatsiyalarning texnologik zanjiri aniq kutilgan natija shakliga ega bo'lgan maqsadlarga muvofiq qat'iy tartibga solinadi;

2. texnologiyaning ishlashi o'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro bog'liq faoliyatini individuallashtirish va farqlash, insoniy va texnik imkoniyatlarni optimallashtirish, dialog va muloqotdan foydalanish tamoyillarini hisobga olgan holda shartnoma asosida amalga oshirishni nazarda tutadi;

3. pedagogik texnologiya elementlarini bosqichma-bosqich rejalashtirish va izchil amalga oshirish, bir tomondan, har qanday o'qituvchi tomonidan takrorlanishi va ikkinchi tomondan, barcha talabalar tomonidan rejalashtirilgan natijalarga erishishni kafolatlashi kerak.

Shunday qilib, zamonaviy pedagogik texnologiyalar o‘quv dasturini amalga oshiradi va oliy ta’lim institutida o‘quv jarayonini tashkil etishning ilmiy yondashuvlarini nazarda tutgan holda yangicha tarzda qo‘yilgan didaktik maqsadlarga erishishni ta’minlaydi. Ular talabalarga taqdim etilayotgan ta'lim xizmatlari ko'lamini kengaytiradi, ta'limning yangi shakllari, usullari va vositalarini o'zgartiradi va taqdim etadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish oliy ta'limni rivojlantirishning eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri bo'lib, u o'quv jarayonini yanada chuqurroq individuallashtirish va intensivlashtirishga, bo'lajak mutaxassis shaxsini shakllantirish va o'z-o'zini namoyon qilishga yordam beradi.

Darslarda axborot texnologiyalari elementlaridan foydalanish maktab o‘quvchilarida turli ma’lumotlar bilan ishlash qobiliyatini, unga nisbatan tanqidiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi, mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi, darslarni axborot va hissiy jihatdan to‘yintirishni ta’minlaydi, o‘quvchilarning fanga qiziqishini oshiradi, ijodiy faolligini oshiradi. atrofdagi hayot bilan potentsial. O‘qitishning ikkinchi va uchinchi bosqichlarida kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish talabalarga davlat standarti talablari asosida ingliz tilidan yakuniy attestatsiyaga puxta tayyorgarlik ko‘rish imkonini beradi. O'qitish jarayonida: talabalar nafaqat oldingi mashg'ulot davrida olgan bilimlarini yaxshilaydilar, balki standart vaziyatlarda (monologik so'zlar doirasida) chet tilining amaliy bilimlarini hisobga olgan holda so'z boyligini kengaytiradilar. Hozirgi vaqtda o'quv jarayonini tashkil etishning turli shakllari qo'llaniladi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu jarayonni amalga oshirish uchun tinch, sokin muhit, qulay va toza sinf, jamoat tomoshasiga kirish va kuchaytirgichlarning ishlashini tekshirish muhimdir. Videoni chiqarishdan oldin o‘quvchilar ko‘rsatilishi kerak bo‘lgan video mavzusini muhokama qilishi, savol-javob o‘tkazishi va o‘quvchilarning mavzuga haqiqatan ham qiziqishiga ishonch hosil qilgandan so‘ng video materialni chiqarishi kerak. Videorolik tugagach, o`qituvchi o`quvchilarning videofilm haqidagi fikrlari bilan qiziqadi va mashqlar bajaradi. Bu bosqichlar to‘g‘ri bajarilsa, bu darslar o‘quvchilarning qiziqishi va bilimini oshirishga xizmat qilishi shubhasiz. Binobarin, darslarimizni yanada boyitish, o‘quvchilarni qiziqtirish, bilimini boyitishda zamonaviy texnologiyalarning o‘rni beqiyos.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. PQ 1875 “Chet tillarni o`rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida” gi qaror. “Xalq so`zi” gazetasi, 2-bet. 2012 yil,10-dekabr

2. Boswood, T. (1997). New Ways of Using Computers in Language Teaching (New Ways in Tesol Series II), California: Teachers of English to Speakers of Other Languages. 3.Harmer, J. (2007). How to teach English, Harlow, Essex: Pearson-Longman

3. Warschauer, M., & Kern, K. (2000). Network-based Language Teaching: Concepts and Practice, Cambridge: Cambridge University Press.

UDC 378

THE PROGRAM TO ORGANIZE EXPERIMENTAL TESTS ON THE APPLICATION OF A CONTENT-BASED APPROACH THROUGH THE ENGLISH LANGUAGE

D.F.Abulkhayirov, teacher, Samarkand Institute of Economics and Service, Samarkand

Annotatsiya. *Ushbu maqola eksperimental ishlarga asoslangan ilmiy tadqiqot bilan qo'llab-quvvatlanadi va uning asosiy talablari natijalarning ishonchliligi, bashorat qilinishi va to'liqligidir. Ushbu g'oyaning asosiy tamoyili shundaki, biror narsa rasmiy ravishda qabul qilinadimi yoki yo'qligini baholashga qaratilgan tadqiqot uni haqiqatan ham turli xil ilovalarda sinab ko'rishdir. Shuni ta'kidlash kerakki, shaxs faoliyatini o'rganadigan ilmiy fanlarda negadir bu dissertatsiya ancha katta ahamiyatga ega.*

Kalit so'zlar: *o'rganish jarayonida o'quv jarayonini maqsadli kuzatish, tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiy manbalarni o'rganish va tahlil qilish, so'roqdan foydalanilgan; eksperimental va test, tajriba sinovlari natijalarini qiyosiy tahlil qilish, umumlashtirish va matematik va statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.*

Аннотация. *Данная статья снабжена научным исследованием, основанным на экспериментальных работах, и ее основными требованиями являются достоверность,*

предсказуемость и полнота результатов. Центральный принцип этой идеи заключается в том, что исследование, направленное на оценку того, будет ли что-то официально принято, на самом деле заключается в проверке этого в различных приложениях. Следует отметить, что в научных дисциплинах, изучающих деятельность индивида, эта диссертация почему-то имеет гораздо большее значение.

Ключевые слова: *в ходе исследования использовались целенаправленное наблюдение за учебным процессом, изучение и анализ литературных источников по теме исследования, анкетирование; использовались экспериментально-тестовый, сравнительный анализ результатов опытно-экспериментальных испытаний, обобщение и методы математико-статистического анализа.*

Abstract. *This article is provided with scientific research predicated on experimental works, and its basic requirements are the authenticity, predictability, and comprehensiveness of its outcomes. This idea's central tenet is that the study aimed to assess if something will be officially accepted is really to test this one in different applications. In the scientific disciplines that instruct about an individual's activities, it must be noted that somehow this dissertation is much more crucial.*

Keywords: *During the course of the study, targeted observation of the educational process, study, and analysis of literature sources on the topic of the study, and questionnaire were used; experimental-test, comparative analysis of experimental-test results, generalization, and methods of mathematical-statistical analysis were used.*

Scientific research is predicated on experimental works, and its basic requirements are the authenticity, predictability, and comprehensiveness of its outcomes. This idea's central tenet is that the study aimed to assess if something will be officially accepted is really to test this one in different applications. In the scientific disciplines that instruct about an individual's activities, it must be noted that somehow this dissertation is much more crucial. In order to obtain the performance of both the experimental group and control group, the researcher is required to construct an experimental project that will produce the required results and set a clear goal. Teachers should also be able to identify the most significant study results from the point of view of the topic.

The researcher's special program is being used to set out experimental training in accordance with the research process as described above. Experimental work is carried out based on the scientific sources investigated on the thesis, project and the researcher's scientific experience, and even the relevant program.

Here are the goals of the experiment:

- First, teach students to follow the process used in their native language in their chosen field by addressing the fact that the legal term used in their native language is one of the main types of activities.

- Second, to enable students to master the terms related to legal activities in English using the Content-based method; (content-based method means the acquisition of knowledge in the process of communication, the use of the experience gained in a particular field during communication).

- Third, to develop and perform in the student audience a series of special exercises that provide an understanding of what is being read based on modern teaching methods.

It is clear from the targets that in the method of experimentation, students are engaged in the use of terms in a speech on subjects inside the curriculum, and, as a result, get maintenance of new and beneficial statistics in their chosen subject. (What we imply is that there is talk about of giving or receiving additional scientific information in English through the information on the specialization that students have obtained so some distance in their native language).

At the equal time, throughout the experimental process, we got acquainted with the scientific sources posted in our country and overseas on the subject of the dissertation. In particular, from the commencing of the twentieth century to the seventies, it was indispensable to cautiously find out about the works committed to the educating of overseas language and the richness of speaking ability. In addition, the works of fundamental Methodists in the West and Russia had been study at the degree of scientific discovery. The work of a wide variety of Methodists at the degree of modern contribution

to the academic technological know-how of teaching English in our country also contributed to the insurance of the topic. It is acknowledged that in almost all scientific research in the social sciences and humanities when planning experimental work, the creator places ahead a certain scientific hypothesis.

We would like to make the following scientific hypothesis on the chosen topic: in order to efficiently arrange the procedure of educating and gaining knowledge of in terms of talking and increasing the richness of speech, first of all, the most important class of attention is on the desire of method. This potential law students are inspired to use overseas language terms that will assist them in their future endeavors. Because the content material of the terms in the language being studied in addition enriches the content of the texts examined or listened to in the native language, it serves as an essential step in the education of a mature specialist.

A wide variety of new applied sciences had to be utilized to test this scientific hypothesis in practice. In particular, 1) first and second-year students have been cautioned to repeat the content material of law terms used in the native language in a foreign language. 2) in the third and fourth years, provides new and useful facts 3) a number of tasks and duties for speech and speech enrichment in the way of awareness of the scientific speculation had been given in a new structure 4) We determined the accuracy of the scientific hypothesis with the aid of evaluating the outcomes carried out through CG and EG students.

Organizational issues of experimental work: the distinction between experiment and ordinary academic experience, in particular designed training workout routines and assignments for a unique program, research material encouraged by the researcher (texts in our case), and checking out of cutting-edge educating technologies through the experimenter (researcher) pursues its goal. This capability that sure modifications need to be made to the textbooks and applications added at the educational institution.

First, the experimental region used to be identified. Experimental work to take a look at the effectiveness of the proposed workout routines and the technological know-how of their implementation and overall performance with students of 2-3 stages of the "Methods of teaching English" of the faculty head of the chair "Department of Foreign Languages" Toshmatov Oybek from Tashkent State Law University, Alimova Mamuraxon a head of Department of Foreign Languages with her college students of 2-3 stages from Namangan State University Faculty of Law, Hushmuradova Shahnoza Ph.D. teacher of Samarkand State University, Faculty of Law, majoring in Foreign Languages chair provided some experiments with her students of 2-3 stages. In addition to the experimental groups and the control, groups carried out lessons with students of the second and fourth levels using common teaching methods. The students of such groups carried out the speech exercises of the terms given in the existing curriculum and manuals besides the additions given through the dissertation in EG. (The amounts of EG and CG are given below). Thus, in three universities of the Republic of Uzbekistan, the method of Content-based instruction used be examined to enrich speech the usage of speech in groups of specialists educated in the law. We will focus on the content of the training conducted in EG and CG.

At this point, we would like to make a brief comment on the fact that the pilot program of educating English is designed for higher levels. The point is that in the first and second stages of higher education, Legal texts published in the country of the place the language is studied are no longer covered in the curriculum requirements for a specific region of speech and act of speaking. Due to the lack of linguistic resources (lexical, grammatical, analyzing techniques) of students in the first and second stages, the terms of law in our country are not taught adequately in English.

The methodology, formed to a certain extent, permits to study texts published in English-speaking countries from the third level and following them up to the language level. So, in the second and third stages, students are taught to examine a text that is no longer relevant to the field, however covers nearby gaining knowledge of information. In addition, in the second and third stages, they get hold of know-how of neighborhood social or legal information in their native language only in their native language, extra precisely, specific exercises to improve the field knowledge discovered in the native language, a technique no longer repeated in English classes.

If the third stage included no longer only theoretical knowledge of the distinctiveness in the native language, but in addition, a foreign language is studied as a semester at the level of the requirements of the educational program, there would be an opportunity to enhance the language competencies of authorities in the area and make decisions in future legal processes. Determining the effectiveness of= language education in the second stage, we observed it fundamental to conduct remaining (confirmatory) experimental classes to determine which level of improvement and enhancement of speech fluency competence in the third stage.

From what has been said, it is clear that we are expressing our opinion on teaching a foreign language (English) to specialists in law faculties. As mentioned above, we have made the methodology of instructing foreign languages to students of law faculties the object of research.

When it comes to teaching foreign languages in law faculties, consisting of English textual content reading, we need to preserve in thought the educating and gaining knowledge of specific terminological lexical units, as in different faculties. Because the foremost part of field texts intended for studying in a foreign language consists of terms. (Commonly used lexical devices are intensively taught and studied in the period up to the third stage).

During the experimental training, methodological handouts for EG were selected in accordance with the theoretically based totally standards and taking into account the difficulties encountered in the perception of the field texts. The training in the experimental groups had been based on content-based instruction and criminal texts in the field of law: "Consumer rights", "Property rights", "Juvenile delinquency" and others. Experimental training used to be carried out in the context of gaining knowledge of a foreign language, in accordance with the requirements of the curriculum. We observed that the annual training hours allocated to the areas selected for the experiment differed to some extent. It is additionally possible that the measurement of class hours may additionally differ depending on the nature of the High Ministry of Education direction.

The experiment was organized in EG and CG as follows: in EG, a particularly designed program used to be developed through the dissertation, and in CG, traditional training had been conducted. Thus, the instructions in EG were committed to teaching English speaking with the assistance of in particular selected educational material, instructional assignments, and specific exercises to find out about them. It is stated that in all non-formal higher training institutions CG carried out training on the material of teaching aids aimed at educating the specialization of felony sciences.

Experimental stages	Objectives	Tasks to be set
Founder stage (2019/2020)	knowledge of teachers' attitudes to Legal English teaching and learning (critical thinking)	- - study of educational normative documents for non-formal higher education; - - Critical analysis of current teaching materials; - - to determine the level of motivation of teachers to explain the legal process in English using the questionnaire; - Make necessary changes to the requirements for teaching speaking and vocabulary competencies
The shaping phase (2020/2021)	to develop the competence to teach legal terms in Legal English.	- - Introduction to the experimental teaching material; - - Exercises to prevent potential difficulties in the text; - - Motivation classes to teach English; - - control the interpretation of legal terms used in the text read; - Critical analysis of the content of terms in English.
Confirmation (final) stage (2021/2022)	determine the effectiveness of the recommended exercise series	- to tell the content of legal terms in a text; -use of terms related to field of law in the text; - Comparative analysis of speech skills of NG and TG students; - Comparison of speaking skills of TG students; - General analysis of the results of experimental work; -To determine the level of improvement of speech competence of TG students.

After defining the goals and objectives of the experimental work, we present the quantitative indicators of students involved in this event.

Each higher education institution was composed of one EG and one CG from stages 2-3. The total number of respondents is EG - 186, CG - 175, EG - 45 students from Tashkent State of Law University CG - 44 students, EG from Namangan State University - 49, CG - 46, TG from Samarkand State University 46 students. The number of students involved in the experimental work was sufficient, ensuring reliability.

No	Educational institutions	Total number of students	Experimental group		Control group	
			II grade EG1	III grade EG2	II grade CG1	III grade CG2
1	Tashkent State La6w University	62	15	20	20	11
2	Namangan State University	62	15	24	20	12
3	Samarkand State University	61	21	20	20	20
	Жами	185	51	64	60	43

Particular attention was paid to the quantitative indicators of four university students involved in the experimental work. The reason for this is to achieve the reliability of the results of experimental work.

The effectiveness of experimental work is determined by the degree to which students acquire the necessary and new information for themselves in the process of speaking.

Students were asked questions about texts and assignments on teaching legal English in current textbooks. With the help of these questionnaires, preliminary results were obtained on the current state of teaching textbooks in non-formal higher education. In the program for non-formal higher education, students must read texts that reflect the culture of the country in which the language is studied, and receive from them the necessary and new information. These shortcomings in the learning process weaken students' interest in language. Now, we will focus on level of interest of EG and CG students in English, the analysis of the survey responses aimed at determining the state of foreign language proficiency in non-formal higher education.

According to a survey of students, most of them are interested in studying law in English and want to study, but it was found that students' motivation in this field is not expected due to the lack of methods in the current textbooks. Moreover, the difficulties that are likely to be encountered in the speaking process have not been (unfortunately) specifically investigated in advance.

Extracurricular activities included reading legal information in a foreign language, using it in conversation, and teaching comprehension. In particular, as an independent study, each student was given a text and assignments for the terms. Separate instructions were also included in the terms in the text and assignments. The instruction consisted of brief comments on the understanding of lexical and communicative competencies, and the need to use it while working on terms in legal texts. The tasks provided were aimed at forming and developing students' skills in applying and understanding legal information.

Thus, in the program part of the experiment, the experimental field, the list of teachers participating in the experiment, the hours allocated to English in the curriculum, the experimental stages, the quantitative indicators of students participating in the experiment and the questionnaire organizational issues such as a brief analysis are covered in this paragraph.

REFERENCES:

1. Fedotova I.G., Tolstopyatenko G.P. Legal concepts and categories in English. Dictionary. - Dubna: Phoenix, 2008. – 360p.

2. Galenko I.G. Word-building nests in the linguistic terminology of Russian language // Actual problems of Russian word formation. - Tashkent, 1982.

3. Garner B. A. Legal Writing in Plain English. Second ed. A Text with Exercises. Chicago–L.: The University of Chicago Press, 2013. - 456 p.

4. Golovin B.N., Kobrin Z.Yu. Linguistic foundations of the doctrine of terms: textbook. manual for philol. specialist. universities. - M .: "Higher", 1987. – 104 p.

5. Golovin B.N. On some proofs of the terminology of word combinations // Lexicon. Terminology. Styles: Inter University.Sat.– "Gorky", 1973. - Issue. 2. - 57-65 pages.

6. Gonzalez, D. G., Vasquez, V. F., & Mikkelson, H. Fundamentals of Court Interpretation: Theory, Policy and Practice . Durham, NC: Carolina Academic Press.1991,- 16p.

7. Grabe, W., and Stoller F. L. A six-T's approach to content-based instruction. Donna M. Brinton and Margaret A. Snow (eds.) *Content-based classroom: Perspectives on integrating language and content*. New York: Longman, 1997.- 78- 94 pages.

UDC 372.8

STRATEGIES AND TECHNIQUES FOR FOSTERING ORAL COMMUNICATION SKILLS OF STUDENTS OF ECONOMIC UNIVERSITIES

G.Ya.Akhmedova, teacher, Samarkand branch of Tashkent State University of Economics, Samarkand

Annotatsiya. *Bilimlar almashinuvi va xalqaro raqobat kuchayib borayotganligi sababli, bugungi kunda iqtisod fakulteti bitiruvchilari uchun og'zaki muloqot ko'nikmalari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shunday qilib, og'zaki muloqot ta'lim standartlariga javob berish uchun juda muhim va odatda bitiruvchilar uchun eng muhim bandlik qobiliyatlaridan biri hisoblanadi. Topilmalarga ko'ra, bitiruvchilar va ish beruvchilar o'qishni tugatgandan so'ng og'zaki muloqot qobiliyatlarini qanday baholashlarida farqlar mavjud. Ushbu maqolada iqtisod darslarida talabalarning og'zaki muloqot ko'nikmalarini oshirish usullari va yondashuvlari muhokama qilinadi.*

Kalit so'zlar: *ko'nikmalar, suhbat, og'zaki muloqot, ko'nikmalarni rivojlantirish, ta'lim, strategiyalar, usullar.*

Аннотация. *В связи с растущим обменом знаниями и международным соперничеством навыки устной коммуникации становятся все более важными для современных выпускников экономических вузов. Таким образом, устное общение имеет решающее значение для соблюдения стандартов обучения и обычно считается одним из наиболее важных навыков выпускников для трудоустройства. Согласно полученным данным, существуют различия в том, как выпускники и работодатели оценивают свои способности устного общения после окончания учебы. В этой статье обсуждаются методы и подходы для улучшения навыков устного общения учащихся на уроках экономики.*

Ключевые слова: *навыки, разговор, устная общение, развитие навыков, воспитание, стратегии, методы.*

Abstract. *Due to growing knowledge exchange and international rivalry, oral communication abilities are becoming more and more important for today's economic university graduates. Oral communication is therefore crucial for upholding learning standards and is generally listed as one of the most crucial graduate employability skills. According to the findings, there are differences in how graduates and employers see their post-graduation oral communication abilities. This article discusses techniques and approaches for enhancing students' oral communication abilities in economics classrooms.*

Keywords: *skills, speaking, oral communication, skill development, foster, strategies, techniques.*

Introduction. The communication business has lately seen a number of dramatic developments as a result of globalization. In this sense, speaking the same language is essential for interacting with individuals throughout the globe. English is extensively utilized in practically all sectors since it is a language that is spoken all over the world. It is increasingly commonplace to speak the language of commerce, employment, banking, education, entertainment, the internet, travel and tourism, software, information technology, science, and other disciplines. Learning English is more important than ever whether you want to access the internet, conduct international commerce, produce scientific research articles, or land better employment.

Given that English is now widely spoken around the world, it is essential for developing interactions among people everywhere. People must study English since it is a universal language. People in the current world should become fluent in all elements of the English language in order to enhance their interpersonal connections in a range of circumstances. Students should study all the

English language abilities while also understanding the value of communication skills. For students studying the language in economics universities, this is especially true.

Literature Review. In studies of communication in economic universities, the significance of both oral and written communication abilities has been generally recognized. Numerous academic and informal studies have thus far tended to utilize sweeping phrases like "communication skills." Employers in industrialized countries consider communication to be one of the most crucial skill sets for fresh graduates, and it often dominates skill frameworks in this respect. The skill set has to be broad since today's businesses expect graduates to interact digitally, in person, informally, and officially, on a national and worldwide level, with a multi-cultural and multi-generational audience. Despite having the skill set that is most in need, some think that fresh graduates lack it the most.

Communication typically takes the lead when it comes to desirable skills and qualities, both generally and in the context of the workplace. Academics assert that effective communication is essential for success in the classroom, in the workplace Du-Babcock and in organizations Holtzman. Andrews Russell According to current studies on graduate employability, communication skills are crucial for effective job performance and organizational achievement both in less developed regions and in business [2].

Universities shouldn't be primarily responsible for assisting students in developing "workplace-ready" communication skills, according to several academics and business executives. They claim that encouraging the development of contextualized and discourse-specific communication competences is the duty of both firms hiring recent graduates and graduates themselves. After all, a range of contributing elements, including age and maturity, familiarity with and duration of exposure to a certain discourse community, play a role in the development of such competences. All of these issues are beyond the scope of even the most comprehensive academic education.

Methodology

Various Activities for improving Oral Communication Skills

To help students who are learning English as a second language enhance their oral communication abilities, English teachers should apply a number of cutting-edge ideas and approaches in the classrooms. When introducing new activities to kids, teachers should always use materials that spark their interest. The fact that the activities fit the kids' needs and interests will make them desirable to them. In addition, the students' active engagement helps them learn and makes them enthusiastic classroom participants. This is especially true of their oral communication skills. Therefore, in order for the students to significantly enhance their oral communication abilities, ESL/EFL teachers should carefully select the resources and apply them by motivating the students to learn about the issue.

Teachers are urged to employ a variety of inventive ideas, procedures, and approaches that include the students more in the activities in order to help economic university students' oral communication abilities. They include: guessing games, oral presentations, icebreakers, discussions, brainstorming, role-plays, project-based learning, table conversations, and more. In order to help teachers enhance their students' oral communication abilities in the classroom, various beneficial ideas, techniques, and approaches have been presented.

Icebreaking activities English teachers should employ icebreaker activities to begin their courses or at the beginning of a term or semester when the students don't know each other well. At this stage, icebreaker and introduction exercises may significantly alter the dynamics of the classes. Ice breakers are the most entertaining activities that may be used to start a training session, form a team, or acquire a new skill. As a result, they efficiently encourage ESL/EFL students and focus their attention on the subject being covered. When these activities are thoughtfully planned and skillfully led by the instructors in the classes, they may really help things get off to a wonderful start.

Brainstorming Sessions: Brainstorming sessions are one of the best teaching methods for teachers to improve speaking abilities when promoting oral communication skills. The ELLs think independently and attempt to produce as many points as they can because they are free to express their opinions about the subject matter. As the advanced students participate very actively and produce more sentences, the teachers should now pay special attention to the below average students

and encourage them to participate in the discussions. It is crucial for teachers to actively engage students who perform below average in these brainstorming sessions because this is their chance to contribute some ideas.

Table Talk Activity: Table Talk is a wholly conversation-based educational activity that helps teachers foster a favorable and conducive conversational environment by keeping the students actively involved in oral communication activities in the classroom. Additionally, these exercises give the students more self-assurance in their ability to respond to questions and improve the clarity of their spoken language. These exercises undoubtedly give students the chance to hone their oral communication abilities without worrying about performing in front of others. Additionally, these activities encourage students to invest their valuable time in creating dialogues, realistic conversations, self-evaluations, and respect for others. These exercises give each student the chance to practice their various speaking activities with their peers while also assisting them in developing their speaking confidence.

Project-based Learning: Project-based learning PBL involves students in a given project for an extended period of time to allow them to analyze it critically and respond to a more complex problem, challenge, or question. Through PBL, students recognize problems in the real world and work to find solutions. The teachers assist the students in locating real-world issues through research and motivate them to find the best solution by drawing on the available data to substantiate their arguments. The students then present their projects using the set of 21st-century tools available through a multimedia approach. In PBL, students cooperate with one another to successfully complete their task by exchanging ideas. PBL also facilitates the teachers of English communicate and give feedback to the learners of those who work in a group or team.

Role plays: One of the best classroom activities for helping ESL/EFL students improve their oral communication skills is roleplaying. Through role plays, students can sharpen their speaking skills, gain confidence and fluency, assess their progress, and apply what they've learned. Gestures, coded messages, cue cards, and verbal instructions are all common ways to set the scene when using role plays in ESL/EFL classrooms. Teachers are advised to introduce role plays in accordance with the circumstance or context because there are numerous types, including conflict role plays, cooperative role plays, information gap role plays, and task-based role plays. Since role plays greatly enhance the oral communication abilities of ESL/EFL students, teachers should always promote always in participating these activities.

Group discussions: Group discussions are a powerful tool for cooperative learning because they give students a chance to express their thoughts, ideas, and opinions while also improving their oral communication abilities in the classroom. The different group discussion formats—from very informal to highly structured and difficult—are used by English teachers. Since group discussions are frequently used during interviews and selection processes in the current job market, ESL/EFL students pay more attention to these classroom activities that take the form of group discussions in a collaborative approach to greatly enhance their oral communication skills.

Debates: The activities that consistently engage ESL/EFL learners in a variety of linguistic and cognitive ways are debates. The students' speaking, listening, and writing abilities will all improve through participation in debates. Even though debates can be difficult for ESL/EFL students in the classroom, they can greatly enhance their debating abilities that support their oral communication skills. Therefore, teachers should recognize the value of debates in English classes, choose subjects that will pique students' interests, and motivate them to participate in activities that will greatly enhance their oral communication skills.

Oral Presentations: Once the students are proficient in speaking, oral presentations are conducted in ESL/EFL classrooms. Oral presentations are introduced in the classrooms once English teachers have gained confidence in their students' ability to express their ideas freely and continuously. Additionally, oral presentations especially group presentations allow students to participate in cooperative or collaborative tasks that call for them to use the English language to develop their ideas and thoughts in order to persuade the audience. The most crucial skills for the

overall development of the learners' personalities and oral communication abilities are oral presentation skills because they encourage the use of language for social and academic purposes.

Conclusion. English teachers need to emphasize oral communication skills more in their courses since they are essential for the advancement of ESL/EFL students' future professions. To help students develop their oral communication skills, teachers should constantly aim to incorporate some interesting activities that get them more interested in their study. Teachers should select the materials based on their needs and interests in order to inspire students and involve them in class activities with the utmost care and personal interest. In order to completely engage the students in the speaking assignments and ensure that they complete them effectively, the teachers need constantly use fresh tactics in their classes. In order for students to expand their knowledge by exchanging ideas with other group members and greatly improve their oral communication skills, teachers should always engage their students in group activities through the use of collaborative or cooperative learning methodologies.

REFERENCES:

1. Andrews, G., & Russell, M. (2012). Employability skills development: Strategy, evaluation and impact. Education + Training, 2(1), 33-44.

2. Conrad, D., & Newberry, R. (2011). 24 Business Communication Skills: Attitudes of Human Resource Managers versus Business Educators. American Communication Journal, 13(1), 4-23.

3. Du-Babcock, B. (2006). Teaching business communication: Past, present, and future. Journal of Business Communication, 43 (3), 253-264.

4. Duke (2011). Meeting the upgrading challenge: dynamic workforces for diversified economies.

5. Elizabeth Gray & Niki Murray (2011): 'A distinguishing factor': Oral Communication Skills in New Accountancy Graduates, Accounting Education, 20:3, 275-294.

6. Ford, L. (2009) Improving training transfer, Industrial and Commercial Training, 41(2), pp. 92–96.

7. Holtzman, D., & Kraft, E. (2011). Skills needed in the 21st century workplace: A comparison of feedback from undergraduate business alumni and employers with a national study. Business Education & Accreditation, 3(1), 61-76.

8. Rosenberg, S., Heimler, R., & Morote, E. (2012). Basic employability skills: a triangular design approach. Education + Training, 54(1), 7-20.

9. Parupalli S. R. (2019). Enhancing effective oral communication skills among the EFL/ESL learners. Alford Council of International English & Literature Journal (ACIELJ), Vol-2, Issue-2, pp. 62-74.

UO'K 781

MUSIQA FANINI O'QITISHDA PEDAGOG MAHORATI

B.Q. Allaniyazov, katta o'qituvchi, O'zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali, Nukus

Annotatsiya. *Mazkur maqolada musiqa fanini o'qitishda pedagog mahorati va uning ahamiyati haqida fikr-mulohaza yuritiladi. Musiqa fani – ijodiy fan hisoblanib, uni o'qitish jarayonida pedagogdan alohida kasbiy tajriba, ko'nima va mahorat talab etiladi. Shu nuqtai nazardan talabaga musiqiy bilim berishda nazariy mashg'ulotlar bilan amaliy mashg'ulotlarning ham o'rni beqiyosdir.*

Kalit so'zlar: *musiqa fani, pedagog mahorati, nazariya, amaliyot, ta'lim, tarbiya, o'qituvchi, talaba, salohiyat.*

Аннотация. *В этой статье рассматривается мастерство педагога и его значение в преподавании музыки. Музыковедение считается творческой дисциплиной и требует от педагога особого мастерства в процессе ее преподавания. С этой точки зрения неоценима роль как теоретических занятий, так и практических занятий в предоставлении студенту музыкального образования.*

Ключевые слова: *музыкальная наука, мастерство педагога, теория, практика, образование, воспитание, учитель, ученик, потенциал.*

Abstract. *This article provides feedback on pedagogical skills and its importance in teaching music. Music science is a Creative Science, in the process of its teaching a special skill is required from a pedagogue. From this point of view, the role of practical classes with theoretical classes in the provision of musical knowledge to a student is also immeasurable.*

Keywords: *music science, pedagogical skills, theory, practice, education, upbringing, teacher, student, potential.*

Musiqa fanini o‘qitishda birinchi navbatda pedagogning mahorati bosh omil hisoblanadi. Chunki, boshqa fanlardan farqli ravishda musiqa fanini o‘qitishda nazariya bilan amaliyotni birdek olib borish zarur. Masalan, talabaga nazariy bilimlarni o‘rgatib, uni fortepianoning oldiga oborib qo‘ysangiz, u mukammal chalib keta olmaydi. Unga yillar davomida nazariy bilimlar bilan teng amaliy mashg‘ulotlarni o‘rgatib borish joizdir. Bunda bosh unsur pedagogning talaba bilan amaliy ishlashish mahorati hisoblanadi. Musiqa o‘qituvchisi musiqa darslarida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishi asosida dars jarayonida o‘zining ta’sirchan so‘zi, ifodali va musiqaning jonli ijrosi, yangrayotgan musiqaga nisbatan mutanosib imo-ishoralar, xatti-harakatlar ko‘rgazmali qurollar, savol-javoblar orqali musiyqiy ta’lim ta’sirida o‘quvchilar qalbida hosil bo‘layotgan hissiy kechinmalar va musiqiy taassurotlarni yanada chuqurlashuviga, ongli idrok etishga ko‘maklashib boradi.

Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, har bir musiqa darsi bu bir qarashda ko‘z ilg‘amas o‘ziga xos mo‘jizadir. Unda o‘qituvchining iqtidori, yangi pedagogik texnologiyalar asosida bilim berishi, tinimsiz mehnat natijasida, professional pedagogik mahorat va fanga nisbatan talab darajasi o‘z aksini topadi. Musiqa ta’limi taraqqiyoti uchun qo‘llanilishi talab qilinayotgan yangi pedagogik texnologiyalarning yana bir muhim tomonlaridan biri bu musiqa faninning o‘quv maqsadlarini aniq belgilashdan iboratdir[1:81].

Musiqa fanini o‘qitishda pedagog mahoratining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shuki u o‘z darsining asosiy maqsadini belgilab olgan holda darsga tashkilotchilik mahorati bilan ham yondoshmog‘i zarur. Musiqa faqat talabani kasbiy jihatdan tarbiyalash emas, uning ma’naviy olamini ham tarbiyalash bilan bog‘liq jarayonlarda o‘z aksini topadi.

Musiqa tarbiyasi nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri bo‘lib, inson atirofidagi go‘zal narsalarni to‘g‘ri idrok etishga va qadrlashga o‘rgatadi. Musiqa – inson ruhiyatiga kuchli ta’sir ko‘rsatish imkoniga ega bo‘lib, uni nafosat olamiga olib kiradi. Musiqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi va unga ma’naviy ozuqa beradi[2:9]. Tashqi olamni o‘zgartirish bilan insonning o‘zi ham o‘zgarib bordi, bunda faqat u jismoniy jihatdangina taraqqiy qilib qolmay, balki ma’naviy jihatdan ham taraqqiy etdi. Insonning ma’naviy qobiliyati avvalo, estetik hissi asta-sekin taraqqiy etib, tarbiyalanib bordi.

Musiqa san’ati hayotni bilish va odamlarni tarbiyalashning qudratli vositasidir. Ammo uning bilish va tarbiyalashdagi xizmat darajasi kishiga estetik, badiiy jihatdan ta’sir etish kuchiga bog‘liqdir. Musiqa san’ati kishi faoliyatining muayyan bir turi bo‘lib, uning vazifasi jamiyatga estetik xizmat ko‘rsatishdir. Shu ma’noda uning o‘rnini hech bir narsa bosa olmaydi. Musiqa ijtimoiy hayotning hamma sohalarida faol sur’atda o‘rin oladi. Shunday qilib, voqelikka bo‘lgan estetik munosabat bastakorlar tomonidan yaratilgan musiqa asarlarida ham, mehnatga, maishiy hayotga va odamlar munosabatiga olib kiriladigan badiiy asoslarda ham ifodalanadi. Musiqiy tarbiya haqida unga keng pedagogik ma’no bergan holda gapiriladigan bo‘lsa, ta’lim-tarbiya muassasalari tizimida amalga oshiriladigan butun o‘quv-tarbiya jarayonining biror maqsadga muvofiq oldindan qo‘yilgan holda tashkil etilishi tushiniladi.

Musiqa darsi mumkin qadar samarali o‘tishi uchun u puxta rejalashtirilgan, dramaturgiya jihatidan izchil qurilgan va ayniqsa, musiqa bilan yetarli darajada ta’minlangan bo‘lishi lozim. Musiqa asarining mazmunini tushinish tinglovchining umumiy madaniyatiga, shuningdek, uning maxsus tayyorgarlikka egaligiga bog‘liq bo‘lib, maxsus tayyorgarlik o‘z navbatida tinglovchi e’tiborining faollik darajasiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu narsa yaxshi ma’lumki, musiqadan tayyorgarligi bo‘lgan tinglovchilarning idroki boyroq bo‘ladi. Musiqani tushinadigan o‘quvchi badiiy didining yuksak darajasi bilan ajralib turadi. Musiqa shaklining o‘ziga xos tomonini, mazmunini, musiqaning rivojlanish tarixini tushinish asosida, tinglovchi sifatida katta tajribaga ega bo‘lish, musiqaviy-ijodiy faoliyat sohasida rivojlangan ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lish asosidagina musiqa asarini to‘laqonli idrok qilish mumkin[3:14].

Bunda o‘qituvchi talabaga har bir asarning tarixi, mazmun-mohiyati bilan birga uning chalinish usullarini ham o‘rgatib boradi. Bunda pedagog shoshma-shosharlikka yo‘l qo‘ymasligi, o‘z mahoratidan yuksak darajada foydalanishi kerak. Mazkur jarayonda o‘qituvchining kasbiy xususiyatlari ham alohida o‘rin egallaydi. O‘qituvchining kasbiy xususiyatlariga: o‘z kasbini,

bolalarni sevishi, ziyrakligi, hozirjavobligi, vazminligi, pedagogik nazokati, tasavvuri, qobiliyati, tashkilotchiligi, notiqlik madaniyati, chuqur va keng ilmiy saviyasi, kasbiy layoqatliligi, ma'naviy ehtiyoji va qiziqishi, intellekti, yangilikni anglay va qo'llay olishi, kasbiy ma'lumotni muntazam oshirishga nisbatan intilishi va boshqa fazilatlari kiradi. O'qituvchining kasbiy pedagogik tayyorgarligi shartli ravishda quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

1) o'qituvchining shaxsiy fazilatlar bo'yicha tayyorgarligi;
2) o'qituvchining ruhiy – psixologik tayyorgarligi;
3) o'qituvchining ijtimoiy – pedagogik va ilmiy – nazariy jihatdan tayyorgarligi;
4) o'qituvchining maxsus va ixtisoslikka oid uslubiy bilimlarni egallab borishi;

Pedagogik mahorat o'qituvchining shaxsiy va kasbiy sifatlarining yig'indisi bo'lib, o'qituvchi mahoratini shakllantirishni ta'minlovchi omillarni, pedagogik-psixologik, metodik bilimlarni doimiy egallab borishidir[4:14]. Hozirgi kunda internet olamida musiqa fanining barcha sohalariga oid innovatsion qo'llanmalar mavjud. Talabalar darsdan bo'sh vaqtida mazkur ishlanmalardan o'qituvchining maslahati asosida foydalanishlari mumkin. Shu bilan birga musiqa fani o'qituvchisining mahoratida darslarni inrefaol usullarda olib borish ham namoyon bo'lmog'i kerak.

Mahoratli pedagoglarning ham asosiy maqsadi tom ma'noda Yangi O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy sohalardagi taraqqiyotini belgilash, jahon hamjamiyati mamlakatlari ta'lim tizimi safidan munosib o'rin egallashga intilish yo'lidagi keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirishdir. Mahoratli pedagogning sifatli darsi orqali talabalar o'z sohasining bilimdoni, kasbiy malakalarni yuqori darajada egallay oladigan, boy tajriba va mahoratga ega kadrlar etib tarbiyalashdir. Shunday ekan, oliy ta'lim muassasalarida kadrlarni tayyorlash jarayonida davrning mazkur talabini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Professor-o'qituvchilar esa musiqa darsida talabalarning intellektual salohiyatini oshirishda innovatsion ta'lim texnologiyalari, o'qitishning yangi, innovatsion shakl, metod va vositalari bilan tanishtirish, kasbiy sifatlarini shakllantirishi muhim ahamiyatga ega bolmoqda.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish asosida o'qitish samaradorligini oshirish davr talabi sifatida barcha pedagog o'qituvchilar qatorida musiqa o'qituvchisining ham zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Har qanday fanni, shu jumladan, musiqa madaniyati darslarini o'qitish jarayonida ham faollashtirilgan, o'quvchilarni darsning faol ishtirokchilariga, mustaqil fikrlovchi, mushohada qiluvchi, o'z fikrlarini bildira oluvchi shaxs sifatida namoyon qilishi uchun imkoniyat yaratuvchi pedagogdir. O'qituvchi o'zi va o'quvchilar uchun qulay va qiziqarli bo'lgan o'qitish usullari, yo'llari, shakllari, vositalari bilan birgalikda ulardan foydalanish shart-sharoitlarini belgilaydi, ilg'or pedagogik texnologiyalar yordamida o'quv jarayoni samaradorligini oshirishga harakat qiladi. Shu boisdan ham innovatsion pedagogik texnologiya, ta'lim texnologiyalariga o'quv jarayonidagi eng samarali vositalar sifatida qaralmoqda. Ulardan bugungi kunda jahon pedagogikasi amaliyotida keng foydalanilmoqda[5:4]. Mahoratli pedagog faqat dars o'tish bilan cheklanib qolmasdan, talabalarni dars davomida baholashi, nazorat qilishi va rag'batlantirib borishni ham bilishi kerak. Bu uning pedagogik mahoratida yoqqal seziladi. Shu nuqtai nazardan darsning pedagogik kuzatilishi va bilimlarni baholash maqsadga qarab bir necha guruhlarga bo'linadi:

a) o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etuvchi va amalga oshiruvchi turi;
b) bilim faoliyatini rag'batlantirish va tanbehlash talablarini qo'yish;
c) o'qish, bilish, faoliyatini samaradorligini boshqarish va nazorat qilish.

Baholashda, shunday ehtiyotkor bo'lish kerakki, o'quvchilarni kayfiyati tushib ketmasin. Darsga, qo'shiq kuylashga qiziqishi so'nmasin. Rag'batlantirishda esa aksincha. O'qituvchi va o'quvchi munosabatlari me'yoridan chiqib ketmasligi kerak. Balki, rag'batlantirish, darsda boshqa o'quvchilarga namuna bo'lib xizmat qilsin va boshqalar odobli, aqlli bo'lishiga intilsinlar. Shunday qilib, musiqa o'qitishning xususiy metodlari bilan bir qatorda, musiqa o'qitish metodlarining boshqa turlari ham mavjud.

1. Musiqa o'qitishning og'zaki metodlari.
2. Ko'rgazmali o'qitish metodlari.

3. Amaliy o‘qitish metodlari.
4. O‘yin metodlari.
5. Taqqoslash metodlari.
6. Musiqiy o‘quvi bo‘sh bo‘lgan bolalar bilan ishlash metodi[6:15].

Aytish mumkinki, musiqa san’ati insonning estetik tuyg‘ularini rivojlantirishi barobarida shaxsda quvonch hissini paydo qiladi, olamni estetik idrok etishga o‘rgatadi. Uning ma’naviy dunyoqarashini boyitadi, qolaversa, tabiat go‘zalligini teranroq anglashga yordam beradi. Ma’lumki, san’at – ijtimoiy anglashning shakllaridan biri, insoniyat ma’naviy madaniyatining tarkibiy qismi, dunyoni amaliy-ma’naviy anglashning o‘ziga xos turi hisoblanadi. San’atning turli ko‘rinishlari voqelikni, undagi hodisalarning o‘ziga xos usullar va obrazlar yordamida aks ettiradi. Masalan, musiqada tovushlarning bir-biri bilan o‘zaro bog‘lanishi, uyg‘unlashishi va garmoniyasi natijasida musiqiy kuy hosil bo‘ladi[7:93].

Musiqa bashariyatning bebaho xazinasi, inson tafakkurining bebaho kashfiyotidir. Ijod va mahoratning, tinimsiz izlanishning eng oliy darajasida yaratilgan asarlargina inson ko‘nglini ishg‘ol qilib, insonning yuragiga etib boradi. Iqtidorli insonlar o‘zgalar ko‘z o‘ngida hayratlar yaratadi va ertangi yorug‘ istiqbolga ishonch, yangicha mazmun va mohiyat ato etadi. Ko‘nglingizga chiroq yoqib yuboradigan so‘zlar, nafis va yoqimli navolar ishingizga unum, kuningizga fayz baxsh etadi. Shunki, har bir xalqning madaniyati va san’ati – shu xalqni dunyoga tanitadi.

Ilm-u ijod har qanday quroldan, har qanday tabiiy boylikdan, har qanday kuchdan afzal ekanligi ayondir. Bunday nodir asarlar avlodan-avlodga bekamiko‘st holda yetib borishida pedagogning mahorati beqiyos. Ta’lim va tarbiya berish pedagogdan yuksak mahorat talab qiladi. Yuksak pedagogik mahoratni shakllantirishni ta’minlovchi omillar quyidagilar:

a) ixtisoslik bo‘yicha o‘quv predmetini, zamon, ilm-fan, texnika taraqqiyoti darajasida mukammal bilishi, uning boshqa o‘quv fanlari bilan o‘zaro aloqadorligini ta’minlash malakasiga ega bo‘lishi;

b) ta’lim oluvchilarning yosh, fiziologik, psixologik hamda shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishi, ularning faoliyatini ob’ektiv nazorat qilishi va baholashi;

v) ta’lim jarayonini demokratlashtirish va insonparvarlashtirish asosida o‘z faoliyatini tashkil etishi;

g) o‘quv – tarbiyaviy jarayonni zamon talablari darajasida tashkil qilish uchun asosiy pedagogik – psixologik, metodik ma’lumotga ega bo‘lishi;

d) fanlarni o‘qitish jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalanish;

y) jamoani “ko‘ra bilish”, o‘quvchilarning qiziqishlari, intilishlari, ular uchraydigan qiyinchiliklarni tushunish va hamdard bo‘la olish, o‘z vaqtida ular fikrini anglay bilish, zukkolik bilan har bir bolaning xarakter xususiyati, qobiliyati, irodasini tushunish hamda ularga muvaffaqiyatli ta’sir ko‘rsatishning shakl, usul, vositalaridan xabardor bo‘lishi;

j) o‘z shaxsiy sifatlari (nutqining ravonligi, tashkilotchilik qobiliyati, badiiy ehtiyoji, didi va hokazo)ni takomillashtirish malakasiga ega bo‘lishi[8:15].

Pedagogik mahorat – o‘qituvchining shaxsiy (bolajonligi, xayrixohligi, insonparvarligi, mehribonligi va h.k.) va kasbiy (bilimdonligi, zukkoligi, fidoyiligi, ijodkorligi, qobiliyati va hokazo) fazilatlarini belgilovchi xususiyat bo‘lib, o‘qituvchining ta’lim-tarbiyaviy faoliyatida yuqori darajaga erishishini, kasbiy mahoratini doimiy takomillashtirib borish imkoniyatini ta’minlovchi faoliyatdir. U o‘z fanini mukammal bilgan, pedagogik-psixologik va metodik tayyorgarlikka ega bo‘lgan, o‘quvchilarni o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo‘llarini izlab topish uchun, amaliy faoliyat olib boradigan har bir o‘qituvchining kasbiy faoliyatida namoyon bo‘ladi. Shunday qilib, pedagogik mahorat egasi bo‘lish uchun o‘qituvchi o‘z o‘quv predmetini davr talablari asosida bilishi, pedagogik va psixologik bilimlarga ega bo‘lishi hamda insoniylik, izlanuvchanlik va fidoyilikni o‘zida tarkib toptirishi lozim.

I.P. Rachenko pedagogik mahoratni pedagogik san’atning bir qismi sifatida ta’riflab, shunday yozadi: “Pedagogik mahorat deganda o‘qituvchining pedagogik-psixologik bilimlarni, kasbiy malaka va ko‘nikmalarni mukammal egallashi, o‘z kasbiga qiziqishi, rivojlangan pedagogik fikrlashi va

intuitsiyasi, hayotga axloqiy-estetik munosabatda bo‘lishi, o‘z fikr mulohazasiga ishonchi va qatiy irodasi tushuniladi”. Tadqiqotchilarnnng fikriga ko‘ra, quyidagi to‘rtta komponent pedagogik mahoratning asosiy tashkil etuvchilari hisoblanadi:

- o‘qituvchilik kasbiga sadoqat;
- o‘z fanini o‘qitish metodikasini mukammal bilishi;
- pedagogik qobiliyatlarini namoyish eta olishi;
- pedagogik texnikani o‘z o‘rnida qo‘llay bilishi[9:14].

Musiqa fanini o‘qitishda pedagog mahoratining o‘rni g‘oyatda murakkab va uzviydir. Musiqa fanini o‘rganadigan talaba kelajakda ijodkorlik faoliyati bilan shug‘ullanadi. Shuning uchun ham pedagog asarni talabaga o‘rgatishda kamchiliklarga yo‘l qo‘ymasligi kerak. Pedagog faqat ta’lim-tarbiya beradigan shaxs emas, fidoyi kasb egasidir. Bugungi kunda pedagoglar oldiga yangidan-yangi ma’suliyatli vazifalar qo‘yilmoqda, yangi imkoniyatlar yaratilib, soha istiqboli yo‘lida katta ishlar amalga oshirilmoqda. Chunonchi, bu islohotlar Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida kata ahamiyat kasb etmoqda.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev: “Albatta, biz Yangi O‘zbekistonni barpo etish va Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda ziyolilarimizga katta ishonch bilan qaraymiz. Shuning uchun bu zahmatkash insonlarning ilmiy va ijodiy izlanishlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularga zarur sharoitlar yaratishni o‘zimizning birlamchi vazifamiz sifatida ko‘rishimiz darkor. Shu maqsadda hukumatimiz tomonidan aniq chora-tadbirlar ishlab chiqilib, amalga oshirib kelinmoqda.

Shu o‘rinda doimo yuragimda ardoqlab yurgan bir tuyg‘uni izhor qilishni joiz, deb o‘ylayman. Men doimo ziyoli, olim, ijodkor insonlar bilan suhbatlashishga intilaman va bunday muloqotlarni hamisha sog‘inaman. Nega desangiz, olimlik – Alloh nuri tajassum etgan ulug‘ bir martaba. Bu martabadan jamiyatning butun vujudiga ziyo taraladi. Olimlarning suhbatidan inson o‘ziga ma’naviy boylik oladi, qalb kengliklarini, tafakkur teranligini his qiladi. Shu boisdan bunday insonlar bilan uchrashib turganimda, ularni xush kayfiyatda, bardam va tetik, yuz-ko‘zlaridan nur yog‘ilib turganini ko‘rganimda hamisha chuqur mamnuniyat hissini tuyaman. Biroq tan olishimiz kerakki, ular bilan muntazam uchrashib turishga, mamlakatimizda ilm-fan va uning turli sohalarini qo‘llab-quvvatlash, intellektual salohiyatni bugungi zamon talablari asosida rivojlantirish masalalariga doim ham yetarlicha e’tibor qarata olmayapmiz. Buning uchun barcha rahbarlar qatori men ham o‘zimning mas’uliyatimni yaxshi his qilaman. Shuning uchun bu masalaga yondashuvimizni tubdan o‘zgartirishimiz zarur”[10:43] – deya yuqori ishonch bildirgani barcha soha pedagoglarning zimasiga katta mas’uliyat yuklaydi. Yoshlar bilan ishlashish g‘oyatda – sharafli vazifadir. Shu bilan birga pedagogdan yuksak mahorat, ya’ni, pedagogik mahorat talab etadigan jarayon. Pedagog musiqani fanini o‘qitishda faqat dars mashg‘ulotlari bilan cheklanib qolmasdan, talabalarni musiyqiy kechalar, konsert dasturlari, shoir va bastakorlar bilan uchrashuvlar va har xil madaniy tadbirlarga olib borishi mumkin. Ijro etilgan musiqa asarini o‘sha yerda tahlil qilib, talabalarning musiqiy did va saviyasini har tamonlama rivojlantirishga ham zamin yaratiladi. Yanada musiqa to‘garaklarga jalb etish, Respublika va xalqaro tanlovlarga ishtirok etishiga yordam berishdek ishlarni amalga oshirmog‘i lozim.

FOYDALANİLGAN ADABİYOTLAR RO’YXATİ:

1. Kozimov J. Musiqa darslarida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish //jur. Ta’lim muammolari. – Toshkent: Yoshlar matbuoti. – 102 b. (80-82 b)

2. Sharipova G., Xodjayeva Z. Musiqa o‘qitish metodikasi. – Toshkent: NIF MSH. 2020. – 136 b.

3. Ortiqov T. Musiqa o‘qitish metodikasi. Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2011. – 196 b.

4. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. – Toshkent: “Iqtisod moliya”. 2010. – 312 b.

5. Madrimov B. Musiqa tarixi. – Toshkent: Noshir. 2019. – 192 b.

6. Turanazarov N. Musiqa o‘qitish metodikasi va maktab repertuari. Elektron manba. – Termiz: 2006. – 100 b.

7. Qodirova D. Musiqa san’ati yuksak estetik qadriyat sifatida//jur. Ta’lim muammolari. – Toshkent: Yoshlar matbuoti. – 188 b. (92-93 b).

8. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. – Toshkent: Iqtisod moliya. 2010. – 12 b.

9. O‘sha yerda.

10. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent. O‘zbekiston, 2021. 464 b.

UO'K 378.811.111

INGLIZ TILINI O'QITISHDA ROLLI O'YINLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

N.Z.Baxriyeva, katta o`qituvchi, Samarqand davlat chet tillar instituti, Samarqand

Annotatsiya. *Ushbu maqola ta'lim jarayonida, ingliz tilini o'qitishda pedagog tomonidan talabaning muloqot kompetensiyasini shakllantirish usullari, darslarda o'yinlardan foydalanishning xususiyatlari, xususan bunda rolli o'yinlardan foydalanishning o'ziga xosligi haqida nazariy qarashlar tahlil etilgan. Bilamizki, ingiz tilini o'qitishda rolli-o'yinlarning o'rni beqiyos bo'lib, u nafaqat sinfda iliq kayfiyat uyg'otadi, balki tilni o'rganishga qiziqishni oshirib, o'quvchining malaka va ko'nikmalarini rivojlantiradi.*

Kalit so'zlar: *o'yinlar, rolli-o'yinlar, innovatsion pedagogik texnologiyalar, metodlar, "Matn-stimul", og'zaki muloqot, "dialog + o'yin.*

Аннотация. *В данной статье анализируются теоретические взгляды на методы формирования коммуникативной компетентности студента в образовательном процессе, при обучении английскому языку, особенности использования игр на занятиях, и в частности, своеобразие использования ролевых играть в игры. Мы знаем, что роль ролевых игр в обучении ингизскому языку несравнима, они не только создают теплое настроение на занятиях, но и повышают интерес к изучению языка, развивают навыки и умения учащихся.*

Ключевые слова: *игры, ролевые игры, инновационные педагогические технологии, методы, «Текст-стимул», устное общение, «диалог+игра».*

Abstract. *This article analyzes the theoretical views on the methods of formation of communicative competence of the student in the educational process, in the teaching of the English language, the features of using games in classes, and in particular, the uniqueness of using role-playing games. We know that the role of role-playing games in the teaching of the Ingiz language is incomparable, it not only creates a warm mood in the classroom but also increases the interest in learning the language and develops the student's skills and abilities.*

Keywords: *games, role-playing games, innovative pedagogy technologies, methods, "Text-stimulus", oral communication, "dialogue + game.*

Kirish. Ingliz tili xalqaro muloqot tili bo'lib, u dunyoning turli mamlakatlarida global aloqa vositasi sifatida qo'llaniladi. Hozirgi globallashuv davrida ingliz tilini o'qitish va o'rganish muhim rol o'ynaydi, shuning uchun mazkur til o'zlashtirilishi kerak bo'lgan tillardan biriga aylandi. Ingliz tilini o'rganishni oson va qiziqarli qilish usullardan biri bu o'yinlar orqali o'rganish hisoblanadi. O'yinlar orqali o'rganishning bir qancha afzalliklari bo'lib, ulardan biri bu darslar o'quvchi tomonidan yoqimli qabul qilinishi hamda o'yin qiziqarli bo'lgani uchun bir vaqtning o'zida o'ynash o'quvchilarda muayyan narsalar yoki mavzularga katta qiziqish uyg'otishi hisoblanadi. O'ynash orqali o'quvchi haqiqiy hayot tajribasiga ega bo'ladi, o'zining kuchli va zaif tomonlarini, qiziqishlarini, o'yindagi vazifalarni qanday bajarishni va hokazolarni o'rganadi. O'yin insonning jismoniy, hissiy, aqliy, intellektual, ijodiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun muhim vosita hisoblanadi.

Rolli o'yinlar - bu vaziyat, stsenariy yoki proYem orqali rol o'ynash va xavfsiz muhitda nima deyish va nima qilish kerakligini mashq qilish usuli. Agar u yaxshi amalga oshirilsa, bunday o'rganish tajribasi bir qator afzallik va afzalliklarni taqdim etadi. O'qituvchilar har qanday tegishli kontekstda o'qitish usullariga rolli o'yin qo'shishlari mumkin. Rolli o'yinlar o'quvchilarga yanada chuqurroq qatnashish imkonini beradi va shu bilan muammo bo'yicha chuqur bilim hosil qiladi. Bundan tashqari, rolli o'yin o'quvchilarga xavf tug'dirmaydigan muhitda xato qilishlariga imkon beradi, bu esa haqiqiy proYemlar uchun bir nechta echimlarni sinab ko'radi. Rolli o'yin oldindan rejalashtirishni talab qilmaydi, shu bilan birga o'quv jarayonining ba'zi asosiy tamoyillariga, masalan, o'quvchilarni jalb qilish va motivatsiyaga javob beradi.

Rol o'yin - bu vaziyat, stsenariy yoki muammoni hal qilish va xavfsiz muhitda nima deyish va nima qilish kerakligini mashq qilish orqali ishlash usuli. Agar u yaxshi amalga oshirilsa, bunday o'rganish tajribasi bir qator afzalliklarni taqdim etadi. O'qituvchilar har qanday tegishli kontekstda o'qitish usullariga rolli o'yin qo'shishlari mumkin. Rolli o'yinlar o'quvchilarga yanada chuqurroq

qatnashish imkonini beradi va shu bilan muammo bo‘yicha chuqur bilim hosil qiladi. Bundan tashqari, rolli o'yin o'quvchilarga xavfli bo'lmagan muhitda xatolarga yo'l qo'yishga imkon beradi, real muammolarning bir nechta yechimlarini sinab ko'rish imkoniyatini ham beradi.

Талабаларда мустақил фикрлаш компетенциясини ривожлантириш соҳасидаги халқаро тажрибаларни ўрганиш шуни кўрсатадики, таълим флешмоблари талабани умуминсоний ва миллий қадриятлар руҳида тарбиялаш, шунингдек, ҳар томонлама ривожланган шахсни камолга етказишга йўналтирувчи жараёндир. Флешмоб технологиялари ҳар бир талаба камолотида фикр тиниқлиги, яхлитлиги, кенг қамровлилиги, долзарблиги, ўзгалар томонидан тингланиши, ўзига хос фикрлай олиши билан белгиланади. Фикр – бу атроф-муҳитга, воқеликдаги ҳодисаларга, жараёнларга, нарса ва шахсларга нисбатан билдирилади.

Талабалар ҳар қандай маълумотнинг асосланилишини, таҳлил этилишини, уларга ўз муносабатини билдиришни истайди. Бундай талабаларни қаноатлантирадиган таълим мазмуни бирмунча мураккабдир. Уларда коммуникатив қобилиятни ривожлантириш унинг ўз олдида турган муаммони аниқ белгиланган мақсад ва вазифаларга мувофиқ ҳолда билими ҳамда ҳаётий тажрибаларига таяниб, ўз интеллектуал имконияти даражасида турли йўл, усул, воситалар ёрдамида, мустақил равишда ҳал қилишга қаратилган ақлий фаолиятидир.

Талабанинг коммуникатив қобилияти воқеа-ҳодисаларга нисбатан, умумий жараённинг ўзига хос маҳсуласи ҳисобланади. Бу натижанинг жамиятга таъсири ҳам ўзига хосдир. Флешмоб технологияларини таълим жараёнига татбиқ қилар эканмиз, тажрибалар шуни кўрсатадики, ҳар бир талаба ўзича фикрлайди. Мустақил фикрлаш билан талабаларда нафақат билимларнинг мустаҳкамланишига, тажрибанинг орттирилишига, балки маънавий етукликка ҳам эришилади. Ахлоқий жиҳатдан ҳар қандай муҳитни забт этишга қодир бўлган талаба ўзгаларни ҳурмат қилиш, уларнинг қадр-қимматини кўрсатиб бера олиш, ўз фаолияти жараёнида барча иштирокчиларнинг манфаатларини яхлит ҳимоя қила олиш учун журъат топади.

Флешмоб технологияларини таълим жараёнига татбиқ қилишда таълим-тарбия жараёни талабаларнинг қобилиятларини ривожлантириш майдончасига айланади, ҳар бир талабанинг оддий фикри ҳам вақти келиб буюк кашфиётларга асос бўлиши мумкинлигини кўрсатади. Зеро, ўқув тарбия жараёнидаги узвийлик, узлуксизликка асосланган мазмунни идрок этиш, англаш ва ўзиники қилиб қабул қилишда ўқув материалларига ҳам маълум даражада талабани мустақил ишлашга йўналтиришни сингдириш бугунги кун педагогикасининг асосий муаммоларидан биридир.

Талабанинг мустақил фикрлаш компетенциясини флешмоб технологиялари асосида ривожлантириш ҳар бир машғулотнинг асосий муаммоси бўлиб қолмоғи лозимки, бунда таълим сифатини ошириш, унинг мазмунини бойитиш мезони яратилади.

Шунингдек, флешмоб технологияларини таълим жараёнига татбиқ қилиш жараёнида кўплаб педагогик ва дидактик характердаги муаммоларни тизимли равишда ечишга асос ҳозирланади.

Флешмоб технологияларини таълим жараёнига татбиқ қилишда инглиз тилидаги ўқув машғулотлари имкониятлари кенг ҳисобланади. Шунингдек, бу жараёнда талабалар ўз фикрларини баён қила олиш кўникмаларини ривожлантиришга қаратилишига эҳтиёж юзага келади.

Флешмоб технологияларини таълим жараёнига татбиқ қилиш учун таълим-тарбия жараёнида талаба мустақил фикрлашининг қатор шарт-шароитлар инобатга олиниши зарур:

1. Талабанинг мавжуд ҳолати негизида ҳосил қилинган тасаввур. Бунда талаба унга бўлаётган таъсирлар асосида, мавжуд маълумотларга таянган ҳолда ҳар қандай жиҳатнинг ҳозирги ҳолати орқали ҳам ўтмиш ва ҳам келажак ҳолатини аниқ кўз олдига келтиради.

2. Жараёнга бўлган кузатувчанлиги унинг кейинги ҳатти-ҳаракатлари учун яна бир асосдир. У ўз олдига аниқ ва муайян мақсад қўйишга кўз олдидаги ҳар қандай яхлит предметни қисмларга ажратиш ёки бўлмаса объектларни таққослашни ўрганади. Бу унинг фаолиятида ўз таъсирини кўрсатиб боради. Шу боис талабанинг коммуникативлигида унинг кузатувчанлиги билан мушоҳада этиши ривожланиб боради.

3. Талабаларнинг коммуникатив қобилиятларини ривожлантириш яна бир педагогик-психологик асоси бу тушунишдир. Тушуниш орқали талаба атроф-муҳитдаги, жамиятдаги, инсонлар ўртасидаги ўзаро боғлиқликни, алоқани тушуниб етади. Шунчаки фикрлашдан чекиниб, атрофлича ички, ташқи боғланишларни, сабаб-оқибат, муносабатларини аниқлаштириб олишга имконият қидиради.

4. Хулоса чиқариш шундай жараёнки, бунда талабанинг мустақил фикрлаши юзасидан маълум бир тўхтамга келинади. Хусусан, талаба

ўзидаги маълумотни англаши, тушуниши натижасида хулоса чиқаришга ҳаракат қилади. Ҳар қандай хулоса асослашни тақозо этади. Зотан хулоса чиқариш учун талаба педагогик-психологик асос сифатида талқин этилади.

5. Ўқув-материаллари ва мустақил фикрлаш учун зарур бўлган материалларни хотирада сақлаш жараёни. Ҳар қандай шароитда мустақил фикрлашнинг бу жиҳати билан таққослаш, таҳлил этишга замин яралади. Бу ўз навбатида талабанинг психологик таъсирланиши учун зарурий имкониятдир.

6. Талабаларнинг коммуникатив қобилиятларини ривожлантиришга йўналтиришнинг яна бир жиҳати бу талабани қизиқтира олишдир. Талаба қизиқиши асосида мустақил фикрлашга ҳаракат қилади, изланади ва нимагадир эришиш учун интилади.

Қайд этиш керакки, ўқув-тарбия жараёнида бўлган турлича ёндошувлар мавжуд имкониятларни ҳисобга олган ҳолда амалиётга татбиқ этилади ва бу ҳолатда турли хил усулларда қўйилган мақсадга эришиш муҳим саналади.

Талабаларнинг мустақил фикрлаш компетенциясини ривожлантиришда алоҳида ўринга эга бўлган мазкур метод улар билан ишлашда муҳим ўрин эгаллайди. Бинобарин, талабаларнинг ижодкорлиги, изланувчанлиги, бунёдкорлиги ва кашфиётчилиги сифатлари уларнинг мустақил фикрлашини оширади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1.Андреев В.И. Педагогика: курс для творческого саморазвития. 2-э изд.- Казан: Тсентр инноватс. технологий, 2000.-068 с.

2.Агеев И.Д. Занимателние материали по информатике и математике. Методическое пособие.- М.: ТС сфера, 2015.-228 с.

3.Гришина Э.Ф. Просесс формирования коммуникативних умений спетсиалиста-менеджера.: Автореферат дис. канд. пед.наук. - Волгоград, 2009.- 21 с.

4.Гузеев В.В. Образовательная технология: от приема до философии. - М.: Наука, 2019.- 112 с.

5.Загвязинский В.И., Гилманов С.А. Творчество в управлении школой. - М., 2007. -61 с.

УДК 37.02

ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ДИФФЕРЕНЦИРОВАННОГО ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ НА ПРОПЕДЕВТИЧЕСКОМ КУРСЕ РУССКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

М.Хамидова, преподаватель, Каршинский международный университет, Карши

Annotatsiya. *Maqola rus tili va adabiyoti propedevtika kursida o'qitishning psixologik-pedagogik asoslariga bag'ishlangan. O'qitish asosigatalabalarning o'rganishini individual fazilatlarga ko'ra farqlaydigan differensial ta`lim qo`yilgan: xotira, psixika, qobiliyat.*

Kalit so'zlar: *asos, psixologiya, o'rganish, motivatsiya, farqlash, diagnostika, xotira, diqqat, qobiliyat, fikrlash, yaxlitlik, xususiyatlar, qiziqish, guruh.*

Аннотация. *Статья посвящена психолого-педагогическим основам обучения на пропедевтическом курсе русской литературы. В основу обучения положена дифференциация обучения студентов по индивидуальным качествам: памяти, психики, способности.*

Ключевые слова: *базис, психология, обучение, мотивация, дифференциация, диагностика, память, внимание, способность, мышление, цельность, особенности, интерес, группа.*

Abstract. *The articleis devoted to the psychological and pedagogical foundations of teaching in the propaedeutic course of Russianlanguage and literature. The training is based on the differentiation of student learning according to individual qualities: memory, psyche, ability.*

Keywords: *basis, psychology, learning, motivation, differentiation, diagnostics, memory, attention, ability, thinking, integrity, features, interest, group.*

Психологические основы дифференцированного обучения на пропедевтическом курсе русского языка и литературы составляет ножница между групповой формой обучения и индивидуальной формой усвоения. Общеизвестно, что для всех студентов общая цель обучения, содержание и индивидуальные особенности памяти, психики, способности создают противоречия в равномерном усвоении материала, поэтому нужен индивидуальный подход в обучении, с учетом интересов, способностей каждого студента. Первым делом преподаватель должен провести диагностику показателей студентов, обратив внимание на индивидуальные особенности студентов. Перечислим эти критерии: мотивация студентов, возможности, прошлый опыт работы по предмету, мышление, самостоятельность в обучении.Подготовленность и способности студентов отличаются друг от друга. Студенты, не готовые к учебе требуют особого отношения. Студенты, с рассеянным вниманием, плохой памятью не могут выполнить многие задания. В таких случаях предлагается специальная форма предъявления материала. Это основной способ индивидуализации обучения. Дифференцированное обучение требует оптимальной организации обучения: оно возможно при эффективном обучении каждого студента. Задача - определить самые эффективные возможности при фронтальном, групповом и индивидуальном обучении. Основное назначение дифференциального обучения - это определение индивидуальных свойств каждого студента (степень подготовленности, степень развития, своеобразие мышления, когнитивный интерес к предмету) и определить самый эффективный вид деятельности, формы работы и виды работ в аудитории.

Для дифференциации обучения в группе нужно создать условия:

а) глубокое изучение типологических свойств индивидуальных и групповых качеств студентов;

б) умение анализировать учебный материал, находить трудный для групп студентов материал и находить решения;

в) создание технологической карты для разных групп студентов;

г) способность делить студентов на разные группы(в идеале, для каждого студента) подготовить “программирование”.

д) формирование учебного процесса, давать возможность студенту выполнять задания, решать проблемы, выбирать виды, формы заданий;

е) создать быструю связь, создавать условия выхода и цепи;

ж) создание мотивации для правильного выполнения упражнений;

з) создание условий для поощрения деятельности студентов, в процессе получения знаний заниматься самообразованием, саморазвитием;

к) нужно создать условия для развития всех студентов.

С учетом природных данных селективного направления когнитивного процесса, мы разделили группу на подгруппы:

В подгруппы с высокой степенью когнитивного интереса: в этой подгруппе студенты работают самостоятельно с усердием и быстро, стараются понять задачи.

В подгруппы со средней степенью интереса: студенты показывают активность на предложения преподавателя, в зависимости от обстановки пытаются самостоятельно выполнить задания. С помощью преподавателя преодолевают трудности.

В подгруппы с пониженной степенью развития интереса: они выделяются когнитивной инерцией, мнимой самостоятельностью, отвлекаются при встречи с трудностями, выделяются полным бездействием. Таким образом, из вышеизложенного следует, что надо активизировать пассивного студента, применять методы, приемы и технологии, активизирующие процесс обучения, например, игровые технологии, разнообразить обучение переменой средств воздействия привлечением загадок, пословиц, кратких интересных сюжетных рассказов. Учащиеся с интересом изучающие предмет, могут сосредоточиться на долгое время, могут пользоваться разумными средствами и приемами, могут показать разумную деятельность. У студентов с рассеянным вниманием, на короткое время хватает терпения и спрос с себя у них очень низкий. В практическом обучении порою при фронтальном предъявлении материала в методическом плане даже совершенные занятия не могут дать желаемый эффект, потому что студенты, на материал изучения, понимания и сохранение в памяти подходят по - своему. Это связано с разной степенью учебных способностей студентов, развития темпа изучения учебного материала. Чтобы провести дифференцированное обучение в аудитории, нужно создать условия для управления учебным процессом. В учебной деятельности студентов можно дифференцировать два основных свойства - учебные способности и интерес к предмету. По результатам эффективности обучения всех можно разделить на три типологические группы, потому что студенты могут добиться хороших результатов за не равное время и эти свойства служат критерием разделения их на три подгруппы: высокий, средний, низкий. На учебных занятиях во всех ступенях обучения нужна дифференциация обучения:

Этап предъявления новых знаний (первое восприятие материала). Чтобы применить дифференциальное обучение, в первую очередь нужно хорошо подготовиться со студентами, нуждающимися в овладении новым материалом. И второе, после первого фронтального объяснения, нужно его повторить, может быть, не раз для подгрупп.

Вы можете пользоваться следующей техникой: новый материал предъявляется в высшей степени сложности (в содержание учебных заданий вводятся проблемные вопросы); основываясь на студентов, с высокой степенью способностей проводите одинаковое, полное и удобное для вас объяснение. При проведении объяснения нового материала нужно учесть психофизиологические свойства студентов. Студентам с плохой слуховой памятью, без внимания к учебе нужно задавать дополнительные вопросы. Визуализация укрепляет визуальную память студента, практические упражнения на доске развивают моторную память.

Этап закрепления и использования знаний. Основу дифференцированного подхода составляет организация самостоятельной работы. Готовится 2-3 варианта самостоятельной работы. Студенты сами выбирают вариант или каждый вариант предназначается с самого начала за определенной группой студентов. Для студентов, с плохой способностью и средней категории, предъявляется материал по модели в виде алгоритма, даются задания подстановочного и перестраивающегося характера. Для предупреждения ошибок отдельным

группам объясняются возможные трудности. Некоторым студентам предоставляется помощь (диаграммы, чертижи, начало объяснения, теоретические справки или показатели страниц учебников через которые можно найти помошь). И только после этого предлагаются задания творческого характера. Для развития студентов высших учебных заведений рекомендуется в основном рекомендуются доступные, но осложненные задания.

Этап проверки знаний и навыков. На этом этапе нужно определить какой студент одинаковые знания и умения в какой степени усвоил. На основе этого можно определить дозировку материала и знаний. Нужно определить степень усвоения каждой серии материала.

Полезно в учебном процессе использовать трудности разной степени, они помогают привлечь внимание отстающих и дают пищу для размышления для самых способных. Некоторые усваивают программный объем знаний, другие на основе способности высокого познания с большим прилежанием выходят за программный материал, получают возможность перевести знания на нестандартные условия. Творческая активность сильных учащихся на занятии, оставляя их слабых товарищей сзади, оставляют их в состоянии копировальщиков, множителей. Внутреннее содержание материала, пути ее постижения поощряет новые достижения студентов в любой работе. В этой работе каждый студент преодолевает трудности, и от того, что усвоил испытывает счастье познания, усваивает пути получения знания.

Психологическая система дифференцированного обучения предполагает индивидуализацию образования. Не взирая ни на какие свойства и в какой степени, в учебном процессе индивидуальные свойства студента должны быть учтены в любой форме и в любом методе обучения. Дело здесь не в абсолютной, а об относительной индивидуализации. В настоящем образовании индивидуализация всегда по следующим причинам относительна:

1. Не каждого студента, а приблизительно похожие индивидуальные свойства студентов группы;

2. Только определенные свойства или их комплекс, точнее, значимые с точки зрения обучения (например, умственные способности), вместе с тем целый ряд незначительных свойств. В своеобразной форме или не обязательные, но засчитываются (например, свойства характера или темперамента);

3. Иногда некоторые свойства или состояниямогут быть значимыми только для одного студента (одаренность, здоровье);

4. Индивидуализация действует не на весь круг учебной деятельности, действует эпизодически или действует в какой-то форме воспитательной работы и совмещается с не индивидуализированной работой.

Индивидуализацию можно рассмотреть с точки зрения учебного процесса, содержания образования, с точки зрения строя системы образования.

Во-первых, выбор форм, метод и выбор методов, во-вторых, учебные планы, программы, создание учебных литератур и подготовка для учащихся заданий, в-третьих формирование разных видов навыков и умений.

По нашему мнению, в создание учебных планов и программ, также как и в создании разных направлений обучения всегда берутся в учет индивидуальные свойства студентов, наоборот, имея общий характер, учащиеся на какой-то основе объединяются в группы, т.е. давно существует дифференциация.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Технология дифференцированного обучения [электронный ресурс-Режим доступа] school47.coi.spb.ru/modern_pedagogical_technologies7.ppt

2.Унт Ише. Индивидуализация и дифференциация обучения/ Ише Унт. М.,Педагогика. 2000.

3.Фирсов В.В.Дифференцированное обучение на основе обязательных результатов обучения/В.В. Фирсов-М., 2005.

4. Холомина О.А., Курилова А.А. Развитие творческой личности учащихся в условиях развивающегося обучения // Карельский научный журнал. 2013. № С.31-33.

УЎК 796.011

ТАЛАБАЛАРНИ СОҒЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИГА ЎРГАТИШ ВА БИЛИМЛАРИНИ ОШИРИШ

Р.Н.Холмуратов, ўқитувчи, Муҳаммад Ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари университети, Тошкент
И.И. Абдуллаев, б.ф.д., проф., Хоразм Маъмун академияси, Хива

Аннотация. *Мақолада ёшларнинг соғлигини мустаҳкамлаш,уларни соғлом турмуш тарзига ўргатиш, саломатлик ҳақидаги мавжуд билимларини янада ривожлантириш ва соғлом ҳаёт кечиришнинг муҳим қоидалари ҳақида сўз боради.*

Калит сўз: *Соғлом турмуш,спорт, кун тартиби,шахсий гигиена,саломатлик.*

Аннотация. *В данной статье приведены сведения об укреплении здоровья молодежи, обучении их здоровому образу жизни, дальнейшем развитии имеющихся у них знаний о здоровье, важных правилах ведения здорового образа жизни.*

Ключевые слова: *Здоровый образ жизни, спорт, режим дня, личная гигиена, здоровье.*

Abstract. *This article provides information about improving the health of young people, teaching them a healthy lifestyle, further developing their knowledge about health, and important rules for maintaining a healthy lifestyle.*

Keywords: *Healthy lifestyle, sports, daily routine, personal hygiene, health.*

Соғлом турмуш тарзи – бу инсоннинг ҳаёти ва саломатлиги хавфсизлигини таъминлашга хизмат қилувчи кўникмаларга эга бўлиши асосида ҳаётий фаолиятини йўлга қўйишдир. Соғлом турмуш тарзига риоя этиш кўплаб муаммоларнинг олдини олиш демакдир. Соғлик - одам организмининг биологик, жисмоний, руҳий ҳолатлари, меҳнат фаолиятининг мувозанатлашган бирлиги, бахт-саодатдир. Бизнинг мақсадимиз фарзандларимизнинг ҳам жисмоний, ҳам маънавий жиҳатдан соғлом ва баркамол бўлиб вояга етишига табаррук қадриятларимизнинг умрлари узоқ бўлиши кўп йиллар давомида соғ-саломат ҳаёт кечиришига эришиш. Бунинг учун Ўзбекистон аҳолиси тўлақонли соғлом турмуш тарзи асосида яшаши учун шарт-шароит яратиб беришдир [1].

Таълим тизимида соғлом турмуш тарзини тарғиб қилиш турли йўналишларда изчиллик билан, муайян дастур асосида, аниқ йўналишларда олиб борилиши лозим. Хусусан, бу аввало олий педагогик таълим жараёнида талабаларга соғлом турмуш тарзига оид муайян тиббий ва гигиеник билимлар бериш, уларда соғлом турмуш тарзини сақлашнинг инсон танаси такомилига таъсири ҳақидаги тушунчаларни шакллантиришга қаратилса, иккинчи томондан, ёшларда қатъий режим асосида гигиеник қоидаларга амал қилиш, ўзи ва ён-атрофдагиларнинг соғлиғини асрашни кундалик одатга айлантириш кўникмаларини таркиб топтириш билан бевосита алоқадордир. Инсоннинг саломатлиги унда нафақат касаллик ёки жисмоний нуқсонларнинг йўқлиги, балки жисмоний ва руҳий хотиржамлиги, саломатлигини яхшилаш ва муҳофаза қилишга қаратилган чора-тадбирлар билан ҳам ўлчанади. Оқилона овқатланиш, жисмоний фаоллик, ўз вақтида ҳордиқ чиқариш, шахсий гигиена қоидаларига риоя этиш, зарарли одатлардан ўзини тийиш унумли меҳнат қилиш, инсон саломатлигини яхшилаши ва муҳофаза қилишнинг муҳим омилларидан саналади.Бугунги кунда ушбу мавзуга жуда кўп дуч келаяпмиз. Бир қараганда қийин кўринувчи, анчагина куч, сабр ва ирода, вақт ва шароит талаб этувчи соғлом турмуш тарзининг асосий қоидалари нималардан иборат? Қандай қилиб соғлом турмуш тарзига риоя этиш мумкин? Қуйидаги соғлом турмуш тарзининг энг муҳим 7 қоидаси сизу бизга аввалдан маълум бўлган, бироқ ҳаётнинг майда-чуйда ташвишлари билан ёдимиздан кўтарилган ва амалга ошира олмай қолган тартибларни ёдга солса не ажаб:

1. Спорт. Спорт - умримиз охирига қадар соғлом ҳаёт кечиришнинг асосий шартларидан. У ёш ҳам, жой ҳам, ҳаттоки шарт-шароит ҳам танламайди. Унинг кўринишлари, шакллари, усуллари кўп. Йога, пилатес, пиёда юриш, югуриш, турникка тортилиш, рақс, аеробика, рафтинг, бодибилдинг, гимнастика, футбол ва ҳоказо турлари бор. Истаган

спортингизни танланг, жисмонан фаол бўлсангиз кифоя. Ҳар куни эмас, кунора 30-60 дақиқа спорт билан шуғуллансангиз, соғлом бўлишингиз учун етарли. Камроқ ўтириш ва кўпроқ ҳаракатланиш керак. Агарда касбингиз ўтириб ишлашни тақозо этса, ҳар соатда камида 5 дақиқа танаффуз қилинг ва бу вақтда турли хилдаги енгил машқларни бажариб, елка, бел ва оёқлар чигилини ёзинг. Дарсдан бўш вақтларда кўпроқ пиёда юриш керак.Мунтазам пиёда юриш — қон босимини меъёрлаштиради, кайфиятни ва организмнинг умумий ҳолатини яхшилайди. Бундан ташқари қон босими ва холестерин миқдорини меъёрлаштиради.Пиёда юриш инсонга деярли жароҳат етказмай, шикастланишларсиз организм имкониятларини ривожлантиради. Юриш вақтида организмга тушадиган жисмоний юклама юқори интенсивликда эмас ва бу турли жароҳатлар, чарчаш ҳолатлари келиб чиқишининг олдини олади.

2. Тўғри овқатланиш. Инсон организмининг бекаму кўст ривожланиб, яшашиии таъминлайдиган асосий омиллардан бири овқат ҳисобланади. У энергия манбаи. Бир грамм овқатнинг организмда ёнганда ажраладиган иссиқлигига қараб овқатнинг қувватий қиймати аниқланади. Овқатланиш рационингизга иложи борича асосан табиий маҳсулотлар — мева ва сабзавотлар, витамин ва минералларга бой озиқ-овқатларни кўпроқ киритинг. Овқатланиш рационининг 65 фоизини мева ва сабзавотлар, нон ва турли бўтқалар ташкил этиши, 30 фоизи гўшт ва сут маҳсулотлари, 5 фоизи ширинлик ва ёғларга ажратилиши лозим. Озуқалар имкон қадар янги, мавсумга мос бўлиши лозим. Баҳор ва ёзда ўсимликлар, қишда оқсил ва ёғга бой маҳсулотларга кўпроқ ўрин ажратилиши лозим. Ҳар куни камида 2 литр атрофида сув ичиш мақсадга мувофиқдир [2].

Тўғри овқатланиш шундай ташкил этилиши керакки, у ўзининг физик, кимёвий ҳамда биологик хусусиятлари билан инсон танасига оғирлик қилмасин, аксинча, тез ва осон ҳазм бўлиб, организмни керакли озуқавий моддалар билан таъминласин.Бир зумда тайёр бўладиган овқатлар (фастфуд), газли ичимликлар, ярим тайёр маҳсулотлар, чипс ва кириешкилар, бошқа кўплаб сунъий таъм, ранг ва шакл берилган озуқалардан воз кечинг. Овқатланишда хилма-хил таомларни аралаштириб юбормаслик лозим. Мевалар овқатдан ярим соат аввал, чой ва ичимликлар 1-2 соат кейин истеъмол қилиниши зарур. Кечки 19^{00} дан кейин фақатгина бир оз олма тановвул қилишга ижозат берилади.

3.Зарарли одатлардан воз кечиш. Хўш, зарарли одатлар деганда нима тушинилади? Инсон организми доимо озиқ-овқатни талаб қилади ва ушбу овқат ҳисобидан ўзида энергия жамлайди. Лекин, турмушда шундай нарсалар борки, ўсмирлик даврида организм талаб қилмаса ҳам, унинг ҳар нарсага қизиқувчанлигидан спиртли ичимликлар ичиш, тамаки ва нос чекиш, гиёҳванд моддаларни истеъмол қилиш сингари зарарли одатларга ўрганади. Аввало бу одатларни уни ўзлаштирган шахс бошқарса, вақт ўтиши билан зарарли одатлар шартли равишда уни бошқаради.Яъни инсон ўзи-ўзини бошқариш қобилиятидан маҳрум бўлади.

Зарарли одатлардан энг оммалашгани тамаки чекиш бўлиб, тамаки таркибидаги заҳарли модда никотин ҳисобланади, у инсон ўпкаси учун ниҳоятда зараралидир. Бундан ташқари тамаки тутунида оз миқдорда бўлса ҳам синил кислотаси, углерод гази, углекислота ҳамда олтингугурт гази, аммиак, азот, эфир мойлари бўлади. Бу моддалар ҳам киши организмига ёмон таъсир этади. Маълумотларга қараганда ўпка раки билан оғриган беморларнинг 99 фоизини чекувчилар ташкил этади. Чекувчиларнинг йўталиши уларнинг ўпкасида тамаки тутуни билан кирган заҳарли моддаларнинг борлигини кўрсатувчи ҳолатдир.

Зарарли одатлардан яна бири - спиртли ичкиликлар истеъмол қилиш бўлиб, спиртли ичимликни истеъмол қилиш - саломатлик офати. Бунинг энг ёмон жиҳати - узлуксиз ичиш натижасида организм унга ўрганади, киши ичмасдан тура олмайдиган бўлиб қолади. Мунтазам равишда ичишга ўрганиш оқибатида эса, организм қаттиқ заҳарланади ва киши ичкиликбозлик касаллигига дучор бўлади.

Зарарли одатлардан яна бири - гиёҳвандлик аср вабоси сифатида тез ва кенг миқёсда тарқалмоқда. Наркомания хатарли руҳий касаллик ҳисобланади. У одамни ҳалокатга етаклайди. Марказий асаб тизими кимё аралашмалар (марихуна, героин, кўкнори ва ҳоказолар) ёрдамида қўзғатиш уйғотиб, сархушликни ҳосил қилади. Бироқ бунинг оқибатида

асаб тизимининг фаолияти бузилади. Азиз ёшлар организмимизнинг асосий душманларидан бўлмиш тамаки ва алкогол маҳсулотлари, гиёҳвандлик, ҳамда турли зарарли одатлардан воз кечиш орқали соғлом турмуш тарзига кенг йўл очинг. Ҳар бир чекилмаган сигарет, ичилмаган ҳар бир стакан спиртли ичимлик ва қабул қилинмаган гиёҳванд моддаси сизнинг соғлом ҳаёт кечириш сари ташлаган муҳим қадамингиздир.

4. Кун тартиби. Кун тартибига қатъий риоя этинг. Кун тартиби деганимизда, уйқудан туриш, эрталабки бадантарбия машқлари, эрталабки гигиеник тадбирлар, нонушта, уй ишлари, ўқиш, тушлик, ҳордиқ чиқариш, бўш вақт, кечки овқат, кечки гигиеник тадбирлар, уйқуга ётиш тушунилади. Талабаларда кун тартибини тўғри шакллантириш вақтни тўғри тақсимлашга,тартибли бўлишга ўргатади. Кун тартиби инсон шахсий гигиенасининг асосий таркибий қисми бўлиб,у тўғри овқатланиш,дам олиш,таълим олиш каби қатор таркибий қисмларни ўз ичига олади.Биринчи навбатда — 8 соатлик уйқу! Иккинчидан, куннинг бир вақтида ухлаш ва муайян вақтида уйғонишга одатланиш! Уйқунинг бузилиши аста-секинлик билан инсон руҳияти, ҳиссиётларига зиён етказади, ишчанлик кайфиятини йўқотади, кейинчалик турли сурункали, жиддий хасталикларнинг ривожланишига сабаб бўлиши мумкин [3].

5. Ижобий кайфият. Соғлом турмуш тарзининг яна бир муҳим қоидаси — ёркин ва ижобий кайфият ҳисобланади! Умумий саломатлик сингари руҳий саломатлик ҳам одам организмининг атроф муҳитнинг доимий ўзгариб борувчи шароитига муттасил мослашиш имкониятидир. Руҳий осойишталикни асосий омилларидан бири кун тартибига қатъий амал қилиш. Ҳаётдан кўпроқ завқ олинг, келиши мумкин бўлган ҳар қандай муваффақиятсизлик, омадсизликларга кўп ҳам эътибор қаратманг, доимо олға интилиш учун ўзингизда куч топа билинг ва одамларга нисбатан ғараз, гина-қудурат, ёмон гумонлар сақлаб юрманг, кечиримли, бағрикенг бўлинг. Нодонлар билан асло тенглаша кўрманг!

6. Тоза ҳаво. Турар жойингиз, ётоқхона ва иш хонангизни доимо тоза тутинг, ҳар куни уни артиб-тозаланг, деразаларни очиб, тоза ҳаво киришини таъминланг. Инсон ҳаёти унинг атрофини ўраб турган ҳаво муҳитида ўтади. Умуман ҳаво муҳити организмда кузатиладиган физиологик жараёнларнинг меъёрда кечишини таъминлайди. Нормал жисмоний ҳолатда бўлиш учун албатта чуқур ва тўғри нафас олишни билиш лозим. Табиат қўйнида дарахтлар кўп ўсган жойларда сайр қилиш, уйингиз дераза - ойналарини маълум муддат очиб қўйиш, томорқа ёки очиқ ҳавода кўпроқ жисмоний меҳнат қилиш керак.

7. Шахсий гигиена. Гигиена термини юнонча «Хийгиеноз»-сўзидан олинган бўлиб, шифобахш, сиҳат-саломатлик келтирувчи маъносини англатади. Шахсий гигиена ҳар бир кишининг ўзига ва ёшига боғлиқ бўлиб, ақлий ва жисмоний меҳнатни тўғри йўлга қўйиш, жисмоний тарбия билан шуғулланиш, вақтида овқатланиш, мириқиб ухлаш, меҳнат ва дам олишни тўғри уюштиришдан иборат. Тор маънода бадан (тери, соч, тирноқ, тишлар), кийимкечак, пойабзал, кўрпатўшак, турар жой, овқат тайёрлаш гигиенаси ҳам шахсий гигиенага киради. Овқатланишдан аввал ва кейин албатта қўлларни ювиш, уйқудан олдин ва овқатлангандан кейин тишларни тозалаш, тоза кийим, умуман, тозаликка қатъий риоя этиш соғлом турмуш тарзининг асосий шартларидан ҳисобланади десак хато қилмаган бўламиз.

Соғлом турмуш тарзи, бу - ҳар қандай касалликлар профилактикаси ва саломатлик, куч-қувват гаровидир. У инсоннинг турли қирраларини ривожлантириш, муваффақиятга эришиш гаровидир.Соғлом турмуш тарзи қоидаларига риоя этган одам оиласи, меҳнат жамоаси, умуман, жамиятда ўз ўрнига эга бўлади, турли мураккаб вазиятларни енгиб ўтиш, ҳаёт қийинчиликлари олдида ўзини йўқотмасликка ўрганади [4].

Ҳар қандай шароитда ҳам доимо кўп ҳаракатли бўлишга интилинг, серҳаракатлилик организмни табиий равишда рағбатлантириб туради. Шунинг учун серғайрат, тиниб-тинчимайдиган одамлар доимо тетик, бардам, кексайганларида ҳам бақувват ва шижоатли бўлади.Афсуски, ҳозирги урбанизация шароитида кенг жамоатчилик ва ёшларимиз ўртасида жисмоний фаолик сезиларли камайганлиги кўзга ташланмоқда. Шу боис жамиятда соғлом турмуш тарзини шакллантириш, камҳаракатлиликка қарши оммавий курашиш, инсонларнинг юксак жисмоний ва ақлий иш қобилиятини муҳофаза этиш, аҳоли кенг қатламлари, айниқса,

ёшларни спорт билан шуғулланишга жалб қилиш тобора долзарблик касб этмоқда. Яна бир гап! Соғлом турмуш тарзи қоидалари бир-бирини қўллаб-қувватлайди, бири иккинчисиз содир бўлиши амримаҳол. Ҳар биримиз ўз саломатлигимизга ўзимиз масъул эканлигимизни унутмаслигимиз лозим. Бунинг учун ўзимизни яхши кўришга ўрганишимиз зарур. Бу тўғри овқатланиш, яъни фаст-фуд, таркибида ёғ, шакар миқдори кўп бўлган озиқ-овқат маҳсулотларидан чекланиш, зарарли одатларга берилмаслик, доимий жисмоний фаол бўлиш, албатта, кун тартибига риоя қилиш, меъёрида ухлаш ва дам олиш қоидаларига риоя қилишни талаб этади. Уларни эртага қолдирмасдан, ҳозироқ амалга оширишни бошлаш билан соғлом ва бахтли ҳаёт сари илк қадамларимизни ташлаган бўламиз.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Каримов И. А. Баркамол авлод орзуси. - Т.: Шарқ, 1998. - 134 б.
2. Вайнбаум Я.С. Жисмоний тарбия гигиенаси. - Т.: Ўқитувчи, 1988. - 287 б.
3. Алимардонова О., Назаров Қ. Ҳаёт ва турмуш одоби. - Т.: Шарқ, 1996.- 121 б.
4. Исабаева М. Одам ва унинг саломатлиги дарсларида соғлом турмуш тарзи кўникмаларини таркиб топтириш йўллари. - Т.: Халқ таълими. 2008. - 69 б.

УЎК 37.02

ҚАРШИ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ТАДБИРЛАРИ ВА УЛАРНИНГ НАТИЖАЛАРИ

Д.Шодиева, таянч докторант, Қарши Давлат Университети, Қарши

Аннотация. *Мазкур мақолада Ўзбекистон жанубидаги асосий олий таълим муассасаларидан бири ҳисобланган Қарши давлат университетида жисмоний тарбия ва спортни ривожлантириш тадбирлари ва уларнинг натижалари ҳақида сўз боради.*

Калит сўзлар: *Ўзбекистон, Қарши давлат университети, жисмоний тарбия, спорт, соғлом турмуш тарзи, жаҳон чемпиони, олимпиада ўйинлари*

Аннотация. *В данной статье рассказывается о мероприятиях по развитию физической культуры и спорта и их результатах в Каршинском государственном университете, который является одним из основных высших учебных заведений юга Узбекистана.*

Ключевые слова: *Узбекистан, Каршинский государственный университет, физическое воспитание, спорт, здоровый образ жизни, чемпион мира, Олимпийские игры.*

Abstract. *This article describes the activities for the development of physical culture and sports and their results at Karshi State University, which is one of the main higher educational institutions in the south of Uzbekistan.*

Key words: *Uzbekistan, Karshi State University, physical education, sports, healthy lifestyle, world champion, Olympic Games.*

Ўзбекистонда соғлом турмуш тарзини қарор топтириш ва баркамол авлод тарбиясида таълим муассасалари ўқувчилари ва талабалари ўртасида спортни тарғиб этиш энг долзарб масалалар қаторидан жой олди. Хусусан, олий таълим муассасаларида талабаларнинг спорт билан мунтазам шуғулланиши учун шарт-шароитлар яратиш, спортчиларни қўллаб-қувватлаш ва рағбатлантириш борасида қатъий чора-тадбирлар амалга оширилди. Бу борада 1992 йил 14 январда Ўзбекистон Республикасининг "Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида"ги Қонуни қабул қилиниши муҳим аҳамиятга эга бўлди[1]. 2000 йил 26 майда "Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида"ги қонунининг иккинчи янги таҳрири, 2015 йил 5 сентабрда эса Қонуннинг учинчи янги таҳрири қабул қилинди[2].

Ўзбекистонда 1991-1997 йиллар жисмоний тарбия ва спорт соҳасини йўлга қўйиш бўйича чора-табдирлар ишлаб чиқиш ва уларни амалиётга жорий этиш билан характерланади. Бу даврда, айниқса, хотин-қизлар спортига эътибор кам бўлди. Масалан, олий таълим муассасаларида талаба қизларнинг деярли 60 фоизи спорт билан шуғулланмади[3].

Мустақиллик йилларида Қарши давлат университетида ҳам жисмоний тарбия ва спортни ривожлантириш борасида амалга оширилган ишлар натижасида талабалари орасида кўплаб

Осиё ва жаҳон чемпионлари етишиб чиқди. Университетнинг Жисмоний маданият факультетида 4 та кафедра, яъни спорт асослари, жисмоний маданият назарияси, жисмоний тарбия ва тиббиёт асослари кафедралари фаолият кўрсатди. Уларда 34 нафар профессор-ўқитувчи бўлиб, улардан 1 нафари профессор, 6 нафари доцент, 28 нафари катта ўқитувчи ва ўқитувчи сифатида фаолият кўрсатди. Кафедраларни профессор Баҳодир Аминов, доцентлардан Мурод Бердиев, Исо Вардиашвили, Тоштемир Арслоновлар бошқарди. Факультет талабаларига ўзбек кураши бўйича икки марта жаҳон чемпиони Баҳром Авазовдек устозлар таълим берди. Университетда спортнинг дзю-до, яккама-якка кураши, катта теннис, футбол, волейбол, қўл тўпларидан спорт секциялари ташкил этилди. Қарши давлат университетида футбол ўйингоҳи, баскетбол, қўл тўпи майдончаси, теннис корти, кураш, гимнастика, спорт ўйинлари зали фаолият кўрсатди[4].

Факультетда дзю-до кураши бўйича халқаро спорт устаси, олимпиада ўйинлари иштирокчиси Алишер Мухторовдек спортчилар тарбияланди. У 1996 йили Атлантада ўтказилган, 2000 йили Сиднейда ўтказилган олимпиада ўйинларида иштирок этди. Бундан ташқари у бир неча бор республика чемпиони, нуфузли халқаро турнирлар ғолиби ва совриндори бўлди. Шунингдек, факультетда Моҳира Нуралиева ҳам таълим олиб, у 1996 йили Амир Темур таввалудининг 660 йиллигига бағишлаб ўтказилган миллий курашда халқаро турнир ғолиби, Ўзбекистон Республикаси Президенти совринининг соҳиби, 2001 йилда самбо бўйича (Тошкент) Осиё чемпиони бўлди. Баҳром Авазов эса 2000 йилда Анталияда жаҳон чемпиони бўлди. Бундан ташқари бир неча бор республика турнир мусобақалари иштирокчиси ва совриндори ака-ука Ислом ва Фурқат Кенжаевлар, олий тоифа футбол жамоасида тўп сурган И.Волков, А.Казанцев, А.Бейнарович, И.Мардонов кабилар ҳам айнан шу факультетда таълим олди. Факультетда 2001 йил сентябрида "Кураш маркази" очилди[5]. Факультетининг талабаси София Каспулатова спортнинг каратэ-до (якка кураш) тури бўйича 1999 йилда Осиё чемпиони ва 2003 йилда жаҳон чемпионати мусобақаларида кумуш медал совриндори бўлди[6].

Каратэ бўйича жаҳон чемпионлари Ноил Каспулатов ва София Каспулатова, Луция Байбулатова, миллий кураш бўйича Осиё чемпиони Моҳира Нуралиева, жаҳон биринчилиги иштирокчилари Дилфуза Абдураҳмонова, Динара Абдураҳмонова, Динара Донаева, Соҳиба Эштемировалар ҳам Қарши давлат университетида таълим олди. Университетдаги жисмоний тарбия кафедраси ўқитувчилари "Универсиада" спорт мусобақалари дастуридан ўрин олган волейбол (ўғил-қиз), футбол, шахмат-шашка (ўғил-қиз), стол тенниси (ўғил-қиз), шунингдек, дзю-до, миллий кураш спорт турларидан машғулотларни мунтазам олиб борди. Ушбу спорт тўгаракларида шуғулланган талабалар университет шарафини шаҳар, вилоят ва республика миқёсида ҳимоя қилди[7].

2000 йил 22 – 25 июнь кунлари Тошкент шаҳрида спортнинг дзюдо тури бўйича хотин-қизлар ўртасида Ўзбекистон чемпионати бўлиб ўтди. Унда Қарши давлат университети талабалари Д.Абдураҳимова, Д.Тўрақулова, З. Жўраевалар иштирок этиб, совриндорлар қаторидан жой олди[8].

ЎзР Вазирлар Маҳкамасининг 2003 йил 6 июндаги "Ўқувчи ва талаба ёшларни спортга жалб қилишга қаратилган узлуксиз спорт мусобақалари тизимини ташкил этиш тўғрисида"ги қарори[9], 2003йил 4 ноябрда "Оммавий спорт тарғиботини янада кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги қарорларининг қабул қилиниши[10] бошқа таълим босқичлари қатори олий таълим муассасалари бўйича талабаларининг "Универсиада" спорт мусобақаларини ташкил этишда муҳим аҳамиятга эга бўлди. "Универсиада" ўйинлари 2000 йил Наманганда, 2002 йил Бухорода, 2004 йил Самарқандда, 2007 йил Тошкентда, 2010 йил Андижонда, 2013 йил Бухорода, 2016 йил Фарғонада бўлиб ўтди[11].

2005 йил июнь ойида Макаода каратэ бўйича ўтказилган навбатдаги Осиё чемпионатида мамлакатимиз терма жамоаси муваффақиятли қатнашди. 37 давлатдан юзлаб спортчилар билан бўлган беллашувларда ватандошларимиз еттита медални қўлга киритди. Жамоа таркибида, айниқса Қарши давлат университети талабаси София Каспулатова муваффақиятли қатнашиб, дастлаб ўз вазнида, кейинчалик мутлақ вазнда унга қитъамизда тенг келадиган

спортчи топилмади. Ҳатто каратэ ватани ҳисобланган Япония вакиллари ҳам Софиянинг маҳоратига тан берди. Хорижий мутахассисларнинг фикрича, Софиянинг каратэ усулини бажариш бўйича қўллаган усулини бошқаларга дарс сифатида фойдаланиш мумкин. Шунинг учун унинг машқлари мутахассислар томонидан видеотасмаларга ёзиб олинди[12].

Мамлакатимизда спортга эътибор таълим тизимига эътиборнинг ажралмас бир қисмига айланди. Спортни янада ривожлантириш учун, албатта, унинг моддий-техник базасини мунтазам равишда мустаҳкамлаб бориш талаб қилинади. Қарши давлат университетида 2013 йил 2 апрелда "Яккабоғ қўрғони" инженерия компанияси томонидан лойиҳа сметаси 2564,8 млн сўмдан иборат қурилиши режалаштирилган янги спорт зали биносини бунёд этиш ишлари бошланди. Спорт мажмуаси 44 млн сўмлик турли хил замонавий спорт анжомлари билан жиҳозланди. Унда кураш, гимнастика, волейбол, баскетбол, шахмат-шашка, стол тенниси каби бир қатор университет, вилоят ва республика миқёсидаги спорт мусобақаларини ташкил қилиш имкони яратилди[13].

2014 йилда Қарши давлат университети талабалари Мафтуна Самадова каратэ бўйича Тошкент шаҳрида бўлиб ўтган Осиё чемпионатида олтин медал, Дилноза Ғаниева Малайзиядаги Осиё кубоги мусобақасида 2 та олтин медал эгаси бўлди. Луиза Ғаниева эса Исроилда бадиий гимнастика бўйича ўтказилган халқаро турнирда мамлакат терма жамоаси таркибида учинчи ўринни эгаллади, Латвиядаги гран-при турнирида эса олтин ва кумуш медаллар соҳибаси бўлди[14].

2015 йилнинг 4 апрель куни вилоят олий ўқув таълим муассасалари ўртасида спортнинг футбол тури бўйича "Камолот" кубоги учун мусобақа ўтказилди, мусобақада Қарши давлат университети жамоаси ғолибликни қўлга киритиб 16-17 апрель кунлари Бухоро шаҳрида ўтказиладиган минтақавий босқичида иштирок этиш ҳуқуқини қўлга киритди[15].

Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан илгари сурилган "Беш муҳим ташаббус"нинг спортга йўналтирилган иккинчи қисми ижросини таъминлаш мақсадида университетда доимий тадбирлар олиб борилди. Талабалар турар жойларида спортнинг стол тенниси бўйича мусобақалар тез-тез ўтказиб турилди[16].

Хуллас, мустақиллик йилларида Қарши давлат университети талаба ёшлари ва устоз-мураббийлари ҳам вилоят, республика ҳамда халқаро мусобақаларда миллий терма жамоа сафларида муваффақиятли иштирок этиб келди. Университет вилоят миқёсида спортчилар тайёрловчи ўзига хос марказга айланди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. ЎзР Олий Кенгашининг Ахборотномаси, "Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида"ги Қонуни, 1992 й.,№3,160 модда;

2. Олимпия билим асослари. – Т., 2000. – Б.139.

3. Азимов Ҳ.Г., Собитов Ш.С. Спорт физиологияси. – Тошкент, 1993. – Б.43.

4. Қарши Давлат Университети жорий архиви материаллари.

5. Қарши давлат университети жорий архиви материаллари.

6. Содиқов Т., Расулов Т., Бегматова Н. Университет тарихидан лавҳалар (I қисм). – Қарши, 2013.– Б.35–45.

7. Эгамов Н. Жануб жавоҳири. –Қарши, 2017. – Б.113.

8. Ўз МА, М-1- фонд, 1-рўйхат,686-иш, 51-варақ.

9. Ўқувчи ва талаба ёшларни спортга жалб қилишга қаратилган узлуксиз спорт мусобақалари тизимини ташкил этиш тўғрисида"ги Ўз Р Вазирлар Маҳкамасининг Қарори. 06.06.2003

10. Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами, 2003 йил 21-сон.

11. Фарғона давлат университети. 1-китоб. Тарих ва юксалиш йиллари. (Масъул муҳарир Х.Ш.Ташматов) –Фарғона, 2015.–Б.90 – 98 .

12. Аликулов А. София Японияни лол қолдирди // Қашқадарё ёшлар спорти, 2005 йил 17 июнь.

13. Авазназоров О.Университетнинг янги спорт мажмуаси // Қарши университети, 2013 йил 26 ноябрь

14. Абдураззоқ Даврон. Рақамлар, натижалар, ғалабалар // Қашқадарё ёшлар спорти, 2015 йил 19 феврал.

15. Қарши давлат университети газетаси, 2015 май

16. Qarshi universiteti, 2020 yanvar.

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР АКАДЕМИЯСИ
МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ

ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ АХБОРОТНОМАСИ

№2/3 (98)
2023 й., февраль

Ўзбекча матн муҳаррири:	Рўзметов Дилшод
Русча матн муҳаррири:	Ҳасанов Шодлик
Инглизча матн муҳаррири:	Мадаминов Руслан, Ламерс Жон
Мусаҳҳиҳ:	Ўрозбоев Абдулла
Техник муҳаррир:	Шомуродов Журъат

“Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси” Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги Хоразм вилоят бошқармасида рўйхатдан ўтган. Гувохнома № 13-023

Теришга берилди: 06.02.2023
Босишга рухсат этилди: 14.02.2023.
Қоғоз бичими: 60x84 1/8. Адади 70.
Ҳажми 12,3 б.т. Буюртма: № 2-Т

Хоразм Маъмун академияси ноширлик бўлими
220900, Хива, Марказ-1
Тел/факс: (0 362) 226-20-28
E-mail: mamun-axborotnoma@academy.uz
xma_axborotnomasi@mail.ru
(+998) 97-458-28-18